

JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI

R.H. Shodiyev, E.R. Mahmudov

JAHON IQTISODIYOTI

Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2005

Ushbu darslik O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta
maxsus ta’lim vazirligi qoshidagi Respublika
muvoofiqlashtiruvchi kengash tomonidan tasdiqlangan va
nashr uchun tavsiya etilgan.

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor **R.S.Qosimov**
umumiy tahriri ostida.

SH-m 0604000000-97 qat’iy buyurtma 2005
M352 (04)-2005

© **R.H.Shodiyev, E.R.Mahmudov,**
G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005 yil.

ISBN 5-635-02297-9

SO‘Z BOSHI

Insoniyat XXI asrga qadam qo‘ydi. O‘tgan asrning oxirida xalqlarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma‘naviy-ma‘rifiy hayotida yuz bergan jiddiy voqea-hodisalar dunyo qiyofasini tubdan o‘zgartirib yubordi. Jahon tarixida yangi davr boshlandi. Bu davrning o‘ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, davlatlar, xalqlar orasida yaqinlashuv, hamkorlik aloqalari tobora kuchayib, yaxlit siyosyy, iqtisodiy makonlar va ittifoqlar vujudga kelib, yagona xalqaro me’yorlar, qoidalar, andozalarga o‘tish jarayonlari yuz bermoqda. Bugungi kunda umuminsoniyat sivilizatsiyasining istiqbollari jahon xo‘jalik tizimining samarali faoliyat ko‘rsatishiga bog‘liq bo‘lib qoldi.

“Yer kurrasining oltidan bir qismida tub islohotlar davom etmoqda. Bu esa yangi tuzilgan mustaqil davlatlarda davlat qurilishi va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar o‘tkazish muammolari mintaqalarning doiralaridan tashqari chiqib, haqli ravishda umumjahon tusini olganidan yaqqol dalolat beradi”.¹

Endilikda bozor iqtisodiga asoslangan jamiyat qurish barcha xalqlar hamda davlatlarning muqarrar yo‘li bo‘lib qoldi. O‘z mohiyat e’tibori bilan bozor internatsional bo‘lib, milliy hudud va chegaralarni tan olmaydi. Bozor iqtisodining internatsional mohiyati xalqaro mehnat taqsimoti asosida mamlakatlar o‘rtasida tashqi iqtisodiy aloqalar qaror topishidan, bozor xo‘jaligining rivojlanishiga omil bo‘luvchi iqtisodiy qonuniyatlardan kelib chiqadi.

O‘tish davri iqtisodiga xos mamlakatlar qaytib kirishi muqarrar bo‘lgan jahon bozori tobora ko‘proq integratsiyaga yuz tutmoqda. Keyingi o‘n besh yil ichida jahon savdosi umumjahon ishlab chiqarishiga nisbatan ancha ildamroq rivojlanishi buning dalilidir. Shuni ham ta’kidlash joizki, keyingi yillar mobaynida rivojlanayotgan mamlakatlardagi bevosita chet el investitsiyalari miqdori olti baravar ko‘payib, ularning iqtisodiyoti dunyoga ko‘proq yuz tutib, ochiq tusga kira boshladi, buning natijasida ular jahon xo‘jalik tizimida tobora faolroq ishtirok etib, yalpi ichki mahsulotlaridagi eksport va import salmog‘i bundan o‘n yil avval 33 foizni tashkil etgan bo‘lsa, bugunga kelib 43 foizga ko‘tarildi.

Uzoq yillar davom etgan yakkalanishlardan so‘ng o‘tish davriga xos mamlakatlar iqtisodi xalqaro integratsiyadan ko‘proq naf olishlari mumkin, chunki jahon xo‘jaligiga integratsiyalashuv ichki bozorni erkinlashtirishdan kelib chiqadigan iqtisodiy samaralardan bir necha baravar foydaliroqdir.

Shunga ko‘ra, o‘tish davrida o‘z qobig‘iga burkanib yashab bo‘lmaslikni tushunishning o‘zi kifoya qilmay, hayotning yangidan-yangi voqeliklariga javob beradigan yaratuvchanlik tafakkuri puxta rejalgarda asoslangan tafakkurni talab etadi. Turli darajadagi iqtisodiy tizimlar o‘rtasida o‘zaro hamkorlik bir-biri bilan chambarchas bog‘lanib ketayotgan dunyo uchun eng muhim muammodir. Bu tizimlar nafaqat o‘zining taraqqiyot darajasi bilan, balki jahon mehnat taqsimoti va jahon xo‘jaligiga qay darajada jalb qilinganligi bilan ham ajralib turadi. Milliy iqtisodiy tizimlarni jahon xo‘jaligiga tezroq jalb etish ehtiyojlari XXI asr boshi uchun xos bo‘lgan umumiyligini qonuniyatdir.

Aslini olganda O‘zbekiston mustaqil davlat sifatida endi-endi jahon sahniga chiqib kelmokda. Ochiq iqtisodga o‘tish siyosati O‘zbekiston uchun bozor iqtisodiga o‘tish jarayonining ajralmas bir qismi bo‘lib qoladi.

Mustaqillik yillarda ochiq iqtisod poydevorini barpo etish uchun zarur bo‘lgan siyosiy, huquqiy, tashkiliy zaminlar yaratildi. Tashqi faoliyat sohasidagi milliy iqtisodiy yo‘l-yo‘riqlar jahon tajribasini hisobga olgan holda ishlab chiqildi. Jahon tajribasi esa shundan dalolat beradiki, har tomonlama rivojlanishni istagan har qanday davlat muayyan tamoyillarga amal qilmog‘i shart. O‘zbekiston ham o‘z navbatida tashqi siyosatining asosiy tamoyillarini shakllantirib oldi.

Ushbu tamoyillarning mohiyati avvalo shundan iboratki, O‘zbekiston o‘zining tashqi siyosatida teng huquqlilik.

¹ Karimov I. O‘zbekiston buyuk kelajak sari, T., “O‘zbekiston”, 1998, 69-bet.

Xalqaro iqtisodiy ittifoqlar doirasidagi hamkorlikni kengaytirish, o'zaro manfaatdorlik aloqalarini o'rnatish shartlariga amal qiladi. Respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonida mustaqillikning o'n uch yili ichida makroiqtisodiy vaziyat barqarorlashdi, 1997 yildan boshlab mamlakatda nafaqat yalpi ichki mahsulotning umumiy hajmi bo'yicha, balki uning aholi jon boshiga taqsimoti bo'yicha ham iqtisodiy o'sishga erishilmoqda, iqtisodning salmoqli bo'g'inlarida jiddiy tarkibiy o'zgarishlar ro'y bermoqda.

Shuning bilan birga, mamlakat ichki bozorining nisbatan torligini hamda eksport masalasi jahon bozorida xom ashyo mahsulotlari narxining o'zgarib turishiga bog'liq ekanligini nazarda tutgan holda, import tovarlari o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishga e'tibor berish siyosatidan ko'proq eksportni kengaytirish siyosatiga o'tishni taqozo qiladi. Iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish muammolari O'zbekiston jahon bozorida faqat xom ashyo emas, balki tayyor mahsulotlar eksport qiluvchi mamlakat sifatida ham namoyon bo'lishi bilan chambarchas bog'langan.

Buning uchun vaqt hamda tashqi iqtisodiy munosabatlarni olib borishda ko'nikma talab etiladi. Chet ellik sheriklarning ishonchini qozonish uchun tashqi bozorda mohirona ishlay bilish, tashqi iqtisodiy siyosat qonun-qoidalariga so'zsiz amal qilish lozim bo'ladi.

Tashqi iqtisodiy aloqalarni muvaffaqiyatli olib borish masalasi o'z navbatida davlatning turli ehtiyojlarini qoplash, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni sog'lomlashtirish, uning samaradorligini oshirishda muhim vositalardan biri hisob-lanadi va millat ravnaqini jadallashtiradi, oqibatda davlat kuch-qudratining yuksalishiga, aholi turmush darajasining oshishiga olib keladi.

Tashqi iqtisodiy aloqalarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, tuzilishi, ko'lami sherik mamlakatlardagi, umuman, jahon xo'jaligidagi ishlab chiqarish kuchlari bilan ishlab chiqarish munosabatlarining qay darajada ekanligiga qarab belgilanadi.

Hozirgi zamon jahon iqtisodiyotining qaror topishi, rivojlanishi xalqaro mehnat taqsimoti keng tus olayotganligi, dunyo mamlakatlari moddiy va ma'naviy boyliklarini hamkorlikda ishlab chiqarish jarayoniga tobora ko'proq jalb etilayotganligi bilan bevosita bog'liqidir. Xalqaro miqyosda (shuningdek, alohida bir davlat doirasida) moddiy va ma'naviy boyliklarni ishlab chiqarish, ularning taqsimoti, ayrboshlanishi, iste'moli jahon (yoki mamlakat) iqtisodining asosini tashkil etadi. Umumjahon qayta (takror) ishlab chiqarish jarayonidagi ana shu qayd etilgan bosqichlarning har biri ham umumiy miqyosda, ham alohida mamlakatlar doirasida butun jahon xo'jalik tizimining faoliyatiga bevosita ta'sir qiladi. Takror ishlab chiqarish jarayonining bir butunligini tashkil etuvchi halqalarining mantiqi ham, Umumjahon takror ishlab chiqarish jarayonidagi har bir bosqichning zarralarini o'ziga jo qilgan jahon iqtisodining murakkabligi ham ana shunda.

Takror ishlab chiqarish jarayoni biror mahsulot (yoki xizmat) ishlab chiqarishdan boshlanib, uning taqsimlanishi va iste'mol qilinishi bilan tugallanadi. Demak, tizim sifatida jahon iqtisodiyotining vazifa, maqsadi inson ehtiyojlarini qondirishdan iboratki, bu extiyolar o'z navbatida moddiy ne'matlar, xizmatlarga oshib borayotgan talab hamda takliflarni keltirib chiqaradi.

Shunday ekan, "jahon iqtisodi" yoki "jahon xo'jaligi" deganda nimani tushunish kerak, degan savol tug'iladi.

Aytish kerakki, hozirgi zamon iqtisodiyot adabiyotlarida bu tushuncha turlicha talqin qilinadi. Bular orasida eng ko'p tarqalgani quyidagi ikki talqindir:

1. "Jahon iqtisodi" deganda — xalqaro mehnat taqsimoti, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar tizimi orqali bir-biri bilan o'zaro bog'langan milliy xo'jaliklar yig'indisi tushuniladi.

2. "Jahon iqtisodi" deganda - o'zaro iqtisodiy munosabatlar tizimi, milliy xo'jaliklar o'rtasidagi keng ko'lamli aloqalar nazarda tutiladi. Bu holda, tabiiyki, jahon iqtisodi tizimi moliya va savdo munosabatlari, kapital va ishchi kuchini taqsimlash masalalarini o'z ichiga qamrab oladi.

"Jahon iqtisodi" tushunchasining boshqa talqinlari ham mavjud bo'lib, bularda jahon

xo'jaligining asosiy tarkibiy qismlari, shu jumladan, uning moddiy asosi o'z aksini topgan. Shulardan birida "jahon iqtisodi" tushunchasi ishlab chiqarish kuchlari, ishlab chiqarish munosabatlari hamda muayyan ustqurma munosabatlari darajasida ko'rilib, ushbu iqtisodni tashkil etuvchi milliy xo'jaliklar mazkur uchta darajaning har birida o'zaro qanchalik kelisha olish qobiliyatlariga mos ravishda muttasil qayta ishlab chiqaruvchi iqtisodiy tizim sifatida ta'riflanadi (YU.V. Mishkov, V.K. Lomakin va boshqalarning talqini). Bu talqin garchi to'g'ri va anchagini mukammal bo'lishiga qaramay, u ilmiy jihatdan g'oyat murakkabligi hamda ko'proq nazariyligi bilan oqsaydi.

Demak, jahon iqtisodi deganda, doimiy o'zgarishda va harakatda bo'ladigan, bir-biriga o'zaro ta'sir etuvchi, xalqaro aloqalarga intiluvchi milliy xo'jaliklar yig'indisini tushunish maqsadga muvofiqroqdir. Bu aloqalar obyektiv bozor qonunlari asosida olib borilgani uchun murakkab, qarama-qarshiliklarga xos, lekin yaxlit jahon iqtisodi tizimini tashkil etadi.

Bundan ko'rindaniki, barcha talqinlar ayni paytda "jahon iqtisodi" ma'lum darajada yaxlit bir tizimdan iborat ekanligini tan oladi. Tizimning yaxlitliligi, bir butunliligi uning barcha tarkibiy qismlari milliy va jahon bozorlarida barqaror darajada o'zaro iqtisodiy hamkorlik qilishini nazarda tutadi.

"Jahon iqtisodiyoti" fanining predmeti bozor iqtisodining obyektiv qonunlari asosida o'zaro iqtisodiy aloqalar bilan bog'langan milliy xo'jaliklar yig'indisidan iborat jahon iqtisodiyoti rivojining asosiy jarayonlari, uning tamoyillari va qonuniyatlarini o'rganishdir.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, "Jahon iqtisodiyoti" fani "Xalqaro iqtisodiy munosabatlar", "Davrning global muammolari", "Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti", "Jahon iqtisodiyoti geografiyasi" singari boshqa maxsus fanlar shug'ullanadigan bir qancha masalalarni ham qamrab oluvchi o'quv fanidir. Negaki, "Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar" ixtisosligiga oid barcha mutaxassislik fanlari bir-biri bilan o'zaro bog'lanib, "Jahon iqtisodiyoti" fanidan kelib chiqqan, ma'lum darajada xalqaro iqtisodiy aloqalar va o'zaro munosabatlar tizimining u yoki bu jihatini aks ettiradi.

Masalan, "Xalqaro iqtisodiy munosabatlar" fani turli mamlakatlar milliy iqtisodning xilma-xil xo'jalik aloqalari tizimini o'rganish bilan shug'ullanadi. Biroq iqtisodiy aloqalar mavhum bir narsa emas, ular mamlakat iqtisodining muayyan sohalarida yoxud milliy xo'jaliklar yig'indisining (ya'ni jahon iqtisodiyotining) muayyan sohalarida ishlab chiqarish yoki mahsulot ayriboshlash munosabatlari orqali ro'y beradi. Demak, mamlakat iqtisodi yoki milliy xo'jaliklar yig'indisi bo'lmish jahon iqtisodiyoti ana shu iqtisodiy munosabatlar yuzaga keluvchi asosdir. Shunga ko'ra, garchi bu fanlar mustaqil hisoblanib, ayni bir paytda tadqiqotlar sohasida bir-birini to'ldirib tursa-da, mazkur ikki fan shug'ullanadigan qator masalalar o'zaro qo'shilib ketgan.

Masalaning boshqa bir tomoni ham bor. Jahon iqtisodiyoti, xalqaro iqtisodiy munosabatlar yoki tashqi iqtisodiy aloqalarning biror amaliy jihatlari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar xilma-xil va ayni paytda o'zaro bog'langan, biri ikkinchisini to'ldirib turadigan masalalarga duch kelishadiki, bu narsa har ikkala fanning bir butunligidan, mushtarak ekanidan dalolat beradi. Shunga ko'ra. ularni izchil o'rganishlik xalqaro iqtisod masalalarini puxta o'zlashtirib olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabalar va o'qituvchilar uchun taqdim etilayotgan ushbu darslik "jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar" mutaxassisligi bo'yicha Davlat ta'lim standartiga muvofiq tarzda jahon iqtisodining asosiy masalalarini qamrab olgan. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot oliy o'quv yurtlari o'quv dasturlarida ko'zdautilganidek, ushbu fan umumta'lim fanlari majmuasiga kiradi.

Ushbu nashrda ko'zga utilgan va taxlil etilgan masalalar O'zbekistonda hamda chet ellarda olib borilgan tadqiqotlar natijasi va dalillariga suyangan. Unda jahon iqtisodining eng muhim nazariy va amaliy jihatlarini mantiqiy izchillik bilan yoritib berishga harakat qilingan. Ana shu maqsaddan kelib chiqqan holda darslar bayoni ham moslashtirilgan, har bir mavzu bo'yicha adabiyotlar ro'yxati berilgan, amaliy mashg'ulotlarning asosiy masalalari bo'yicha mavzu doiralari belgilangan. Mazkur kurs jahon iqtisodiy taraqqiyotining asosiy jarayonlari, tamoyil va qonuniyatlarini, ularning o'ziga xos xususiyatlarini anglab yetishga yordam beradiki,

bu xalqaro iqtisodiy aloqalar va xalqaro bozor munosabatlari rivojlanib borayotgan hozirgi kunda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur darslikda jahon xo'jaligiga bevosita aloqador bo'lgan 19 mavzu quyidagi uchta asosiy guruhgaga bo'linadi:

1. Bozor iqtisodi rivojlangan mamlakatlar.
2. Rivojlanayotgan mamlakatlar.
3. Iqtisodiy o'tish davriga xos mamlakatlar.

Darslikdan amalda yana ham samaraliroq foydalanish maqsadida, uning oxirgi qismida xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning faoliyati, ularning O'zbekiston bilan aloqalariga bag'ishlangan ma'lumotlar ilova qilingan. Zero, "Jahon iqtisodiyoti" darsligi O'zbekistonda iqtisodiyotning ushbu sohasidagi adabiyotlarning to'ng'ichidir. Ishonchimiz komilki, ushbu darslikni yanada takomillashtirish yuzasidan bildiriladigan fikr-mulohazalar uning mukammallashuviga omil bo'ladi. Bildirilgan taklif va mulohazalar uchun mualliflar oldindan o'z minnatdorchiliklarini izhor etadilar.

R.S.QOSIMOV,
iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

I BO'LIM

BOZOR IQTISODI RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR

1-BOB

JAHON IQTISODI RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, ASOSIY BOSQICHLARI VA TAMOYILLARI

Xalqaro mehnat taqsimoti jahon xo'jaligining moddiy asosi sifatida.

Milliy xo'jaliklarni yagona jahon xo'jaligiga birlashuvining asosi **xalqaro mehnat taqsimoti** (XMT) bo'lib, u mamlakatlar o'zaro ayrboshlaydigan mahsulot turlari bo'yicha ixtisoslashuvini nazarda tutadi.

Xalqaro mehnat taqsimoti - bu xalqaro miqyosda mahsulotlar, xizmat turlari va buyumlarni ayrboshlash, dunyodagi barcha mamlakatlar o'rtasida ishlab chiqarish, fan-texnika, savdo va bo'lak sohalarda hamkorlikni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan obyektiv asosdir.

Raqobatchilik kurashi jarayonida mamlakatlar o'rtasida xalqaro mehnat taqsimoti tizimi yuzaga keldiki, u biror bir mamlakatning ichki ehtiyojlaridan tashqari xalqaro bozorni ham ko'zlab, barqaror mahsulot va xizmat turlarini ishlab chiqarish tarzida namoyon bo'lib, xalqaro miqyosda ixtisoslashuvga asoslangan ishlab chiqarishning ayrim bosqichlari o'rtasida yoki xalqaro miqyosda ishlab chiqarish bilan iste'mol o'rtasida makon nuqtai nazaridan uzilish mavjud bo'lishini taqozo etadi.

Hozirgi paytda XMTning asosiy shakllari quydagilardan iborat: qisman taqsimot (tarmoqlar va kichik tarmoqlar o'rtasida); mahsulot birligi bo'yicha (tarmoqlar va kichik tarmoqlar ichida) yoki mahsulot, qismlar va texnologiya bo'yicha taqsimot.

Har qanday mamlakatning jahon xo'jaligida, XMTda hamda xo'jalik hayotining internatsionallashuvida tutgan o'rni va ahamiyati ko'pgina omillar bilan bog'liq. Biroq bularning ichida eng asosiyllari quydagilardan iborat: milliy iqtisodiyotning taraqqiyot darajasi, o'sish sur'ati, uning qay darajada ochiqligi, XMTga qanday jalb etilganligi, tashqi iqtisodiy aloqalar (TIA) nechog'lik ilgorligi, rivoj topganligi, milliy iqtisodiyotning xalqaro xo'jalik hayotiga qanchalik moslasha olishi.

Mamlakatlar o'rtasidagi savdo aloqalari XMT ta'siri natijasida tobora murakkablashib, jahon xo'jalik aloqalarining bir butun tizimiga aylanib bormoqda. Bunda savdo o'z mohiyatiga ko'ra hamon yetakchi o'rinni egallab kelayotgan bo'lsa-da, o'z ahamiyatini asta-sekin yo'qotib qo'ymokda. Juhon xo'jaligining tashqi iqtisodiy sohasi murakkab ko'rinishga ega. U xalqaro savdoni, ishlab chiqarishda xalqaro ixtisoslashuv, birlashuv (kooperatsiya)ni, fan-texnika sohasida hamkorlikni, xalqaro shartlar asosida qo'shma korxonalar qurish, keyinchalik bulardan foydalanishni, xalqaro xo'jalik tashkilotlari, turli xizmat turlari va boshqa ko'pgina faoliyatlarni nazarda tutadi.

Faqat taraqqiyot darajasi bilangina emas, balki XMTga, jahon xo'jaligiga qay darajada qo'shilganligi bilan ham farqlanuvchi turli saviyadagi tuzilmalarning o'zaro hamkorlik masalasi bir-biri bilan tobora ko'proq bog'lanib ketayotgan mamlakatlar uchun eng dolzarb muammo bo'lib turibdi. Davr integratsiyani, integratsiya bo'lganda ham keng miqyosdagi – kapitallar, ishlab chiqarishlar, mehnat integratsiyasini taqozo etmoqda.

Xalqaro mehnat taqsimoti, ishlab chiqarishda xalqaro ixtisoslashuv, birlashuv (kooperatsiya) (IXIK) — bular o'zaro chambarchas bog'langan hamda bir-birini nazarda tutadigan ijtimoiy hodisalar bo'lib, murakkab va qarama-qarshi mohiyatga egadir. XMT asosan shu shaklda namoyon bo'ladigan xalqaro kooperativlashuvdan farqli o'laroq, yana ham kengroq iqtisodiy mezon hisoblanadi.

Xalqaro kooperativlashuv hamda xalqaro ixtisoslashuv XMTning shunchaki bir

ko‘rinishi emas, balki uning mohiyatini belgilab beruvchi unsur hamdir.

Ishlab chiqarishda xalqaro ixtisoslashuv (IXI) deganda, mamlakatlar o‘rtasida mehnat taqsimotining shunday bir shakli nazarda tutiladiki, bunda dunyo miyosida bir turdag'i ishlab chiqarishning jamlanishi, mehnatning umumlashuvi, ya’ni milliy ishlab chiqarishlarning tabaqlashuvi ichki ehtiyojdan ortgan bir turdag'i mehnat mahsulotlarini tayyorlash mustaqil texnologik jarayonlarga, alohida soha va sohachalarga ajralib chiqishi asosida kuchayib, oqibatda tabaqlashgan milliy komplekslar bir-birini to‘ldirib boradi Ushbu jarayonlar xalqaro miyosda tovarlar, xizmatlar va fan-texnika bilimlarini ayirboshlash kuchayganligida o‘z aksini topadi.

IXI ikki yo‘nalishda - ishlab chiqarish va hududiy yo‘nalishlarda rivojlanadi. Ishlab chiqarish yo‘nalishi tarmoqlararo va tarmoq ichida ixtisoslashuvga hamda ayrim korxonalar (kompaniyalar)ning ixtisoslashuv turlariga bo‘linadi. IXI hududiy ma’noda jahon bozoriga mo‘ljallangan muayyan mahsulotlarni, ularning qismlarini ishlab chiqarishda ayrim mamlakatlar hamda mintaqalarning ixtisoslashuvini nazarda tutadi.

Yaxlit (tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish), mayda (mahsulot qismlari, bo‘laklarini ishlab chiqarish), texnologik yoki bosqichli ixtisoslashuv (ayrim ishlarni amalga oshirish yoki ba’zi texnologik jarayonlarni bajarish, masalan, yig‘ish, bo‘yash, qoliplar yasash va hokazo) IXIning asosiyligi turlari hisoblanadi.

O‘z taraqqiyotining mohiyat-e’tiboriga ko‘ra, kuchli tashqi shart-sharoit ta’sirida IXI doimiy ravishda o‘zgarib turadi. Jahon miyosida ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi barcha bosqichlarda, ayniqsa, hozirgi kunda ro‘y berayotgan jarayonlarning jadalligi, turlarining uzlusiz ravishda o‘zgarib turishi, yanada murakkabroq shakllarga o‘tishga moyilligi bilan ajralib turadi.

Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va buning oqibatida ularning tarmoqlarga, korxonalarga bo‘linish darajasi o‘sib borayotganligi ishlab chiqarishning xalqaro kooperativlashuvi (IXK) uchun umumiy xolis asos hisoblanadi.

Kooperativ aloqalarni o‘rnatishda foydalilanidigan asosiy usullar quyidagilardan iborat:

- 1) qo‘shma rejalarini (dasturlarni) amalga oshirish;
- 2) shartnomaga asosida ixtisoslashuv;
- 3) ishlab chiqarishda qo‘shma korxonalar (QK) tashkil - etish.

IXK birinchi usuli - qo‘shma rejalarini (dasturlarni) amalga oshirish doirasida asosan ikki shaklda: pudratli kooperativlashuv va qo‘shma ishlab chiqarish shakllarida namoyon bo‘ladi.

Pudratli kooperativlashuv - sanoatdagi ishlab chiqarish aloqalarining eng eski turlaridan biridir. Pudrat faoliyatining mohiyati — shartnomaga imzo chekkan tomonlardan biri (buyurtmachi), ikkinchi tomonqa (ijrochiga) muddati, hajmi, ijro sifati va hokazolar bo‘yicha oldindan kelishib olingan shartlarga muvofiq muayyan bir ishni bajarish vazifasini yuklaydi. Ishlab chiqarishdagi pudratli kooperativlashuv asosan ikki xil ko‘rinishga ega: mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha "an'anaviy" pudrat hamda yangi mahsulotni loyihalash, ishlab chiqarish bo‘yicha pudrat.

Ishlab chiqarishdagi kooperativlashuvning ikkinchi usuli - shartnomali ixtisoslashuv kelishib olgan tomonlar o‘rtasida ishlab chiqarish rejalarini aniq belgilab olishdan iborat. Ixtisoslashuv haqidagi kelishuvlarga muvofiq har ikki tomon ishlab chiqarishda bir-birini takrorlash hollarini, ikki o‘rtada bozorda paydo bo‘ladigan bevosita raqobatni yo‘qotish yoxud kamaytirishga harakat qiladi.

Kooperativlashuv mohiyatini kasb etadigan ixtisoslashuv haqidagi bunday kelishuvlarning eng muhim sharti - unda odatta murakkab mahsulotlarni birgalikda ishlab chiqarish, o‘zaro yoki bir tomonlama pudrat ishlari uchun ashyolarni yetkazib berish, birgalikda tadqiqotlar olib borish, xulosalar chiqarish va hokazolar shaklida qatnashchilar o‘rtasida yaqin hamkorlik haqida bitim mavjud bo‘lishi zarur.

Ishlab chiqarishda qo‘shma korxonalar tashkil etish dunyo miyosida tobora keng tarqalib borayotgan kooperativlashuv faoliyatining ucta asosiy usullaridan biridir. Intefatsiyalashgan kooperativlashuv usulining mohiyati - unda bir necha qatnashchining kapitali o‘zaro kelishilgan alohida maqsadlarga erishish yo‘lida yagona tashkiliy shakl ostida birlashadi.

Yuqorida qayd etilganidek, biror mamlakatning jahon iqtisodida hamda jahon xo‘jalik aloqalari tizimida bo‘lgan mavqeい qator omillar bilan belgilanib, bular orasida milliy iqtisodning taraqqiyot darajasi, harakat sur’ati uning qay darajada ochiqligi va XMTga qanchalik tortilganligi, uning tashqi iqtisodiy aloqalari qanday rivojlanganligi, bu aloqalar tuzilmasi milliy iqtisod xalqaro xo‘jalik hayotida o‘zgarib turadigai shart-sharoitga nechog‘lik moslasha olishi g‘oyat katta ahamiyatga egadir. Shuning uchun yangi shart-sharoitda, xalqaro iqtisodiy aloqalar tizimida O‘zbekiston ishtirokini kengaytira borishga erishish ham mamlakatning ichki iqtisodiy vazifalarini, ham uning tashqi iqtisodiy aloqalarini takomillashtirishga doir muammolarni hal etishda XMT imkoniyatlardan yanada kengrok foydalanish zarur.

Bunday rivojlanish istiqbollari xalqaro iqtisodiy aloqalar sohasida milliy xo‘jalik tizimlarining o‘zaro bog‘langanlik va manfaatdorlik darajasi oshib borishidan iborat bo‘lgan mutlaqo obyektiv holatga aloqadordir.

Shu narsani e’tiborga olish lozimki, ochiq turdag'i iqtisodga o‘tish bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan jarayon bo‘lmog‘i kerak, toki tashqaridan keladigan raqobat yaratuvchanlik omilidan o‘tib, mahalliy iqtisodni barbod qiladigan kuchga aylanib ketmasin.

Xalqaro raqobat.

Hozirgi kundagi raqobat jahon bozorining ajralmas bir qismi (elementi) hamda bozor jarayonlarining bir ko‘rinishi sifatida o‘zining ilgari misli ko‘rilmagan keng ko‘lami bilan ajralib turadi.

Raqobatning keng ko‘lamliligi XMT ta’siri ostida xalqaro ayrboshlash jarayoniga tortilib, tashqi savdo munosabatlarda qatnashayotgan tomonlarning soni tinimsiz oshib borayotgani, turli-tuman sohalarda xalqaro ixtisoslashuv va kooperativlashuv jarayonlari rivojlanayotgani bilan bevosita bog‘likdir. Xo‘jalik hayotidagi interna-iionallahuv raqobat zaminini kengaytirib yuboradi. Ulkan monopoliyalar qatori o‘rta, kichik, hatto mayda firmalar ham bozor uchun kurash maydoniga kiradi. Jahon bozoridagi vaziyatni o‘z foydasiga o‘zgartirishga astoydil bel bog‘lagan yangi-yangi mamlakatlar (asosan “yangi sanoat mamlakatlari” hisobiga) eksporti ko‘pdan rivojlangan mamlakatlar bilan raqobatga kirishib ketmokda.

Fan-texnika inqilobi (FTI) raqobatni kuchaytirib yuboradi. Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, sifatni oshirish, daromadni ko‘paytirish bo‘yicha raqobat boshlangan hamma joylarda FTI raqobatchilik kurashining ta’sirchan vositasi sifatidagina emas, balki uning eng qudratli tezkor omili (katalizator) sifatida ham namoyon bo‘ladi. Raqobatchilik kurashining shakllanishi va shartlariga, bu kurash vositalariga FTIning faol va keng ko‘lamli ta’siri barcha qatlamlarda, qolaversa, alohida firmalar, mamlakatlar yoki guruh-guruh mamlakatlar darajasida ham namoyon bo‘lmoqda.

“Boshqaruв masalalari bo‘yicha Yevropa forumi” nomli xalqaro tashkilot (Jenevada) G‘arb mamlakatlarining raqobatbardoshligini aniqlash bo‘yicha doimiy izlanishlar olib boradi. Ayni chog‘da “raqobatbardoshlik” tushunchasi “o‘zlari uchun mavjud bo‘lgan sharoitlarda firmalar tomonidan raqobatchilarning mahsulotlariga nisbatan narxi va narxdan tashqari xususiyatlari bilan iste’molchiga ko‘proq maqbul keladigan mahsulotlarni loyihalash, tayyorlash va sotish sohasidagi aniq va zohiriy imkoniyat” tarzida talqin etiladi.

Raqobatbardoshlik omillari

Mamlakatning raqobatbardoshligini aniqlash uchun qariyb 340 ko‘rsatkichdan, ko‘plab iqtisodchi-ekspertlar tavsiyasidan foydaliladi. Bular 10 omilga guruhlanadi:

- 1) Iqtisodiy salohiyat (potensial) va iqtisodning o‘sish sur’atlari;
- 2) sanoat ishlab chiqarishdagi samaradorlik;
- 3) fan va texnikaning rivojlanish darajasi, fan-texnika yutuqlarini o‘zlashtirish sur’atlari;
- 4) XMTdagi ishtiroki;

- 5) ichki bozor rivoji va ko'lami;
- 6) moliya tizimining tez moslashuvchanligi;
- 7) iqtisodni davlat tomonidan tartibga solish siyosatining ta'siri;
- 8) mehnat resurslarining malaka darajasi;
- 9) mehnat resurslari bilan qay darajada ta'minlanganlik;

10) ijtimoiy-iqtisodiy va ichki siyosiy vaziyat. AQSH, Yaponiya, Germaniya va Shveysariya azaldan yuqorida rajadagi raqobatbardoshligi bilan ajralib turadi. Ayni paytda ekspertlar ushbu mamlakatlarning raqobatbardoshlilagini yuqorida qayd etilgan omillarni ta'minlovchi qudratli umumiqtisodiy negizining emas, balki shu raqobatbardoshlikda kam ahamiyatga ega bo'limgan tarkibiy jihatlarini ham ta'kidlab o'tishadi. Bu o'riida iqtisodni jahonda yuz berayotgan talablar rivojlanishiga qarab moslashtirish darajasi, ichki imkoniyatlarga mos keladigan milliy ixtisoslashuvni bexato tanlash, yangi mahsulotlar ishlab chiqarish yoki yangi bozorlarni zabit etish yo'li bilan bema'ni raqobatdan qochish mahorati haqida so'z bormokda.

Yetakchi jahon eksportchilari bozorda erishayotgan yutuqlarining siri ham talablarning yalpi tuzilmasini chuqur tushunishdan, bu talablarni kerakli yo'nalishda faol shakllantira bilgan holda ularga darhol javob bera olishdan iboratdir.

Mamlakatlardan rivojining asosiy ko'rsatkichlari.

Iqtisodiy jarayonlarni, mamlakatlarning rivojlanish darajasi va o'zaro murakkab xo'jalik aloqalarini taxlil etishda xalqaro tajribada qabul qilingan milliy hisoblar tizimidan foydalaniadi. Bu makro darajada iqtisodiyot rivojiga oid bo'lgan va o'zaro bog'langan ko'rsatkichlar tizimidir. Milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:

Yalpi ichki mahsulot (YAIM) - bu ko'rsatkich ma'lum davlat hududida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarshsg ma'lum davrda yaratgan pirovard mahsulotlari va xizmatlarining umumiy xajmini aks ettiradi. Ushbu yakuniy mahsulotni hisoblashda xom ashyo, yarim mahsulotlar, boshqa moddalar, yoqilg'i, elektr quvvati hamda ularni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xizmat turlari (qayta hisob bo'lmasligining oldini olish uchun) chegirib tashlanadi.

Ayni paytda ba'zi mamlakatlarda (AQSH va h.k.) yalpi milliy mahsulot (YAMM) ko'rsatkichidan foydalaniadi, u YAIMdan farqli o'laroq qaysi mamlakatda yaratilganligidan qat'iy nazar shu millat (mamlakat)ning korporatsiyalari, xususiy shaxslari nazoratida bo'lган ishlab chiqarish hajmini aks ettiradi.

YAMMni aniqlash uchun shu mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan chet elliklarning daromadlari (chet el korporatsiyalarining foydalari hamda chet ellik ishchi-xizmatchilarining ish haqlari) YAIMdan chegirib tashlanadi, shu mamlakat korporatsiyalari, fuqarolari xorijda ishlab topgan daromadlari qo'shiladi. YAIM bilan YAMM ko'rsatkichlari o'rtasidagi tafovut odatda miqdor jihatidan unchalik ko'p bo'lmaydi, nari borsa qariyb 1% ni tashkil etadi.

Shuni e'tiborga olish lozimki, YAIM ko'rsatkichi milliy hisoblar tizimi asosida ishlab chiqiladi. Bu tizim mehnat faoliyatining barcha turlarida mehnat unumli mohiyatga ega, degan qoidaga asoslangan (qiymat yaratilishi nuqtai nazaridan).

Milliy daromad (MD) ko'rsatkichi quyidagicha belgilanadi: YAIM minus amortizatsiya (shunda sof YAIM hosil bo'ladi), minus bilvosita soliqlar va plus subsidiyalar. Soliqlar mahsulot va xizmatlarning bozor narxlariga tirqaladi. Subsidiyalar narxlarga teskari ta'sir qiladi - bu narxlar ana shu subsidiyalar miqdorida pasayadi. MD ko'rsatkichi ishlab chiqarilgan milliy mahsulot ko'rsatkichiga deyarli to'g'ri keladi. Milliy mahsulotning o'sish sur'ati uzoq muddat nuqtai nazaridan YAIMga deyarli to'la ravishda muvofiq keladi, shuning uchun ham adabiyotlarda asosan YAIM ko'rsatkichidan foydalaniadi.

Turli mamlakatlardagi ishlab chiqarish omillari, taraqqiyot darajasining xilma-xilligi iqtisodiy rivojlanish darajasini biron-bir yagona ko'rsatkich orqali baholashga imkon bermaydi. Buning uchun bir qator asosiy ko'rsatkichlardan foydalaniadi:

1. Yalpi ichki mahsulot, yalpi milliy mahsulot yoki milliy daromadning aholi jon boshiga hisobi.
2. Milliy iqtisod tarmoqlari tarkibi.
3. Aholi jon boshiga hisoblaganda asosiy mahsulot turlarini ishlab chiqarish (ushbu tarmoqlarning rivojlanish darajasi).
4. Aholining turmush darajasi va uning sifati.
5. Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari. Iqtisodiy taraqqiyot darajasini tahlil etishda YAIM, YAMMning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ko'rsatkichlari bosh mezon hisoblanadi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarni aniqlash bo'yicha xalqaro toifalashda ana shu ko'rsatkichlar asos qilib olingan. Jumladan, XX asrning 80-yillari oxiri - 90-yillarning boshlarida yalpi ichki mahsulot aholi jon boshiga hisoblaganda, bir yilda 8 ming dollarni va undan ko'proqni tashkil etuvchi davlatlar rivojlangan mamlakatlar toifasidan joy olgan.

Ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda (Saudiya Arabistonida) aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YAIM rivojlangan mamlakatlar singari yuqori darajani tashkil etadi, biroq boshqa ko'rsatkichlar (iqtisodning tarmoqlar tuzilmasi, aholi jon boshiga hisoblaganda asosiy mahsulot turlarini ishlab chiqarish va hokazolar) yig'indisiga ko'ra bu mamlakatlarni rivojlangan mamlakatlar toifasiga qo'shib bo'lmaydr.

Xalqaro tajribada keng qo'llaniladigan boshqa bir ko'rsatkich ham bor - bu milliy iqtisod tarmoqlari tarkibidir. Uni aniqlashda tarmoqlar bo'yicha hisob-kitob qilingan YAIM ko'rsatkichi asos qilib olinadi. Bu o'rinda avvalo xalq xo'jaligining moddiy, nomoddiy tarmoqlari o'rtasidagi nisbat e'tiborlidir. Bu nisbat avvalo qayta ishlash sanoati mamlakat iqtisodiyotida qanchalik salmoqli o'rin tutganligiga qarab belgilanadi.

Alovida tarmoqdar tuzilmasini tahlil qilish ham muhim ahamiyatga ega. Chunonchi, qayta ishlash sanoatining tarmoq tahlili, unda mashinasozlik va kimyo, ya'ni fan-texnika taraqqiyotini ta'minlovchi tarmoqlar qanchalik salmoqqa ega ekanligini ko'rsatib beradi. Yetakchi tarmoqlarning ahamiyati katta. Masalan, sanoati rivojlangan mamlakatlarda mashinasozlik tarmoqlari va ishlab chiqarishlarining soni 150-200 va undan ham ko'proq bo'lsa, iqtisodiy rivojlanish darajasi nisbatan past bo'lgan mamlakatlarda bu raqam atigi 10-15 ni tashkil etadi. Yirik xo'jalik majmualari yoqilg'i-energetika, agrosanoat, qurilish, harbiy sanoat va boshqalarning tutgan salmog'i ham tahlil qilinadi.

Milliy iqtisodiyot rivojida bosh omil hisoblanuvchi ba'zi asosiy mahsulot turlarini ishlab chiqarishga doir ko'rsatkichlar ham mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasidan dalolat beradi; ular mazkur mamlakat ana shu asosiy mahsulot turlariga bo'lgan o'z ehtiyojini qay darajada qoplay olishi mumkinligini ko'rsatadi.

Bu ko'rsatkichlar qatorida eng avvalo aholi jon boshiga elektr quvvati ishlab chiqarish qay darajada ekanligi e'tiborga olinadi. Elektr-energetika sohasi barcha ishlab chiqarish turlarining rivojida tagzamin hisoblanadi. Bu ko'rsatkich texnika taraqqiyoti imkoniyatlaridan, xizmat ko'rsatish saviyasi va hokazolardan dalolat beradi. Rivojlangan, sust rivojlangan mamlakatlar o'rtasida ushbu ko'rsatkich bo'yicha nisbat hozirgi paytda 500:1, ba'zi hollarda esa undan ham ko'proqni tashkil etadi.

Statistika aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlarining eng muhim turlari ichida po'lat eritish hamda prokat, ma'dan qirquvchi dastgoxlar, avtomobillar, mineral o'g'itlar, kimyoviy tolalar, qog'oz va qator boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini ham alohida e'tiborga oladi.

Mamlakatda iste'mol mahsulotlarining asosiy turlari: don, sut, go'sht, shakar, kartoshka kabilarni ishlab chiqarish aholi jon bosha hisobiga qanchadan to'g'ri kelishi ham boshqa bir muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Ana shu ko'rsatkich BMTning oziq-ovqat va qishloq xo'jalik tashkiloti - FAO yoki milliy institutlar tomonidan ishlab chiqilgan asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish o'lchovlari bilan qiyoslab ko'rildi, o'z mamlakatida ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari bilan aholi qay darajada ta'minlanayotganligi, iste'moldagi oziq-ovqatning sifati va boshqalar ma'lum bo'ladi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar: gazlama, kiyim-kechak, poyafzal, trikotaj kabilarni aholi jon

boshiga ishlab chiqarish ko'rsatkichi ham turmush darajasidan dalolat beradi.

Uzoq muddatli foydalaniladigan qator mahsulotlar: muzlatgich, kir yuvish mashinalari, yengil avtomobillar, videojihozlar, shaxsiy kompyuterlar va hokazolarning mavjud mikdori (yoxud mamlakatda ishlab chiqarish hajmi) aholining har 1000 nafariga yoxud o'rtacha statistik oilaga qanchadan to'g'ri kelishiga doir ko'rsatkich ham shularga kiradi.

Aholi turmush darajasini aniqlash, odatda, bir-biri bilan o'zaro bog'langan ko'rsatkichlar: "iste'mol savati" (korzina) va "hayot kechirish minimumi" ni belgilash orqali davom ettiriladi.

Turmush darajasini aniqlashda quyidagi ko'rsatkichlardan ham foydalaniladi:

- mehnat resurslarining ahvoli (o'rtacha umr ko'rishi, aholining ma'lumot darajasi, asosiy oziq-ovqat mahsulotlarining aholi jon boshiga iste'moli, kaloriyalar, protein hisobiga qancha ekanligi, mehnat resurslarining malaka darajasi, har 10 ming aholiga qancha o'quvchi va talaba to'g'ri kelishi, YAIMda ta'lim uchun xaratjatlar salmog'i);

- xizmat ko'rsatish sohasining rivoji (har 10 ming aholiga to'g'ri keladigan vrachlar soni, har 1 ming aholiga to'g'ri keladigan kasalxona o'rnlari soni, aholining uy-joy, maishiy xizmat turlari qay darajada ta'minlanganliga va hokazo).

Keyingi yillarda jahon tajribasida turmush sifatini aniqlashda mamlakat ijtimoiy taraqqiyotiga doir ko'rsatkichlar (yoki indekslar)dan foydalanilmoqdaki, bular aholining ma'lumot darajasi, o'rtacha qancha umr ko'rishi, ish haftasining muddati va qator boshqa narsalarni o'z ichiga olgan ko'pgina iqtisodiy-ijtimoiy ko'rsatkichlarni jamlab oladi.

Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari guruhi iqtisodiy taraqqiyot darajasini juda aniq belgilab beradi, nega deganda u bevosita yoki bilvosita - mamlakatda asosiy va aylanma kapitaldan, mehnat resurslaridan foydalanish sifati, holati, darajasidan dalolat beradi. Samaradorlikning asosiy ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:

1) Mehnat unumdarligi (sanoat, qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish tarmoqlari va turlari bo'yicha);

2) YAIM birligiga yoki aniq bir mahsulot turiga qancha kapital sarflanishi;

3) asosiy fondlar qaytimi koeffitsiyenti;

4) YAIM birligiga yoki aniq bir mahsulot turlariga qancha xom ashyo sarflanadi.

Mamlakatning iqtisodiy taraqqiyot darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning tashqi iqtisodiy aloqalari shunchalik faol va xilma-xil bo'ladi. Demak, mamlakatning xalqaro iqtisodiy aloqalardagi ishtiroki ham qisman uning iqtisodiy taraqqiyoti darajasidan dalolat beradi.

Mamlakatning iqtisodiy taraqqiyot darajasi bu yerdan chetga olib chiqilayottan kapital (kapitallarning xalqaro harakati)ga oid quyidagi ko'rsatkichlarda aks etadi:

1. Ushbu mamlakatning chet ellardagi bevosita investitsiyalari (aktivlari) hajmida, uning mamlakat milliy boyligi bilan nisbatida. Odatda yuksak iqtisodiy rivojlanish darajasiga erishgan mamlakat o'zga mamlakatlar iqtisodiyotiga kapital kirkizishda katta imkoniyatlarga ega bo'ladi.

2. Ushbu mamlakatning chet ellardagi bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) investitsiyalari hajmining o'z hududlaridagi bevosita chet el investiiyalari hajmiga nisbati. Bu nisbat xalqaro integratsiya jarayonlari qanchalik rivojlanib borayotganligini ko'rsatadi, kapital investitsiya qilingan mamlakatlarning milliy iqtisodiyoti nechog'lik samarali ishlayotgani va uning taraqqiyot darajasi bilan chambarchas bog'liqdir.

3. Ushbu mamlakatning tashqi qarzi hamda shu qarzning mamlakatdagi YAIMning miqdoriga nisbatan salmog'i.

Bulardan kelib chiqib, dunyodagi jamiki mamlakatlar xalqaro tajribada asosan uchta guruhga bo'linadi: bozor iqtisodiga asoslangan - rivojlangan mamlakatlar, rivojlanayotgan mamlakatlar va bozor iqtisodiga o'tish bosqichidagi mamlakatlar.

Bozor iqtisodiga asoslangan - rivojlangan mamlakatlar guruhi 27 mamlakatdan iborat. Bu guruh tahlil maqsadlarida o'z navbatida sanoati eng ko'p rivojlangan mamlakatlarga bo'linib, ushbu toifaga ular ichida eng ko'p miqdorda yalpi ichki mahsulot (YAIM) ishlab chiqaruvchi yetti mamlakat kiradi (Germaniya, Italiya, Kanada, Buyuk Britaniya, AQSH, Fransiya, Yaponiya).

Iqtisodi o'tish davriga xos mamlakatlar ruhiga Sharqiy Yevropa mamlakatlari, ya'ni

Albaniya, Bolgariya, Vengriya, Polsha, Ruminiya, Chexiya, Slovakiya hamda Ittifoq barham topgandan keyin yuzaga kelgan yangi davlatlar: Rossiya, Ukraina, Belarusiya, Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Tojikiston, Armaniston, Moldaviya, Ozarbayjon, Gruziya, Boltiqbo'yи mamlakatlari - Latviya, Litva va Estoniya, shuningdek, Yugoslaviya bo'linib ketgandan so'ng paydo bo'lgan yangi mamlakatlar hamda Xitoy va Vyetnam kiradi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar o'zlarining jug'rofiy holatiga qarab turli mintaqalarga bo'linadi. Tahlil maqsadlarida bu mamlakatlar faol to'lov balansi, kapitalni eksport qilish imkoniyatlariga qarab alohida ajratib ko'rsatiladi. Kapitalni eksport qilish imkoniyatlariga ega bo'lgan mamlakatlar o'z navbatida energoresurslar eksport qiluvchi mamlakatlar va bularni import qiluvchi mamlakatlar toifasiga bo'linadi. Mamlakat quyidagi ikki holatga baravariga javob beradigan taqdirdagina energoresurslarni eksport qiluvchi davlat hisoblanadi:

1) Uning birlamchi energiya quvvatlari (shu jumladan, toshko'mir, lignit, ishlanmagan neft, tabiiy gaz, gidroenergiya va atom energiyasi)ni ishlab chiqarishi o'z ehtiyojlaridan kamida 20 foiz ortiqcha bo'lsa;

2) energiya quvvatlarining eksporti mamlakatning umumiy eksport hajmining kamida 20 foizini tashkil etsa.

Sanoat rivoji nuqtai nazaridan yuqori darajada bo'lган rivojlanayotgan mamlakatlar "Yangi industrial mamlakatlar" guruhini tashkil etadi (Argentina, Braziliya, Meksika, Tayvan, Gonkong, Singapur, Janubiy Koreya, Turkiya).

"Juda sust rivojlangan mamlakatlar" guruhiga 48 nafar rivojlanayotgan mamlakatlar kiradi. Ko'pincha bular xo'jalikda tor, hatto yakka hokimlik tuzilmalariga ega bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi chora-tadbirlarni moliyalash-tarishda ko'p jihatdan tashqi manbalarga qaram bo'ladi. BMTda mamlakatlarning ushbu guruhgaga mansubligini aniqlash borasida uchta belgidan foydalaniladi; yalpi ichki mahsulot (YAIM) aholi jon boshiga hisoblanganda 350 AQSH dollaridan oshmaydi, o'qish-yozishni biladigan o'rta ta'limli katta yoshdagi aholi 20 foizdan, YAIMdagi qayta ishlash sanoati ulushi 10 foizdan yuqori bo'lmaydi. Bu guruhgaga Osiyoda 8, Afrikada 28, Lotin Amerikasi va Okeaniyada 5 mamlakat va hokazolar kiradi.

Hozirgi zamon jahon xo'jaligi ishlab chiqarish kuchlarining uzoq davom etgan rivojlanishi, ularda ro'y bergen internatsionallashuv natijasidir. Jahon xo'jaligi o'z tarixida ancha jiddiy o'zgarishlarni boshidan kechirdi. Endiliqda u murakkab iqtisodiy tizimdan iborat bo'lib, uning bag'rida sayyoramizning barcha umumiy ijtimoiy mahsuloti ishlab chiqariladi. Transmilliy korporatsiyalar, milliy xo'jaliklar uning subyektlari hisoblanib, bularning faoliyatida hamkorlik, qarama-qarshilik namoyon bo'laveradi.

Garchi jahon xo'jaligi yaxlit bir tizimdan iborat bo'lsa, u qurama shaklda, turli xil shahobchalar, ya'ni ham umumiy, ham o'ziga xos tomonlarga ega bo'lган kichik tarmoq tizimlardan tashkil topadi.

Mutaxassislar jahon xo'jaligining aloqida kichik tarmoq tizimlariga bo'linishini asoslash, xolisona baholash maqsadida quyidagi mezonlardan foydalanishadi: iqtisodiy taraqqiyot darajasi, xo'jalikning ijtimoiy tuzilmasi, tashqi iqtisodiy aloqalar darajasi va xususiyati, iqtisodiy yuksalish yo'llari.

Shu bilan birga kichik tarmoq tizimiga baho berishda xo'jalikning taraqqiyot darajasi - aholi jon boshiga qancha yalpi mahsulot ishlab chiqarilishini ko'rsatuvchi omil keng tarqalgan mezon hisoblanadi. Biror bir mamlakatning qay darajada rivojlanganligi ayni bir paytda ishlab chiqarishning qanchalik sanoatlashgani, tarkibi qanday ekanligi bilan ham belgilanadiki, bu jihatlar milliy daromadining o'sishida muhim omildir.

Shuningdek, ishlab chiqarilayotgan mahsulot birligiga qancha xom ashyo sarflanishi ham iqtisodiy taraqqiyot darajasini ko'rsatadi. Iqtisodiy taraqqiyot darajasi yuksalgan sari xom ashyo va elektr quvvati sarflari kamaya boradi, tabiiy xom ashyo o'rniga ko'proq miqdorda sun'iyilari ishlataladi.

Ma'lumki, mamlakatlar yuqorida qayd etilgan ko'rsatkichlar va avvalo aholi jon boshiga yalpi mahsulot ishlab chiqarish ko'rsatkichlari bo'yicha bir nechta guruhgaga ajratiladi. Odatda mutaxassislar mamlakatlarni uch guruhgaga - yuksak darajada rivojlangan mamlakatlar (bularda

ushbu ko'rsatkich AQSHdagi YAMM ning yarmidan ko'prog'ini tashkil etadi), o'rta darajada rivojlangan mamlakatlar (bularning ko'rsatkichi AQSHdagi ko'rsatkichning 30-50 foizidan iborat) hamda boshqa davlatlar, shu jumladan, bir guruh eng sust rivojlangan mamlakatlar (bularda mazkur ko'rsatkich belgisi g'oyat past darajada) kabi toifalarga ajratishadi.

Bundan tashqari, kichik tarmoq tizimlarining xususiyatlari va jahon xo'jaligida tutgan o'rni tashqi sektorning milliy xo'jalikdagi o'rni bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu narsa mahsulotlarni xizmat turlarini eksport va import qilishda, kapitalning harakatida namoyon bo'ladi. Bu hol mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtirokining yo'nalishi, salmog'i va shakllarini belgilab beradi.

Ishlab chiqarish kuchlari rivojining hozirgi darajasi, ishlab chiqarishdagi internatsionallashuv yopiq majmualar ko'lamida samarali xo'jalik yuritishga imkon bermaydi. Agar iqtisodiyot ochiq bo'lsa, xalqaro miqqyosdagi ayriboshlash tufayli yetishmay turgan yoxud yana ham arzonroq bo'lgan iste'mol va kapital mahsulotlari hamda xizmat turlari oqib kela boshlaydi, mahsulotni sotish uchun ko'shimcha bozorlarga yo'l ochiladi.

Mutlaqo tabiiyki, tashqi iqtisodiy aloqalar ahamiyatini belgilovchi eng muhim ko'rsatkichlar ichida avvalo mahsulot va xizmat turlariga beriladigan eksport va import kvotalari, tashqi savdodagi mahsulot tuzilmasi, kapital, texnologiya, ishechi kuchining xalqaro harakatidagi ishtiroki, xo'jalikning ochiqlik darajasi singari jihatlar muhim hisoblanadi.

Bu o'rinda ochiq iqtisodiyot deganda, shunday bir xo'jalik nazarda tutiladiki, unda taraqqiyot yo'nalishlari jahon xo'jaligida amal qiluvchi sa'y-harakatlar bilan belgilanadi, tashqi iqtisodiy aloqalar kuchayib, ayni paytda tashqi savdoda shunday darajaga erishiladiki, oqibatda u iqtisodning umumiyo o'sishini rag'batlantiradi. Tashqi savdo ko'lami yalpi ichki mahsulotning qariyb 20 foizini tashkil etadigan darajaga yetgach, u xo'jalikka rag'batlantiruvchilik, rahna soluvchilik ta'sirini o'tkazadi, deb hisoblanadi.

Bundan tashqari, iqtisodning ochiqligi mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtiroki bilan belgilanadigan ishlab chiqarish tuzilmasini shakllantirish borasidagi ta'siri bilan bog'liq. U yoki bu darajada yopiq bulgan xo'jalikda ishlab chiqarish tuzilmasi, bir tomonidan, mamlakatda mavjud bo'lgan resurslar, ikkinchi tomonidan esa, ichki talablar tizimi bilan belgilanadi. Ochiq iqtisodiyotning xususiyati shundaki, xalqaro mehnat taqsimoti ishlab chiqarishda ichki tuzilmalarni shakllantirishga doir qanday qarorlar qabul qilinishiga ta'sir o'tkazadi.

Kichik tarmoq tizimlarini toifalashda mamlakatning iqtisodiy imkoniyatlari - taraqqiyot darajasigina emas, balki ishlab chiqarish kuchlarining miqqosi, aholining soni, hududning ko'lami, tabiiy boyliklarning mavjudligi bilan o'lchanadigan omillar salmog'i ham muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, Xitoy, Hindiston singari mamlakatlarni qator taddiqotchilar alohida kichik tarmoq tizimlariga kiritganligi bejiz emas.

Umuman olganda, hozirgi zamon jahon xo'jaligida turli mezonlarga asoslanib toifalashtirilgan ma'lum miqdordagi kichik tarmoq tizimlari mavjud. Bular orasida milliy iqtisodlarning uch guruhi eng yirik hisoblanadi: bular rivojlangan mamlakatlar, o'tish davridagi mamlakatlar hamda rivojlanayotgan mamlakatlardir. Ayni bir paytda mazkur kichik tarmoq tizimlari yuqorida mezonlarga ko'ra, yana kichik tizimlarga bo'linishi mumkin.

Bozor iqtisodining mohiyati va asosiy tamoyillari.

Bozor iqtisodi rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari va tamoyillarini o'rganishga kirishishdan oldin, siyosiy-iqtisodiy tizimga birinchi qadamini qo'yayotganlar uning ishslash xarakterini belgilab beruvchi mohiyati, asosiy prinsiplari bilan umumiyo tarzda bo'lsada, tanishib chiqishi kerak bo'ladi.

Lekin, avval mavjud iqtisodiy tizimlar, ularning o'ziga xos xususiyatlari borasida to'xtalib o'tish lozim.

Har bir mamlakatning iqtisodiy tizimi juda murakkab tuzilishga ega.

- U o'z ichiga qonunlar (masalan, mulkchilik huquqlari haqida), qarorlar, farmoyishlar

solshutr, subsidiyalar, xullas - davlat asosiy iqtisodiy masalalarga ta'sir ko'rsa-tadigan barcha vositalarni qamrab oladi:

- 1) Nima ishlab chiqarish kerak?
- 2) qanday ishlab chiqarish kerak?
- 3) qanday taqsimlash kerak?

- U, shuningdek, mahalliy kapital tomonidan yaratilgan yoki chet ellik mulk egalarining nazorati ostida bo'lган miqyosi, mulkchilik shakllari turlicha bo'lган firmalarni ham o'z ichiga oladi.

- Ham boy, ham kambag'al iste'molchilar uning tarkibiy qismi hisoblanadi.
- Uning resurslardan foydalanishga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy tuzilishi iqtisodiy tizimning eng muhim qismi hisoblanadi.
- Har qanday jamiyat (davlat) ijtimoiy tuzilishining xarakterli xislatlari uning mulkka, nazorat va maqsadlariga munosabati bilan belgilanadi. Aytilganlarga yaqqol misol tariqasida ishlab chiqarishning yer singari omilini olib ko'ramiz.

Unga quyidagilar egalik qilishi mumkin:

- 1) Davlat;
- 2) xususiy shaxslar;
- 3) bir necha yirik yer egalari va hokazo.

Yerdan foydalanish borasida uning egalari orqali nazorat qilinishi yoki bu ish shu maqsadda yollab olingen fermerlar zimmasiga yuklatilishi mumkin.

Yerdan foydalanish ustida nazorat qiladiganlarning maqsadlari bir-biridan keskin farq qilishi mumkin. Kimdir pul ishslash uchun mo'l hosil yetishtirishdan manfaatdor, boshqalar esa o'zi iste'mol qilishi uchun mahsulot ishlab chiqaradi.

Binobarin, iqtisodiy tizimlar tavsifnomasi juda xilma-xil bo'lishi va ularni uch turga bo'lish mumkin.

1. An'anaviy iqtisod.
2. Buyruqbozlikka asoslangan iqtisod.
3. Bozor iqtisodi.

An'anaviy iqtisod.

An'anaviy iqtisodiy tizim u yoki bu tovar ishlab chiqarish usullarida yildan-yilga yuz berayotgan o'zgarishlarning kamligi bilan ajralib turadi. Uning texnika bilan qurollanishi ham ana shunday eskicha xarakterda bo'ladi.

Ishlab chiqarish jamoa a'zolari o'rtasida avval belgilab qo'yilgan an'analarga muvofiq taqsimlanadi. Nima ishlab chiqarish kerak, qanday ishlab chiqarish va qanday taqsimlash kerak degan iqtisodiy savollarga ham o'sha an'analarga tayanib javob berish mumkin.

Hunarmandchilik ustaxonasi, patriarchal qishloq xo'jalik jamoasi an'anaviy iqtisodning yorqin namunalaridir.

Buyruqbozlikka asoslangai iqtisod.

Bunda resurslarni taqsimlash masalasi markaziy rahbariyat tomonidan hal qilinadi, u barcha yuqorida aytilgan uch iqtisodiy masalalar yuzasidan hamma zarur qarorlarni qabul qiladi.

Bunday iqtisod qarorlarni markazlashtirgan holda qabul qilish bilan ajralib turadi va u markazlashtirilgan rejalashtirishga muhtoj bo'ladi. Shuning uchun ham iqtisodning bu turi markazlashtirilgan holda tuziladigan, buyruqbozlik asosida amalga oshiriladigan iqtisod deb ta'riflanadi.

Bozor iqtisodi.

Iqtisodning bu turida resurslarni joylashtirish yechimi markaziy yo‘l-yo‘riqlarsiz, yakka tartibda ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar tomonidan mustaqil qabul qilingan ko‘pdan-ko‘p qarorlarning yechimi sifatida tadbiq etiladi.

Bozor iqtisodi sharoitida asosiy iqtisodiy muammolarga taallukdi yechimlar markazning ishtirosiz qabul qilinadi. Bozor belgilagan narxlar asosiy muvofiqlashuvchi omil hisoblanadi. Shuning uchun ham erkin bozor tizimini ko‘pincha narx tizimi deb ham atashadi (**Price system**).

Bozor - noyob makon bo‘lib, unda odamlar (individlar) tovarlarni, xizmat yoki ishlab chiqarish omillarini sotish yoxud xarid qilish maqsadida bir-birlari bilan munosabatda bo‘ladi. Bozor asosini almashuv tashkil etadi.

An’anaviy ko‘rinishdan tashqari bozorlar muayyan binolarda joylashtirilishi ham mumkin, ba’zan ancha abstrakt ko‘rinishga ega bo‘ladi. Masalan, chet el valutalari, qimmatbaho qog‘ozlar, zayomlar bozori va hokazo.

Umuman, bozor iqtisodi degan bir xil ma’nodagi aniq tushunchaning o‘zi yo‘q. Uning har xil ko‘rinishda namoyon bo‘lishi mamlakat yoki mintaqaning tarixiy, geografik rivojlanishining va boshqa o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq. Lekin bozor iqtisodiyotiga xos bo‘lgan bir qator asosiy va universal prinsiplar mavjud. Ularga quyidagilar kiradi:

- raqobat (talab va taklif)ga asoslangan baho belgilash tizimi. U faqat tovar va xizmatlarga bo‘lgan narxlarni emas, almashish kurslari, foizl to‘lovlarni ham o‘z ichiga oladi;
- xususiy mulkka egalik qilish (davlat mulki saqlanib qolayotgan ayrim sohalar bundan istisnodir, bunda tijorat tamoyillari qo‘llanishi kerak);
- shartnomaviy munosabatlarga kirishish erkinligi;
- ochiq bozorlar;
- qonun ustuvorligi;
- barqaror valuta.

Bu prinsiplar o‘zaro bog‘liq, ular bozor iqtisodiyotini barpo etish uchun zarur holatlarni yaratish bilan iloji boricha bir vaqtida amalga oshirilishi kerak.

Jahon xo‘jaligi rivojining asosiy bosqichlari va xususiyatlari.

Bozor iqtisodi o‘z rivojida jamiyat ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari rivoji darajasidagi o‘zgarishlarga muvofiq bir qator bosqichlarni bosib o‘tdi. Uning tarixi haqida so‘z borarkan, uning ayrim elementlari, jumladan, talab va taklifning o‘zaro bog‘liqligi necha yillardan beri mavjudligini ta’kidlab o‘tish kerak.

Lekin uzoq o‘tmishda ularning funksiyalari xususiy xarakterga ega bo‘lgan, kapitalizmning rivojlanishi bilan esa orttirgan o‘sha tizimni tashkil qiluvchilik rolini o‘ynagan emas. Birinchi navbatda yollanma mehnat tizimining rivojlanishi bilan bog‘liq yangi ishlab chiqarish munosabatlarining paydo bo‘lishi, ishlab chiqarish quollarining takomillashishi, bug‘ mashinalarining ixtiro qilinishi mehnat unumdorligining keskin oshishiga yordam berdi, bu jamiyat taraqqiyotida muhim rol o‘ynab, tarixda yangi bir davrning kelganini bildirdi. Shuning uchun 1-bosqichning boshlanishini XVIII asr oxiriga - XIX asrning birinchi yarmiga ko‘chirish mumkin, bu davrda mazkur jarayonlar yetakchi tendensiya rolini kasb etdi.

Binobarin, bu bo‘limda yangi davr kapitalistik (bozor) iqtisodi rivojining keyingi bosqichlari xususida gap boradi.

1- bosqich:

XIX asr o‘rtalaridan XX asrning birinchi choragini qamraydi XX asrning 20-yillar oxirigacha jamg‘armalar miqdorining keskin o‘sishi kapitalistik (bozor) iqtisodining o‘ziga xos xususiyati bo‘ldi. Bu:

- ishlab chiqarish kengayishi miqyoslariga;
- milliy daromad ko‘lamiga;
- foydaga;

- kapitalning ortiqcha to‘planishiga taalluqlidir. Lekin shuning bilan birga kapitalistik iqtisodning asosiy tasnifi o‘zgarmasdan qoldi. Darvoqe, u vaqtarda o‘zgarishlar to‘g‘risidagi masala dolzarb emas edi, chunki XX asrning 20-yillarida G‘arbnинг yetakchi mamlakatları xo‘jaliklari yuksak sur’atlar bilan rivojlanib, ishlab chiqarish yangi usulining tantanasini namoyish qilayotgan edi.

2-bosqich:

Bu bosqich "buyuk turg‘unlik" davri bilan, undan chiqish va urushdan keyingi yillar bilan bog‘likdir. Inqiroz sira kutilmaganda, 1929 yilning 24 oktabrida yuz berdi ("qora payshanba"), ushbu paytda AQSHning jamg‘arma birjasida 13 mln aksiya nihoyatda past narxda sotildi. Zavodlar, korporatsiyalar, dehqon fermalari xonavayron bo‘lib yopila boshladi.

Amerika iqtisodi uchun bu mudhish vaziyat quyidagi noxush oqibatlarga olib keldi:

- ishchanlik faoliyati juda pasayib ketdi, buning natijasida mamlakatda sanoat ishlab chiqarish darajasi 1932 yilga kelib 1929 yilda qaraganda 2 barobardan ko‘p qisqardi;
- ishsizlik ortdi, 1935 yilda butun ishchi kuchining 25%ni tashkil qildi;
- boshpanasizlar soni ortdi — 1932 yilda 2 mln kishi;
- hatto millionerlar soni kamaydi; 513 kishidan 20 kishiga tushib qoldi.

Bu ortiqcha ishlab chiqarish tufayli yuz bergan inqirozning xarakterli namunasi edi. Buning bosh sababi - 20-yillardagi iqtisodiy o‘sish davrida kapitalning ortiqcha to‘planib qolishi, ishlab chiqarishni kengaytirishga, qurilishga juda ko‘p mablag‘ sarflanishi, ish haqining juda sekin o‘sishidir. Bu esa o‘z navbatida talabning ortishini cheklab qo‘yardi.

Buning ustiga daromadlardagi tabaqalashuv keskin ortib ketdi. 20-yillar oxirlarida aholining atigi 5% barcha shaxsiy daromadlarning 33 foizini olar edi. Natijada jamg‘arma bilan iste’mol o‘rtasida katta uzilish yuzaga keldi. Daromadlarning o‘sish sur’ati ishlab chiqarish hajmining o‘sishiga nisbatan nihoyatda pasaydi.

Bu tang vaziyatdan chiqish yo‘lini AQSH prezidenti F.Ruzvelt ma’muriyatni taklif qildi va u "Yangi yo‘l" deb atalib, o‘z ichiga mamlakatdagi ahvolni muvofiqlashtirishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlarning butun bir majmuasini olardi.

Jumladan, quyidagi muhim qonun loyihalari qabul qilindi:

- Banklar to‘g‘risidagi favqulodda qonun;
- qishloq xo‘jaligini tartibga keltirish to‘g‘risida;
- sanoatni tiklash to‘g‘risida;
- "ichkilik man etilgan qonun"ni bekor qilish to‘g‘risida;
- mehnat munosabatlari haqida;
- ijtimoiy sug‘urta to‘g‘risida, bu qonunga muvofiq, jumladan, kasaba uyushmalari rasmiy deb e’lon qilindi, ishsizlarga nafaqa to‘lana boshlandi.

Hukumat davlat ishlariga, uy-joy qurilishiga, harbiy kemalar barpo etishga juda katta mablag‘ (3,3 mlrd dollar) ajratdi. Bu tadbirlar odamlarning ish bilan ko‘proq ta‘minlanishiga, ishlab chiqarishning jonlanishiga, oxir-oqibatda talabning ortishiga yordam berdi.

Ish haqining eng kam tarif stavkasi 25 sent, ish haftasining eng ko‘p muddati 44 soat qilib belgilandi.

Hukumat ishsizlar uchun mehnat lagerlari barpo etdi, ular bu yerda ko‘chat o‘tkazishar, yo‘llarni tuzatishar, ko‘priklar qurishardi. Ularning har biri boshpanalik bo‘ldi, ish bilan ta‘minlandi, kuniga 1 dollar ish haqi oldi.

Qishloq xo‘jaligini rag‘batlantirish uchun ham alohida chora-tadbirlar ko‘rildi. Fermerlar don mahsulotlarini davlatga paritet (teng) narxlarda sotish huquqi hamda imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bu xarid narxlari fermerlar sotib olayotgan yonilg‘i, o‘g‘it, texnika va boshqa xarajatlar narxlaridan ancha yuqori qilib belgilangashgagini anglatardi. Bundan maqsad, ishlab chiqarishni daromadli qilish, dehqonlarning xonavayron bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik edi. Ekin ekiladigan yerkarni sotish 3 yilga ta‘qiqlab qo‘yildi. Aks holda millionlab fermerlar qarzları tufayli fermalaridan judo bo‘lardi. Darvoqe, bu qarzlarni uzishda ham hukumat ularga katta yordam berdi.

Bu ishlarga kerak pulni yig'ib olish uchun qishloq xujalik mahsulotlarini qayta ishlab chiqaradigan korxonalarga qo'shimcha soliq solindi. Keyinchalik davlat asosiy qishloq xo'jalik maxsulotlarini ishlab chiqarish uchun har yili norma (bu aslini olganda milliy reja edi) belgiladi. Natijada davlat omborlarida 3 yilga yetadigan don g'amlab qo'yildiki, bu urush yillarida juda asqotdi. Hukumat fermerlarning o'z mahsulotlarini sotishlarida qiyinchilik tug'ilmasligi uchun chetdan mamlakatga olib kelinayotgan tovarlarni ham nazorat ostiga oldi. Bu tartib hozir ham saqlanib qolgan.

Shunday qilib, jahon kapitalizmida ilk bor aholini ijtimoiy himoya qilishning mexanizmlari ishlab chiqildi va qabul qilindi. Bundan maqsad erkin tadbirkorlik tizimini qaytadan tuzib chiqish; unga davlat yo'li bilan tartibga solib turish elementlarini kiritish edi.

F.Ruzvelt bozorni mukammal iqtisodiy mexanizm deb hisoblamasdi, unga (bozorga) davlat quyidagicha tuzatishlar kiritishi bilan ta'sir qilishini e'tirof etardi:

- qo'shimcha talablarni rag'batlantirish bilan;
- davlat buyurtmalarini joylashtirish orqali;
- ijtimoiy sektorda ish joylarini barpo etish bilan;
- milliy daromadni qayta taqsimlash bilan.

3-bosqich:

XX asrning 50-yillari boshlaridan bozor iqtisodiga o'tgan mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishida yangi sifat o'zgarishlari yuz berdiki, ular kapitalizm haqidagi bizga tanish shakl va tasavvurlarga to'g'ri kelmaydi.

Yangi rivojlanishning dastlabki unsurlari 30-yillardayoq namoyon bo'la boshladи, lekin ular qatyi bir shakl va tarixiy ahamiyatini 70-80-yillardagi inqirozlardan keyin kasb etdi.

Bu vaqtga kelib ommaviy uzluksiz standartlashgan ishlab chiqarishning ulkan potensial imkoniyatlari bilan keskin o'sgan ijtimoiy talab o'rtasidagi ziddiyat yanada kuchaydi.

Talab bilan taklif o'rtasidagi bunday ziddiyat ilgarilarini ham bo'lga, lekin ular ilgarilarini vaqtinchalik davriy inqirozlar jarayonida hal etilgan, XX asrning o'talariga kelib vaziyat sezilarli darajada o'zgardi, chunki bu ziddiyatlar endi boshqacha xususiyat kasb etgan edi.

Gap shundaki, kapitalistik sanoat 40-50-yillarda o'tgan texnika bazasi va ishlab chiqarishni tashkil etish turi, ayniqsa, avtomatlashtirish standartlashgan mahsulotning juda katta miqdorini "chiqarib tashlash" uchun yangi imkoniyatlar ochdi, bozorni mahsulotlar bilan tez to'ldirishga yordam berdi. O'z navbatida aholi real daromadlarining ortishi, davlatning ijtimoiy siyosati ijtimoiy bozorning ancha kengayishiga olib keldi.

Aholining dastlabki talablarini to'la qondirilishi, umumiy turmush darajasining oshishi ana shu tutilgan yo'llar natijasi bo'ldi.

Shu munosabat bilan iqtisodiy talab va bozorning mutlaqo yangi holati yuzaga keldi: talab ommaviylikdan yakka tartibdagi talabga aylandi, tovarlar sifatiga yuksak talablar qo'ya boshlandi.

Bundan tashqari, iste'molning yangi turlari - ijtimoiy tovar va xizmatlarga talab paydo bo'ldi:

- turmush sifati;
- atrof-muhit tozaligi;
- bo'sh vaqtini tashkil etish (foydalanish) ehtiyoji va hokazo.

Bunday sharoitda ishlab chiqarish ko'lamini oshirishga asoslangan ishlab chiqarishning ilgarigi usuli va ratsionalizatorlik usullari endi ish bermay qo'ydi, bozordagi o'zgargan talabni qondirish uchun ijtimoiy ishlab chiqarishning prinsip jihatdan yangi texnik tashkiliy bazasi talab etilar edi. Bu esa fan-texnika taraqqiyotini tezlashtirdi, iqtisodiy tizimda xo'jalikni tashkil qilish, o'zaro munosabatlarning prinsipiial boshqa shakllarini yuzaga keltirdi.

Ayni vaqtda yangi bir muammo paydo bo'ldi: ishlab chiqarilayotgan tovarlarni ko'paytirishni ko'zda tutgan iqtisodiy o'sish "resurslarni yamlamay yutadigan" bir holatni yuzaga keltirdiki, bu 90-yillarning boshlariga kelib iqtisodiy o'sish uchun jiddiy xavf tug'dirdi va mavjud sharoitda fan-texnika taraqqiyoti yo'nalishini ko'p jihatdan belgilab berdi.

Bu rivojlanish ishlab chiqarishga bo‘lgan yangi talablar endi faqat texnik omil bilan ta’minlanmasligini ko‘rsatdi. Mazkur omil XX asr boshlari va o‘rtalarida industrial jamiyat muammolarini hal etar edi. Endi, o‘tgan yuz yillikning oxirgi 3-qismida u iqtisodiy jarayonlarni ratsionallashtirishdagi birinchilikni inson omiliga bo‘shatib berdi. Chunonchi, Yaponiyaning "Mazda" avtomobil kompaniyasi besh yil davomida (1975-1980) "ishlab chikarishning yangi turi sari sakrash qilganida va mehnat unumdorligini 2,5 barobar oshirganida, o‘sishniig 80% yangi texnika yoki yirik mablag‘ sarflash bilan bog‘liq bo‘lmadi".

XX asrning so‘nggi o‘n yilligini jahon xo‘jaligi taraqqiyotidagi uchinchi davning eng muhim bosqichlaridan biri, deb hisoblash mumkin. Geografik makonni o‘zlashtirish, xalqaro. qator hollarda esa global miqyosda ishlab chiqarish kuchlarini shakllantirish darajasi ko‘tarildi, o‘zaro iqtisodiy hamkorlik va bir-biriga bog‘liqlik kuchaydi. Sharqiylar mamlakatlarida g‘arb davlatlaridagi yaqin bo‘lgan iqtisodiy-siyosiy tuzilmalarni shakllantirish hamda barpo etish jarayonlari avj oldi. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarida 96-yillar boshlaridan beri amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar ushbu mamlakatlar iqtisodiyotini xo‘jalik yuritishni bozor shartlariga moslashtirishga hamda jahon xo‘jaligiga yanada chuqurroq integratsiya qilishga qaratilmoqda. Jahon iqtisodi o‘z taraqqiyotida yangi bosqichga ko‘tarilishi mamlakatlar o‘rtasidagi hamkorlikning faollashuviga, ularning iqtisodiy-siyosiy tuzilmalari o‘rtasidagi hamjixatlikning yanada kuchayishiga olib kelishi mumkin.

90-yillardagi jahon iqtisodi taraqqiyotida ro‘y bergen hamda shu o‘n yillik o‘rtalariga kelib ro‘y-rost namoyon bo‘lgan muhim xususiyat shundan iboratki, sanoatdagi inqiroz sekin-asta, garchi izchil bo‘lmasa ham, lekin aniq-ravshan bartaraf etila boshlandi.

Chunonchi, AQSHda iqtisodiy o‘sish sezilmoqda; Yaponiya turg‘unlikdan ko‘tarilmokda; Buyuk Britaniyada uzoq davom etgan stagnatsiya davri tugadi.

Statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, umumiy jahon iqtisodi oxirgi yetti yildan beri bosqichli yuksalish pallasida turibdi. Chunonchi, 1995 yilga kelib, u YAIMning o‘sish sur’atlari darajasi bo‘yicha keyingi 25 yil ichida o‘rtacha mavqega chiqib oldi, ya’ni bir yilda qariyb 3,5 foizga ko‘paydi. Biroq taxminan 1997 yilning o‘rtalaridan e’tiboran iqtisodiy yuksalish sur’ati pasaya boshladi, bu hol 1998 yilning birinchi yarmida kuchliroq sezila boshladi. Xalqaro valuta jamg‘armasi (XVJ) ekspertlarining hisob-kitoblariga ko‘ra YAIMning jahon xo‘jaligidagi o‘sishi 1998 yilda turg‘un narxlarda 3,1 foizdan iborat bo‘lgan.

Shunga qaramay, iqtisodiy yuksalishdagi bu oqsoqlik har holda konyukturada yuz bergen vaqtincha parokandalik bilan bog‘liq ko‘rinadi. Ekspertlarning ta’kidlashicha, Janubi-Sharqiylar Osiyo mintaqasida 1997 yilda ro‘y bergen moliyaviy-iqtisodiy tanglik oqibatlari jahon ishlab chiqarishining rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Yana shu tangliqdan eng ko‘p zarar ko‘rgan besh mamlakat (Janubiy Koreya, Tailand, Indoneziya, Malayziya va Filippin) ulushiga hozir jahon YAIMining taxminan 2,7 foizn to‘g‘ri keladi, ammo Osiyoda ro‘y bergen bu tanglik global darajadagi savdo va investitsiya aloqalari tizimi orqali dunyodagi ko‘pgina mamlakatlarga u yoki bu darajada ta’sir ko‘rsatdi.

Shunga qaramay, dunyo xo‘jaligida o‘zaro raqobat qiluvchi uchta asosiy markazda keyingi paytlarda vaziyat turlicha tus oldi. Masalan, AQSHda qatorasiga olti yil davomida barqaror iqtisodiy yuksalish ko‘zga tashlanmoqda: YAIMning o‘sish sur’atlari barqaror narxlarda 1996 yildagi 3,8 foizdan 2003 yilda 5 foizga ko‘tarilib, keyingi 10 yil ichida eng yuqori cho‘qqiga erishdi, sanoatdagi ishlab chiqarish hajmi esa shu yillarda 2,7 foizdan 4,7 foizga ko‘paydi. 2003 yilga kelib ishsizlik darajasi ham pasayib, 4,2 foizni tashkil etdi, bu keyingi chorak asrdagi eng past ko‘rsatkichdir.

Yevropadagi yetakchi davlatlarning ko‘pchiligi yuksalish pallasiga AQSHdan keyin qadam qo‘yanligi sababli bu yuksalish alomatlari 1997 yilning ikkinchi yarmidagina namoyon bo‘la boshladi.

Bu mintaqada iqtisodiy faollik oshgan bo‘lsada, bu narsa bandlik sohasidagi ahvolga hozircha sezilarli ta’sir qilganicha yo‘q: mehnatga yaroqli aholining umumiy miqdorida ishsizlar soni 2003 yilda ancha yuqori darajani tashkil etdi - bu raqam 8,3 foizdan iborat bo‘ldi.

Keyingi yillar davomida Yaponiyada iqtisodiy vaziyat ancha yomonlashganligi sezildi.

Barqaror narxlarda iqtisodiy o'sish 1996 yildagi 5,1 foizdan 1998 yilda - 2,8 foizga tushib qoldi. Biroq, 2001-2003 yillar ko'rsatgichlari sezilarli o'zgarishlarga asos bo'lmokda.

AQSH bilan sanoati rivojlangan boshqa mamlakatlarning taraqqiyot darajalari o'rtasida 50-70-yillarda ro'y bergan o'zaro tenglashuv jahon xo'jaligi rivojida muhim belgi bo'ldi. Olti yetakchi mamlakatning (AQSHdan so'ng) YAIMi 1955 yilda AQSH YAIMning 74 foizini tashkil etgan bo'lsa, 1970 yilda 114 foizgacha ko'tarildi. Biroq bularning birortasi ham alohida, o'z holicha AQSH iqtisodining taraqqiyot darajasiga yaqinlasha olmadi. Ammo ayni paytda AQSH iqtisodining dunyodagi karvonboshlik o'rni o'z mohiyatini yo'qota boshladi. Bu holat raqobatda uchta markaz: AQSH-Yaponiya-Harbiy Yevropa shakllanganligida namoyon bo'ldi.

Xozirgi paytda rivojlanayotgan mamlakatlarning istiqboli ham ancha yaxshilangan bo'lsada, bu guruhdagi ba'zi mamlakatlar va mintaqalardagi vaziyat mutlaqo bir xil emas.

Iqtisodiyotdagi jonlanish 80-yillardagi turg'unlikdan, mutaxassislar "boy berilgan o'n yillik" deb atagan davrdan so'ng boshlandi.

Mutaxassislarning fikricha, 1997 yil iqtisodi o'tish davriga xos mamlakatlar uchun burilish yili bo'ldi. Sharqiy Yevropa, Boltiqbo'yi va MDHdagi 25 davlatda iqtisodiy islohotlar amalga oshirilgan 7 yil ichida birinchi marta YAIM borasida kamayishdan ko'payishga erishildi. Sharqiy Yevropa va Boltiqbo'yi davlatlarida iqtisodiy rivojlanish sur'atlari 1997 yilda bir muncha sustlashdi, biroq MDH hududida xo'jalik faoliyati bir muncha jonlanganligi sababli bu sustlashuvning kuchi kamaydi. Ushbu hududda YAIM ishlab chiqarishdagi pasayish 1996 yilda 4,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 1997 yilda o'sish yana 0,8 foizga ko'tarildi. 2003 yilga kelib YAIM o'sishi ko'pgina Sharqiy Yevropa va ayrim MDH davlatlarida 2,5-6 foizni tashkil etdi. O'zbekistonda ushbu ko'rsatkich oxirgi (1996-2003) yillarda muntazam 4-5 foizga ko'tarilmokda.

Bozor iqtisodi rivojidagi zamонавиy tamоyillar.

Mavjudlikning yashashga qobil eng maqbul usullarining "tabiiy tanlab olinishi" natijasida qator yangi tamoyillar shakllandiki, ular bugungi kun kapitalizmining qiyofasini, uning XIX va XX asr boshlaridagi tamoyillardan "chekinishini" belgilab berdi. Biz quyidagi beshta tamoyilni ajratishni lozim topdik:

1. Chunonchi, o'tgan asrning o'talaridan kapitalizmnning muhim tamoyillaridan birining, ya'ni ishlab chiqarishning konsentratsiyalashuvi: korxonalar ko'lami ortishi, bir firmanın tarmoq ishlab chiqarishidagi ulushi o'sishi, bir kompaniya doirasida bir turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish ko'lami kengayishi kabilar muayyan inqirozga uchragani ko'zga tashlandi.

AQSHning qayta ishlovchi sanoat korxonalarida ishlab chiqarish konsentratsiyalashuvining dinamikasi (sanoat so'f mahsulotining shartli ulushi), foiz hisobida:

korxonalar, ularda ishlovchilar soni	1954	1967	1998	2003
1-99	21,5	20,0	21,5	23,4
100-999	41,5	42,0	48,3	49,4
1000 va ko'proq	37,0	38,0	30,2	28,2

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rindaniki, AQSHda 70-yillarning oxirida mingdan ortiq kishi ishlaydigan yirik korxonalar soni keskin kamaydi, ayni vaqtida 999 va undan kam odam ishlaydigan o'rtacha korxonalar soni ortdi. Umuman olganda, agar bu yerda 1970 yilgacha tashkil etilgan korxonalarda ishchi-xizmatchilarning o'rtacha soni 644 kishini tashkil qilgan bo'lsa, 80-yillarda tashkil etilganlarida atigi 210 kishini tashkil qildi, ya'ni 3 barobar kam edi.

2. Korxonalar ko'laming qisqarishi bilan bir vaqtida (yoki shu tufayli) mayda (mulk) kapitallar ahamiyati ortadi. Bozordagi talabning o'zgarishi munosabati bilan rivojlanan iqtisodning bir qator tarmoqlarida mayda yakka xo'jaliklar:

- katta iqtisodiy samaradorlikni;

- bozordagi vaziyatning o‘zgarishi bilan o‘z yo‘nalishini tezda o‘zgartira olish qobiliyatini;

- yirik kompaniyalarga nisbatan yangi ilmiy-texnik g‘oyalarni tezroq qabul qila olishini ko‘rsatdi.

Hozirgi vaqtida Yaponiyada o‘rta va kichik korxonalar ulushi mamlakatdagi barcha korxonalarning 90%ni tashkil etadi, ularda taxminan 45 mln. kishi ishlaydi. Bu yerda kichik va o‘rta kompaniyalar maqomini belgilovchi korxonalar senzi qonunan aniqlashtirilib qo‘yilgan. U, birinchidan, ishlovchilar sonini faoliyat turiga qarab tabaqalashtirilgan holda cheklashni o‘z ichiga olsa, ikkinchidan nizomiy kapitalni cheklaydi.

3. Bozorlardagi yangi vaziyat (iste’molchilar talabining ortishi, uning ilmni ko‘p talab qiladigan mahsulotlar turini ko‘proq xarid qilishi, tovarlar xilma-xilligi, sifatiga alohida talablar qo‘yishi va h.k.) xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘zaro munosabatlarida xilma-xil moslashuvchan vositalarning bo‘lishiga, ularning davlat va iste’molchilar bilan aloqalariga alohida talab qo‘yadi.

Boshqacha qilib aytganda, xo‘jalik yuritish mexanizmining yangi turi talab qilindiki, bu mahsulotni ishlab chiqarishning bozor qonunlariga asoslangan xo‘jalik yuritish erkinligini ishlab chiqaruvchilar tomonidan iqtisodiy jarayonlarga muntazam ta’sir ko‘rsatishi orqali olib borildi.

4. Mulkchilik shakllarining ko‘pligi yoki mulkchilik sohalarining keng demokratlashtirilishi ularning o‘zaro ta’sir qilishining qism, shakllarining moslashuvchan hamda xilma-xil bo‘lishini taqozo etadi.

Masalan, AQSHda 80-yillarning o‘rtalarida 16 mln. dan ortiq har xil turdagি korxonalarning:

- 70% yakka mulkdorlar qo‘lida bo‘lgan;
- 10% 2 yoki undan ko‘proq shaxslarga qaragan (sherikchilik);
- 20% korporatsiya yoki aksiyadorlik korxonalari bo‘lgan. Ko‘rinib turibdiki, son jihatidan yakka (individual) mulkdorlar korxonalari ko‘proq, lekin ularning ko‘pchiligi mayda va juda kichik korxonalar bo‘lib, ular ishlab chiqarishda ham, savdoda ham, xizmat ko‘rsatish sohasida ham yordamchi ishlarni bajargan.

Bugungi kunda mamlakat iqtisodida korporatsiyalar hal qiluvchi rol o‘ynaydi, ular AQSHda 3 mln. dan ortiq. Lekin korporatsiya yakka mulk emas, balki akiyyadorlik mulki hisoblanadi, garchi u xususiy mulkdan o‘sib chiqqan bo‘lsada, o‘zining iqtisodiy holati, qayta ishlab chiqarish usuliga ko‘ra, assotsiatsiya mulkiga qo‘shilib ketdi.

Hozirgi sharoitda ayni shu aksiyadorlik mulki bozor iqtisodining asosini tashkil etsada, avval boshidanoq kapitalizmga xos bo‘lmasan.

XIX asrning 30-yillarigacha aksiyadorlik jamiyatlari nisbatan kam uchrardi. Yakka mulk egalariga qarashli korxonalar kapitalistik korxonalarning asosiy shakli hisoblanardi.

AQSHda XIX asrning 30-yillarida boshlangan temir yo‘l qurilishi aksiyadorlik mulkchiligining rivojlanishiga turki bo‘ldi. Uning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardir:

- birinchidan, u umumiqtisodiy manfaatlarni ifoda etardi;
- ikkinchidan, ayrim kapitalistlarning mablag‘i qanchalik ko‘p bo‘lmashin, bu ishni eplay olmasdi. Natijada sa’y-harakatlarni birlashtirish zarurati tug‘ildi.

Aksiyadorlik jamiyatlarining soni o‘tgan yuz yillikda tez o‘sa boshladi. Chunonchi, 1914 yilda ular jami 300 ta bo‘lsa, 1937 yilda 530 mingga yetdi. 1965 yilda 1,4 mln. dan oshib ketdi, 80-yillarning o‘rtalarida esa, 3 milliondan ko‘proqni tashkil etdi.

Jahondagi eng yirik korporatsiyalar amerikaliklarniki, 1990 yillarda AQSHning eng yirik 540 korporatsiyasi 3,4 trillion dollar miqdorida mahsulot ishlab chiqarardi va xizmat ko‘rsatardi, bu mamlakat yalpi milliy daromadining 46 % dan ko‘prog‘ini tashkil qilib, bu korxonalarda 14,2 mln. kishi ishlardi.

Aksiyadorlik korxonalari hozirgi kunda mamlakatning qayta ishlovchi sanoati mahsulotining 80%dan ortig‘ini ishlab chiqarmoqda.

Hozirgi zamon kapitalistik iqtisodida tadbirkorlikning turli shakllari o‘rtasida rollarni taqsimlashning o‘ziga xos bir usuli paydo bo‘ldi:

- kichik, mayda korxonalar mahalliy bozorlarga xizmat qiladi.

- yirik korxonalar ommaviy ishlab chiqarish bilan band bo‘lib, ular milliy va jahon bozorlariga xizmat qiladi.

Shu bilan birga turli transmilliy korporatsiyalar (TNK) faoliyatida muayyan ixtisoslashish qaror topdi. Agar sanoat sohasida Amerika korporatsiyalari ustunlik qilgan bo‘lsa, jahon bank ishlarida Yaponiyaning qo‘li baland keldi. 2003 yilda jahoning 10 yirik tijorat banklari ichida Yaponiya banklari yetakchi o‘rinni egalladi.

O‘z navbatida mulkchilik turli shakllarining samaradorligi ularning muvaffaqiyatli birlashuvi jarayonida yanada ortdi. Masalan, avtomobil sanoatida, tijorat xizmatlari sohasida yirik korporatsiyalar bilan mayda xususiy firmalar o‘rtasida shartnomha, ijrarachilik munosabatlari tizimi yuzaga keldi.

5. Hozirgi zamon iqtisodiy munosabatlari inson (shaxs) imkoniyatlaridan iloji boricha ko‘proq foydalanishga qaratilgan bo‘lib, ularning samaradorligi mana shu omilga bog‘liqdir. Zero, inson omili faqat texnik-iqtisodiy bazisdagina emas, balki:

- ishlab chiqarishni tashkil etish shakllari va xo‘jalik jarayonlarining almashinuvida;
- boshqaruv tizimlari va hokazolarda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Hozirgi zamon bozor iqtisodida inson omilining roli.

Ishlab chiqarishda inson omili rolining ortib borishi birinchi galda ishlab chiqarish vositalari va texnologiyaning yangi avlodni bilan bog‘liqdir.

Buning natijasida yollanma xodimning ishlab chiqarish jarayonidagi roli butunlay o‘zgardi. U oddiy ijrochilikdan faol ijodiy mehnatga o‘tdi.

Fundamental ilm bazasi asosida ishlab chiqilgan, qayta sozlashga, o‘zgartirishga moslashuvchan mehnat vositalari va texnologiya xodimdan keng qamrovli malakanii, ilmni, intellektual salohiyatni talab qiladi.

O‘z navbatida mana shu xususiyatlarga ega bo‘lgan ishchi kuchining mavjudligi yangi avlod ishlab chiqarish vositalarini o‘zlashtirishga imkon beradi.

Shunday qilib, yangi tipdagisi xodimsiz texnik omil imkoniyatlaridan to‘la foydalanib bo‘lmaydi.

Rag‘bat (bois).

Xodimning ishlab chiqarishdagi mavqeining o‘zgarishi uning mehnatini rag‘batlantiruvchi omillarning o‘zgarishiga olib keldi. Agar ilgari mehnatni rag‘batlantirish asosan moddiy vositalar (ish haqi, mukofot va h.k.) bilan cheklangan bo‘lsa, hozirgi sharoitda vaziyat butunlay o‘zgardi.

Bugungi kunda mehnatni rag‘batlantirish xodimning faqat o‘z mehnati natijalaridan emas, balki o‘zi ishlayotgan jamoa mehnati natijalaridan manfaatdor bo‘lishini ham talab etadi, chunki ishlab chiqarish turli bo‘g‘inlarining o‘zarobir-biriga bog‘liqligi nihoyatda ortdi.

Rag‘bat uchun yangi omillar: xodimning jamoaga tegishli qaror qabul qilishga taalluqliligi, boshqarishga ham o‘z korxonasi, ham butun mamlakat mulkiga daxldorlilagini anglatuvchi omillar yaratildi.

Yuqorida xodimlarning mulkka munosabati sharti xususida gapirib o‘tdik. bu munosabatlar hozirgi sharoitda tubdan, uning aksiyadorlik shaklining rivojlanishi orqali o‘zgaradi.

Lekin tajriba shuni ko‘rsatdiki, ishchi-xizmatchilar mulkining o‘zi alohida olganda yomon firmani yaxshi qila olmaydi, o‘sha kompaniyalarning aksiyalariga ega bo‘lgan ishchilar mehnatidan foydalangan AQSH kompaniyalari faoliyatini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, mehnatkashlarning "firmaga egaligi" ularni ishlab chiqarishni boshqarishda ishtirok etishi bilan qo‘sib olib borilmaguncha, ularni yana ham "ko‘proq" g‘ayrat-shijoat ko‘rsatib ishslashga majbur qilib bo‘lmaydi.

Shuning uchun ham bu yerda ishchilarni ishlab chiqarishni boshqarishga jalb qilish konsepsiysi keng rivojlandi, zero, bu korxona ma’muriyati uchun mehnat unumdarligini

oshirish, mahsulot sifatini yaxshilashning eng samarali vositasidir. "Jeneral motors", "Ford motor", "Kraysler" singari gigant korxonalar bu vositani faol joriy etishmoqda.

Bu konsepsiyanı hayotda amalga oshirish shakllaridan biri - o'zini-o'zi boshqaradigan ishlab chiqarish guruxlarini tashkil etishdir, ular boshqarish, ishni va ta'tillarni rejalashtirish, materiallarga buyurtma berish huquklariga ham ega. Bu yerda ishlab chiqarish jarayonini ishchilarning o'zi nazorat qilib boradi. Binobarin, nazoratchilar kerak bo'lmaydi yoki ularning soni ancha qisqaradi.

Mehnatni tashkil qilishning brigada usuli o'zining samaradorligini isbotladi. Qator hollarda u mehnat unumdorligini 30% oshirishga imkon beradi.

AQSH statistika boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, 80-yillarning oxirida 476 yirik kompaniyalardan 70%i ushbu konsepsiyaning umumiyligi shakllarini joriy qilishdi - muammolarni hal etishning "sifat guruxlari" nomi bilan mashhur bo'lgan brigada yoki qo'mitalarni barpo etishdi.²

Mehnat va ishlab chiqarishni tashkil etish yangi shakllarining keng yoyilishi shuni ko'rsatdiki, Amerika kompaniyalari yaponlardan keyin hozirgi sharoitda inson omili (faqat texnika yoki marketing emas) muvaffaqiyat kaliti ekanligiga tobora ko'proq ishonch hosil qila boshladi.

Yangi davr boshlanishi bilan ishlovchilarning ishlab chiqarishdagi ishtiroki, ularning mehnatga, unumdorlikdan mahsulot sifatigacha bo'lgan elementlarini takomillashtirishga bo'lgan ongli (manfaatli) munosabati yanada yorqin namoyon bo'la boshladi.

Iqtisodiy munosabatlarning barcha sohalarida (ishlab chiqarish, boshqaruv va h.k.) inson omili ahamiyatining ortishi iqtisodning intellektuallashuvini anglatadi. Hozirgi vaqtda bu masala qator yetakchi mamlakatlar uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Jumladan, Yaponiyada mamlakat iqtisodiy va fan-texnika taraqqiyotining davlat dasturida xodimlarni intellektuallashtirish, ularning umumiyligi bilimini oshirish sari maxsus harakat ko'zda tutilgan.

Bu harakat "ilmni ko'p talab qiladigan texnologiya bilan madaniyat qo'lni qo'lgan berib qadam tashlashi"ni nazarda tutadi. Shuning uchun garchi yapon ishchisi dunyodagi eng bilimli ishchi hisoblansada, mamlakatda maktab ta'limida iste'doddarni rivojlantirishni rag'batlantirish, o'quvchining individual ijodiy imkoniyatlarini o'stirish tomon burish vazifasi qo'yilayapti.

Shuni ta'kidlash kerakki, "inson materiali"ni takomillashtirishga intilish Yaponiya uchun an'anaviy holdir. Ayni o'sha muhandis yoki ishchining yuksak qobiliyati urushdan keyin mamlakatni texnik jihatdan rivojlantirishga, uni qisqa muddat ichida iqtisodiy qudratli mamlakatga aylantirishga ko'p tomondan yordam berdi.

Shaxsning malakaviy sifatlarini rivojlantirish, uning umumiyligi madaniy saviyasini oshirish ishlab chiqarishni zamon talablariga ko'ra takomillashtirishga hamda talab rivojini takomillashtirish orqali butun iqtisodni qayta qurishga rag'batlantiradi.

Hozirgi sharoitda bozor munosabatlari orqali mamlakat aholisi madaniyati bilan uning milliy xo'jaligi (madaniyat - talab - ishlab chiqarish) rivoji darajasi o'rtasida yaqin aloqa mavjudligi, ularning bir-birlariga bog'liqligi xususida gapirish mumkin.

Bozor iqtisodiga o'ggan davlatlar ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasining rivoji (kapitalizmning "sotsiallashuvi").

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan jarayonlarning rivojlanishi:

- ishlab chiqarishni tashkil etish va uni boshqarish tizimidagi o'zgarishlar;
- mulkchilik shakllarining rivoji va ularning o'zaro munosabatlari;
- yollangan xodimlarning faqat boshqaruvda emas, iqtisodiy va ijtimoiy qarorlarni qabul qilishda teng huquq bilan ishtirok etishi;

² Bunday guruqlar dastlab Yaponiyada paydo bo'ldi. Ular faqat tavsiyanomalar berar, ularga mehnatni qayta tashkil etish, ishchilarning mehnat jarayonidagi rolini oshirish vakolati berilmagan edi.

- yollangan xodimlarning mulkka va kapitalga egalik qilishda birga ishtirok etishi jamiyat ijtimoiy tuzilmasining o‘zgarishiga, uning qaror topgan mulkchilik munosabatlari orqali bir holatdan ikkinchi holatga o‘tashiga olib keladi.

Holbuki, turli mamlakatlarda bu o‘zgarishlar individual xarakterga ega bo‘lib, u yoki bu jamiyatning tarixiy qaror topgan o‘ziga xos xususiyatlari bog‘liqlir.

Shuning uchun ham kapitalizm bugun universallikdan ancha yiroq, iqtisodchi olimlar uning turli modellarini muhokama qilishmoqda.

Amerika modeli - bunda firmalar bozorni juda ko‘p qadrli aksiyalar bilan ta’minlab turadi. Bu yerda aksiyalarning ko‘p sonli ojiz egalari bo‘lgani holda kuchli menejer asosiy rol o‘ynaydi.

Yaponiya modeli — bunda aksiya egalari manfaatlarining murakkab chatishib ketganligi oqibatida firma va banklar bir-birlariga bog‘langan.

Germaniya modeli — bunda banklar kompaniyalarni nazorat qilib borishadi va ular ikki rolni — ham aksionerlar, ham kreditorlar rolini bajarishadi.

Lekin variantlar qanchalik ko‘p va xilma-xil bo‘lmisin, bu davlatlar iqtisodining "sotsiallashuvi" bozor iqtisodiga o‘tgan yetakchi davlatlar rivojida umumiy belgilovchi tamoyillardan biri hisoblanadi. Bu shu bilan bog‘liqki, urushdan keyingi davrda korporativ shakldagi xususiy mulkchilik ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga, jamiyatning gullabyashnashiga tobora ko‘proq to‘sinqlik qila boshladi, jamiyatning katta qismi bo‘lmish ishchixizmatchilar mulkka egalik qilishdan chetlashtirib qo‘yiddi. Natijada aholi turmush darajasining ko‘tarilishi bilan daromadlarining ko‘p qismi ishlatilmasdan qoldi, xo‘jalik oborotiga kiritilmadi. Mulk egalarida aholini ortiqcha mablag‘ini ishlab chiqarishga jalb etish g‘oyasi vujudga keddi. Buning ustiga 60-yillarda bir qator rivojlangan mamlakatlarda "xalq korxonalari" deb atalmish korxonalar paydo bo‘ldi va ular faqat o‘sha yerda ishlayotgan xodimlar mulki hisoblanadi.

Jumladan, AQSHda "xalq korxonalari" tizimining rivojlanishiga mamlakat Kongressi faol yordam berdi. Bu yerda "xodimlarning aksiyadorlik mulkini yaratish rejasi" (ESOP) deb atalgan tadbirni rag‘batlantirishga qaratilgan 25 dan ortiq federal qonunlar qabul qilindi. Bu qonunlarda turli imtiyozlar ko‘zda tutilgan: soliq bo‘yicha, hukumat zayomlari, ular yuzasidan kafolatlar, savdo siyosatidagi rag‘batlantirishlar, imtiyozlar, milliylashtirishga qarshi federal siyosatini o‘tkazishdagi imtiyozlar.

Bundan tashqari, xususiy kompaniyalar xodimlarini aksiyadorlik kapitaliga birgalikda egalik qilishga rag‘batlantirish maqsadida 50 ta shtatning taxminan yarmida qonunlar qabul qilindi.

Mana shu ESOP dasturini rag‘batlantirish maqsadidagi qonunlar tufayli 70-yillarning o‘rtalaridan boshlab aksiyadorlik kapitalining 1%dan 100% gacha xodimlarga tegashli bo‘lgan kompaniyalar soni taxminan 10-12 mingtaga yetdi.

ESOP dasturidagi kompaniyada aksiyalarning 20-30%ni xodimlarga tegishlidir. Kompaniyalarning 15-20%ida xodimlar aksiyaning bundan ko‘proq qismiga, faqat 3% da aksiyalarning 100%iga egalik qiladi.

Hozirgi kunda ESOP dasturiga taalluqli Amerika kompaniyalarida salkam 12 mln. xodim ishlaydi, bu AQSH butun ishchi kuchining deyarli 10% ni tashkil etadi. ESOP "trastlaridagi" aksiyadorlik kapitalining umumiy miqdori taxminan 65-70 mlrd ni tashkil qiladi.

Aksiyalarning yakka egalari soni o‘sayotgan G‘arbiy Yevropa va AQSHdan farqli o‘laroq Yaponiyada aksiyalarga korporativlararo egalik qilish o‘smoqda va yakka egalik qiluvchilar ulushi sezilarli darajada pasayib bormoqda (amaldagi kapitalning atigi 1,1%ni tashkil qiladi).

Buning oqibatida, bu yerda ishchi-xizmatchilarning boshqaruvga munosabati tamoman boshqacha bo‘lib, menejerlar, ya’ni boshqaruv o‘quvlarini egallagan mutaxassislar hal qiluvchi rolni o‘ynaydi.

Ishlab chiqarishni tashkil etishning yaponcha modelining o‘ziga xos xususiyati firmalarni boshqarish tizimining xususiyatlari va yollanma mehnat mavqeидаги siljishlardan kelib chiqadi. Jumladan, bular:

- bir umrlik yollanma mehnat tizimi - bu muhim ijtimoiy ahamiyatga ega (lekin yosh avlod ta'sirida hozir bu borada ham sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda);

- boshqaruv xodimlari bilan ishchi-xizmatchilar o'rtasidagi munosabatlar tizimi; "ular o'rtasidagi aloqa va maslahatlar tizimi" deb atalmish tizim yoki "hamkorlik asosidagi boshqaruv tizimi".

Yaponiya Mehnat instituti ma'lumotlariga ko'ra, bu tizim korxonalarining 80% dan ko'prog'ini qamrab oladi.

Tizim mohiyati: turli firmalarda korxona faoliyatiga doir asosiy masalalar yuzasidan qarorlar ishlab chiqish, ularni amalgalash oshirishda xodimlar fikr-mulohazalari so'raladi va ular hisobga olinadi. Bu mehnatni tashkil qilish, unga haq to'lash, xodimlarning boshqa ijtimoiy manfaatlari oid masalalar bo'lishi mumkin. ya'ni bunda xodimlarni firma ishlarini boshqarishga faol jalg etash, unda ishtirok qilish tizimi alohida ahamiyat kasb etadi, ishchi-xizmatchshtar manfaatlari firma manfaatlari bilan birlashib, tenglashib ketadi. Shunday qilib, iqtisodiy o'z-o'zini boshqarish modeli shakllanadi va rivojlanadi. Bu model yakka aksiyadorlik mulkchiligi bilan qo'shilib ketmaydi. Aftidan, bunday sharoitda kasaba uyushmalariga bo'lgan qiziqishning pasayishi tabiiy. Yaponiyada ishchi-xizmatchilarning 3/4 qismi kasaba uyushmalariga a'zo emas. Mutaxassislar buni iqtisodni tashkil etish va uni boshqarishning "kapitalizmdan keyingi o'tkinchi tuzilishi" deb atashadi, buida yana mazkur tuzilgan "sotsialistik iqtisod amal qilishi elementlarini ko'p jihatdan ijodiy o'zlashtirganini" ta'kidlab o'gashadi.

Bozor iqtisodining "sotsiallashuvi" deganda kapitalizmning totalitar mulkchiligi sotsializm tomon o'zgarishi deb o'yamaslik kerak. Bu o'rinda iqtisodiy tizimning sotsiallashuvi, mulkni demokratlashtirish, milliy iqtisod obyektlariga egalik qilish, boshqarishga aholining keng tabaqalarini jalg qilish xisobiga uning ijtimoiy bazasini kengaytirishni anglatadi. Hozirgi sharoitda rivojlangan ko'pchilik mamlakatlar iqtisodi asl mohiyati bilan "aralash" yoki "ijtimoiy bozor" iqtisodi hisoblanadi.

Yuqorida fikrlarni umumlashtirish bilan shunday xulosaga kelish mumkin:

1. Iqtisodiy tizimlar bir-birlaridan quyidagi tomonlaribilan farq qiladi:

- asosiy iqtisodiy masalalarni hal qilish usullari;
- ijtimoiy tuzilishi;
- mulkka munosabati, nazorat va maqsadlari.

2. Agar an'anaviy iqtisod sharoitida ishlab chiqarish va taqsimlash masalalari belgilangan an'analarga muvofiq hal qilinsa, buyruqbozlikka asoslangan tizimda markaziy davlat tomonidan hal etiladi, bozor iqtisodida esa asosiy muvofiqpashtiruvchi kuch - bozor belgilab bergen narx-navolar hisoblanadi.

3. Bozor iqtisodi nihoyatda xilma-xil bo'lib, mamlakat yoki mintaqaning tarixiy, geografik, iqtisodiy rivojining, o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq. Lekin uning barcha xilma-xil ko'rinishlariga qator universal prinsiplar xosdir. U taraqqiyoti davomida sifat jihatidan qator a'lo bosqichlarni bosib o'tdi: birinchi bosqichning xarakterli belgisi - daromadlarning pastlashgani holda mikdoriy jamg'armalarning nihoyatda tez o'sishi bo'ldi. Ikkinchi bosqich davrida ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlarning o'tkazilishi tufayli bu tengsizlik ancha barham topdi.

Nihoyat, 50-yillarning o'rtalaridan bozor iqtisodi rivojida qator yangi voqealar sodir bo'libdi-ki, bu uning taraqqiyotida chuqur sifat jarayonlari yuz berayotganliginn anglatar edi.

4. Hozirgi zamon iqtisodiy munosabatlarida inson omilining roli, uning mehnatini rag'batlantiruvchi omillar prinsip jihatdan tamoman o'zgardi. Bozor iqtisodining intellektuallashuvi hozirgi zamon bozor iqtisodining rivojida yuz bergen yangi sifat o'zgarishlari sirasiga kiradi.

5. Bozor iqtisodida zamonaviy jarayonlarning rivojlanishi jamiyat ijtimoiy tuzilishining o'zgarishiga, uning qaror topgan mulkchilik munosabatlari o'zgarishi orqali transformatsiya bo'lishiga (bir shakldan ikkinchi shaklga o'tishiga) olib keladi.

SEMINAR MASHG'ULOTI REJASI

1. Jahon iqtisodi tushunchasining mohiyati, uning xususiyatlari.
2. "Jahon iqtisodiyoti" fanining predmeti nima va u jamiyat taraqqiyotining qanday masalalarini o'rghanish va tushuntirishga mo'ljallangan?
3. Iqtisodiy tizimlarning asosiy tizimchalari va ularning xususiyatlari.
4. Iqtisodiy tizim tuzilishining asosiy tarkibiy qismlari.
5. Iqtisodiy tizimlarning zamonaviy xillari va ularning xususiyatlari.
6. Bozor iqtisodiyotining mohiyati va asosiy tamoyillari.
7. Bozor iqtisodi rivojlanishining asosiy bosqichlari va ularning xususiyatlari.
8. Bozor iqtisodi rivojlanishining hozirgi tendensiyalari.
9. Hozirgi bozor iqtisodida inson omili rolining va uning mehnatini rag'batlantirish usullari evolutsiyasi.
10. Hozirgi bozor iqtisodining "sotsiallashuvi" va uning sabablari.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-t. Toshkent, "O'zbekiston", 1996.
2. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-tom. Toshkent, "O'zbekiston", 1999.
3. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. 8-tom. Toshkent, "O'zbekiston", 2000.
4. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l - demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. "Xalq so'zi". 2003 yil 25 aprel.
5. Karimov I.A. Erishgan marralarimizni mustahkamlab, islohotlar yo'lidan izchil borish - asosiy vazifamiz. "Xalq so'zi". 2004 yil 10 fevral.
6. Басавский А.Е. Мировая экономика: Курс лекций. — М., ИНФРА-М, 2003.
7. Булатов А.С. Экономика. М., 1996.
8. Королева И.С. Мировая экономика. Глобальные тенденции за 100 лет. М, Экономист, 2003.
9. Кругман Р., Обстфельд М. Международная экономика — М., Пигер, 2004.
10. Шатонова Е. Экономические системы и их трансформация. // МЭ и МО:1998, №7.
11. Поршовский А. "Капитализм: к характеристике нынешнего облика" - ж. "Экономические науки", М., 1991, №9.
12. Раджабова З.К. Мировая экономика. М, ИНФРА-М, 2004.
13. Рудакова И.Е. "О новых явлениях в экономике современного капитализма" - Вестник Московского университета, серия: "Экономика", М., 1993. №3.
14. Тьюр Т.Р. Мировая экономика. СП. Питер, 2001.
15. Супия В.Б. Эволюция форм собственности в США: современные особенности//США Канада Экономика. Пошпика Кулнура. М., 2001, №1.

2-BOB JAHON IQTISODINING INTERNATSIOSHLLASHUVI

Jahon iqtisodi internatsionallashuvining mohiyati va uning asosiy bosqichlari.

Jahon xo'jaligining internatsionallashuvi - mehnatni xalqaro taqsimlashni har tomonlama rivojlantirishga asoslangan turli mamlakatlar milliy iqtisodiyotining o'zaro bog'liqligi va bir-birining kam-ko'stini to'ldirishni chuqurlashtirish jarayonidir.

Tarixiy nuqtai nazardan qaraganda, xo'jaliklarning internatsionallashuv jarayonlari ayrboshlash

sohasiga borib taqaladi. Chunonchi, savdoda mahsulotlarni ayrboshlash bosqichidan keyin hududiy xalqaro bozorlarga yo'l ochilgan. Ancha keyinroq, dastlabki sarmoya yig'ish davriga kelib, tarmoqlararo savdoning hududiy markazlari yagona jahon bozoriga aylana borgan.

Ma'lumki, tadrijiylik (evolutsiya) mantig'i (buni jahon kapitalistik bozorining yuzaga kelishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan sanoatdag'i tub burilish asosida va sanoatni rivojlantirishda jonbozlik ko'rsatganlar uchun o'ziga xos "mezon" hisoblanmish Yevropa misolida ko'rish mumkin) ayrboshlash sohasidagi internatsionallashuvdan kapital va ishlab chiqarishning internatsionallashuviga olib keldi.

1-bosqich:

Erkin raqobatga asoslangan kapitalizm rivoji davrida (XIX asrning oxirigacha) jahon bozorini tashkil etish, ko'proq xalqaro savdo shaklida xalqaro iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish bilan xarakterli edi.

XIX asr o'rtalariga kelib industrial davlatlar o'rtasida raqobatning kuchayishi jarayonida mehnatni xalqaro taqsimlashning xilma-xil tizimi qaror topdi. Bu vaqtga kelib Angliya o'zining sanoat sohasidagi peshqadamligini yo'qotgandi, iqtisodni industrlashtirishda muvaffaqiyatga erishgan deyarli barcha mamlakatlar o'z mahsulotlarini ixtisoslashtirish yo'liga o'tdi, bunda ular:

- qo'shni mamlakatlar ehtiyojlarini hisobga olgan holda;
- mustamlaka chekka o'lkalarda o'z mahsulotlarini sotish imkoniyatlaridan kelib chiqib ish ko'rishdi.

Masalan, Fransiya, Gollandiya singari yirik mustamlakachi davlatlar o'z mustamlakalaridan olib kelingan xomashyoni qayta ishlash bo'yicha ixtisoslashdi, bunda ular faqat o'z bozorlarini emas, balki "benasib qolgan" qo'shnilarini, birinchi navbatda, Germaniyaning ehtiyojlarini ham hisobga olishdi.

Shunday qilib, jahon xo'jaligani shakllantirish jarayonida eng yaqin savdo aloqalari birinchi navbatda:

- xom ashyo mustamlakalar bilan industrial metropoliyalar o'rtasida;
- qo'shni mamlakatlar o'rtasida yuzaga keldi. Birinchi holda "xoma shyoni ishlab chiqaruvchilar va uni iste'mol qiluvchilar mehnatini umumiy taqsimlash", ikkinchi holda, mehnatni taqsimlashning xususiy ko'rinishi xaqida gap boradi. Ikkinchisi tarmoq ichidagi (mahsulot) tovar bo'yicha ixtisoslashishga asoolangan bo'lib, qo'shni mamlakatlarda ushbu mahsulotni ishlab chiqarishdagi xarajatlar o'ziga nisbatan ko'pligi tufayli foyda olishni maqsad qilib qo'yadi.

2-bosqich:

XIX asr oxirlari va XX asr boshlarida erkin raqobatga asoslangan kapitalizm monopolistik kapitalizmga o'tdi, o'zining ajralmas qismi - jahon bozoriga ega bo'lgan umumjahon xo'jaligi qaror topdi. Lekin "umumjahon xo'jalign" tushunchasi - jahon bozori tushunchasidan ancha kengdir. Chunki, savdo sohasidagi munosabatlar bilan bir qatorda bu davrda mamlakatlar o'rtasida ishlab chiqarish sohasida bevosita aloqalar, kapitalni tashqariga chiqarish va har tomonlama moliyaviy aloqalar rivojlandi.

Bunga ishlab chiqarish kuchlarining ancha o'sishi sabab bo'lib, ular milliy chegaralarning cheklangan doiralaridan sezilarli darajada oshib ketdi.

Kapitalning markazlarga tobe va mustamlaka hududlarga, uzoq joylarga olib chiqilishi xo'jalik hayoti internatsionallashuvining asosiy ko'rinishiga aylandi.

Bunda kapitalni chetga tadbirkorlik shaklida chiqarish monopoliyalarning chet elda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishi bilan birga olib borildi, yangi zavodlar qurildi, konlar ochildi.

Bozor iqtisodiyoti rivojinining bu bosqichida ayrboshlash internatsionallashuviga "pishib o'tgan" industrial markazlardan kapitalni olib chiqishga asoslangan kapital ingernatsionallashuvi jarayoni kelib ko'shildi.

3-bosqich:

Urushdan keyingi dastlabki o'n yillar ichida fan-texnika inqilobi ta'sirida ishlab chiqarish kuchlari rivojida keskin o'zgarish yuz berdi. Uning ta'sirida jahon kapitalistik iqtisodiyotining ichki mexanizmi va tashkiliy strukturasida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bunday sharoitda raqobatga bardosh berish uchun ishlab chiqarish ko'lmini ancha oshirish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanib uni modernizatsiyalash kerak edi. Hatto dunyoning yetakchi davlatlari kompaniyalari uchun ham bu yangi talablar og'irlik qilardi.

O'z navbatida yirik seriyali, ommaviy ishlab chiqarish ko'pincha milliy chegaralar doirasidan chiqib ketadigan yanada katta bozorlarni talab qilardi. Bunday sharoitda ishlab chiqarishni xalqaro kooperatsiyalash va ixtisoslashtirish muammosi yanada dolzarb bo'lib qolgan edi. Predmetli "xalqaro ixtisoslashtirishdan detalli (mayda) ixtisoslashtirishga o'tish", mayda va kooperatsiyali ixtisoslashtarish, kooperatsiyalashtirish bilan bog'liq ichki, tarmoqlararo ishlab chiqarish texnologik majmularining paydo bo'lishi, rivojlanishi aniq ko'zga tashlana boshladi.

Mehnatni taqsimlashning, mamlakatlar o'rtasida ixtisoslashuvning chuqurlashuvi tamoyillari yangi, yanada ko'lami muhim jarayonning - ishlab chiqarishni xalqaro umumlashtirishning ifodasi bo'ldi, buning ahamiyati iqtisodiy hodisalar doirasidan chiqib, jahon siyosatida ham yangi davrning boshlanganligini anglatardi.

Shu bilan birga xalqaro saddo sohasida ham sezilarli qayta o'zgarishlar yuz berdi, ulardan eng yirigi va barqarori - bu odatdagagi tijorat savdosi rolining ichki firmalar almashuvi doirasida yoki uzoq muddatli kooperativ hamda pudrat munosabatlari asosida barqaror texnologik aloqalarga xizmat ko'rsatuvchi tovar ayriboshlashlarga nisbatan ancha pasayib ketishi bo'ldi.

Bularning hammasi birga qo'shilib xo'jalik hayotining internatsionallashuvini, ya'ni kapital, ishlab chiqarish, texnologiya, ilmiy tadqiqotlar jarayonini almashuvini anglatadi.

Xulosa shuki, xo'jalik hayotining internatsionallashuvi - jahon iqtisodi rivojining muayyan bosqichi bo'lib, o'zaro bog'liq ikki jarayonni o'z ichiga oladi:

- xalqaro mehnat taqsimotini chuqurlashtirish va rivojlantirish;
- millatlararo xalqaro ishlab chiqarishni tashkil etish.

Ishlab chiqarish kuchlari internatssonallashuvining asosiy shakllari va yo'nalishlari.

Ma'lumki, ishlab chiqarishning internatsionallashuvi mehnatni xalqaro ixtisoslashtirish, taqsimlashni chuqurlashtirish natijasi. Ayni o'sha ishlab chiqarishni xalqaro miqyosda ixtisoslashtirish ishlab chiqarish kuchlari internatsionallashuvining asosiy shakllari va yo'nalishlarini keltirib chiqaradi.

B u l a r:

- 1) Tovarlar va xizmatlarning milliy chegaralar orqali ko'chib yurishi;
 - 2) kapital va ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi;
 - 3) jahonning turli mintaqalaridagi integratsion jarayonlar. Ishlab chiqarishni xalqaro ixtisoslashtirish har doim u yoki bu mamlakatda mahsulotning muayyan turi ishlab chiqarilishidagi sarf-xarajatlar bilan bog'liq nisbiy afzallikkarga tayanadi.
- Sarf-xarajatlardagi nisbiy afzalliklar doimiy bo'lmay, ular bir qator holatlarga bog'liqdir.

XX asrning so'nggi choragida milliy iqtisodiyotning xalqaro ixtisoslashuvini belgilovchi asosiy omillar.

Qayd etilayotgan omillar quyidagilardan iborat:

1. Tabiiy resurslar, geografik holat, o'tmishdagi ishlab chiqarish tajribasi, mamlakatning o'tmishda qaror topgan ishlab chiqarish imkoniyati singari xalqaro ixtisoslashtirish an'anaviy omillarining pasayishi.

Lekin bu an'anaviy omillar amal qilinishini to'xtatib qo'yadi, degan ma'noni bildirmasdan, balki fan-texnika taraqqiyoti natijasida yangi qo'shimcha omillarining paydo bo'lishini anglatadi. Masalan, industrial mamlakatlarda bugungi kunda ikki muhim va uzoq muddatli jarayonlar ko'zga tashlana boshlandi:

- bir tomondan, milliy xo'jaliklarni tuzilmaviy jihatdan qayta qurish asta-sekin yangi

texnika-texnologiyalarga o'tish orqali ularga ketadigan energiya va material xarajati miqdorini qisqartirish, energiya, xom ashyoga bo'lgan ehtiyoj kamayadigan yangi texnika-texnologiyalarga o'tish;

- ikkinchi tomondan, o'z tabiiy resurslarini o'zlashtirish, tabiiy xom ashya o'rmini bosuvchi turli sun'iy materiallarni ishlab chiqaruvchi tarmoqlarni rivojlantirish hisobiga mamlakatlar ehtiyojlarini to'laroq, qondirish imkoniyatini yaratish.

2. Xalq xo'jalik tuzilmalarini maqbullashtirish va shunga yarasha milliy mahsulotlar sotiladigan bozorlar ko'lами moslashtirish.

U yoki bu mamlakat ishlab chiqarish imkoniyatidan foydalanish milliy doiradagina emas, balki mehnatni xalqaro taqsimoti doirasida ham ixtisoslashtirish jarayonini chuqurlashtirish bilan bog'liq. Bu esa o'z navbatida keng ixtisoslashtirilayotgan milliy ishlab chiqarishlarning jahon bozoriga chiqishini, mazkur mamlakatning yuksak darajadagi iqtisodiy samaradorligini ta'minlay olmaydigan milliy ishlab chiqarishni rivojlantirishdan voz kechishni taqozo etadi.

3. Korxonalarning normalarini odatdagি milliy normalardan jahon normalariga aylantirish.

Sanoat korxonasi iqtisodiy samaradorligining asosiy sharti - uning qudrati hamda texnik qurollanishi jihatidan eng muvofiq jahon talablariga mos kelishi bo'ldi. Lekin milliy ehtiyojlar, milliy bozor, ayniqsa, ko'lami kichik va o'rtacha mamlakatlarda, ixtisoslashtirilgan ishlab chiqarish korxonalarini mahsulotlarini sotish uchun tobora torlik qila boshladi. Bu mazkur mamlakatlardagi sanoatning yetakchi sohalari taqdirini tashqi bozorlarga bog'liq qilib qo'ydi.

Shuning uchun ham yirik mamlakatlardagi ko'pchilik sanoat tarmoqlari, masalan, aviatsiya sanoati, elektron-hisoblash mashinalarini chiqaruvchi sanoat korxonalarini avval boshdanoq tashqi bozorni mo'ljallab ish ko'rishdi. Hatto ko'pincha chet el iste'molchilariga xizmat ko'rsatish korxona faoliyatida yetakchi o'rinni egalladi. Jumladan, G'arbning kichik va o'rtta industrial mamlakatlaridagi ko'pchilik mashinasozlik tarmoqlari mahsulotining 75-90%ni eksportga ketadi.

Bulardan ko'rindiki, eksporni mo'ljallab ish ko'rish industriral rivojlangan eng yirik mamlakatlar sanoati taraqqiyoti uchun muhim mezon va omildir.

4. Iste'mol qilinuvchi (bu yerda iste'mol mollari ma'nosida emas) mahsulotlar nomenklaturasining tez kengayishi, bu hozirgi zamon sanoat taraqqiyotining xarakterli xususiyatidir. Shu bilan birga, fan-texnika taraqqiyoti ayrim mamlakatlarning to'la yoki nihoyatda ko'p tarmoqli milliy majmualarni yaratish imkonini cheklab qo'yyapti, chunki sanoat mahsuloti nomenklaturasining darajasi bugun shu qadar balandki, biron-bir mamlakat jahonda ishlab chiqarilayotgan barcha mahsulotlarni o'zida iqtisodiy jihatdan samarali ishlab chiqarishni ta'minlay olmaydi.

5. Tarmoqlararo mehnat taqsimoti bilan bir qatorda tarmoq ichidagi mehnat taqsimoti va bunga tegishli ravishda ishlab chiqarishni tarmoqlar ichida ixtisoslashtirish yanada keng rivojlandi.

Hozirgi sharoitda xalqaro savdo rivoji tamoyili shundayki, kelgusida foydalanishi jihatdan o'xshash, lekin o'ziga xos texnik-iqtisodiy xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiluvchi sanoat buyumlarini o'zaro almashish tobora ko'proq ahamiyat kasb eta boradi (stanoklar stanoklarga, ilmiy uskunalar ilmiy uskunalarga). Bu jarayon, masalan, ko'p jihatdan bir-biriga o'xshash sanoat tuzilmalariga ega bo'lgan industrial mamlakatlar o'rtasida tashqi iqtisodiy aloqalarining tez o'sishida o'z ifodasini topdi.

Shubhasiz, mazkur tamoyil ayrim mamlakatlar xalq xo'jaligi tuzilmalari universalligini kelgusida yanada cheklab qo'yadi.

6. So'nggi mahsulot bo'yicha ixtisoslashtirishdan detallar, uzellar, butlovchi buyumlar bo'yicha ixtisoslashtirishga o'tishdan boshlanuvchi tarmoqlararo mehnat taqsimoti taraqqiyoti.

Hozirgi zamon mashinasozligida, masalan, mashinalar barcha detallarining 15-20%igina o'ziga xos noyob bo'lib, qolgan 75-85%ni bir-birining o'rmini bosadigan detallar yoki mashina va asbob-uskunalarining ko'pgina turlari uchun bir xil texnik tavsifga ega detallardir. Shubhasiz, ishlab chiqarishni bunday universallashtirish millatlararo va xalqaro sanoat

kooperatsiyalashuvining yanada rivojlanishiga olib keladi.

80-yillarning oxirlaridayoq millatlararo va xalqaro kooperatsiya yo‘li bilan mol yetkazib berish industrial mamlakatlar sanoatining yetakchi tarmoqlari mahsulotlari qiyamatining 50-60%ini tashkil etdi. Ular o‘rtasidagi tovar oborotining 30% dan ortig‘i kooperatsiya yo‘li bilan o‘zaro mol yetkazib berishga to‘g‘ri keldi.

7. Ayrim mamlakatlar iqtisodiy yo‘nalishlarini shakllantirishda, ularning xalqaro mehnat taqsimotidagi o‘rni va rolini belgilashda milliy fan-texnika imkoniyatlari ahamiyatining keskin ko‘tarilishi.

Bunga sabab - ilmiy tekshirish, tajriba-konstrukturlik ishlariga (NOKR) ketadigan sarf-xarajatlarning ancha oshirilishi edi. Hozirgi zamonda bunday maqsadlar uchun qilinadigan sarf-xarajatlar har 5-6 yilda kamida ikki baravar ortib, G‘arbning yetakchi mamlakatlarida ular milliy daromadining 2-3% idan ko‘prog‘ini tashkil etadi.

Bunday sharoitda eng rivojlangan mamlakatlar ham zarur fundamental, amaliy tadqiqot ishlarining butun yukini yakka o‘zi ko‘tarishga qodir emas.

8. Milliy xo‘jaliklarning tobora ko‘proq "ochiqlikka" intilishi, ishlab chiqarishning asosiy omillari: tovar, ishchi kuchi, kapital, ilmiy-texnik bilimlarning xalqaro miqyosda ko‘chib yurishi uchun to‘siqlarning kamayishi. Jumladan, tariflar, bojxona cheklashlarini kamaytirish yo‘li bilan.

Xo‘jalik hayoti, fan-texnika taraqqiyotining internatsionallashuvi xalqaro mehnat taqsimotining iqtisodiy omillarini va ishlab chiqarishni xalqaro ixtisoslashtirish omillarini qat’iy ravishda birinchi o‘ringa olib chiqadi.

Jahon iqtisodi internatsionallashuvining xalqaro iqtisodiy munosabatlarga ta’siri.

Jahon iqtisodi internatsionallashuvi jarayonining o‘sishi bilan davlatlararo munosabatlар ham chuqurlashib, davlat chegaralarining mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni cheklab turuvchi to‘siqlar sifatidagi ahamiyati pasaymoqda.

Yana shuni ham ta’kidlash kerakki, bir-biriga yordam ko‘rsatuvchi mamlakatlarning yanada yaqinlashuvi faqat transport vositalarini takomillashtirish tufayligina yuz bergani yo‘q.

Bunda hal qiluvchi sabablardan yana biri - millatlararo aloqa qilishning yangi turlarining nihoyatda tez o‘sishi bo‘lib, ular faqat tovarlar (savdo) emas, balki axborotlarning quyidagi shakllarida harakat qilishi bilan bog‘liq edi:

- pul mablag‘lari;
- texnik hujjatlar;
- madaniy boyliklar bilan almashuv;
- siyosiy yangiliklarni yoyish.

Bu jarayonlarning oqibati sifatida xo‘jalik sohasida bir-birlariga bog‘liqlik judayam ortdi, mamlakatlar dunyo miqyosida xo‘jalik aloqalariga kirishdilar, bu esa:

- ularning bir yo‘la rivojlanishiga;
- bir-birlari bilan yaqinlashuviga olib keldi. Xo‘jalik hayotida bu quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- standartlashtirishda (bir xil andozada bo‘lishda);
- xo‘jalik rivoji xarakteri (darajasi)ni tenglashtirishda;
- iqtisodiy o‘zaro bir-birlariga bog‘liklikning o‘sishida. Quyidagilar standartlashtirilayapti:

- texnologik jarayonlar;
- buyumlar turining hajmlari;
- ishlab chiqarishni tashkil etish shakllari;
- tovar bozorlarida iste’molchilar talablari.

Demak, ko‘rib chiqilgan fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkin. Keng ma’nodagi jahon xo‘jligining internatsionallashuvi - bu xalqaro mehnat taqsimotini har tomonlama rivojlanirishga asoslangan turli mamlakatlar milliy iqtisodiyotlarining o‘zaro aloqalari va o‘zaro bir-birlarini to‘ldirish jarayonini chuqurlashtirishdir.

1-bosqich:

Erkin raqobatga asoslangan kapitalizmning rivojlanish davrida (XIX asr oxirigacha) jahon bozorining tashkil topishi, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning, ko‘proq, xalqaro savdo shaklida rivojlanishi (xom ashyoni mustamlakalar bilan industrial metropoliyalar, shuningdek, qo‘shni mamlakatlar o‘rtasida) xarakterli edi.

2-bosqich:

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida erkin raqobatga asoslangan kapitalizm monopolistik kapitalizmga o‘tdi, umumjahon xo‘jaligi qaror topdi.

Bu davrda savdo munosabatlari bilan bir qatorda mamlakatlar o‘rtasida ishlab chiqarish sohasida bevosita aloqalar, kapital chiqarish, xilma-xil moliyaviy munosabat-lar rivojlandi. Bozor iqtisodiyoti rivojining bu bosqichida ayrboshlash internatsionallashuviga kapitalning internatsionallashuvi kelib qo‘shildi.

3-bosqich:

Urushdan keyingi dastlabki o‘n yillikda fan-texnika inqilobl ta’sirida ishlab chiqarish kuchlari rivojida keskin sakrash yuz berdi.

Bunday sharoitda raqobatga bardosh berish uchun ishlab chiqarish ko‘lamlarini ancha oshirish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanib ularni yanada zamonaviylashtirish zarur edi. O‘z navbatida yirik seriyali, ommaviy ishlab chiqarish milliy chegaralar doirasidan chiqadigan yanada katta bozorlarni talab etardi.

Bunday sharoitda xalqaro kooperatsiyalar va ishlab chiqarish ixtisoslashuvining faollandashi ortdi. Predmetli xalqaro ixtisoslashuvdan detalli ixtisoslashuvga o‘tish yana ham sezila boshladи.

Mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, mamlakatlar o‘rtasidagi ixtisoslashuvning bunday yo‘li yangi, keng ko‘lamli muhim jarayon - ishlab chiqarishni xalqaro miqyosda umumlashtirishning ifodasi hisoblanadi.

Ishlab chiqarishni xalqaro ixtisoslashtirish ishlab chiqarish internatsionallashuvining barcha asosiy shakl va yo‘nalishlarini vujudga keltiradi. Bular:

- tovarlar va xizmatlarning milliy chegaralar orqali ko‘chib yurishi;
- kapital va ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi;
- dunyoning turli mintaqalarida integrailashuv jarayonlari.

O‘z navbatida, ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashuvi har bir holatda bir necha omillar bilan bog‘liq bo‘lgan u yoki bu mamlakatning nisbatan ustun tomonlariga asoslanadi.

Jahon iqtisodining internatsionallashuvi jarayonining rivojlanishi bilan mamlakatlarning xo‘jaliklari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘likdik, ularning jahon xo‘jaligi aloqalariga jalb qilinishi yanada o‘sib boradi, bu esa ular rivojining uyg‘unlashuviga, ularning bir-biri bilan yaqinlashuviga olib keladi.

SEMINAR MASHG‘ULOTLARI REJASI

1. Jahon xo‘jaligi internatsionallashuvining mohiyati va sabablari.
2. Jahon iqtisodi internatsionallashuvining asosiy bosqichlari va ularning xususiyatlari.
3. Ishlab chiqarishni xalqaro umumlashuvining asosiy sabablari va uni hozirgi siyosiy-iqtisodiy jarayonlarga ta’siri.
4. Hozirgi jahon xo‘jaligida milliy iqtisodlarning xalqaro ixtisoslashuvidagi o‘zgarishlarni aniqlovchi asosiy omillar.
5. Internatsionallashuvni jahon xo‘jaligi rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatishining asosiy shakllari.

ADABIYOTLAR

1. Кузнецов В. Что такое глобализация? МЭ и МО, 1998, №3.
2. Чешкое М. Взгляд на глобализацию через призму глобалистики. // МЭ и МО, 2001, №2.
3. Чепурин ММ, Киселева Е.А.(ред) "Курс экономической теории", Киров, изд. "ACA",

1995.

4. Булатов А.С. "Экономика", М., изд. "Бек", 1996.
5. Salbator Dominic. International Economics (Fifth edition), New Jersey, USA, 1995.
6. World Investment Report, UN, 1997 - 2000.

3-BOB XALQARO KORPORATSIYALAR

Ishlab chiqarishni umumlashtirish va xo‘jalik hayoti internatsionallashuvining yuksak darajasi xalqaro korporatsiyalarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi uchun iqtisodiy asosdir.

Ular o‘z shakllariga ko‘ra ikki guruhgaga bo‘linadi:

- transmilliy korporatsiyalar (TMK);
- xalqaro (millatlararo) korporatsiyalar (MK). Transmilliy korporatsiyalar kapitali va nazorati bo‘yicha milliy, lekin o‘z faoliyataga ko‘ra xalqarodir.

Transmilliy korporatsiyalardan farqli ravishda xalqaro (millatlararo) korporatsiyalar egalari bitta davlatning emas, balki ikki, uch yoki bir necha davlatlar kapitallarining egalari hisoblanadi. Ularning eng muhim xususiyati - aksiyadorlik kapitalini xalqaro ko‘lamda bo‘lib-bo‘lib joylashtirish kompaniya yoki konsern tarkibining ko‘p millatliligidir.

Transmilliy kompaniyalar XIX asrda ham mavjud edi. Lekin ularning faoliyati faqat XX asrning 20-yillari o‘rtalariga kelib kapitalning internatsionallashuvi jarayoni chuqurlashishi munosabati bilan keng quloch yoydi. Keyinchalik, 80-yillarda transmilliy korporatsiyalar faoliyatida xalqaro operaiiyalarning ko‘lami orta borishi bilan jiddiy o‘zgarishlar yuz berdi, ular bu korporatsiyalar faoliyati asosiy tamoyillarining jiddiy o‘zgarishlariga olib keldi. Birinchi navbatda, turli millat kapitallarini birlashtirish asosida qo‘shma tadbirkorlikning nihoyatda tez rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan ularning bir millatlilagini yengib o‘tish bo‘ldi.

Korporatsiya faoliyatini boshqarish tizimida ham sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. Agar mumtoz transmilliy korporatsiyalar uchun qaror qabul qilishni markazlashtirish-ning yuksak darajasi xarakterli bo‘lsa, hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti shartlari esa tashkil etishning yangi, yanada moslashuvchan shakllarini, firmalararo aloqalardan keng foydalanishni talab etadi.

Hozirgi sharoitda kapital yangi turining mohiyatini tushunish internatsionallashuv jarayoni bilan, ya’ni mehnat, kapital, nomoddiy bo‘limgan aktivlarni o‘tkazish borasidagi tashqi bozor munosabatlarining nomukammalligiga javoban o‘z tashkiliy tuzilmalari doirasida ichki bozorlarni barpo etish bilan bog‘liqdir. Firmalar bozor bitimlari o‘rnini shahobchalar o‘rtasidagi shartnomaga munosabatlari bilan almashtirib. bu bilan tashqi omillar ta’sirini bartaraf etadi va samaradorligi jihatidan an‘anaviy tashqi bozordan ustun turuvchi ichki bozorni shakllantiradi.

Ko‘rsatib o‘tilgan tamoyillar natijasida transmilliy korporatsiyalar eski ta’rifi saqlanib qolgani holda, ularning mazmuni ancha o‘zgardi. Shuning uchun ham mulkchilik xarakteridagi o‘zgarishlarni hisobga olib, ularni millatlararo koraoratsiyalar deb atash to‘g‘riroq bo‘ladi. Zero, hozir chet el iqtisodiy adabiyotlarida ham mana shu nom qabul qilingan.

90-yillarning oxirlarida jahonda 54 mingga yaqin, shu jumladan, rivojlangan mamlakatlarda 43,4 ming, rivojlanayotgan mamlakatlarda 9,3 ming va Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida 0,8 ming xalqaro korporatsiyalar mavjud edi (1-jadval).

I-jadval

Mintaqalar va mamlakatlar bo'yicha ta'sischi-korporatsiyalar va ularning chet ellardagi shahobchalari miqdori

Mintaqa/mamlakat	Yil	Mamlakatda joylashgan ta'sischi korporatsiyalar	Mamlakatda joylashgan chet el firmalari
1	2	3	4
Rivojlangan mamlakatlar		43442 v	96620
G'arbiy Yevropa		33302	63782
Yevropa Ittifoqi		27846 v	54875
G'arbiy Yevropa va boshqa mamlakatlar		6044	9111
Yaponiya	2001	4821	3241
AQSH	2001	3838	2001
Boshqa rivojlangan mamlakatlar		2530	10916
Rivojlanayotgan mamlakatlar		11421	2509
Afrika		42	375
Lotin Amerikasi va Karib dengizi havzasidagi mamlakatlar		1341	2323
Yevropaning o'tish davri mamlakatlari (Xorvatiya, Sloveniya, sobiq Jugoslaviya)		1482	6045
Janubiy, Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo		7324	214621
Koreya Respublikasi	2002	48059	4120
Xitoy	2002	379452	175112
G'arbiy Osiyo (Bahrayn, Ummon, Saudiya Arabiston, Turkiya, Markaziy Osiyo)		555	2790
Tinch okeani (Fidji)	2001	-	1198
Markaziy va Sharqiy Yevropa		980	141612
Butun dunyo bo'yicha		5930	471719

Manba: World Investment Report 2002: Trends and Determinations UN, New York and Geneva, 2003, Table 1,2.

XX asr yakunida dunyoning rivojlangan mamlakatlaridagi eng yirik 100 ta xalqaro korporatsiyadan 28 ta korporatsiya AQSHda shtab-kvartirasiga, 18 - Yaponiyada, 11 ta Fransiyada, 9 ta Germaniyada, 8 ta Buyuk Britaniyada, 5 ta Shvetsariyada, 4 ta Kanadada, 3 ta Shvetsiyada, 2 ta Italiya va 2 ta Avstraliyada, 1 tadan Gollandiya, Janubiy Koreya, Belgiya va Venesuelada shtab-kvartirasiga ega edi. Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, yetakchi o'rirlarni AQSH, Yaponiya va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari egallagan. Bular boshqalardan ancha ilgarilab ketgandi. 2001 yilda bu yerda 100 ta yirik xalqaro korporatsiyalardan 88 tasining shtab-kvartirasi joylashgan edi. Shuni ham aytish kerakki, barcha filiallarning 3/4 tasi AQSH, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Fransiya va Germaniyaga to'g'ri keladi.

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 100 ta korporatsiyaning asosiy ulushini elektronika va elektron asbob-uskunalar ishlab chiqarish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korporatsiyalar tashkil etardi. Undan keyin kimyo va farmatsevtika tovarlarini ishlab chiqaruvchi korporatsiyalar, avtomobil sanoati, neft mahsulotlarini qazib oluvchi, qayta ishlovchi, oziq-ovqat

mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korporatsiyalar egallardi.

2-jadval

**Dunyoning rivojlangan mamlakatlaridagi 100 ta eng yirik korooratsiyalarda mahsulotlarning tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi
(1990, 2000 yillar)**

Tarmoq	1990	2008
Elektronika (elektron asbob-uskunalar)	14	17
Kimyo va farmatsevtika tovarlari	18	16
Avtomobil qurilishi	13	14
Neft mahsulotlarini qazib olish	13	14
Qayta ishlash va taqsimlash		
Oziq-ovqat mahsulotlarini va ichimliklarni ishlab chiqarish	9	12
Xilma-xil ishlab chiqarish (Diversited)	2	4
Telekommunikatsiya	2	5
Savdo	7	4
Mashinalar va asbob-uskunalar	3	2
Metallar	6	3
Qurilish	4	3
Vositachilik (Media)	2	2
Boshqalar	7	4
Jami:	100	100

Manba: World Investment Report 2001. Table 11,5.

Xalqaro korporatsiyalarning jahon iqtisodini rivojlantirishdagi roli.

Xalqaro korporatsiyalarning jahon iqtisodiga ta'siri birinchi navbatda ishlab chiqarishning nihoyatda keng shaxobchalari va taqsimlanishi orqali olinayotgan nisbiy afzalliklar tufayli namoyon bo'ladi. Ulardan foydalanish chet el shahobchalari orqali ham vertikal (tik), ham gorizontal (yotiq) integratsiyalashuv vositasida ta'minlanadi.

Vertikal integratsiyalashuv tufayli ko'pgina xalqaro korporatsiyalar firma ichidagi savdoni samarali rivojlantirish orqali xom ashyo materiallari va oraliq tovarlari bilan kafolatlangan darajada ta'minlanish imkoniyatiga ega bo'lib, chet el bozorlarida uchraydigan muammolarni yengib, taqsimlash, xizmat ko'rsatish shahobchalarini yaxshi ta'minlay oladilar.

Xalqaro korporatsiyalar gorizontal integratsiya vositasida o'zining chet el firmalari orqali monopolistik hukmdorligini yaxshiroq himoya qiladi va foydalana oladi, mahsulotlarini mahalliy shart-sharoit va odamlar didiga moslashtiradi, uning yuqori sifatlari bo'lishini ta'minlaydi.

Xalqaro korporatsiyalar nisbiy afzalliklarining mohiyati shundaki, ular quyidagilarni ta'minlaydi:

- ishlab chiqarishning katta hajmi, ko'lami hisobiga mahsulot birligiga ketadigan sarf-xarajatlarni tejashni;
- ishlab chiqarishning katta ko'lami hisobiga mehnat taqsimoti va ixtisoslashtirishni yanada chuqurlashtirishni;
- kapitalning xalqaro bozori xizmatidan foydalanishdagi katta imkoniyatlarni, jumladan, yirik loyihalarni moliyalashtirishni;
- tadqiqotlarni amalga oshirish uchun loyihalarni konsentratsiyalashni, texnika hamda kadrlar bilan ta'minlash nuqtai nazaridan to'g'ri keladigan bir yoki bir necha mamlakatlarda ularni rivojlantirishni;

- sho'ba kompaniyalar orqali ular joylashgan mamlakatlar haqida axborotlarni to'plash va ulardan foydalanishni;

- tashqi muhitning o'zgarishlariga (bozor, siyosiy vaziyat) kichkina kompaniyalarga qaraganda tezroq moslashishni.

Ushbu afzalliklardan tashqari ular:

- ishlab chiqarishning keng diversifikasiya qilinishi tufayli tahlikali ahvolga kam tushishadi va ko'pincha mayda firmalarga qaraganda yuksak daromad olishadi;

- nihoyat soliq ko'p solinadigan mamlakatlardaga filiallariga yetkazib beriladigan tovarlar narxini sun'iy oshirish, bu mamlakatlardagi filiallaridan olib kelinadigan tovarlar bahosini pasaytirish orqali millatlararo korporatsiyalar (MNK) soliqlar bilan bog'liq bo'lган talofatlarini kamaytirishlari mumkin.

Hozirgi kunda jahon ishlab chiqarishining 20% idan ko'prog'i MNK ulushiga to'g'ri keladi va firmalar ichidagi savdo (asosiy kompaniyalar bilan uning chet eldag'i sho'ba kompaniyalari o'rtasidagi) qayta ishlovchi sanoat mahsulotlarining dunyo bo'yicha savdosining 25% dan ko'prog'ini tashkil etadi.

Ayrim xalqaro korporatsiyalar yiliga o'nlab milliard, dollar miqdorida savdo qilishga erishmoqdaki, bu ayrim davlatlar umumiy milliy daromadidan ko'pdir.

Bundan tashqari, hozirgi kunda dunyodagi to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning ko'pchiligi (90%) ham ana shu korporatsiyalar tomonidan amalga oshirilmoqda. Shuning uchun ham G'arbdagi u yoki bu mamlakatni boshka davlatlarda joylashtirilgan "ikkinchi iqtisodi" ko'lamlarini hisobga olmasdan turib, ularning iqtisodiy salohiyatini baholab bo'lmaydi.

80-yillarning boshida Amerika korporatsiyalarining chet ellardagi filiallari mahsulotlarining qiymati AQSH yalpi ichki mahsulotining 41,4% tashkil qildi.

Moddiy ishlab chiqarishda "ikkinchi iqtisod"ning roli yanada ortadi: masalan, amerika kompaniyalarining chet ellardagi filiallarining mahsuloti 2000 yilning birinchi yarmida AQSHning o'zidagi moddiy ishlab chiqarishning taxminan 60% ini tashkil etgan. Binobarin, ular uchun ichki va tashqi bozorlar o'rtasidagi farqning asta-sekin yo'qolib borishi tabiiy holdir.

Shuni ta'kidlash lozimki, xalqaro korporatsiyalar tashqi operatsiyalarining asosiy geografik yo'nalishi - bu kapitallarning G'arbning yuksak rivojlangan mamlakatlar milliy xo'jaliklariga tobora chuqur kirib borishidir.

Bu korporatsiyalar faoliyatining eng muhim sohalari - birinchidan, boshqa mamlakatlarning ichki bozorlarida ish ko'rayotgan korxonalaridan to'g'ridan-to'g'ri foyda olish.

Amerika xalqaro korporatsiyalari, masalan, chet eldag'i filiallari mahsulotlarining salkam 65%ini mahalliy bozorlarda, shu jumladan, bozor iqtisodiga rivojlangan davlatlarda 75%ini va rivojlanayotgan davlatlarda 43%ini sotdi.

Ular faolligining ahamiyatini ko'rsatuvchi ikkinchi muhim soha - xalqaro korporatsiyalar eksportini kengaytarish. 80-yillarning boshlarida bozor iqtisodiga o'tgan mamlakatlarda jahon eksportining 65-70% ana shu korporatsiyalar ulushiga to'g'ri keladi.

90-yillarning ikkinchi yarmida xalqaro korporatsiyalar savdosi umumiy hajmining o'rtacha 45%ini eksport tashkil qildi. Bundan tashqari, xomashyoni xalqaro miqyosda sotishni ham ular to'la nazarat qilib borardi. Jahon bozorlarida sotilayotgan bug'doy, qahva, makkajo'xori, yog'och materiallari, tamaki, jut va temir rudasining 90%, mis va boksitning 90%, choy va qalayning 80%, banan, natural kauchuk va neftning 75%i ularning ulushiga to'g'ri keldi (V.Kuznetsov. Chto takoye globalizatsiya? MEiMO, 1998, №3 16-bet).

Bunda asosiy kompaniyalar bilan ularning chet eldag'i filiallari o'rtasidagi ichki korporativ almashuvlar muhim va tobora ko'proq rol o'ynaydi. Bugungi kunda eng yangi texnologiyalarni transfert qilish bilan bog'liq to'lovlarning ko'pchilik qismi xalqaro korporatsiyalarda ishlab chiqariladi (AQSH va Buyuk Britaniyada - 80%, Germaniyada - 90% gacha).

Ko'p sonli transmilliy komplekslarning paydo bo'lishi sezilarli yo'nalish bo'lib, ularga ko'ra turli mamlakatlarning ixtisoslashtirilgan va o'zaro kooperativlashgan korxonalari u yoki bu mahsulotni ishlab chiqarish uchun birlashadilar.

Bu jarayonga rivojlanayotgan mamlakatlar, ayniqsa, "yangi industrial mamlakatlar" astasekin qo'shilmoqda. Ular rivojlangan davlatlar sanoati uchun ixtisoslashtirilgan buyumlar, uzellar, tarkibiy qismlar yetkazib beruvchi sifatida faol ish yuritmoqda. Masalan, 2000 yilning boshlarida Singapur elektron va elektrotexnika sanoati eksportining 86%, Tayvanning 78%, Janubiy Koreyaning 68%, Braziliyaning mashinasozlik mahsuloti eksportining 65% dan ko'prog'i yirik G'arb korporatsiyalarining chet el filiallari hissasiga to'g'ri keldi.

Turli korporatsiyalar o'rtasidagi raqobatning tobora o'sishi hozirgi zamon iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyati bo'lib, ayni bir vaqtida ular o'rtasidagi ishlab chiqarish va tijorat sohasidagi aloqalar yanada kuchaydi.

Shubhasizki, xalqaro korporatsiyalar birinchi navbatda ularni barpo etishga o'z mablag'larini sarflagan yuridik shaxslarga xizmat qiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, ularning faoliyati tayanch mamlakatlar va qabul qilayotgan mamlakatlarning umummilliy manfaatlariga hamisha mos kelavermaydi.

Tayanch mamlakatlarda xalqaro korporatsiyalar faoliyatiga munosabat

Ijobiy tomonlari bilan bir qatorda xalqaro korporatsiyalarning tayanch mamlakat uchun quyidagi salbiy tomonlari ko'zga tashlanadi:

- kapitalning bevosita investitsiyalar shaklida olib chiqib ketilishi natijasida MNK vatanida ish joyining yo'qotilishi;
- ilg'or texnologiyalar olib chiqiladi, bu esa texnologik ustunlikning buzilishiga olib kelishi mumkin. Lekin bu dalil xalqaro korporatsiyalar ilmiy tadqiqotlarini o'z mamlakatlarida rivojlantirish bo'yicha dasturlar yaratishi vositasida barham etiladi;
- qaror topgan tizimning buzilishi va soliqdan tushadigan mablag' miqdorining kamayishi; xalqaro korporatsiyalar kapitallarining xalqaro bozorga chiqishi tufayli milliy valuta siyosati chetlab o'tilgach, davlatning o'z iqtisodi ustidan nazorat qilish funkiiyasi og'irlashadi.

Qabul qilayotgan mamlakatlarda xalharo korporatsiyalar faoliyatiga munosabat.

Qabul qilayotgan mamlakatlarning xalqaro korporatsiyalarga e'tirozi ko'proq va ularning munosabatini quyidagicha tushuntirish mumkin:

- xalqaro korporatsiyalar faoliyati ularning rivojlanishini sekinlashtiradi (bu ko'pincha haqiqatga to'g'ri kelmaydi);
- xalqaro korporatsiyalar jamg'armalarini tayanch mamlakatlaridagi ilmiy tadqiqotlarning rivojiga sarflaydi (aslida ham shunday bo'lib, bu birinchi navbatda rivojlanayotgan mamlakatlar uchun jiddiy muammo tug'diradi);
- xalqaro korporatsiyalar mahalliy kapitallarni, tadbirkorlarni o'ziga jalb etib, ularni o'z mamlakatlari ehtiyojlari uchun xizmat qilishdan chetlashtiradi;
- xalqaro korporatsiyalar soliq va tarif sohasidagi imtiyozlar yoki soliqlarni to'lashdan o'zini chetga tortishi orqali investitsiya natijasida olingan foydaning katta qismini o'zlashtiradi;
- xalqaro korporatsiyalar mineral va xom ashyo resurslarini ishlab chiqarish uchun rivojlanayotgan mamlakatlarda amalga oshirayotgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalari chet el ekspluatatsiyasining o'sishiga olib keladi; bu o'sish qabul qilayotgan mamlakatlarga to'lanayotgan narxning pastligi, ortiqcha ishchi kuchi katta ahamiyatga ega mamlakatda ko'p mablag' talab qiladigan texnologiyaning ishlatilishi mamlakat sharoitiga to'g'ri kelmasligi, mahalliy kadrlar tayyorlashga e'tibor yetarlicha bo'limgani, tabiiy resurslardan keragandan ortiqcha foydalanish va dualistik "anklav" iqtisod yaratilishi oqibatida yuz beradi.

Bu da'volarning ko'plari rivojlanayotgan mamlakatlar uchun asoslidir. Shuning uchun ham qabul qilayotgan mamlakatlarning ko'pchiligi chet el investitsiyalarining salbiy ta'sirini cheklash va olinishi mumkin bo'lgan foydani ko'paytirish maqsadida chet el investitsiyalarini tartibga solib boradi. Masalan, Kanada, investitsiyalarini ko'paytirishi mumkin bo'lgan chet el

kompaniyalari filiallariga soliqni oshirdi, ularning faoliyatini tartibga solib turuvchi qoidalarni belgiladi. Ayrim rivojlanayotgan mamlakatlar faqat qo'shma korxonalar barpo etishga ruxsat beradi, ularning ishlab chiqarish, moliya, mahsulotini sotish sohasidagi faoliyatini tartibga solib turuvchi qonun-qoidalarni belgilaydi. Bular tabiiyki, investitsiyalar oqimini cheklab qo'yadi.

Hatto yirik xalqaro korporaiiyalar uchdan birining shtab kvartiralari joylashgan AQSHda ham 80-yillarning oxirida chet el investitsiyalarini nazorat qilish borasida qat'iy chora-tadbirlar ko'rildi.

Nima bo'lganida ham, tayanch va qabul qilayotgan mamlakatlar manfaatlari umuman bir-biriga zid kelar ekan, aslo xalqaro qonunlarning universalligini ta'minlab bo'lmaydi. Buning natijasi esa xalqaro korporatsiyalar faoliyatiga bog'liq har ikki tomon uchun dolzarb bo'lgan ko'plab muammolarning yechimsiz qolishidir.

Keltarilgan ma'lumotlardan quyidagi xulosalar kelib chiqadi:

Ishlab chiqarishni yuksak darajada umumlashtirilishi, xo'jalik hayotini ingernatsionlashuvi xalqaro korporatsiyalarining paydo bo'lishi va rivojlanishi uchun iqtisodiy zamin bo'ldi.

Xalqaro korporatsiyalarniig filiallari bilan shartnomaga munosabatlarini shakllantirish vositasida ichki bozorning tashkil etilishi xalqaro korporatsiyalar hozirgi rivojining o'ziga xos xususiyatidir. Dunyodagi rivojlangan mamlakatlarning 100 ta eng yirik korporatsiyalari orasida yetakchi o'rinni AQSH, Yaponiya, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari egallab turibdi.

Asosiy ulushni elektronika va elektron asbob-uskuna-larni ishlab chiqaruvchi kompaniyalar tashkil etadi. Undan keyingi o'rinni kimyo va farmatsevtika tovarlarini ishlab chiqarish, avtomobilsozlik egallaydi.

Xalqaro korporatsiyalarning jahon iqtisodini rivojlantirishdagi yetakchilik roli, birinchi navbatda, ishlab chiqarish va takomillash shahobchalarini kengaytirish hisobiga olinayotgan nisbiy ustunlik bilan belgilanadi. Hozirgi kunda jahon ishlab chiqarishining, ko'pchilik investitsiyalar va xalqaro savdoning ancha katta qismi xalqaro korporatsiyalar ulushiga to'g'ri keladi.

Xalqaro korporatsiyalarning jahon iqtisodidagi rolining o'sishi bilan ular o'rtasidagi raqobat keskinlashmokda. Shu bilan birga ularning ishlab chiqarish va tijorat sohalaridagi aloqalari yanada kuchaymoqda.

Tayanch va qabul qilayotgan mamlakatlardagi xalqaro korporatsiyalar faoliyatiga munosabat bir xil emas. Bu o'rinda ularning milliy iqtisodning rivojlanishidagi ahamiyatini e'tirof etgan holda, ayni vaqtda, bir qator salbiy omillarga ham e'tibor qaratiladi. Shuning uchun rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda bu korxonalar faoliyati umummilliyl manfaatlarni himoya qilish maqsadida davlat tomonidan nazorat qilinadi.

SEMINAR MASHG'ULOTLARI REJASI

1. Xalqaro korporatsiyalarning mohiyati, yuzaga kelishining asosiy sabablari va shakllarining evolutsiysi. Juhon iqtisodi rivojlanishida MKning roli.
2. MKning ular kelib chiqqan mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta'siri.
3. Qabul qiluvchi mamlakatlarda MK faoliyatiga munosabat.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Erishgan marralarimizni mustahkamlab, islohotlar yo'lidan izchil borish - asosiy vazifamiz. "Xalq so'zi", 10 fevral 2004 y.
2. Басовский А.Е. Мировая экономика: Курс лекции. М., ИНФРА-М, 2003.
3. Комаров В. Прямые иностранные инвестиции и транснациональные корпорации. //Экономист, М., 1999. №7.

4. Кругман Р, Обстфельд М. Международная экономика - М., Питер, 2004.
5. Ломакин В.К. Мировая экономика. М., 1998.
6. Мухитдинова Н.М, Совместное предпринимательство. ТНК: Движущие силы и противоречия. М., 1991.
7. Раджабова З.К. Мировая экономика. М., ИНФРА, 2004.
8. Тзор Т.Р. Мировая экономика. СП Питер, 2001.
9. Salvatore Domenic. International Economics Fifth Ed., New Jersey, 1995.
10. DennisR., Appleyard, Alfred J. Field International Economics, IRWIN, USA, 1995.
11. World Investment Reports 1998. Trends and Determinants, New York, 1998.
12. Transnational corporations, vol 9, №1. UN. UNCTAD.
13. World Investment Report, 2000. Cross border Mergers and Asquisitions and Development. UN.2000.

4-BOB KAPITALNING XALQARO HARAKATI

Kapital olib chiqilishi mohiyati

Kapitalning xalqaro harakati - kapitalni chet elda, foyda olish maqsadida joylashtirish va ishlatalishdir.

Bunda "kapital" termini zamirida faqat ishlab chiqarish omili sifatida kapitalning o'zi emas, qisman mehnat, yer, tadbirkorlik qobiliyati ham tushuniladi, chunki chet elda kapital sarflanganda ularni bir-biridan ajratish anchayin qiyin.

Chet elga kapital chiqarish (kapital olib chiqish) shunday bir jarayonki, uning davomida bir mamlakatning milliy muomalasida bo'lgan kapitalning bir qismi chiqarib olinadi, turli shakllarda (mahsulot, pul) ikkinchi bir davlatning ishlab chiqarish jarayoniga, muomalasiga kiritiladi. Kapitalning xalqaro harakati mamlakatlar o'rtafidagi kapitallar migratsiyasidan iborat bo'lib, o'z egasiga daromad keltiradi.

Kapitalning harakat shakllari

Kapitallar chet elga quyidagi shakllarda chiqariladi:

- 1) Xususiy va davlat kapitallari shaklida;
- 2) pul va tovar shaklida;
- 3) qisqa muddatli (odatda bir yilgacha), o'rtta va uzoq muddatli shakllarda;

4) ssuda va tadbirkorlik kapitallari shaklida. Sudxo'rlik shaklidagi kapital (ssuda kapitali) mulk egasiga ko'pincha qo'yilgan pul, zayom va kreditlar bo'yicha foiz shaklida, tadbirkorlik shaklidagi (tadbirkorlik kapitali) kapital esa foyda tarzida daromad keltiradi. Bularni batafsilroq ko'rib chiqaylik.

Kapitalning chet elga chiqishiga asosiy sabab uning o'z mamlakatida - donor mamlakatda nisbatan ko'pligidir. Bu hol yanada ko'proq daromad topishga, kapitalni chet elga joylashtirish natijasida ham dividend, ham foiz shaklida foyda olishga imkon beradi.

Chet elga kapital joylashtirish o'z xususiyatlari va shakllariga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin:

Chunonchi, kelib chiqish manbalariga qarab, ular odatda: davlat kapitali va xususiy kapitalga bo'linadi.

Xalqaro tajribada davlat tomonidan joylashtirilgan kapital rasmiy deb ham ataladi; bu kapitallar davlat budjeti mablag'i hisobidan bevosita hukumatning, yoxud hukumatlararo tashkilotlarning qaroriga binoan chetga chiqariladi yoki chetdan olinadi.

Bular davlat zayomlari, qarzlari, grantlari (ehsonlari), yordam tariqasida bo'lib, ularning xalqaro harakati hukumatlararo bitimlar orqali belgilanadi. Xalqaro tashkilotlar tomonidan beriladigan

(kredit) qarzlar va bo‘lak mablag‘lar (masalan, XVJ qarzlari) ham shular qatoriga kiradi.

Xususiy kapital nodavlat manbalardan olingan mablag‘ bo‘lib, xususiy shaxslar (yuridik yoki jismoniy) tomonidan chetga chiqariladi yoki chetdan olib kelinadi. Investitsiyalar, savdo qarzlari, banklararo qarz berishlar shular jumlasidandir; bularning bevosita davlat budgetiga aloqasi yo‘q, ammo hukumat bularning harakatini o‘z vakolati doirasida nazorat qilishi hamda tartibga solish mumkin. Amalda ba‘zan davlat mablag‘larini xususiy investitsiyalarga aylantarishdek nozik o‘yinlar ham uchrab turadi.

Chet elga kapital joylashtirish usuli o‘z muddataga ko‘ra, uch xil ko‘rinishga ega:

- 1) qisqa muddatli (bir yilgacha);
- 2) o‘rtta muddatli;
- 3) uzoq muddatli.

15 yildan ko‘proq muddatga joylashtirilgan kapital uzoq muddatli hisoblanadi. Katta miqdorda qo‘yilgan kapitallar ana shu toifaga kiradi, tadbirkorlik kapitalining bevosita va bilvosita shaklidagi barcha investitsiyalari (ko‘pincha xususiy), ssuda kapitali (davlat va xususiy kreditlar) uzoq muddatli hisoblanadi.

Chet elga qo‘yilgan kapitallardan qanday foqdalanishga qarab, qarzga beriladigan, tadbirkorlik uchun degan nomlar bilan ikkiga bo‘linadi.

Bularning birinchisi foiz shaklida, daromad olish maqsadida qarzga mablag‘ berish, demakdir. Bu sohada davlat va xususiy manbalardan keladigan kapitallar ancha faol ishtirok etadi.

Tadbirkorlik investitsiyalari bevosita yoki bilvosita ishlab chiqarishga joylashtiriladi va ular dividend shaklida daromad olish huquqini beradi. Bu o‘rinda ko‘pincha xususiy kapital nazarda tutiladi.

Tadbirkorlik maqsadida joylashtirilgan kapitallar o‘z oldiga qo‘ygan vazifasiga ko‘ra ikki toifaga: bevosita va bilvosita (portfel) investitsiyalarga bo‘linadi. Bularning birinchisida kapital uzoq muddatli manfaatni ko‘zlab joylashtiriladi va mulqдорlik huquqi yoki boshqaruvdag‘ hal etuvchi huquqlar yordamida maqsadga erishiladi. Bevosita chet el investitsiyalari asosan xususiy tadbirkorlik kapitalidan iborat.

Ikkinchi toifa esa kapital joylashtirilgan obyektni nazorat qilish huquqini emas, balki uzoq muddat imtiyozli (birinchi navbatda) daromad olish huquqini beradi.

Xalqaro valuta jamg‘armasi shu o‘rinda yana bir guruhni -“bo‘lak investitsiyalar”ni ajratib ko‘satadiki, bular asosan xalqaro zayomlar va bank depozitlaridan iboratdir.

XX asr boshida yetakchi kapitalistik mamlakatlarda erkin kapitallar juda katta miqdorda yig‘ilib qoldi. Gap shundaki, raqobat tadbirkorni kapitalni saqlab qolish uchun uni doimo kengaytirib borishga majbur qiladi, u bunga jamg‘armani tobora ko‘paytirib borish orqaligina erishishi mumkin.

Keyinchalik fan-texnika taraqqiyoti sharoitida jamg‘armani tobora ko‘paytirib borish shunga olib keldiki, yangi ishlab chiqarilgan mahsulotning bir qismi chet el bozorida sotilgan taqdirdagina, foydali bo‘lishi mumkin bo‘lib qoladi.

Shuning uchun ham yirik tadbirkorlik kapitali uchun kapitalni chetga chiqarishdan boshqa imkoniyat qolmaydi. Zero, kapital kengaytirilgan ishlab chiqarish jarayonining uzviy bo‘lagiga aylanib, buni jamg‘armaning hozirgi mikdori taqozo etadi. Ortiqcha kapitalning chetga chiqarilishi esa, uning nisbiy xususiyatga egaligi, jahon iqtisodiyotining internatsionallashuvi tufayli amalga oshishi mumkin bo‘ladi.

Kapitalni chetga chiqarish sabablari

Kapitalizm rivojining dastlabki bosqichlarida kapitalni chetga chiqarish tovarlarni chiqarishga nisbatan kamroq edi.

Kapitalning chetga chiqarilishining asosiy sababi -uning “ortiqchaligi”. Ortiqcha kapital deyliganda kapitalning shunday ko‘pligi tushuniladiki, uning uchun foyda me’yorining pasayishi uning miqdori bilan tenglashmaydi. Yoki bunday kapitallar miqdori mustaqil ish ko‘rishga qodir

emas.

Shu munosabat bilan kapitalni chetga chiqarishni rag‘batlantiruvchi kapital mo‘lko‘lligining ikki jihatni ta’kidlab o‘tiladi:

1. Foyda me’yorini pasayishi tamoyili qonunining amal qilishi.
2. Xo‘jalikning eng muhim sohalarida eng yirik monopoliyalar hukmronligining qaror topishi natijasida ichki kapitalning tarmoqlararo oqib yurishining qiyinlashishi.

Kapitalning ko‘pligi uning chetga chiqarilishi uchun birdan-bir sabab bo‘lishi mumkinmi?

Agar dastlab kapital mamlakat ichida foyda me’yorlarini pasaytirib yuboruvchi jamg‘armaning ko‘p miqdorda yig‘ilib qolishi xavfi tug‘ilgan taqdirdagina chetga chiqarilgan bo‘lsa, hozirda ichki investitsiyalar uchun mablag‘ nisbatan yetishmay qolgan taqdirda eksport qilinmoqda.

Xo‘sh, nega endi kompaniyalar ichki investitsiyalar imkoniyatlardan to‘la foydalanmay turib hozir chetga chiqishadi? Buning ustiga ular o‘z mamlakatidagi investitsiya talablarini qondirish uchun ko‘pincha kapitalni import qilishga o‘tishadi. Gap shundaki, jahon iqtisodiyotining hozirgi sharoitlarida:

1. Kompaniyalarning jamg‘arma miqyoslarini (ishlab chiqarishni) kengaytirishga bo‘lgan talablari keskin ortib ketdi. Bunga sabab - qayta ishlab chiqarish jarayoni mantiqiy bo‘lib, u kompaniyaning eng muvofiq (optimal) hajmlari muttasil o‘sib borishini talab qiladi: ular raqobat qurboni bo‘lmasligi uchun kengayishlari kerak. Agar XX asr boshlarida kapitalistik firmalar ishlab chiqarish ko‘lamini oshirishga, o‘z milliy hududlari doirasida yangi bozorlarni egallab olishga bo‘lgan talab-ehtiyojlarini qondirishga qodir bo‘lgan bo‘lsalar, hozir korxonalar ko‘laming muvofiq hajmlarining ortishi munosabati bilan ularning ko‘plari uchun milliy doiralar har qachongidan ham tor bo‘lib qoldi. Yirik kompaniyalar uchun ko‘pincha kapitalni chetda investitsiya qilishdan boshqa chora qolmaydi. Jamg‘armaning hozirgi miqyosi ta’sirida chetga kapital chiqarish qayta ishlab chiqarish jarayonining uzviy elementiga aylanib qolyapti. Zero, milliy iqtisodda monopolashuv darajasining o‘sishi kapitallarning tarmoqlararo yurishini qiyinlashtirib yubordi.

2. Milliy iqtisod tarmoqlarini monopolashtirish kuchaydi. Monopoliyalar foyda miqdorini oshirish ketidan quvib, endilikda yangi bozorlarga egalik qilish, raqiblarni siqib chiqarish, kutilayotgan imkoniyatlari raqobatdan o‘zini ehtiyyot qilish maqsadida ortiqcha ishlab chiqarish xavfi tug‘ilishidan ancha oldin kapitalni eksport qila boshlaydi.

Bu shu bilan izohlanadiki, mamlakat ichkarisidagi tarmoqlar shu qadar monopolashganki, raqiblarning bu tarmoqlarga kapital sarflashi uchun yetarli to‘siq qo‘yilgan. Xalqaro kompaniyalar istiqbolda tarmoqni keyingi investitsiyalar uchun zahira sifatida qoldirib, yangi bozorlarni bosib olish va chet eldagisi raqiblarni siqib chiqarish uchun kapitallardan foydalanish sohalarini kengaytirishga intiladi.

3. Ishlab chiqarishning internatsionallashuvi jadal sur’atlar bilan davom etadi.

Agar XIX asr oxirlarida kapitalni chetga chiqarish faqat uning haddan tashqari yig‘ilib qolishi tufayli yuz bergen bo‘lsa, hozirda chet el investitsiyasining eng muhim iqtisodiy sabablaridan biri, yuqorida bilan bir qatorda ishlab chiqarish internatsionallashuvi jarayonining chuqurlashishi bo‘ldi. Fan-texnika taraqqiyoti sharoitida ayrim trans va ko‘p millatli kondernlar doirasida ichki firmalar mehnat taqsimoti xalqaro mehnat taqsimoti bilan qo‘shilib ketadi, bu esa milliy xo‘jaliklar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytirdi. Buni faqat savdo aloqalari bilan emas, balki turli mamlakat firmalari o‘rtasidagi barqaror ishlab chiqarish va texnologik aloqalar, xalqaro ixtisoslashtirish va kooperativlashtirish jarayonlarining rivoji bilan tushuntirish mumkin.

4. Ayrim transmilliy korporatsiya yoki moliyaviy guruh doirasidagi kapital harakati soliq to‘lashdan bosh tortish, valuta kurslari farqi orqali foyda olish kabi savdo-chay-qovchilik maqsadlarni ko‘zlash tufayli ham yuz berishi mumkin.

Kapitalni chetga chiqarish jarayonlaridagi yangi sifat tavsiflar

Hozirda biror tarmoqqa qo'shimcha kapital sarflash ortiqcha ishlab chiqarishni keltirib chiqaradigan chegaralar ancha orqa surildi. Chunki ularning ko'pchilik qismi endilikda asosiy kapitalni (ishlab chiqarishni) kengaytirishga emas, balki ishlab chiqarilayotgan mahsulotni yangilash bilan bog'liq zamonaviylashtirishga sarflana boshlandi.

Kapitalning xalqaro harakatida uning ortiqcha to'planib qolishi bilan birga ko'proq ishlab chiqarishni umumiylashtirish jarayoni yashiringan bo'lib, u milliy chegaralardan chiqib ketdi. Kapitalni chetga chiqarishga esa, endi foydaning milliy me'yorlarining o'zgarishi ham, foya me'yorlari o'rtasidagi farq ham ta'sir etmay qo'ydi. Bundan tashqari, kompaniyalar o'z sho'ba korxonalariga kapital olib chiqishdan milliy miqyoslarda barqaror bo'lib turgan yoki hatto ancha ortib borayotgan ishlab chiqarish hajmini tartibga solib turish yo'li sifatida ham foydalana boshlashdi.

Kapitalni rivojlanayotgan mamlakatlardan eksport qilish 60-70-yillarga kelib kapitalni chetga chiqarishdagi yangi hodisalardan biri bo'ldi. Bunday mamlakatlarning 2 guruhini ko'rsatish mumkin:

1. Milliy bozorlar mahalliy tadbirkorlar uchun "torlik qilib qolgan" mamlakatlar;
2. Iqtisodiyoti neftni eksport qilishdan olinadigan juda katta mablag'larni o'zlashtirishga qodir bo'lmagan mamlakatlar (OPEK - neft ishlab chiqarish va eksport qilish tashkilotiga a'zo mamlakatlar).

Chet el davlatlariga kapital chiqarishning shakl va usullari evalyutsiyasi

Bevosita xususiy investitsiyalar rivojidagi o'zgarishlar ko'proq quyidagilarga o'tishda namoyon bo'lmoqda:

1. O'z mustaqil chet el kompaniyalarini tashkil qilishdan kapitalni import qiladigan mamlakatlarda qo'shma korxonalarni barpo etishga.
2. Chet el firmalar aksiyalarini shunchaki sotib olishdan chet elda o'zlarining yangi sho'ba korxonalarini ta'sis etishga.
3. Chet el firmalari aksiyalariga egalik qilishdan ular bilan uzoq muddatli shartnomalar tuzishga.
4. Xalqaro korporatsiyalarning chet davlatlar xo'jalik strukturalariga kirib borishning shakli sifatida bosh firma aksiyalarini uning chet el filiallari aksionerlari o'rtasida tarqatish singari shakli ham tobora ko'p ahamiyat kasb etmoqda.

Bu usullar mohiyati to'grisida

Chet eldagagi firmalarining akiiyalarini yakka o'zi egallahdan ushbu mamlakatlarning xususiy kapital egalariga (qo'shma firmalar orqali), ba'zida davlatga (aralash firmalar orqali) ularning aksiyalarini sotib olishga ruxsat berishga o'tish quyidagilar bilan belgilanadi:

1. Fan-texnika inqilobi rivoji bilan (ko'proq rivojlangan mamlakatlarda).
2. Milliy hukumatlarning chet el kapitaliga munosabati bilan (asosan rivojlanayotgan mamlakatlarda).

Fanning va ishlab chiqarishning bugungi talabi ko'pincha ayrim, hatto eng yirik monopoliyalar imkoniyatlaridan ham ortib ketyapti. Shuning uchun ham rivojlangan mamlakatlardagi chet ellik investor, mahalliy kapitalning ishtiroti quyidagilarni yengillashtiradi, deb umid qiladi:

- zamonaviy texnologik jarayonlarni joriy etishni osonlashtiradi;
- mahalliy sheringining ishlab chiqarishiga kirishiga, uning yuksak malakali xodimlariga, yaxshi yo'lga qo'yilgan sotish shahobchalari va mijozlariga kreditlar olishga yo'l ochadi;
- kerakli maxsus axborot-ma'lumotlar bilan ta'minlaydi;
- "o'z" tadbirkorlari uchun mahalliy hukumat belgilagan imtiyozlardan foydalanish imkonii tug'iladi.

Rivojlanayottan mamlakatlarga kelsak, bu yerda ko‘pchilik chet el kompaniyalari ularning faoliyatini tartibga solib turuvchi ichki normalar bilan bog‘liq muammolarni chetlab o‘tish maqsadida milliy firmalarni sherikchilikka oladilar. Chunki bu sheriklar chet ellik kompaniyalar uchun zarur bo‘lgan texnik bilimga, boshqarish tajribasiga ega emas. Ularning kapitali ham qiziqish uyg‘otmaydi. Bundan tashqari, yosh davlatlarning hukumati o‘z hududlarida xalqaro korporatsiyalarning yagona o‘zi nazorat qiladigan sho‘ba jamiyatlarini ta’sis etishga umuman ruxsat berishmaydi. Yana transmilliy korporatsiyalar va millatlararo korporatsiyalar o‘z mulkini milliyashtirish yoki ekspropriatsiya qilishdan qutqarish maqsadida ham rivojlanayotgan mamlakatlar hududida kapitalga birgalikda egalik qilishga rozi bo‘ladilar.

Keyingi yillarda, rivojlangan mamlakatlardagi milliy hukumatning bevosita investitsiyalarga bo‘lgan munosabati o‘zgardi va bu bilan ularni ma’lum davrga cheklashlarni joriy etish real bo‘lib qoldi. Qo‘shma aksiyadorlik kapitali yo‘li bilan chet el filiallarini ta’sis etish ana shu cheklashlarni chetlab o‘tish, xalqaro kompaniyalar mulkiga nisbatan kamsitishlarning oldini olish yo‘llaridan biri bo‘ldi.

Mutaxassislarning bergan bahosiga ko‘ra, mulkka "jamoa bo‘lib" egalik qilish qayd etilgan ikkala tizimda tobora o‘sib boradi, lekin hozircha bu rivojlanayotgan mamlakatlarda ustunlik qilmoqda.

Chet el davlatlari iqtisodida trans va ko‘p millatli konsernlarni joriy etishning an’anaviy usullarining o‘zgarishi bitimlar ahamiyatining tobora o‘sib borayotganida ko‘rinadiki, ular o‘z mazmuniga ko‘ra chet el sheringining aksiyalarini shunchalik sotib olishni emas, balki chet elda yangi firmalarni ta’sis etishni bildiradi.

Chet elda investitsiya qilingan kapital uzoq davr mobaynida ko‘proq yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etishga emas, balki mahalliy kompaniyalarini sotib olishga sarflandi. Buning ustiga, agar rivojlangan mamlakatlarda mahalliy nazorat ostida bo‘lgan milliy kompaniyalar aksiyalarini sotib olish hozircha xalqaro kompaniyalar tomonidan chet el filiallarini sotib olishning asosiy shakli bo‘lsa, rivojlanayotgan davlatlarda bunday filiallar endi ko‘proq yangi firmalarni ta’sis etish vositasida paydo bo‘lmoqda. Bu quyidagilar bilan izoxlanadi:

- yosh davlatlar hukumatining chet elliklar tomonidan milliy kompaniyalarini sotib olinishiga nisbatan ancha qat’iy yo‘l tutayotganligi;
- bu davlatlarning ko‘pchiligi hozircha qayta ishslash sanoatini qaror toptirish, shakllantirish davrini boshidan kechiriyapti, shuning uchun ko‘pincha bu sohada u yerda sotib oladigan narsaning o‘zi bo‘lmaydi.

Buning ustiga barpo etilayotgan sanoat korxonalari ko‘pincha chet el kapitali tomonidan nazorat qilinayetgan yagona texnologik komplekslarning bir bo‘g‘inidan boshqa narsa emas.

Xalqaro monopoliyalarning chet davlatlarga, birinchi navbatda, rivojlanayotgan davlatlarga kirib borish usullari orasida texnologiyalar, asbob-uskunalar yetkazib berish, mutaxassislarning tayyorlash to‘g‘risida mahalliy firmalar bilan uzoq muddatga tuzilayoggan shartnomalar ahamiyati ortab boryapti.

Qo‘shma jamiyatlar ham keng quloch yoymoqda. Ular endi mulkka egalik qilishga emas, balki shartnomaga aloqalariga tayanib ish ko‘rmokda. Bunday sharoitda chet ellik sheriklar o‘z korxonalarini barpo etishmaydi.

Bunday jamiyatda ishtirok etayotgan chet el kompaniyasi uning mahsulotlarining bir qismiga egalik qilishga haqqi bo‘ladi, ba’zida ularning narxi kreditlar, asbob-uskunalar va xilma-xil xizmatlarni yetkazib berish evaziga jahon narxidan ham past bo‘ladi.

Chet ellik sheringining qarzidan qutilganidan keyin u shartnomada ko‘rsatilgan muddat davomida mahsulotning o‘z ulushini endi jahon narxlari bilan olish huquqini saqlab qolishi mumkin.

G‘arb iqtisodchilarining bashoratlariga ko‘ra, xalqaro biznes sohasidagi o‘zaro munosabatlar kelgusida egalik qilishga emas, ko‘proq shartnomalar, bitimlarga asoslanadi. Bunga sabab chet ellardagi bevosita investitsiyalarning nisbatan qisqarishi bo‘lishi mumkin, chunki kapital import qilayotgan mamlakatlarda u tobora ko‘proq qarshilikka uchrayapti (birinchi navbatda rivojlanayottan mamlakatlarda), istiqbolda esa investitsiya umuman ta’qiqlab

qo‘yilishi mumkin.

Bundan tashqari, trans va ko‘p millatli konsernlar mulkka egalik qilishdan shartnoma munosabatlariga o‘tar ekan, chet eldag‘i yuridik jihatdan mustaqil firmalarning ularning aksiyadorlik kapitalida qatnashishi va shaxsiy aloqalari orqali emas, balki bu firmalarni texnologik va tashkiliy jihatdan o‘ziga tobe qilish orqali boshqarish imkoniga ega bo‘lishadi.

Ushbu bobga shunday xulosa yasash mumkin:

Kapitallarning xalqaro harakati — bu kapitalni chet elda dastavval foyda olish maqsadida joylashtirish va ishlash.

Avvalda kapitalning ortiqchaligi, mo‘l-ko‘lligi uning chetga chiqarilishining bosh sababidir. Hozirgi sharoitda u ichki investitsiya uchun nisbatan yetishmagan taqdirda ham eksport qilinadi. Bunga quyidagi omillar sabab bo‘ladi:

1. Kompaniyalarning ishlab chiqarish umumiyligi miqyoslarini kengaytirishga bo‘lgan talablarining keskin oshishi;

2. Milliy iqtisod tarmoqlarini monopollashtirishning kuchayishi;

3. Ishlab chiqarish internatsionallashuvining jadallashishi;

4. Soliqlarni to‘lashdan bosh tortish, valuta kursi farqlari orqali foyda olish kabi savdohayqovchilik maqsadlarida kapitalni chetga olib chiqilishi.

Jahon iqtisodi tadrijiy rivojlangani sari kapital olib chiqishning sabablari o‘zgaradi. Jamg‘arma va kapitalni chetga chiqarish jarayonlarida yangi sifat tavsiflari paydo bo‘ladi. Jumladan, bevosita xususiy investitsiyalarni rivojlantirishda kapitalni import qiladigan mamlakatlarda qo‘shma jamiyatlarni barpo etish, chet el firmalari bilan uzoq muddatli shartnomalar tuzish, chet elda yangi sho‘ba korxonalar barpo etishga bo‘lgan moyillik tobora ko‘proq ahamiyat kasb etib bormokda.

SEMINAR MASHG‘ULOTI REJASI

1. Kapital migratsiyasining mohiyati va asosiy shakllarini tushuntiring.
2. Bevosita va portfelli investitsiyalarning mohiyati, xususiyatlari va rivojlanish tendensiyalarini tushuntiring.
3. Kapitalni chetga olib chiqarishning asosiy sabablari qanday va nima uchun o‘zgaradi?
4. Kapitalni jamg‘arish va chetga chiqarish jarayonlarida hozirgi tendensiyalarning xususiyatlari va sabablarini tavsiflang.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Erishgan marralarimizni mustahkamlab, islohotlar yo‘lida izchil borish — asosiy vazifamiz. "Xalq so‘zi", 2004 yil. 10 fevral.
2. Авдокушин Е.Ф. Международные экономические отношения. М., 1998.
3. Ломакин В.К. Мировая экономика. М., Финансы, ЮНИТИ. 1998.
4. Раджабова З.К. Мировая экономика. М., ИНФРА. 2004.
5. Рибалишн В.Е. Международные экономические отношения. М., 1998.
6. Семёнов В.Е. Международные экономические отношения. М., 1998.
7. Тэор Т.Р. Мировая экономика — СП. Питер, 2001.
8. World Investment Report, UN, 1997-2000.
9. Trade and Development Report, 2000, UN, New York, 2000.
10. Salvatore Dominic. International Economics. Fifth Ed. USA, New Jersey, 1995.

5-BOB ISHCHI KUCHINING XALQARO MIGRATSIYASI

Ishchi kuchi xalqaro migratsiyasining sabablari va evolutsiyasi

Odamlarni bir mamlakatdan boshqa mamlakatga ko'chib yurishga undovchi sabablar juda ko'plab iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va boshqa omillarga bog'liq. Ularning birga qo'shilib ketishi va birinchi o'ringa chiqishi ham turli mamlakatlar va mintaqqa, ham vaqtiga qarab farqlanadi. Hozirgi sharoitda eng ko'p tarqalganlari quyidagilar:

- 1) Teng mehnat uchun to'lanadigan ish haqidagi milliy farqlar;
- 2) dunyoning turli mamlakatlari va mintaqalaridagi aholining o'sish nisbati bir xil emasligi;
- 3) siyosiy, ijtimoiy, milliy-irqiy, diniy va boshqa sabablar.

"Aholi migratsiyasi" tushunchasi odamlarning ma'lum hududlar chegarasidan o'tib, boshqa yerlarga joylashishini va muhim turar-joyini o'zgartirishi yoki shu yerga qaytib kelishini bildiradi.

Bundan tashqari, xalqaro (tashqi) migratsiya ham mehnat qilish uchun, oilaviy, turistik va hokazo shakllarda namoyon bo'ladi.

Shundan kelib chiqqan holda, avvalo xalqaro mehnat migratsiyasi muammolari, jahon bozorlari, xususan, mahsulot, xizmat turlari, kapital bozorlari qatori mavjud bo'lgan xalqaro ishchi kuchi bozorining rivojlanish jarayonlari e'tiborga sazovor. Ishchi kuchi bir mamlakatdan ikkinchi bir mamlakatga o'tar ekan, u tovar sifatida o'zini bozorga soladi, xalqaro ishchi kuchi migratsiyasida ishtirok etadi.

Hozirgi zamon xalqaro mehnat bozorida ishchi kuchi milliy hududlardan oshib o'tib, turli oqimlarga bo'linib ketishini nazarda tutadi. Shu tariqa xalqaro mehnat bozori milliy, mintaqaviy ishchi kuchi bozorlarini birlashtiradi va ishchi kuchi migratsiyasi shaklida namoyon bo'ladi.

Mehnat resurslarining xalqaro migratsiyaga olib keladigan eng muhim ro'kachlar va sabablar orasida iqtisodiy va noiqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan turli omillari mavjud.

Iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan sabablar deb quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- 1) Biror-bir mamlakatda iqtisodiy taraqqiyot, xususan, sanoat taraqqiyoti darajasidagi tafovutlar (amaldagi tajriba shuni ko'rsatadiki, ishchi kuchi asosan tur-mush darajasi past bo'lgan mamlakatlardan darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarga migratsiya qiladi);
- 2) ish haqi mikdoridagi millatlararo farq;
- 3) ayrim mamlakatlarda, avvalo, kam rivojlangan mamlakatlarda mavjud bo'lgan surunkasiga ishsizlik;
- 4) kapitalning xalqaro harakati hamda xalqaro korporatsiyalar faoliyati (ma'lumki, korporatsiyalar yo ishchi kuchini kapitalga yaqinlashtiradi, yoki o'z kapitalini mehnat resurslari ko'p bo'lgan mintaqalarga olib boradi), ishchi kuchining kapital bilan birlashib ketishiga ko'maklashadi.

Mutaxassislar ishchi kuchining noiqtisodiy migratsiya sabablari qatoriga siyosiy, milliy, diniy, irqiy, oilaviy va boshqa jihatlarni birga qo'shib izohlaydilar.

Keyingi paytlarda aloqa vositalari, transportda ro'y bergan sezilarli rivojlanish, o'z navbatida, hozirgi zamon xalqaro ishchi kuchi migratsiyasini ancha kuchaytirib yubordi.

Mamlakatlararo ishchi kuchi migratsiyasining bugunga tarixi uning bir necha muhim yo'nalishlarini aniqlashga imkon beradi.

Bular kuyidagilardan iborat:

- 1) Rivojlanayotgan mamlakatlardan sanoati rivojlangan mintaqalarga migratsiya;
- 2) sanoati rivojlangan mintaqalar doirasida migratsiya;
- 3) rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida ishchi kuchi migratsiyasi;
- 4) sobiq sotsialistik mamlakatlardan sanoati rivojlangan mamlakatlarga ishchi kuchi migratsiyasi (rivojlanayotgan mamlakatlardan sanoati rivojlangan mamlakatlarda bo'layotgan migratsiya kabi);
- 5) sanoati rivojlangan mamlakatlardan rivojlanayotgan mamlakatlarga ilmiy xodimlar, malakali mutaxassislar mifatsiyasi.

Migratsiya sabablari, uning ijtimoiy strukturasi tarixiy ko'chib yurish xarakteriga ega,

ya'ni u ko'pgina ichki va tashqi omillarga bog'liq.

Masalan, XIX asrning 60-yillari oxirlarigacha dunyoning yetakchi kapitalistik mamlakatlardagi sanoat rivoji tufayli ko'proq sanoat ishchilari xalqaro migratsiyasi yuz bergan. U "eski migratsiya" nomini olgan.

XIX asrning uchinchi choragi va XX asrining birinchi yarmida migratsion oqimlarga xonavayron bo'lgan dehqonlar ommasi - "yangi migratsiya" kelib qo'shildi va yetakchi rol o'ynadi. Bu bosqichni bir tomonidan, agrar sektoridagi tanglik, ishlab chiqarishning iqtisodiy munosabatlardagi o'zgarishlari. Ikkinchisi tomonidan, sanoat ko'laming ortishi va shunga tegishli ravishda malakasiz ishchi kuchiga bo'lgan talabning o'sishi keltirib chiqargan edi.

Ikkinchisi jahon urushidan keyin 100 minglab ziyolilar vakillarining xalqaro mehnat migratsiyasiga kelib qo'shilishi - "aqli-idrokli odamlarning boshqa yurtlarga o'tib ketishi" (**brain drain**) yaqqol ko'zga tashlana boshladi. Bu shu bilan bog'liq ediki, fan-texnika taraqqiyoti hozirgi zamonda mehnat migratsiyasi omillari ichida yetakchi rol o'ynadi, uning taraqqiyoti rivojlangan davlatlarda malakali chet el ishchi kuchiga bo'lgan talabni ko'p jihatdan belgilab berdi.

Yangi ishlab chiqarishning fan-texnika taraqqiyoti bilan bog'liq tarmoqlarini shakllantirish yuksak rivojlangan mamlakatlarda 50-60-yillarda malakali ishchi kuchiga talabning oshishiga olib keldi.

Zero, bu davrda malakali mehnat resurslariga bo'lgan talab asosan mahalliy aholi hisobiga qondirildi. Lekin bunday ishlab chiqarishlar juda oz edi. Ko'pgina boshqa sohalarda qo'l mehnati saqlanib qolgan, oqibatda, ishlab chiqarish tarmoqlarining malakali ishchilarga bo'lgan talabining ortishi natijasida ishchi kuchining bu tarmoqlarga ko'chib o'tishi yuz berdi. Jismoniy kuch ko'p talab qilinadigan, ish haqi nisbatan kam to'lanadigan bo'shab qolgan ish joylariga esa sustroq rivojlangan mamlakatlardan ishchi kuchlari jalb qilina boshlandi (iqtisod rivojidagi pog'onalilik).

Fan-texnika taraqqiyotining yangi bosqichida bunday mexanizm o'zgardi. G'arbning gurkirab rivojlanayotgan yetakchi mamlakatlarda ishlab chiqarishni avtomatlashtirish natijasida malakasiz ishchi kuchiga bo'lgan talab ancha kamaydi. Shu bilan birga fan-texnika taraqqiyoti yuksak malakali kadrlarga; muhandisga, mutaxassislar, ilmiy xodimlarga bo'lgan talabni ancha oshirib yubordi. Lekin malakaviy ta'limning mavjud tizimi talabni to'la qondira olmaydi, bunga bo'lgan ehtiyoj ko'pincha boshqa mamlakatlardan kadrlar import qilinishi hisobiga ta'minlanardi. Shuning uchun chet el ishchi kuchi tarkibida tayyorlangan mutaxassislar ulushi tobora orta bordi. Masalan, GFRga chiqib ketgan turk ishchilarining umumiy sonida malakali ishchilar 1970 yilda 27%, 1976 yilda esa 73% ni tashkil etdi.

Shunday qilib, agar rivojlangan mamlakatlarda qo'shimcha "qo'llarga" bo'lgan talab keyingi yillarda pasaygan ekan, bu hech ham "aqli-idrokli" odamlarni import qilish kamaydi, degan ma'noni anglatmaydi.

Mehnatkashlarning xalqaro migratsion oqimlariga oliy ilmiy unvonlar, diplomlar va bilimlarga ega bo'lgan minglab olimlar, muhandislar, iqtisodchilar, o'qituvchilar, shifokorlar va boshqa mutaxassislar kelib qo'shilyapti.

Birgina 1993 yilning o'zida AQSHga chet eldan 23,5 ming immigrant olim va muhandislar keldi. Immigrantlar safida ilgari ko'rilmagan ishchi kuchlari turining paydo bo'lishi uning safarbarligiga, hatto, o'sha aholi ko'chib yurishining harakat-lantiruvchi kuchlari qatoriga ko'plab yangi immigrantlarning kelib qo'shilishini anglatardi.

Jumladan, an'anaviy sabablar bilan (ish haqi, turmush sharoiti, siyosiy, irqiy, milliy va boshqa sabablar) bir qatorda, ilmiy tadqiqotlar uchun sharoitning yo'qligi, olimlar, kashfiyotchilar, konstruktorlar va boshqalarning haq-huqukdari, ularni mukofotlash, taqdirlashdagi juda katta farqlar singari sabablar ham bor edi. Hisob-kitoblarga qaraganda, rivojlanayotgan mamlakatlar 70-yillarda AQSHda terapevt va xirurglarning har yilgi o'sishining 25-50%ni, olimlarning 20%ni, muhandislarning 25-50%ini ta'minlab topgan. Masalan 80-yillarning boshlarigaga kelib, Buyuk Britaniyada arab mamlakatlardan salkam 600 olim, 6,4 ming shifokor va 45 mingdan ortiq universitet ma'lumotiga ega kishilar ishlagan.

80-yillarning o‘rtalarida AQSH va G‘arbiy Yevropada ishlagan Eron shifokorlarining soni o‘zlaridagiga qaraganda ko‘p edi. 40 mln. eronlikka 15 ming kishi to‘g‘ri kelardi. Holbuki, 16 ming Eron shifokori AQSHda, 5 minga esa G‘arbiy Yevropada ishlardi.

70-yillarning oxiri va 80-yillarning boshida AQSHdagi muhandislar orasida chet elliklar ulushi 10% ga, shifokorlar orasida 24%ga yetgan edi. Qizig‘i shundaki, milliy akademiya a‘zolarining 23%, Nobel mukofoti sovrindorlarining 33% AQSHga kelgan muxojirlardir.

1983 yildan 1988 yilgacha Buyuk Britaniyadan tarix, falsafa, siyosiy fanlar va fizika sohasidagi 200dan ortiq yirik mutaxassislar AQSHga muhojirlar sifatida kelishgan. Bunga sabab - ish haqining pastligi (AQSHdagiga qaraganda 3 barobar kam), o‘z vatanida ishchi kuchining qisqarishi, ilm bilan shug‘ullanish uchun sharoitning ko‘ngildagidek emasligi. 90-yillarning o‘rtacharida Nyu-York universitetining har **atginchi** professori ilgari Buyuk Britaniya fuqarosi bo‘lgan.

Immigrantlar safida MDH vakillari ulushi ham sezilarli (3-jadval).

3-jadval

1996 yilda Rossiya va MDHning boshqa mamlakatlaridan ketgan muhojirlarning malakaviy tarkibi (1000 kishi)³

Soha xodimlari	Rossiya		MDH	
	1	2	3	4
	Ming kishi	%	Ming kishi	%
Hammasi bo‘lib, shu jumladan	19,7	100,0	68,8	100,0
Mutaxassislar va boshqaruv xodimlari	3,0	15,2	6,9	10,0
Savdo xodimlari	0,2	1,0	0,7	1,0
Ma’muriy-yordamchi xodimlar	0,4	2,03	1,0	1,5
Xizmat ko‘rsatish sohasi xodimlari	0,9	4,6	2,8	4,1
Qishloq xo‘jaligi xodimlari	0,02	0,1	0,06	0,09
Malakali ishchilar	0,3	1,52	1,0	1,5
Yarim malakali va malakasiz ishchilar	0,8	4,1	3,1	4,5
Quruvchilar	1,1	5,6	3,3	4,8
Talabalar va mакtab o‘quvchilari	7,2	36,5	18,6	27,0
Nafaqadagilar va ishsizlar	3,9	19,8	17,1	24,9

Xalqaro mehnat migratsiyasining asosiy markazlari

Xalqaro ishchi kuchi harakati qaysi geografik yo‘nalishlarda ko‘proq?

Eng yirik an‘anaviy markazlardan - G‘arbiy Yevropaning ahamiyati urushdan keyingi davrda ortib ketdi. 70-yillarning o‘rtalariga kelib, G‘arbiy Yevropa bozorlariga ishchi kuchi xalqaro migratsiyasi hajmi eng yuqori darajaga yetdi. 1973-74 yillarda Xalqaro Mehnat Tashkilotining ma’lumotiga ko‘ra, bu yerda 12 mln chet ellik ishchi ishlagan. Chet ellik aholining soni (oila a‘zolarini ham qo‘shib hisoblaganda) 20 mln dan oshiq kishiga yetdi (yashirincha kelganlar bunga kirmaydi). 70-yillar oxiridan mintaqqa mamlakatlarida migratsiya siyosatining o‘zgarishi 1974-75 yillardagi iqtisodiy inqiroz tufayli Yevropaga migratsiya harakati ko‘lamni kamaydi.

Keyingi un yilliklarda juda qudratli migratsion oqim AQSH tomon yo‘l oldi. 70-yillarda bu mamlakatga faqat qonuniy yo‘llar bilan (legal) kelganlar soni 4,5 mln kishiga yetdi Bu o‘sha davr mobaynida aholi soni ko‘payishining 20 foizini tashkil etdi (bu 60-yillardagiga qaraganda 1/3 barobar ko‘pdir).

³ Супян В.Б. Российская эмиграция в США (социально-статистический портрет) ж. США. Экономика, Политика, Идеология. М., 1998, №3, 118-120-betlar.

80-yillarda mamlakat aholisi ko‘payishining 1/3 qismi (34%) muhojirlar ulushiga to‘g‘ri keldi yoki salkam 8 mln kishini tashkil qildi, shu jumladan, 6 mln. kishi qonuniy yo‘llar bilan, 2 mln kishi yashirinchal kelgan (aholining umumiy o‘sishi ushbu davrda taxminan 22 mln ni tashkil qilgan).

90-yillar o‘rtalarida AQSHda 11 mln dan ortiq muhojirlar yashadi. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan yillarda muhojirlar geografiyasi ancha o‘zgardi. Agar 60-yillarda Kanada va G‘arbiy Yevropa yangi ishchi kuchlarining asosiy manbai bo‘lgan bo‘lsa (79%), 70 va 80-yillarda Lotin Amerikasi va Osiyo oldinga chiqib oldi. 90-yillarda bu mintaqalardan kelganlar ulushi 84% ni tashkil etdi. 1995 yilda AQSHga kelgan 720 ming kishining 267,9 mingini (37%dan ko‘prog‘ini) Osiyo mamlakatlaridan kelganlar tashkil qildi. Shu jumladan, Filippindan 50 ming, Vyetnamdan 41,7 ming, Xitoydan 35,5 ming, Hindistondan 34,7 ming kishi kelgandi. Yevropa mamlakatlaridan 128 ming (17,8%). Shimoliy Amerikadan 102,9 ming kishi (14,3%), Karib havzasidan 96,8 ming kishi (13,4%), Meksikadan 89,9 ming kishi (12,5%), Markaziy Amerikadan 77,4 ming (10,8%) kelgandi.

4-jadval

1970—2000-yillarda dunyoning turli hududlaridan AQSHga kelgan muhojir ishchi kuchlari tarkibi

Mamlakat	%	Mamlakat	%	Mamlakat	%
Osiyo	35,2	Markaziy va Janubiy Amerika	47,9	Yevropa	12
Shu jumladan, Filippin	6,7			jumladan	
Koreya	4,7	shu jumladan		Angliya	2
Xitoy	4,7	Meksika	23,7	MDH	1,3
Vyetnam	4,7	Kuba	3,3	Kanada	1,8
Hindiston	3,5	Dominika Respublikasi	3,2	boshqalar	3,1
		Yamayka	2,8		
		Salvador	2,2		
		Kolumbiya	1,6		

80-yillarning oxirlaridan boshlab sobiq ittifoq respublikalaridan AQSHga kelgan muhojirlar soni ortdi.⁴

Yil	1989	1990	1991	1992	1993	1994	1995	2002
Ming kishi	11,1	25,5	57,1	43,6	58,7	63,4	54,5	78,9

Keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinadiki. Agar 80-yillarning oxirlarigacha MDH mamlakatlaridan AQSHga kelgan muhojirlar soni ulushi atigi 1,3%ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2002 yilga kelib 7,5%ga yetdi.

Xalqaro mehnat migratsiyasining an’anaviy markazlari (G‘arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika) bilan bir qatorda yangi yo‘nalishlar paydo bo‘ldi.

Chet el ishchi kuchini jalb etuvchi birinchi yangi markaz Yaqin Sharqning neft konlari va neftni qayta ishlovchi sanoat korxonalari joylashgan tumanlarda juda tez qaror topa boshladи.

80-yillarning boshlarida bu yerda qo‘shni Arab mamlakatlaridan, Pokiston, Hindiston, Bangladesh, Janubiy Koreya, Filippindan 3 mln.ga yaqin chet ellik ishchilar kelib ishlardi. Birlashgan Arab Amirligida (BAA) ishchi kuchlarning salkam 90%i muhojirlar, Qatarda

⁴ Супян В.Б. Российская эмиграция в США (социально-статистический портрет) ж. США. Экономика, Политика, Идеология. М., 1998, №3, 116-bet.

80%dan ortig‘i, Quvaytda salkam 70%, Saudiya Arabiston va Bahraynda 40%dan ko‘prog‘i, Ummonda 34%ni muhojirlardir.

Afrika qit’asi janubidagi yana bir markaz Afrikaning barcha mamlakatlari, Hindiston subqit’asi mamlakatlaridan ishchilar yollab kelingan. Bular Britan Amerikaning oltin qazib oluvchi, olmos va uran sanoati transmilliy korporatsiyalari bo‘ldi (250 ming muhojir qonunii yo‘l bilan va taxminan 250 ming muhojir yashirin yo‘l bilan kelishgan).

Boshqa markaz Janubiy Amerika mamlakatlaridadir. Birgina XX asrning 60-70-yillarida u yerga salkam 8 mln chet ellik ishchilar olib kelingan.

Keyingi markaz Janubi-Sharqiy Osiyoda bo‘lib, unda millionlab filippinlik, pokistonlik, janubiy koreyalik, indoneziyaliklar bor edi.

Yashirin immigratsiya

Amerika qit’asining qator mamlakatlari va mintaqalarida, G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida muhojirlik siyosati keskinlashgan sayin migratsiya oqimi o‘zgarib, bu yerlarga yashirinchaligiga keladigan muhojirlar soni tobora ortib bormoqda.

G‘arbiy Yevropada 1970-yillardagi inqiroz davrida yollanish maqsadida chegaralardan yashirinchaligiga keladigan muhojirlar soni 1976 yilda faqat Yevropa iqtisodiy uyushmasi (YEIU) hududida 600 ming yashirinchaligiga kelganlar aniqlandi. 1979 yilda Italiyada 500 ming, 1982 yilda YEIU mamlakatlarida 2 mln yashirinchaligiga kelgan muhojirlar bor edi. Shu jumladan, ular Fransiyada 300-500 ming, GFRda 200— 500 ming kishini tashkil etardi. Yashirinchaligiga kelganlarga katta jarima solinardi: Buyuk Britaniyada 400 dollar, GFRda 500 ming marka, Fransiyada 100-200 ming frank, Belgiyada 500 ming frank.

Yashirin kelishlar Shimoliy Amerikada keng quloch yoydi. Ish qidirib keladiganlar soni 80-yillarda 800 ming kishiga yetdi (mavsumga qarab 400 ming kishidan 1 mln 200 ming kishigacha).

2001 yilda AQSHga qonunsiz kelganlarning umumiyligi soni taxminan 5 mln kishiga to‘g‘ri keladi. Bu mamlakatdagi ishchi kuchining taxminan 4 %ni tashkil qiladi. Ayrim ma’lumotlarga qaraganda, garchi ruxsatsiz kelgan har bir muhojir uchun 500 dan 1000 dollargacha jarima belgilanganiga qaramay, 6 mln kishi ish qidirib kelgan edi.

Tadbirkorlar uchun yashirin kelganlarni ishga yollash quyidagi sabablarga ko‘ra foydali hisoblanardi:

- 1) Ularga to‘lanadigan ish haqining pastligi;
- 2) ish soliq xizmatchilariga bildirmasdan bajarilgani tufayli soliq tulanmasligi;
- 3) mabodo ular to‘satdan qo‘lga tushgudek bo‘lsa yoki "chegarani buzuvchilar" ommaviy ravishda mamlakatdan chiqarilgan taqdirda ularga to‘lanmagan ish haqi tadbirkorlar qo‘lida qolishligi.

Janubiy Amerika, Janubi-Sharqiy Osiyo, Afrikaning ayrim mintaqalarida ham yashirinchaligiga kelgan muhojirlar soni ancha ko‘p.

Yashirinchaligiga kelayotgan muhojirlar oqimini to‘xtatish yo‘lidagi urinishlar kutilgan natijani bermayapti. Shuning uchun ham 1986 yilda AQSHda Immigratsiya islohoti va Nazorat aktini qo‘llab-quvvatlashdi. U quyidagalarni ta’minkaydi:

1. 1982 yilning 1 yanvaridan mamlakatda yashayotganligi tasdiqijangan kishilarning amnistiya bo‘yicha afv etilishi va oshkora fuqarolik huquqini olish imkoniyatini.

2. Yashirinchaligiga kelgan muhojirlarning har birini ishga olganligi uchun ish beruvchilarga 250-1000 dollargacha jarima solishni.

Mazkur chora-tadbirlar tufayli 1995 yilga kelib salkam 2,5 mln. yashirinchaligiga kelgan muhojir qonuniy haq-huquqlarga ega bo‘ldi, lekin AQSHdagi ana shunday ishchilar umumiyligi sonining atigi 1/3 yoki 2/3 qismini tashkil qiladi.

Ishchi kuchi immigratsiyasining qabul qiluvchi va donor

mamlakatlarga ta'siri

Chet el ishchi kuchlari oqimi qabul qilayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga umuman ancha barakali ta'sir ko'rsatadi:

- chet el ishchi kuchi narxining arzonligi bilan bog'liq ishlab chiqarishdagi sarf-xarajatlarning kamayishi natijasida mamlakatda ishlab chiqarilayotgan tovarlarning raqobatbardoshligi ortadi;
- rivojlanayotgan mamlakatlardan kelgan malakali kadrlar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulot yoki ko'rsatilayotgan xizmat qiymatining ortishi (masalan, AQSHda yiliga 3 mlrd dollar);
- chet el ishchilari yaratilayotgan tovar va xizmatlarga qo'shimcha ehtiyojlar tug'diradi, ishlab chiqarishning o'sishiga va o'zлari kelgan mamlakatlarda qo'shimcha ish joylarining paydo bo'lishini rag'batlantiradi;
- malakali ishchi kuchlarini qabul qilayotgan mamlakat o'zida o'qitish va malakaviy tayyorgarlik uchun ketadigan sarf-xarajatlarni tejaydi (AQSHda yshshga 1,8 mlrd dollar);
- ijtimoiy xizmat ko'rsatishga sarflanadigan mablag'lar hisobidan tejash, chunki immigrant ishchilar nafaqalar bilan ta'minlanmaydi va turli ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishda hisobga olinmaydi;
- chet elliklardan yuqoriroq olinadigan soliqlar hisobidan qo'shimcha foyda ko'rish;
- inqirozlar va ishsizlik yuz bergan taqdirda ular ishdan birinchi bo'lib bo'shatilishlari mumkin;
- muhojirlar keksalik (aholi qarishi) jabrini ko'rayotgan rivojlangan mamlakatlarning demografik manzarasini yaxshilaydi;
- Fransiya, Germaniya, Shveiiyada barcha yangi tug'ilganlarning 10%ni ko'chib kelganlar oilasida tug'ilyapti. Shveysariyada 24%, Lyuksemburgda 38%.

Bundan tashqari, rivojlanayotgan mamlakatlardan ishchi kuchining oqib kelishi sanoati rivojlangan davlatlarda ayrim tarmoqlarni zarur kadrlar bilan ta'minlaydi, ularsiz odatdagidek ishlab chiqarish jarayoni, ba'zida esa odatdagidek kundalik hayotning bo'lishi mumkin emas. Bunga sabab - o'z mehnat resurslarining cheklanganligi, ularning ishlab chiqarishning ayrim tarmoqlarqda ishlashni xohlamasligidir. Nisbatan kam haq to'lanadigan, mehnati og'ir, "iflos", nufuzsiz va mehnatning ayrim boshqa sohalari ana shular sirasiga kiradi.

Masalan, Fransiyada muhojirlar qurilishda ishlayotganlarning 25%ini, avtomobil sanoatidagilarning 1/3 qismini, Belgiyada hamma konchilarning yarmini, Shveysariyada quruvchi ishchilarning 40%ini tashkil qiladi.

Ishchi kuni emigratsiyasining donor mamlakatlarga ta'siri

Dastavval, ishchi kuchini eksport qilishga mamlakatga chet el valutasining kirib kelishi uchun bir manba deb qaraladi. Xalqaro valuta jamg'armasining ma'lumotlariga qaraganda, ishchi kuchi eksport qilinganda olinadigan foydaning o'rtacha normasi tovarlarni eksport qilingandagiga qaraganda 20% va xizmatlarni eksport qilgandagiga qaraganda 50% bo'ladi.

Masalan, sobiq Yugoslaviyada 80-yillarda tovar va xizmatlarni eksport qilishdan xar yili tushgan sof foyda salkam 2,5 mlrd. dollarni tashkil qildi. Ishchi kuchini eksport qilishdan esa mamlakat 3,5 mlrd va ishchilar chet eldan o'z uylariga qaytib kelganlaridan keyin yana shuncha summa olardi. Natijada tushumlar 7 mlrd dollarni tashkil etardi. Bugungi kunda esa bu yerda ishchi kuchini eksport qilish valuta olishning birdan-bir manbai bo'lib qoldi.

Mehnat resurslari emigratsiyasining rivojlanayotgan mamlakatlar uchun roli katta. 90-yillarda ishchi kuchini eksport qilishdan keladigan tushumlar rivojlanayotgan mamlakatlarda yuksak sur'atlar bilan o'sib, yiliga 10%gacha yetdi. Shuning uchun ham ular mehnat resurslari bo'yicha ixtisoslashib, ishchi kuchini eksport qilish valuta daromadlarining eng muhim manbai bo'lib qoldi.

Ishchi kuchini eksport qilishdan olinadigan daromadlar to'rtta bevosita manbadan iborat:

- Vositachi firmalar daromadidan olinadigan soliqlar;

- immigrantlarning oilaga va qarindosh-urug‘lariga yordam tariqasida o‘z vatanlariga yuboradigan pul jo‘natmalari;
- immigrantlarning shaxsiy investitsiyalari (vataniga ishlab chiqarish vositalari va uzoq muddatli foydalaniladigan buyumlarni olib kelishi, yer-suv, ko‘chmas mulk sotib olish, qimmatbaho qog‘ozlarni harid qilish);
- ishchi kuchini import qiluvchi mamlakatlardan keladigan kapitallar.

Bular ko‘pincha mehnat resurslarini qayta tiklashga, ijtimoiy sohaga sarflanadi. Masalan, Misr Arab Respublikasi uchun Suvaysh kanalidan foydalanish 80-yillar oxirlarida yiliga 970 mln dollar, turizm - 600 mln, muhojirlarni yuborish esa 3 mlrd dollardan ortiq foyda keltirdi.

Yamanda muhojirlarni yuborish ayrim yillarda eksportdan keladigan tushumlardan 30 barobar ko‘p foyda keltirdi.

90-yillarning boshlarida dunyoning 40 ga yaqin mamlakatida chet eldan tushgan kirimning salkam 100 mln dollarini muhojirlardan olishgan, 10 ta mamlakat esa 1 mlrd dan ko‘proq opgan.

Xalqaro valuta jamg‘armasining ma’lumotlariga ko‘ra, to‘lov balanslarining daromad qismiga kiritiladigan xususiy pul o‘tkazishlarning 90%ini muhojirlardan tushgan kirimlar tashkil etadi.

Ishchi kuchining eksport qilinishi ortiqcha mehnat resurslarining tazyiqini, tegishli ravishda mamlakatdagi ijtimoiy tanglikni pasaytiradi. Eksportchi mamlakat uchun ishchi kuchlari yangi kasblarga bepul o‘rgatiladi, mehnatni tashkil qilishning ilg‘or usullari bilan tanishtiriladi. Zamonaviy G‘arb sivilizatsiyasi bilan tanishish an‘anaviy turmush tarziga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Eksportchi mamlakat uchun ishchi kuchini eksport qilishning salbiy jihatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Aqlli, idrokli odamlarning chetga ketishi;
- malakali, tashabbuskor kadrlarning kamayishi. Muhojirlar o‘z vatanlariga qaytganlaridan keyin ham ularning ijtimoiy-iqtisodiy roilda sezilarli o‘zgarishlar yuz beradi.

Ishchilarning ko‘pi chet elga ketishidan oldin o‘z mamlakatlari uchun an‘anaviy bo‘lgan qishloq xo‘jalik ishlari bilan shug‘ullanishgan va ularning ozgina qismi sanoatda yordamchi ishlarni bajargan. Muhojirlarning ko‘pchiligi o‘z vatanlariga qaytib kelganlaridan keyin noishlab chiqarish sohasida ishlashga yoki o‘z ishini ochishga harakat qilishadi. Gap shundaki, bilim saviyasining pastligi, o‘zi kelgan mamlakat tilini bilmasligi, qaytib kelgandan keyin uning ish xarakteri maqomini belgilab beradi.

Muhojirlar ko‘pincha qishloq xo‘jalik sohasiga qaytishga majbur bo‘lishadi. Natijada ishdan ko‘ngli sovib, yana chet elga ketishga harakat qiladi. Ulardan ayrimlari kichik biznes bilan shug‘ullanishga muvaffaq bo‘ladi. Uyga qaytib kelgandan keyin noishlab chiqarish sohasida ish topishga urinish oxir-oqibatda shunga olib keladiki, chet elda ishlab topgan pulning juda oz qismi ishlab chiqarish asbob-uskunalarini va boshqa vositalarni sotib olishga sarflanadi, ya’ni undan samarasiz foydalaniladi.

Janubiy Yevropa mamlakatlariga muhojir bo‘lib ketganlarga oid ma’lumotlardan ko‘rinadiki, ular daromadlarining faqat 10%igina samarali foydalaniladi. Bundan tashqari, ularning uylariga yuborgan pul jo‘natmalari tovar massasi bilan mustahkamlanmagan to‘lov qobiliyatiga ega bo‘lgan talabni oshirib, pulning qadrsizlanishiga, muhojirlilikka aloqador bo‘lmagan oilalar turmush darajasining yomonlashuviga olib keladi.

Lekin chet elda bo‘lish mehnatkashlarning o‘zlariga ham ta’sir ko‘rsatadi. Aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlarda muhojirlar chet eldan qaytib kelganidan keyin o‘z vatanida biror jiddiy o‘zgarish qilishga muvaffaq bo‘la olmasalarda, talab-ehtiyojlari ortadi, ularning hayotga, mehnatga bo‘lgan munosabatlari, qarashlari, odatlari o‘zgaradi.

Ushbudan kelib chiqqan holda quyidagicha xulosa yasash mumkin:

Odamlariing bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga muhojir bo‘lib borishlariga turtki bo‘lgan sabablar va muhojirlilikning ijtimoiy tarkibi juda ko‘p iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va

boshqa omillarga bog'liq. Zero, ularning birga qo'shilib kelishi, ustuvorligi, turli mamlakatlar hamda mintaqalarda vaqtiga qarab bir-biridan farq qiladi.

Fan-texnika taraqqiyoti hozirgi zamon mehnat migratsiyasi omillari orasida yetakchi rol o'ynaydi, uning rivoji bиринчи navbatda rivojlangan davlatlarda chet ellik ishchi kuchlariga bo'lган talabni ko'п jihatdan belgilab beradi. Jumladan, yuksak malakali kadrlarga, xususan, intellektual mexnat kishilariga bo'lган talab keskin ortdi.

Vaqt o'tishi bilan xalqaro mehnat migratsiyalarining sabablari va ijtimoiy tarkibigina emas, uning geografiyasi ham o'zgarib boradi. Agar urushdan keyingi yillarda G'arbiy Yevropa migratsiyaning asosiy markazi bo'lган bo'lsa, keyingi uch o'n yilliklar davomida ishchi kuchini AQSH ko'proq jalb qila boshladi.

Agar 1960-yillarda bu mamlakat uchun yangi ishchi kuchining manbai Kanada va G'arbiy Yevropa hisoblangan bo'lsa, 1970-yillardan boshlab Lotin Amerikasi va Osiyo bo'ldi.

Ishchi kuchining oshkora qonuniy ravishda migratsiyasi ko'lami ancha ortishi bilan bir vaqtda uning yashirinchha kelishi ham ancha o'sdi. Zero, ular mehnatidan foydalanish tadbirkorlar uchun ancha foydalidir.

Chet el ishchi kuchi umuman olganda, qabul qilayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga ancha samarali ta'sir ko'rsatadi: ishlab chiqarilayotgan tovarlarning raqobat qilish qobiliyati ortadi, ishlab chiqarishning o'sishi, odamlarning qo'shimcha ish bilan ta'minlanishi rag'batlantiriladi, ta'lim, malakaviy tayyorgarlikka qilinadigan sarf-xarajatlar tejaladi, ayrim rivojlangan mamlakatlarda demografik ahvol yaxshilanadi.

Ishchi kuchini emigratsiya qilish rivojlanayotgan donor mamlakatlarga ham samarali ta'siri bor. Bu chet el valutasining mamlakatga kirib kelishining asosiy manbalaridan biridir. Bundan tashqari, bu ortiqcha mehnat rvsurslari tazyiqini, binobarin, mamlakatdagi ijtimoiy tanglikni pasaytirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, milliy kadrlar chet elga borib, yangi kasblarni o'rganadi, mehnatni tashkil qilishning yangi uslublari, an'anaviy sivilizatsiyadan farq qiluvchi hozirgi zamon sivilizatsiyasining yaxshi-yomon tomonlari bilan tanishadi.

SEMINAR MASHG'ULOTI REJASI

1. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining sabablari.
2. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi ko'lami va geografiyasi o'zgarishining asosiy tendensiyalari qanday?
3. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi ijtimoiy tuzilishi evolutsiyasining sabablari va xususiyatlari qanday?
4. Ishchi kuchi migratsiyasini qabul qiluvchi mamlakatlar va yetkazib beruvchi mamlakatlarga ta'siri.

ADABIYOTLAR

1. Авдокушин Е.Ф. Международные экономические отношения. Учебное пособие. М., 1998.
2. Басовский А.С. Мировая экономика: Курс лекций. — М., ИНФРА-М., 2003.
3. Королева И.С. Мировая экономика: Глобальные тенденции за 100 лет. М., Экономист, 2003.
4. Кругман Р, Обсфельд М. Международная экономика. М. Питер, 2004.
5. Ломакин В.К. Мировая экономика. М., Финансн, ЮНИТИ, 1998.
6. Мировая экономика и международные экономические отношения. Серия учебники. Учебное пособие Под. ред. Акоповой Е., Воронковой О.Н. Гаврилько Н.Н. - Ростов на Дону, Феникс, 2001.
7. Раджабоеа З.К. Мировая экономика М, ИНФРА, 2004.
8. Семенов К.А. Международные экономические отношения. Текст лекции. М., 1998.

9. Супян Б.Б. Российская эмиграция в США (социально-статистический портрет) //США. Экономика. Политика. Идеология. М., 1998. №3.
10. Тарлецкая Л.Х. Международная миграция и социально-экономическое развитие. ж. МЭ и МО, М., 1998, № 7.
11. Цапенко И. Социально-политические последствия международной миграции населения // МЭ и МО, М., 1999, №3.
12. Millions Want to Come. //The Economist, April 4th, 1998.
13. Salvatore D. International Economics. US, New Jersey, 1995.
14. Appleyard D.R. Field A.J. International Economics, 1995.

6-BOB

HOZIRGI ZAMON IQTISODIDA XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYA JARAYONLARI

Hozirgi zamon jahon iqtisodiyotining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri - uning qamrovi kengayib borayotganligidandir. Bu jarayon rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning tashqi iqtisodiy aloqalari nafaqat savdo-sotiq sohasida, balki boshqa ko‘lamlarda ham erkinlashib borayotganligi, ulzrning milliy iqtisodlari tobora ko‘proq o‘z qobig‘ini yorib, bir-biri bilan bog‘lanib ketayetganligi bilan ajralib turadi. Ushbu jarayonlar quyidagi ikki g‘oyat muhim holat natijasi hisoblanadi:

1) Bir tomondan, amaliyotda tobora ko‘proq milliy bozorlarning yaratilishi, milliy iqtisodlarning tashqi aloqalarga urg‘u berishi;

2) ikkinchi tomondan, xalqaro xo‘jalik munosabatlarini rivojlantirish va chuqurlashtirish yo‘lida uchraydigan transport, kommunikatsiya sohalarida g‘ov-to‘sıqlarni darhol bartaraf etuvchi texnologik innovatsiyalar.

Bugungi kunda integratsiya jarayoni kuchayib bormoqda va bu sharoitda jahon iqtisodiga qo‘shiluvning tub bahosi yuz chandon ortib ketmoqda.

1980-yillarning o‘rtalaridan boshlab jahon iqtisodi xalqaro savdo va xalqaro moliyaviy muomalalar haddan tashqari yuqori sur’atlar bilan o‘sayotgan davrga qadam qo‘ydi.

1986 yildan 1996 yilgacha bo‘lgan davr ichida xalqaro savdo oboroti hajmi bir yilda o‘rtacha 6,5%ga ortdi va 10 yil ichida 1,9 barobar ko‘paydi.

Ushbu yillar mobaynida xalqaro xizmatlar savdosи 2,4 marta ko‘paydi.

1985-1995 yillar ichida xalqaro savdoning jahon yalpi mahsulotidagi salmog‘i oldingi 10 yillikdag‘iga nisbatan 3 marta va 1996-2004-yillarda esa qariyb 2 marta ko‘proq jadallahshdi. Bu milliy iqtisodlar kashfi tezlashganidan, ularning bir-biriga muhtojligi kuchayib borganligidan dalolat beradi.

Xuddi ana shu davrda bevosita chet el investitsiyalarining o‘sishida jiddiy o‘zgarish yuz berdi: ularning jahon yalpi mahsulotidagi salmog‘i ikki barobar ko‘paydi. Shunisi ham borki, rivojlanayotgan mamlakatlarga mo‘ljallangan bunday innovatsiyalar hajmi 2004 yilning birinchi yarmiga kelib 4,5 hissa ortdi.

Ishlab chiqarish kuchlarining internatsionallashuvi va buning oliy shakli bo‘lmish jahon xo‘jaligining globallashuvidan iborat umumiy jarayon dunyoning ko‘pgina mintaqalarida integratsiya holatlarining rivojlanishi hamda integratsion birlashmalarning yuzaga kelishida namoyon bo‘ladi.

Iqtisodiy integratsiya - xo‘jalik faoliyatining internatsionallashuvida oliy bosqich bo‘lib, o‘ziga xos huquqiy tizimlari bilan ajralib turuvchi, ham davlatlararo ham umummiliy negizga tayangan bamaslahat siyosat asosida faoliyat ko‘rsatuvchi bir butun yagona xo‘jalikdir. Bunga esa turli milliy iqtisodiyotlarning birlashuvi jarayonida erishiladi (misol — Yevropa Ittifoqi).

Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati milliy xo‘jaliklar o‘rtasida o‘zaro chuqur va

barqaror aloqalarni rivojlantirish, mehnat taqsimotini yo‘lga qo‘yish, ularning turli darajadagi, turli shakllardagi qayta ishlab chiqarish tizimlari o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish asosida mamlakatlarning xo‘jalik hamda siyosat sohalarida birlashuvি jarayonidan iboratdir.

Mikro darajada qo‘shni mamlakatlardagi ba’zi xo‘jalik subyektlari (korxonalar, firmalar)ning kapitali bir-biri bilan iqtisodiy bitimlar tuzish usullarini shakllantirish, chet elda o‘z bo‘linmalarini ochish yo‘li bilan o‘zaro hamkorlik qilish, demakdir.

Davlatlararo (makro) darajada esa integratsiya davlatlarning iqtisodiy birlashmalarini shakllantirish hamda milliy siyosatlarini muvofikdashtirish asosida ro‘y beradi.

Natijada milliy iqtisodlar bir-birlariga "kirib bormoqdalar". Xo‘jalik asosining internatsionallashuvi yaq-qol ko‘zga tashlanmoqda - fan-texnika, ishlab chiqarish, investitsiya, moliya-tijorat faoliyatining ko‘p va turli bosqichlari bir-biriga chatishib ketmoqsa. Mamlakatlar va xalqlarning iqtisodiy o‘zaro bog‘likligi aniq haqiqatga aylanmoqda.

Iqtisodiy integratsiya asosiga xo‘jalik hayotining o‘sib borayotgan internatsionallashuvi, xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, fan-texnika taraqqiyoti, milliy iqtisodning ochikdigi darajasining ortib borishi kabi omillar ham kiradi. Iqtisodiy integratsiyaning shart-sharoitlari sifatida integratsiyada qatnashayotgan mamlakatlar bozorining rivojlanish darajasini solishtirish, ularning geografik yaqinligi, ular oldida turgan muammolarning umumiyligi, bozor islohotlarini tezlashtirishga intilish, integratsion jarayonlardan chetda qolmaslik kabi xususiyatlarni qayd etib o‘tish kerak.

Integratsiyaning eng muhim umumiy iqtisodiy tavsifi quyidagilardan iborat:

1. Iqtisodiy jarayonlarni davlatlararo miqyosda yo‘lga qo‘yish.
 2. Bir-biridan u yoki bu darajada mustaqil hisoblangan milliy xalq xo‘jalik majmuvalari o‘rniga umumiy mutanosiblikka, umumiy qayta ishlab chiqarish tizimiga ega bo‘lgan biron mintaqaviy internatsional majmuani asta-sekin shakllantirish.
 3. Mintaqqa doirasida mahsulotlar, ishchi kuchi, moliyaviy resurslarning davlatlararo harakati uchun hududiy sharoitlarni kengaytirish hamda bunday harakatga monelik qiluvchi ko‘pdan-ko‘p ma‘muriy va iqtisodiy g‘ovlarni bartaraf etish.
 4. Integratsion birlashmalarda qatnashuvchi davlatlarning ichki iqtisodiy shart-sharoitlarini bir-biriga yaqinlashtirish, ularning iqtisodiy rivojlanish darajalarini tenglashtirish.
- Odatda, u yoki bu jo‘g‘rofiy mintaqqa, unda joylashgan qo‘shni mamlakatlar shunday integratsion birlashmalarning asosiy o‘zagini tashkil etadi.
- Hozirda qariyb 70 dan ortiq mintaqaviy tashkilotlar va 65 mingga yaqin millatlararo korporatsiyalar mavjud.

Iqtisodiy integratsiya darajalari

Iqtisodiy integratsiyaning 5 bosqichi - imtiyozli savdo bitimi, erkin savdo zonasasi, bojxona ittifoqi, umumiy bozor, iqtisodiy ittifoq va valuta ittifoqi mavjud.

1. Imtiyozli savdo haqidagi bitim, (preferential trade arrangement) ushbu bitimga a’zo bo‘lgan mamlakatlarga unga a’zo bo‘lmagan mamlakatlarga nisbatan savdoda yana ham qulaysiroq imkoniyatlar bilan ta’minlaydi. Bu iqtisodiy integratsiyaning eng ibridoiy shaklidir.

Masalan, Britaniya imperiyasining a’zolari va ayrim sobiq a’zolari bilan Birlashgan Qirollik tomonidan 1932 yilda qabul qilingan Britaniya Hamdo‘stligi Preferensiyalari (imtiyozlari) tizimi.

2. Erkin savdo zonasasi (Egeye tgadye agea) - iqtisodiy integratsiyaning bir shakli bo‘lib, unda a’zo mamlakatlar o‘rtasidagi savdoda hamma g‘ovlar, bojlar bekor qilinadi, lekin har bir mamlakat a’zo bo‘lmagan mamlakatlar bilan savdoda o‘zining cheklashlarini joriy etadi.

Erkin savdo zonasasi -preferensial (boshqalardan afzal) hudud bo‘lib, uning doirasida tovarlar boj va miqdoriy cheklashlardan ozod bo‘ladilar. Erkin savdo zonasini yaratish ishtiroychi mamlakatlar savdo siyosati xarakterini barqaror-lashtiradi. Tashqi iqtisodiy faoliyatning barcha tizimlarini - takomillashtiradi. Masalan, Birlashgan Qirollik, Avstriya, Daniya, Norvegiya, Portugaliya, Shvetsiya va Shveysariya (bularga 1961 yilda uzviy a’zo

sifatida Finlyandiya ham qo'shilgan) tononidan 1960 yilda tashkil etilgan Yevropa Erkin Savdo Assotsiatsiyasi, shuningdek, AQSH, Kanada va Meksika tomonidan tuzilgan erkin savdo haqida Shimoliy Amerika bitimi (NAFTA).

3. Bojxona ittifoqi (custom union) - a'zo bo'lgan mamlakatlar o'rtasida yagona tashqi savdo tarifini joriy etishni, savdodagi cheklovlardan voz kechishni va bundan tashqari, dunyodagi boshqa a'zo bo'limgan mamlakatlarga nisbatan yagona savdo siyosatini muvofiqlashtirib turishni nazarda tutadi.

Bojxona ittifoqi erkin savdo zonasiga qaraganda ancha takomillashgan integraion strukturadani iborat. Birinchidan, bojxona tariflari nisbatan yagona tashqi savdo siyosatini olib borib, mamlakatlar tovarlar oqimini ularning tashqi tarifini va yakuniy narxini hisobga olgan holda tartibga soladi. Bu esa o'z navbatida resurslarni qayta taqsimlash, ishlash va ishlab chiqarishga turtki bo'ladi.

4. Umumiyoq bozor (a common market) integratsiyaning bojxona ittifoqiga nisbatan imkoniyatlari yanada kengroq, chunki unga a'zo bo'lgan mamlakatlar o'rtasida nafaqt tovarlar, balki mehnat resurslari, kapitalning erkin harakat qilishi nazarda tutiladi. Yevropa Ittifoqi 1980-yillarda umumiyoq bozor maqomini olgan.

Umumiyoq bozorni barpo etish uchun iqtisodning muayyan tarmoqlarini rivojlantirishning yagona siyosatini ishlab chiqish, ishlab chiqarishning barcha omillarining erkin harakat qilishi uchun sharoit yaratish, ijtimoiy va mintaqaviy taraqqiyotning umumiyoq jamg'armalarini tarkib toptirish zarur.

5. Xalqaro iqtisodiy integratsiya taraqqiyotining navbatdagi ikki bosqichi - bu iqtisodiy ittifoq hamda valuta ittifoqidir. Iqtisodiy ittifoq toki milliy tasarrufdagi turli pul tizimlariga suyanar ekan, u tom ma'noda ittifoq bo'la olmaydi.

Iqtisodiy ittifoq (an economic union)- integratsiyaning yanada mukammalroq shakli bo'lib, u a'zo bo'lgan mamlakatlarning valuta (monetary) va moliya () siyosatini muvofiqlashtirishni, hatto yagonalashtirishni (unifikatsiya) nazarda tutadi. Masalan, Ikkinchchi jahon urushidan keyin ilk bor Benilyuks mamlakatlari - Belgiya, Niderlandiya va Lyuksemburg o'rtasida tuzilgan kqtisodiy ittifoq. Keyinchalik esa bunga misol Yevropa Ittifoqidir.

Yuqorida qayd etilgan shakllardan tashqari integratsiyaning soliqlardan ozod etilgan zonalar (Duty-free zones) yoki erkin iqtisodiy zonalar (Free economic zones) shakli ham mavjud. Bu xomashyo va ikkilamchi mahsulotlarni soliqsiz yetkazib berish yo'li bilan chet el investitsiyalarini jalb etish uchun tashkil etilgan hududlar.

Xulosa shuki, integratsiya jarayonlarini amalga oshirish tajribasi shuni ko'rsatdiki, bu borada iqtisodiy integratsiyaning bir necha shakllari ko'zga tashlanadi.

Dastlab integratsion birlashuvning eng oddiy shakli - erkin savdo zonasini yuzaga keldiki, bunda shu mintaqasi doirasida qatnashuvchi mamlakatlar o'rtasida savdo cheklovlarini va avvalo bojxona to'lovlari bekor qilindi.

Uning boshqa bir shakli - bojxona ittifoqi ishlab turgan erkin savdo zonasini bilan bir qatorda tashqi savdoda yagona tarifni joriy etishni hamda tashqi savdoda uchinchi mamlakatlarga nisbatan yagona siyosat olib borishni nazarda tutadi (Bunday hollarda davlatlararo munosabatlar faqat ayriboshlash sohasidagina bo'lib, maqsad - o'zaro savdoni rivojlantirish va moliyaviy hisob-kitoblarda ishtirokchi mamlakatlar uchun teng imkoniyatlarni yaratib berish). Bojxona ittifoqiga qo'shimcha qilib to'lov ittifoqi ham tuziladiki, bu valutalarni o'zaro konvertatsiya qilishni, hisob- kitoblarda yagona pul birligi bo'lishini ta'minlashga imkon yaratadi.

Integratsiyaning keyingi, anchagina murakkabroq shakllaridan biri umumiyoq bozor bo'lib, u ishtirokchilarga o'zaro erkin savdo olib borish va tashqi savdoda yagona tarif o'rnatish sohasida hamkorlik qatori kapital bilan ishchi kuchining erkin harakat qilishini, iqtisodiy siyosatni muvofikdashtirishni ta'minlab beradi.

Lekin davlatlararo iqtisodiy integratsiyaning eng yuqori shakli iqtisodiy va valuta ittifoqi hisoblanadiki, u umumiyoq iqtisodiy, valuta-moliyaviy siyosatini amalga oshirgan holda integratsiyaning barcha shakllarini o'zaro mujassamlashtiradi.

O‘z-o‘zidan ravshanki, o‘zaro iqtisodiy ta’sirnnng muayyan shakllari ishtirokchi mamlakatlar xo‘jaligi qay darajada rivojlanganligiga bog‘liq. Mamlakatlar xo‘jaligining rivojlanishiga xos bo‘lgan muayyan xususiyatlar o‘z navbatida intefatsiya mohiyatiga, uning harakatlantiruvchi kuchlariga ta’sir o‘tkazadi. Hozirgi paytda dunyoda 100 dan ortiq mintaqaviy savdo, iqtisodiy bitimlar va kelishuvlar amal qilmoqda.

Chunonchi, sanoati rivojlangan mintaqada integratsiya jarayonlari G‘arbiy Yevropada (YEI) va Shimoliy Amerikada (NAFTA) keng ko‘lamda rivoj topdi.

G‘arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikada integratsiya jarayonlari: umumiyl va o‘ziga xos jihatlar

G‘arbiy Yevropada mintaqaviy iqtisodiy siyosat evolutsiyasidagi bosqichlar

G‘arbiy Yevropadagi hozirgi zamon mintaqaviy integratsiya tarixi 1951 yilga borib taqaladi. Xuddi o‘sha yili Yevropa ko‘mir va po‘lat birlashmasi – European coal and steel Community - (Fransiya, GFR, Italiya, Belgiya, Niderlandiya va Lyuksemburg davlatlari ishtirokida) - toshko‘mir, temir rudasi va metallurgiya sanoatlarini birlashtirgan xalqaro tashkilot tuzilgan.

1957 yil mart oyida bu mamlakatlar ("oltilik") Yevropa iqtisodiy hamdo‘stligini tuzish haqidagi Rim shartnomastshi imzolagan (1958 yilda kuchga kirgan). Bu hamdo‘stlik norasmiy ravishda "umumiyl bozor" deb ham yuritildi.

Keyinchalik Buyuk Britaniya, Daniya, Irlandiya (1973 yiddan), Gretsiya (1981), Ispaniya, Portugaliya (1986), Finlyandiya va yana ikkita davlat unga a’zo bo‘lib kirgach, a’zo mamlakatlar soni 15 taga yetdi (2004 yil may oyidan boshlab a’zolar soni yana 10 taga ko‘payib 25 mamlakatni tashkil etdi. Bu haqda ushbu darslikning IV bo‘limida batafsilroq ma‘lumotlar berilgan).

Dastlabki paytlarda Yevropa iqtisodiy hamdo‘stligi asosan iqtisodiy tashkilot sifatida faoliyat ko‘rsata boshlagan, uning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat edi:

- A’zo bo‘lgan mamlakatlar o‘rtasidagi savdoda barcha cheklovlarini bartaraf etish;
- umumiyl bojxona tariflarini joriy etish;
- odamlar, kapitallar, xizmatlarning erkin harakatiga xalal beradigan cheklovlarini tugatish;
- transport va qishloq xo‘jaligi sohalarida umumiyl siyosatga amal qilish;
- valuta ittifoqini tuzish;
- a’zo bo‘lgan mamlakatlarning qonunchiligini bir-biriga yaqinlashtirish;
- muvofiqlashgan iqtisodiy siyosat omillarini ishlab chiqish.

Hamdo‘stlik faoliyatida eng muhim vazifa sifatida bu yo‘nalishlarning tanlab olinishi bejiz emas.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, davlatlardan tashkil topgan biror bir guruh ishlab chiqarishning barcha omillari bo‘yicha erkin ayrboshlash yo‘lida yagona makoni shakllantirishga darhol erisha olmagan.

Oldinroq yagona savdo, bojxona makoni yaratilgan hamda o‘zaro siyosiy ishonchda ustuvorlikka erishgan davlatlarga bu sohalardagi o‘zaro munosabatlarini erkin ayrboshlash bosqichiga ko‘tarishlari imkoniyati bo‘lgan.

Davlatlar o‘zaro iqtisodiy hamkorlikda, siyosiy ishonchda ancha yuqori bosqichga erishgandan keyingina kapitallar bilan ishchi kuchining ikki tomonlama erkin harakat qilishi hamda xizmatlarni, shu jumladan, axborot-texnika ahamiyatiga ega bo‘lgan xizmatlarni ayrboshlash uchun o‘z chegaralarini ochib berishlari mumkin edi.

Nihoyat, to‘laqonli integratsion hamkorlik a’zo bo‘layotgan davlatlar ishlab chiqarish omillarini ayrboshlab, o‘zaro to‘lovlarni yo‘lga qo‘yish hisobiga bojlarni va boshqa cheklovlarini bekor qilish yoki o‘zaro to‘lovlarni yo‘lga qo‘yish haqidagina emas, balki uchinchi mamlakatlarga nisbatan bamaslahat yuritiladigan savdo, keyinroq esa umumiyl iqtisodiy siyosat

to‘g‘risida, iqtisodiy siyosatni yagonalashtirish borasida ham kelishib olishlarini nazarda tutadi.

“Yagonalashgan”, muvofiqlashtirilgan umumiyl iqtisodiy siyosatni amalga oshirishni taqozo etuvchi mazkur qoidalarni ro‘yobga chiqarish yo‘lida esa ijroiya - muvofiqlashtirish vazifalari yuklatilgan xalqaro davlat tashkilotlariga ehtiyoj tug‘ildi.

Shunday qilib, integratsiya jarayoni eng boshidayoq a’zo mamlakatlarning muvofiqdashgan siyosatiga ro‘baro‘ keldi.

Yevropa iqtisodiy hamdo‘stligi qabul qilgan maqsadlarni ro‘yobga chiqarish jarayonida:

- 1) Sanoat integratsiyasining jadallahuvi ta’mindandi;
- 2) qishloq xo‘jalik jamg‘armasi faoliyati orqali birgalikda homiylik o‘rnatish, to‘lov yig‘imlarini joriy etish shaklida agrar integratsiyani jadallashtirishga harakat qilindi;
- 3) Yevropa valuta tizimi yuzaga keldi.

Ana shu chora-tadbirlarning barchasi iqtisodiy integratsiyaning keng tomir yoyishiga, Yevropa iqtisodiy hamdo‘stligi ta’sir doirasining kengayishiga olib keldi.

Osiyo, Afrika, Karib havzasi va Tinch Okeanida joylashgan 60 dan ziyod rivojlanayotgan mamlakatlar bilan Yevropa iqtisodiy hamdo‘stligining “alohida munosabatlari” tizimi yuzaga keddi.

Maastricht bitimlari (1991 yil, dekabr) G‘arbiy Yevropa integratsiyasining rivojida sifat jihatidan yangi bir bosqich hisoblanadi, zero, unda mamlakatlarni mikro darajada bir-biriga yaqinlashtirish vazifasi qo‘ylgan edi.

Maastricht bitimlari Yevropa Ittifotsiga quyidagi vazifalarni yuklagan:

- Yagona valuta yaratish va uni boshqarish;
- yagona iqtisodiy siyosatni, ayniqsa, uning budget ishlariga taalluqli qismini muvofiqlashtirish, nazorat qilish, (o‘rinli topilganda) kuchaytirish;
- erkin raqobatga asoslangan yag‘ona bozorni tashkil etish va himoyalash;
- boy va qashshoq mintaqalar o‘rtasida tenglikka intilish hamda (imkon bo‘lgan joylarda) mablag‘larni qayta taqsimlash;
- qonunchilik va tartib-qoidani qo‘llab-quvvatlash;
- ayrim fuqarolarning tub huquklarini e’tirof egish va rivojlantirish;
- tashqi ishlarning barcha sohalarini qamrab oluvchi yagona tashqi siyosatni boshqarish.

1994 yil 26 martda G‘arbiy Yevropa siyosiy-iqtisodiy integratsiya yo‘lida muhim qadam qo‘ydi: Yevropadagi 7 davlat (Germaniya, Fransiya, Belgiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Ispaniya, Portugaliya) Shengen bitimini imzoladilar. Bu bitimga ko‘ra, ushbu mamlakatlarning hududi “chegaralarsiz makon” deb atalib, quyidagilarni nazarda tutadi:

- Ushbu mamlakatlarning birortasida berilgan viza boshqalarida ham kuchini yo‘qotmaydi;
- ushbu mamlakatlar shaharlari o‘rtasidagi avia va bo‘lak qatnovlar ichki qatnov maqomini oladi va h.k.

G‘arbiy Yevropa mamlakatlarining mafkuraviy qarashi erkinlashtirish va hamkorlikka tayanuvchi xalqaro iqtisodiy tartibni ta’minalashga asoslangan. G‘arbiy Yevropa integratsiyasi o‘z taraqqiyotida 4 bosqichni - erkin savdo zonasini, bojxona ittifoqi, yagona bozor va iqtisodiy ittifoq bosqichlarini bosib o‘tdi. Hozirgi vaqtida Yevropa valuta tizimi “yevro” yaratilib, valuta ittifoqi bosqichi boshlandi. Uning samarali ishlashi qator ichki va tashqi sabablarga bog‘liqidir. “Yevro” voqelikka aylanishiga assoslар bor. Lekin bunda muhim bir vaziyatni qayd etib o‘tish kerak: Yevropa Ittifoqi “yevro”ni yaratish va joriy etishni tezlashtirdi. Hatto yuzaki taxdillar shuni ko‘rsatadiki, Yevropa Ittifoqining barcha a’zo davlatlari ham “kirish chiptasi”ni ololmadilar.

Savol tug‘iladi: u yoki bu guruhga tegishli davlatlarning bir qismi Yevropa valuta ittifoqining ancha yuqori darajasida tursa, qolganlari esa Yevropa Ittifoqining past darajasida bo‘lsa, unga ko‘ra G‘arbiy Yevropa doirasida integratsiya bir tekis ketmoqda deyish mumkinmi?

G‘arbiy Yevropadagi bugungi ahvol shundan iboratki, u YEI davlatlarning konfederativ hamjamiyati bo‘lib, yagona parlamentga, milliy fuqarolik bilan birga norasmiy ravishda yagona fuqarolikka ham egadir; u barcha ishtirokchilarning tashqi siyosiy faoliyatini muvofiqlashgirib boruvchi yagona iqtisodiy-ijtimoiy siyosatga ega. Konfederatsiya (ittifoq, birlashma) - davlat

tuzilishining bir shakli, unda konfederatsiyani tashkil etuvchi davlatlar o‘z mustaqilligini to‘la saqlab qoladi, o‘z davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga ega bo‘ladi; muayyan maqsadlarda (harbiy, tashqi siyosiy va h.k.) o‘z harakatlarini muvofiqlashtirib turish uchun maxsus birlashma organlarini tashkil etadilar.

Federatsiya (ittifoq, birlashma) - davlat tuzilishining bir shakli, unda davlat tarkibiga kiruvchilar - federal birliklar - federatsiya a’zolari (masalan, o‘lkalar, shtatlar va h.k.) o‘z Konstitutsiyasiga, qonun chiqaruvchi, ijroiya, sud organlariga ega bo‘ladi. Ayni paytda davlat hokimiyatining yagona ittifoqdosh - federal organlari tashkil etiladi, yagona fuqarolik, yagona pul birligi va h.k. joriy etiladi (masalan, AQSH, Shveysariya, Hindiston, GFR va boshqalar).

Shimoliy Amerikadagi integratsiya jarayoni xususiyatlari

AQSH va Kanada Shimoliy Amerikada integratsiya jarayonining beshigi hisoblanadi.

Integratsiyaning rivoji ustmilliy tashkilotlarni barpo etish yo‘li orqali davlat-korporatsiya asosiga tayanadigan G‘arbiy Yevropadan farqli o‘laroq, Shimoliy Amerikada bu jarayon xususiy-korporatsiya negizida amalga oshmokda.

Shimoliy Amerika mintaqasidagi bunday o‘ziga xoslik ikkita mamlakat kapitallari bir-biriga kirishib, yuksak darajada chambarchas bog‘lanib ketganligi oqibatida ikki milliy iqtisodiyot yagona xalq xo‘jalik tizimiga aylanganligi bilan izohlanadi.

Masalan, quyidagi holatlar ushbu mintaqada azaldan mavjud:

- Mamlakatlar o‘rtasida kapitallarning erkin harakat qilishi;
- aholi va ishchi kuchining erkin migratsiyasi.

Mintaqaning tarixiy rivojlanishidagi o‘ziga xos xususiyatlar tufayli avval boshidanoq integratsiyaning tabiati, yo‘nalishlari urushdan keyingi 10 yilliklar mobaynida transmilliy korporatsiyalarga aylangan AQSH korporatsiyalari, ularning Kanadadagi bo‘limlari tomonidan belgilab berildi. Shuning uchun ham bu korporatsiyalar uchun integratsiya jarayonini tartibga solib turadigan murakkab va ustmilliy qurilmaga ehtiyoj qolmadidi. Biroq, AQSH bilan, Kanada o‘rtasida mavjud bo‘lgan iqtisodiy integratsiya 80-yillarning oxiri 90-yillarning boshlariga kelib sheriklar va eng avvalo, AQSHning ehtiyojlariga javob bera olmay qoldi. Buning natijasida Shimoliy Amerikadagi integratsiya jarayonlari ikki davlat hududlarini oshib o‘tib, 1992 yilda Shimoliy Amerika erkin savdo zonasini haqidagi 100 shartnomaga imzolandi va 1994 yil 1 yanvardan boshlab kuchga kirdi. Ana shu shartnomaga binoan AQSH va Kanada qatori Meksika ham ushbu tashkilotga a’zo bo‘ldi.

Qudratli iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo‘lgan ushbu blok aholisi 2002 yilda 425 mln kishidan ortaq edi. Unga a’zo bo‘lib kirgan mamlakatlar har yili 7,5 trillion dollar miqdorida mol ishlab chiqaradi, xizmat ko‘rsatadi, ularning yalpi jahon savdosi hajmidagi salmog‘i 20% ni tashkil etadi.

Bitimning asosiy qoidalari quyidagilardan iborat:

- AQSH, Kanada va Meksika o‘rtasidagi o‘zaro bojxona to‘lovlarini bekor qilish;
- O‘z mahsulotlarini Meksika orqali AQSHga reeksport qilish yo‘li bilan Amerika bojlaridan bo‘yin tovlovechi Osiyo va Yevropa kompaniyalarining Shimoliy Amerika bozorlariga bo‘lgan tajovuzidan himoyalash;
- AQSH va Kanada kompaniyalarining Meksikaning bank va sug‘urta sohalariga kapital qo‘yish va raqobat qilishdagi cheklowlarni tugatish;
- Atrof-muhitni saklash bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni hal etish uchun uch tomonlama guruxlar tashkil qilish.

AQSH 5 yil mobaynida Meksikadan eksport qilinadigan mahsulot turlarining qariyb uchdan ikki qismiga bojlarni bekor qilishi lozim edi. Shartnomada o‘zaro savdo sohasidagi bojxona cheklovlarini ham asta-sekin kamaytirib borish, yuz yillik oxiriga kelib batamom tugatish ko‘zda tutilgan edi (Garchi bu savdo ilgari ham ikki tomonlama erkin bo‘lib, jadal ravishda rivojlanayotgan bo‘lsada).

Bugunga kelib o‘z ahamiyatiga ko‘ra, AQSH uchun Kanada birinchi, Meksika esa

uchinchi darajali bozor hisoblanadi (ikkinchi o'rinda Yaponiya turadi). AQSH kapitali Kanada iqtisodiyotining 50 - 60%ini nazorat qilib turibdi.

AQSH bilan Meksika o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda: 1987 yildan 1992 yilgacha AQSHning Meksikaga eksporti bir yilda o'rtacha 23%ga ko'payib bordi va 1995 yildan boshlab Meksika AQSH sanoat mollarini harid qilishda ikkinchi o'ringa chiqib oldi.

AQSH transmilliy korporatsiyalari to'g'risida shuni aytish mumkinki, 1995 yildayoq ularning mintaqadagi sanoat bo'limlari ichki savdosining 60%dan ko'prog'i Meksikaga to'g'ri kelgan edi. 1989 yildan 1995 yilgacha AQSHga qarashli chet el bo'limlarining salmog'i AQSHning Meksika bilan yalpi umumiy savdo hajmida 24% dan 29%ga ko'tarildi. Navbatida 2002 yilda Meksika eksportining 70%idan ko'prog'i, shu jumladan, neft eksportining 55%i Qo'shma Shtatlarga to'g'ri keladi.

Shimoliy Amerika erkin savdo zonasini tuzish haqidagi shartnomasi kuchga kirmasdan oldinroq bir necha mln meksikalik fuqaro AQSHda doimiy ish bilan band edi.

Shimoliy Amerika mintaqasining barcha hududlarida yirik kapitalning o'zaro kirib borishi kuchayib, "teng imkoniyatlar" yaratilganligi natijasida dunyoning uchta iqtisodiy markazlardan biriga aylandi va hozirgi paytda qolgan ikki markaz - G'arbiy Yevropa va Yaponiya bilan kuchli raqobat o'yini qilishga qodirdir.

Amerika iqtisodchilari bugungi kunda Alyaskadan Olovli yergacha bo'lgan masofani qamrab oluvchi "o'ziga yetarli panamerika savdo bloki"ni tuzish masalasini o'rganayaptilar.

Lotin Amerikasiga bo'lgan qiziqish shu bilan bog'liqki, bu mintaqadagi mamlakatlar iqtisodiy rivojlanish borasida shunday yuqori ko'rsatkichlarga erishib kelmoqdalarki, taxminlarga ko'ra, bu yuksak sur'at yaqin yillar ichida ham davom etadi. Bu yerga oqib kelayotgan bevosita chet el investitsiyalarining o'sish sur'ati yuqori ekanligi shundan dalalat beradi. 2001 yilda Lotin Amerikasi va Karib dengizi xavzasidagi mamlakatlar bevosita chet el investitsiyalarining oqib kelishida rekord darajaga erishdilar - ular 56 mlrd dollarni tashkil etdi. Bu raqam 1999 yildagiga nisbatan 30 foiz ko'p, demakdir.

Umuman olganda, bu mintaqaga tushgan bevosita chet el investitsiyalari hajmi 2000 yilda rivojlanayottan mamlakatlarga joylashtirilgan investitsiyalarning 38 foizini tashkil etdi, bularning o'sish sur'ati barcha rivojlanayotgan mamlakatlarga kiritilgan investitsiyalarning yalpi o'sish sur'atiga nisbatan uchdan ikki hissaga teng bo'ldi.

Janubiy Amerikada ham integratsiya jarayonlari tobora rivojlanib bormoqda. 1965 yilning boshidayoq bu yerda "Erkin savdo zonasini"ni tashkil etish. Keyinchalik, Markaziy Amerika umumiy bozorini yuzaga keltirish mo'ljallangan edi. Ammo siyosiy-iqtisodiy tanglik bu rejalarining amalga oshishiga imkon bermadi.

1990-yillarning o'rtalariga kelib, Argentina, Braziliya, Urugvay, Paragvay o'rtasida 1991 yilda tuzilgan va 1995 yil 1 yanvaridan kuchga kirgan **MERKOSUR** savdo pakti tufayli integratsiya jarayonlarida jonlanish sezildi.

Ushbu pakt mintaqada yangi bir savdo-iqtisodiy blokining yuzaga kelishiga yo'1 ochdi, bu blok umumiy aholisi 200 mln kishidan ziyod bo'lgan, yalpi ichki mahsuloti 550 mlrd dollarni tashkil etuvchi davlatlarni o'ziga birlashtirdi.

MERKOSUR guruhining tashkil etilishi natijasida unga a'zo bo'lib kirgan to'rt davlatga tegishli o'zaro savdoning 90%i har qanday bojaxona g'ovlaridan xalos bo'ladi. Uchinchi mamlakatlardan keladigan import mahsulotlariga nisbatan esa umumiy boj tizimlari va bojaxona qoidalari joriy etiladi.

Rejaga ko'ra, Shimoliy Amerika erkin savdo zonasini MERKOSUR bilan qo'shilib ketadi va mintaqadagi boshqa davlatlar ham birin-ketin ularga a'zo bo'lib kiradi.

Hozirgi paytda Sharqiy Osiyoda ham integratsiya jarayonlari tobora ko'proq rivojlanib bormoqda. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasi (ASEAN) qariyb 30 yildan beri muvaffaqiyat bilan faoliyat ko'rsatib kelmokda. Uning a'zolari orasida 4 nafar Osiyo "ajdaho"laridan biri bo'lgan Singapur, "yangi to'lqin"ga mansub yangi sanoat mamlakatlari -

Malayziya, Indoneziya, Tailand, Bruney va Filippin bor.⁵

Ushbu guruh doirasidagi o‘zaro hamkorliqda erishilgan yutuqlar Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasiga a’zo bo‘lgan mamlakatlarning ko‘pchiligi iqtisodiy jihatdan jadal rivojlanayotganligi, ularning taraqqiyot darajalari bir-biriga yaqin ekanligi, o‘rtada tarixiy an’analarga ega bo‘lgan durustgina savdo aloqalarining mavjudligi, shuningdek, hamkorlik shakllari bir maromga yetganligi bilan izohlanadi.

Sharqiy Osiyodagi iqtisodiy integratsiyaning rivojlanish istiqbollari ko‘proq Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi tashkiloti (ATES) bylan bog‘lanmoqda. Bu tashkilot Osiyo, Shimoliy va Janubiy Amerikadagi 18 davlatni birlashtiradi. Xalqaro ekspertlarning taxminiga ko‘ra, Sharqiy Osiyo yaqin yillarda yalpi milliy mahsulot hajmi bo‘yicha G‘arbiy Yevropadan, 2020 yilga kelib esa, Shimoliy Amerikadan o‘zib ketishi mumkin.

Ishlab chiqilgan rejalar asosida tashkilot 2020 yilga kelib bojxona hamda ichki g‘ovlardan xolis bo‘lgan dunyoda eng yirik erkin savdo zonasini tashkil etishni mo‘ljallamoqda.

Tashkilotning asosiy maqsadi mintaqada erkin savdo va investitsiyalar hududini tashkil etish. Shu munosabat bilan bu tashkilotga a’zo davlat rahbarlarining Indoneziyadagi uchrashuvida mintaqaning industrial rivojlangan mamlakatlari uchun 2010 yilgacha, mintaqaning tashkilotga a’zo rivojlanayotgan mamlakatlari uchun esa 2020 yilgacha erkin, ochiq investitsiyalar hududini tashkil qilish to‘g‘risidagi bayonoti e’tiborga loyiqidir. Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamdo‘sligi ko‘p darajali xalqaro xo‘jalik majmui bo‘lib, unda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning o‘zaro aloqa taraqqiyotning umumiy xarakatga keltiruvchi kuchlarini vujudga keltiradi, bu esa, barcha ishtirokchilarga ijobiy samara beradi.

Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan bir qatorda Fors ko‘rfazidagi arab mamlakatlarida ham integratsiyaga, o‘zaro yaqin hamkorlikka intilish sezilmoqda.

Afrika davlatlari o‘rtasida, uning shimoliy qismida intefatsiya jarayonlar rivojlanib bormoqda (garchi ancha sustroq bo‘lsa ham).

Rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasidagi hamkorlik, ularning integratsiyaga moyilligi haqida gapirganda shuni nazarda tugash kerakki, amaldagi integratsiya jarayonlari ancha zaif bo‘lib, o‘zining tabiatи, harakatlanturuvchi omillari, rivojlanish sur’atlari jihatidan ancha farq qiladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlardagi integratsiya tom ma’nodagi rivojlangan shakliga, ya’ni xoh ayrim firmalar, korxonalar darajasida, xohumuman milliy xo‘jaliklar darajasida, bevosita mamlakatlararo aloqalarning rivojlanishidan iborat bo‘lgan, hamisha rivoj topib, chuqurlashib boradigan jarayon shakliga ega emas. Xozircha, rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy hamkorligi, ularning integratsiyaga doir e’lon qilgan maqsadlari integratsiya jarayonining tayyorlov bosqichidan iborat, xolos.

Integratsiya yo‘lida tuzilgan ko‘plab guruhlar ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar darajasi pishib yetmaganligi, milliy xo‘jaliklarning ibridoiligi, bozor, moliya infrastrukturalarining rivojlanmaganligi oqibatida bu tuzilmalarni yo maqsadga befoyda intilish yoxud to‘la muvaffaqiyatsizlikka mahkum etib qo‘ydi.

Hind okeani mintaqasida integratsiya jarayonlari

Bu mintaqadagi integratsion jarayonlarga Hind okeani mamlakatlarining mintaqaviy hamkorlik assotsiatsiyasi (ARSIO) sezilarli ta’sir ko‘rsatmokda. Assotsiatsiya 1997 yil 7 martda Mavrikiy Respublikasi poytaxti Port-Lui shahrida tuzilganligi e’lon qilindi. Yangi tashkilotning xartasi va harakat dasturi qabul qilindi. Uning maqsad va vazifalari belgilab olindi.

Hozirgi kunda assotsiatsiyaga Avstraliya, Hindiston, Keniya, Mavrikiy, Ummon, Singapur, Janubiy Afrika Respublikasi, Indoneziya, Yaman, Madagaskar, Malayziya, Mozambik, Tanzaniya va Shri-Lanka a’zodir.

⁵ 1995 йилда Жануби-Шарқий Осиё мамлакатлари ассоциациясига Вьетнам ҳам кўшилди. 2005 илга келиб бу ташкilotga Хиндиҳитой ярим оролининг барча мамлакатлари аъзо бўлиши мўлжалланган.

Mazkur tashkilot o‘zining amaliy faoliyati va tashkiliy jixatdan shakllanishida Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi (ATES) tajribasiga suyanishni mo‘ljallagan. U "janub" deb atalmish mamlakatlar uchun jahon xalqaro munosabatlarida "shimol"ning hozir mavjud bo‘lgan yakka hokimligiga qarshi tura oladigan tuzilmani barpo etish yo‘lidagi dastlabki urinishlaridan biridir.

Bugungi dunyo uch qutbga bo‘lingan. Unda Yevrola Ittifoqi (EU). Shimoliy Amerika erkin savdo zonasini haqidagi shartnomasi (NAFTA) va Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligidan (ATES) iborat uchta qudratli blok faoliyat ko‘rsatmoqda, jahon iqtisodiy ayrboshlashlarning 80%ni shular hisobiga to‘g‘ri keladi.

Afrika va Hind okeani mintaqasida bu jarayonlar hozircha unchalik sezilmaydi. Vaholanki, yer yuzi aholisining 20-25%ni shu mintaqada yashaydi. Unda joylashgan mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro savdo yalpi savdoning juda kam qismini tashkil etmoqda. 2003 yilgi ma’lumotlarga ko‘ra, jahon yalpi mahsulotining 5,4%igina shu mintaqasi davlatlariga to‘g‘ri kelgan, mintaqaning jahon savdosidagi satmog‘i esa, 10% dan oshmagan. Osiyo-Tinch okeani hamkorligiga (AQSH va Yaponiyadan tashqari) xos bo‘lgan o‘sha ko‘rsatkichlar shu tartibda 10,8 va 21,8%ni tashkil etadi.

Hind okeani mamlakatlari mintaqaviy hamkorlik assotsiatsiyasining rivojlanish tarixi

Hind okeanida joylashgan davlatlarning jahon iqtisodiy tizimida tutgan o‘rni asosan ikkita omil bilan belgilanadi.

Birinchidan, bu yerda foydali qazilmalarning juda boy zaxiralari joylashgan. Fors ko‘rfazining neft-gaz havzasini dunyodagi sanoati rivojlanayotgan davlatlarning aksariyati uchun asosiy neft-gaz manbai hisoblanadi. Bu mintaqasi oltin, olmos, qalay qazib chiqarish, kauchuk olish, choy, kofe, sholi, paxta, moy va ko‘plab qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirishda yetakchi o‘rnlarni egallab turibdi.

Ikkinchidan, qit’alararo eng muhim transport yo‘llari Hind okeani orqali o‘tadi. Yevropa va Avstraliyada iste’mol qilinadigan neftning 50%, Yaponiya xarid qiladigan neftning 98% va Afrika mamlakatlari xarid qiladigan neftning 75%ni Hind okeani orqali yetkazib beriladi.

O‘ziga qarashli sanoat bazasini mustahkamlash zaruratidan, o‘z mollarini sotishga chiqarish talabidan, shuningdek, zamonaviy transport infrastrukturasini barpo etish ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda mintaqasi davlatlari yanada mustahkamroq iqtisodiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga bel bog‘ladilar.

Biroq Hind okeani mamlakatlari hamkorlik assotsiatsiyasini tashkil etish g‘oyasi birdaniga paydo bo‘lgani yo‘q. Hind okeani davlatlarining dolzarb vazifalarni birga-likda hal etishga bo‘lgan sa’y-harakati natijasida avvalo ba’zi sub mintaqalar doirasidagi davlatlar o‘rtasida aloqalar mustahkamlandi.

Hind okeani doirasida quyidagi tashkilotlar shakllandi va bir xil muvaffaqiyat bilan faoliyat ko‘rsatmoqda:

- Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari assotsiatsiyasi (ASEAN);
- Janubiy Osiyo davlatlarining mintaqaviy, hamkorlik assotsiatsiyasi;
- Qayur G‘arbiy Osiyo davlatlarini birlashtiruvchi iqtisodiy hamkorlik tashkiloti;
- Fors ko‘rfazi arab davlatlarining hamkorlik kengashi;
- Hukumatlararo taraqqiyot agentligi (bunda asosan, Afrika bo‘g‘ozni davlatlari qatnashadi);
 - Sharqiy va Janubiy Osiyo umumiylar bozori;
 - Afrika janubi mamlakatlarini rivojlantirish hamjamiyati;
 - Hind okeani bo‘yicha komissiya (bunga okeanning janubi-g‘arb qismidagi orol davlatlari birlashgan).

Hind okeani havzasidagi mamlakatlarda yanada kengroq darajada umummintaqaviy hamkorlikni, dast avvalo, savdo va iqtisodiyot sohasidagi hamkorlikni o‘rnatish g‘oyasi astasekin paydo bo‘la boshladi.

Hozirga kelib Hind okeanidagi integratsiya jarayonining tashabbuskor mamlakatlari Hind okeani mamlakatlari hamkorlik assotsiatsiyasi faoliyatining barcha jihatlarini muhokama qilish va ishlab chiqish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni ko'rgan bo'lishiga qaramay, ko'pgina masalalar hanuzgacha hal etilgani yo'q.

Ushbu bobni quyidagicha xulosalash mumkin:

Ishlab chiqarish kuchlarining internatsionallashuvidan, uning oliv shakli- jahon xo'jaligining globallashuvidan iborat muhim jarayon dunyoning ko'pgina mintaqalarida birlashmalarning rivojlanishida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Milliy xo'jaliklar o'rtasida chuqur va barqaror o'zaro aloqalarning kamol topishi, mehnat taqsimotining yuzaga kelishi, takror ishlab chiqarish kuchlarining turli darajada, turli shakllarda o'zaro hamkorligi asosida mamlakatlarning xo'jalik va siyosiy jihatdan birlashuvi jarayoni xalqaro iqtisodiy integratsiya mohiyatini tashkil etadi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, yagona savdo hamda (qisman) bojaxona makonini tashkil etib, o'zaro siyosiy ishonchga ega davlatlarga ishlab chiqarishning barcha omillari bilan erkin ayrboshlash imkonini beruvchi yagona makonni yuzaga keltirishlari mumkin. Bamaslahat olib boriladigan o'zaro kelishilgan umumiy iqtisodiy siyosatga da'vat etuvchi bu vazifalarni amalga oshirish maqsadida-bu ishlar uchun mas'ul bo'lgan tashkiliy strukturalar yuzaga keldi. Binobarin, G'arbiy Yevropadagi integratsiyaning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bu davlat boshidanoq yetakchi o'rinni zgallagan sharoitda amalga oshirildi.

Shimoliy Amerikada bu jarayon xususiy-korporatsiya zaminida ro'yobga chiqariladi, zotan bu yerdagi integratsiyaning tabiatni, yo'nalishi avvaldanoq AQSHning qudratli korporatsiyalari; ularning Kanadadagi bo'limlari tomonidan belgilab qo'yilgan bo'lib, bular integratsiya jarayonini tartibga solib turadigan ustmilliy qurilmalarga muhtoj emas.

1980 yillarning oxiri 1990-yillarning boshiga kelib, AQSHning Kanada bilan bo'lgan iqtisodiy integratsiyasi sheriklarning ehtiyojlariga javob bera olmay qoldi va 1992 yilda Shimoliy Amerikada erkin savdo zonasini haqida shartnomalar imzolandi, unga ko'ra, Meksika uchinchi a'zo bo'lib qo'shildi. Hozirgi paytda esa Alyaskadan to Olovli Yergacha cho'zilgan Panamerika savdo blokini tashkil etish to'g'risidagi masala o'rganib chiqilmoqda.

Jahon iqtisodining globallashuvi- bu savdo, moliya sohalari, texnologiya, axborot ayrboshlovi hamda inson omillarining ko'chib o'tishi kengayib, yanada chuqurlashuvi natijasida ayrim mamlakatlarni iqtisodining o'zaro qo'shiluviga (integratsiyaga) bo'lgan moyillikdir. Bu jarayon bozorlar va ishlab chiqarish tizimlarini qamrab oladi. Bozorlarning globallashuvi muayyan mamlakatlarning bozorlari savdo to'siqlari natijasida bir-biridan ajralib qolgan iqtisodiy tizimdan ularni yagona global bozorga keltiruvchi tizimga asta-sekin o'tish, demaqdir. Ishlab chiqarishning globallashuvi ishlab chiqarish jarayonining birligini nazarda tutadiki, bu holda ishlab chiqaruvchilar dunyoning istalgan nuqtasida joylashgan. U yerda mehnat, kapital, yer kabi ishlab chiqarish omillaridan eng ko'p manfaat bilan foydalanishlari mumkin.

Bozorlar va ishlab chiqarishni globallashuvining asosiy omillari, eng avvalo, oxirgi yillar muvaffaqiyat bilan yakunlangan ko'p tomonlama muzokaralar chog'ida mahsulotlar, xizmatlar, kapitallarning erkin harakatini chekllovchi to'siqlarni bartaraf etish yoki kamaytirish borasidagi bitimlar bo'ldi. Buning natijasida korxonalarni ishlab chiqarish va ularga xizmat ko'rsatish uchun g'oyat qulay bo'lgan hududlarda joylashtirishga imkon tug'ildi.

Bundan tashqari, aloqa, transport, axborot vositalari texnologiyasida ro'y bergan keskin o'zgarishlar, eng muhimi, qudratli va arzon kompyuterlarning ishlab chiqarilishi juda katta ahamiyatga ega bo'ldi; fazoviy yo'ldoshlar, optik tolalar axborot oqimlariga keng yo'l ochib berdi; reaktiv samolyotlar, katta sig'imli kemalar hamda konteynerlashtirishning joriy etilishi yuk tashish muammosini ko'p jihatdan osonlashtirdi.

Jahon iqtisodining globallashuvi, uning tobora chuqurroq internatsionallashuvi, xalqaro miqyosda raqobatning kuchayishi bilan bog'liq bo'lgan g'oyat muhim jarayonlarni ham qamrab oladi. Globallashuv, xususan, jahon moliyaviy tizimining yuzaga kelishida, jahon savdosining intensivlashuvida, global transmilliy korporatsiyalar paydo bo'lishida, savdo-iqtisodiy bloklarning shakllanib borishida, iqtisodning mintaqalashuvida, xalqaro iqtisodiy

tashkilotlarning tartibga soluvchilik ahamiyati o'sib borishida namoyon bo'lmoqda.

Iqtisodning globallashuvi doimo ustunliklarni izlash, bozorlarni kengaytirish hamda xarajatlarni imkon boricha kamaytirish natijasi sifatida ko'zga tashlanadi.

SEMINAR MASHG'ULOTLARI REJASI

1. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati va sabablari.
2. Iqtisodiy integraiiya darajalari va ularning xususiyatlari.
3. G'arbiy Yevropada hududiy iqtisodiy integratsiyaning xususiyatlari.
4. Shimoliy Amerikada integratsiya jarayonlarining xususiyatlari va uni rivojlantirish kelajagi.

ADABIYOTLAR

1. Авдокушин Е.Ф. Международные экономические отношения. Учебное пособие. М., 1998.
2. Арин О. Миф об АТР — "Азия и Африка сегодня", ж., М., 1998, № 8.
3. Борко Ю. Европейский союз: углубление и расширение интеграции. //МЭ и МО. М., 1998.
4. Ломакин В.К. Мировая Экономика. М.. Финансн, ЮНИТИ, 1998.
5. Раджабова З.К. Мировая экономика. М.. ИНФРА.. 2004.
6. Фридман Л. Кузнецова С. Глобализация: развитые и развивающиеся страны. //МЭ и МО. М., 2000, №10.
7. Черковец О. Европейский союз: Уроки интеграции "Экономист" ж.. М., 1998, №10.
8. Salvatore D. International Economics, New York, 1995.
9. World Investment Report, 1998: Trends and Determinants. UN, New York and Geneva, 1998.

7-BOB BOZOR IQTISODI RIVOJIDA DAVLATNING ROLI

Davlat xo'jalik hayotida qay tariqa qatnashishi haqidagi masala hozirgacha iqtisodiyot nazariyasining hal etilmagan jumboqlaridan biri bo'lib kelmoqda.

Bu sohadagi nuqtai nazarlarning ko'lamgi g'oyat keng bo'lib, davlatni eng kam miqdordagi zarur vazifalar yuklangan "tungi qoravul" deb bilishdan tortib (A. Smit), to davlatni amalda hamma narsani tartibga solib turuvchi, hamma narsani boshqaruvchi zaruriy bir organ (yoki mexanizm) deb qarashgacha yetib boradi.

1980-yillar va 90-yillarning boshlarida rivojlanayotgan mamlakatlarda davlatning roli

1980-yillar mobaynida rivojlanayotgan mamlakatlarning qariyb 2/3 qismida milliy daromad kamayib, 19 ta mamlakatda bu ko'rsatkich 30% dan ko'proqni tashkil etdi. BMT ma'lumotlariga qaraganda, bu davrda milliy iqtisodlarning o'sish sur'atlari kutilgan 7,2% o'rniga 2,3% dan iborat bo'ldi. "Uchinchi dunyo"dagi inflatsiya darajasi yuqoriligidcha qolaverdi.

1989 yilda - 104,1%.

1990 yilda - 71%.

Dunyo iqtisodida yuz bergen pasayishning noma'lum oqibatlari "uchinchi dunyo"ning istiqbollari yaxshi emasligini bildirdi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda qariyb 70-yillarning oxirlariga qadar mulkchilik, yalpi ichki mahsulot, investiiyalar, bandlik sohalaridagi davlat

salmog‘i ortib boraverdi. O‘n yildan keyin esa qishloq xo‘jalikdan boshqa tarmoqlarda bandlikning 44%, yalpi ichki mahsulotning 10-20%, investitsiyalarning 20-60% i davlat sektoriga to‘g‘ri keldi.

Biroq davlatning iqtisoddan ustun darajada qatnashuvi iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishda kutilgan jadallikka olib kelmadi. Davlatning rivojlanayotgan iqtisodga faol aralashuvi qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligi tanqidga uchradi. Faqat 80-yillarning boshidagina bu borada siljish yuz berdi.

Bir qator rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat sektori budjetidagi defitsit ortib borganligi sababli qarzlarini to‘lay olmay qolganligi munosabati bilan G‘arb kreditorlari ularga bo‘lgan o‘z siyosatlarini qayta ko‘rib chiqishga majbur bo‘ldilar. Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro valuta jamg‘armasi rivojlanayotgan mamlakatlardan iqtisodini "tarkibiy moslash" dan iborat yangi siyosatini e’lon qildi. Buning mohiyati nimadan iborat?

Endilikda muayyan davlat loyihalari uchun beriladigan kreditlar o‘rnini ma’lum shartlar asosida beriladigan qarzlar egalladi. Bu qarzlar:

- 1) Moliyaviy ahvolni barqaror qilish;
- 2) Xususiy sektorni rivojlantirish;
- 3) Xususiylashtirish dasturlarini amalga oshirish maqsadlarida beriladigan bo‘ldi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning o‘zlarini ham davlatning imkoniyatlariga qanday siyosiy yo‘nalishda ekanliklaridan qatyiy nazar (Iraq va boshqalar) ishonmay qo‘yishdi.

Shunday qilib, "uchinchidunyo"ga mansub mamlakatlarning muammolarini xususiy sektorning iqtisoddagi ustuvor o‘rnidan kelib chiqqan holda hal etish mumkin, degan umumiylar yulosa yuzaga kelib, rivoj topdi. Lekin voqelik shuni ko‘rsatdiki, rivojlanayotgan mamlakatlarda amalga oshirilgan xususiylashtirish miqyoslari shu masala bo‘yicha boshlangan bahs-munozaralar ko‘lamidan ancha orqada ekan.

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan 28 ta rivojlanayotgan mamlakatda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, 1980-yillarda davlatga qarashli 3975 korxonadan 137 tasi (3,4%) yopilgan yoki tugatilgan, 85 tasi (2%) to‘la yoki qisman sotilgan, 45 tasi (1%) ijara berilgan yoxud boshqarishga topshirilgan. Xususiylashtirish sur’atlari kutilganidan ancha sust bordi. Biroq xususiylashtirish natijalarini tahlil etayotganda shuni nazarda tutish kerakki, uning miqyosi va sur’atlarigina ahamiyatlil bo‘lib qolmay, balki xususiylashtirilgan korxonalarining nechog‘li samarali ishlashi ham muhimdir.

Tajriba ko‘rsatdiki, rivojlanayotgan mamlakatlarda olib borilgan xususiylashtirish jarayonining umumiylar samaradorligi sanoati rivojlangan mamlakatlardagiga nisbatan ancha orqada qolmoqda:

- xususiy shaxslarga berilgan bir qator korxonalarda ilgarigidan kam foyda olinmoqda yoki zarar ko‘rilmuoqda;
- xususiylashtirilgan kompaniyalar shu darajada ko‘p yengillik va imtiyozlarga ega bo‘ldiki, buning oqibatida ilgarigi davlat monopoliyalari o‘rniga xususiy monopoliyalar yuzaga keldi va bu bilan xususiylashtirishdan ko‘zlangan maqsad - ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun raqobatni kuchaytirish muddaosi barbod bo‘ldi.

Nima sabobdan xususiylashtirish jarayoni qiyin kechdi va kutilgan samaranani bermadi?

1. Obyektiv shart-sharoitni hisobga olmagan holda, uning ustiga ko‘pincha tashqi sabab ta’sirida yuqorida turib boshlangan har qanday davlat isloxtoti kabi davlat mulk-chiligi va nazoratni xususiy shaxslarga topshirish jarayoni turli ijtimoiy kuchlarning jiddiy qarshiligiga duch keldi. Bu kuchlar quyidagilardir:

- vazirliklardagi amaldorlar va davlat korxonalarining rahbarlari;
- davlat sektoridagi kasaba uyushmalar;
- ziyyolilar;
- aholining, ayniqsa, shahar aholisining g‘oyat keng qatlamlari (bular birinchi navbatda subsidiya qilingan narxlardan manfaatdor edi).

Shunisi ham borki, ana shu hollarning barchasida: muxolifat obyektiv baho berolmaydi. Davlat mulkini chetga, boyib ketayotgan kam sonli millat vakillariga sotishni istamaslik ham shular jumlasidandir.

2. Xususiy sektorning zaifligi, demakki, sotib olishga qurbi yetadigan shaxslar doirasining torligi.

3. Xususiy lashtirish borasidagi texnik qiyinchiliklar va katta miqdordagi moddiy xarajatlar.

Tajriba ko'rsatadiki, xususiy lashtirish to'g'risidagi qarorlar ko'p hollarda obyekt qiymatini yaxshi o'rganib chiqmasdan, aniq sa'y-harakatlarning mufassal dasturini ishlab chiqmasdan, o'zbilarmonlik bilan qabul qilingan.

4. Iqtisodiy yuksalish davrida va raqobat anchagina rivojlangan sohalarda daromadli korxonalarini xususiy lashtirish jarayoni birmuncha silliq kechishi mumkin. Xuddi ana shu holda bozor omillarining ta'siri resurslardan yanada samaraliroq foydalanishga jadal da'vat etadi va korxonaning daromadini oshiradi.

Amalda esa, rivojlanayotgan mamlakatlarning hukumatlari inqirozga yuz tutgan iqtisodiy holat sharoitida byud-jetdagi kamomaddan cho'chib, bnrinchi navbatda zararli, kam daromadli korxonalarini xususiy lashtirishga, bu bilan kor-xonalarning ish samaradorligini oshirib, budgetga qo'shimcha daromad keltirishga harakat qiladilar. Qo'shimcha daromad olish xavasi xususiy lashtirishga turtkp bergen asosiy ichki omillardan biri hamdir.

Xususiy lashtirish sohasida erishilgan kamtarin yutuqlar davlat mulkini xususiy lashtirish anchagina samarador va afzalliklarga ega ekanligi haqidagi tasavvurlarnn qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirdi.

Siyosiy iqtisodiyot asoschisi, shotlandiyalik A.Smit (1723—1790) "Millatlar boyligining tabiatini va sabablari haqida tadqiqot" (1776) asarida "bozor kuchlarinnng erkin jilvasi uykun tuzilmani (tuzumni) yuzaga keltiradi", deb aytgan edi.

Unga ko'ra, shaxsning o'z manfaatlariga erishish yo'lidagi intilishi xo'jalik rivojlanishining yetakchi, harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Buning natijasida shaxsning o'zi ham, jamiyat xam ko'prok, farovonlikka erishadi. Bundan, mumtoz liberal iqtisodiyot nazariyasida, davlatga ikkilamchi o'rinc berilishining sababi ma'lum bo'ladi.

Uningcha, davlatning "tungi qorovul" sifatidagi vazifalari quyidagilardan iborat:

- Tartib-intizomni (xususan, oldi-sotdini kafolatlaydigan) va milliy mudofaani ta'minlash;

- qator ijtimoiy foydali inshootlarni tartibda saqlash;
- nizolarni adolat yuzasidan hal etish va h.k.

Bu yerda shaxsning o'zi yo mustaqil ravishda bajara olmaydigan, yoxud iqtisodiy jihatdan samarali hal eta bilmaydigan vazifalar haqida gap ketyapti. A.Smit fikricha, eng muhimi xo'jalik faoliyatining hamma subyektlari uchun quyidagi asosiy iqtisodiy erkinliklar kafolatlanishi lozim:

- u yoki bu xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanish;
- raqobat;
- savdo.

Biroq, shaxsni harakatga chorlovchi manfaatdorlik iqtisodiy qurilmaning bir qismi, xolos. Iqtisodiy subyektni haddan tashqari ko'p foyda olish hirsidan saqlab turishga undovchi ikkinchi bir qismi raqobat bo'lib, u xo'jalikda harakat etuvchi subyektlarning manfaatlarini ma'lum darajada o'zaro moslikka keltirib turadi yoki bozor muvozanatini saqlab boradi.

A.Smit erkin bozorni jamiyatning kundalik hayotini ta'minlovchi va o'zini-o'zi boshqaruvchi bir tizim sifatidagi xo'jalik qurilmasi ekanligini ta'riflab berdi.

Uning iqtisodiy tizimida:

- davlat bir zarurat emas, hatto u iqtisodiyotga aralashmagani ma'qul, aks holda bozor qurilmalarining harakati parokanda bo'ladi (bozor mexanizmi buziladi);

- taklif va talab o'rtasidagi muvozanat bozorlarda o'z-o'zini mustaqil tartibga solib, bir maromda saqlab turadi,' deb taxmin qilinadi.

Biroq, A.Smitning iqtisodiy mutanosiblik o‘z-o‘zini mustaqil bir maromda saqlab turishi haqidagi fikriga tez orada shubha bilan qaraladigan bo‘ldi.

Xususan, Robert Maltus (1766—1834) aholining o‘sishi davlat tomonmdan maxsus chora-tadbirlar vositasida nazorat qilib turilmasa, aholi ortiqligiga, qashshoqligiga, butun boshli iqtisodiy tizimning halokatiga olib keladi, deb uqtiradi.

Tajribada esa, nazariy qolil bilan amaliy bozor o‘rtasida muhim tafovutlar mavjud. Chunki ishlab chiqarish vositalariga ega bo‘lgan xususiy mulkchilik omillari haddan ziyod kapital jamg‘arish va ishlab chiqarishni bir qo‘lda to‘plash imkoniyatlarga egadir.

Bu narsa, o‘z navbatida, aksiyadorlik jamiyatlarining paydo bo‘lishi natijasida korxonalarning moliyaviy imkoniyatlari haddan tashqari kengayib ketishiga olib keladi.

Bozor qismlarga bo‘linganligi va unda harakat qiluvchi subyektlarning iqtisodiy kuch-qudrati taqsimlanishida nisbiy tenglik borligi haqidagi taxmin, A.Smit nazariyasining asosiy qoidalaridan biri hisoblanib, hayotdagi voqelikka zid keladi.

Bugun G‘arb tajribasida "bozor iqtisodi"ning bir-biridan anchagina farq qiladigan ko‘rinishlari yuzaga keldi. Masalan, AQSH "Laissez faire" degan tamoyilga boshqalarga nisbatan yaqinroq turadi. Bu tamoyilning mohiyatini - davlatning iqtisodga bo‘lgan ta’sirining nihoyatda mo‘tadilligi belgilaydi.

Buning aksi o‘laroq, Fransiyada anchagina kuchli davlat sanoatini ko‘rish mumkin va bu yerda "rejalashtirish" keng tarqalgan shiorlardan biri bo‘lgan. Germaniyada, Avstriyada ham "ijtimoiy bozor xo‘jaligi" shakli rivojlangan.

Bozor iqtisodiga asoslangan mamlakatlarda davlatning roli

Ushbu mavzudan kelib chiqqan holda quyidagi omillar birinchi darajali ahamiyatga ega:

- Maktablar, kasalxonalar, jamoat transporti kabilar tomonidan ta’minlanib turiladigan xizmatlar sifati, bularning tez moslashuvchanligi;
- tartib-intizomning mavjud ahvoli;
- shahar qurilishi;
- ijtimoiy to‘lovlar va h.k.

Rivojlangan mamlakatlarda ana shu vazifalarning ko‘pchiligi davlat zimmasiga yuklangan (2, 3, 4-jadvallarga qaralsin).

Davlatning iqtisodda tutgan rolini belgilovchi eng muhim omillardan biri davlat mulkining ko‘p-ozligidan (mikdoridan) iboratdir.

1980-yillar xususiy sektorga ishonch kuchaygan o‘n yillik hisoblanadi. Bu davrda xususiylashtirish Meksikadan to Yaponiyagacha yetib bordi. 1980 yildan 1988 yilgacha Buyuk Britaniyada ishlab chiqarishdagi jamoat sektorining 40 foizdan ko‘prog‘i xususiy korxonalarga aylantirildi. 80-yillarning boshlarida hamma joylarda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va ko‘lamini kengaytirishning vositasi sifatida keng miqyosda xususiylashtirishni joriy etish yo‘li bilan davlat xarajatlarini cheklash borasida faol siyosat olib borildi. Buning oqibatida ko‘pgina mamlakatlarda yalpi ichki mahsulot ko‘payishi bilan bir qatorda bu xarajatlar tejalib, bir qolipga tushdi.

Buyuk Britaniya bu sohada ko‘p yutuqlarga erishdi. Biroq, xususiy kapitalni yanada kengroq ko‘lamda iqtisodga jalb etish rejasi kutilgan natijalarini bermadi.

Jamoatchilik fikrini o‘rganish natijalariga ko‘ra "aholi ko‘rsatilayotgan xizmatlarning sifatidan norozi". Maorif, tibbiy xizmat, transport singari sohalarda bu narsa yaqqol namoyon bo‘ddi.

1990-yillarning boshlariga kelib ahvol ancha o‘zgardi, davlat sektoriga bo‘lgan e’tibor tobora kuchaydi.

Nima sababdan?

1. Bizning xohish-irodamizga mutlaqo aloqasi bo‘lmagan holda davlat sektoridagi ko‘rsatkichlar hayotimizning sifatini belgilashda hal qiluvchi ahamiyatga ega, degan tushuncha tobora kengroq qaror topmoqda. Bu narsa esa oqibatda iqtisodiy rivojlanish maqsadi hisoblanadi.

Darqaqiqat, kapitalizm turli-tuman mollar ishlab chiqarishda yuksak samaradorlikni ta'minlaydi. Bu tushunarli: kapitalizmning maqsadi foyda olishdir.

Lekin alohida bir shaxs uchun avtomobil, televizor, dastgoh va h.k. o'z-o'zidan yaxshi hayotni ta'minlab bera olmaydi. Natijada quyidagilarni amalgalash zarur, degan fikr -yuzaga keladi:

a) 80-yillarda amalgalash bilan davlat xarajatlarni tejash siyosatidan voz kechish. Lekin bu narsa soliqlarning keskin oshishiga sabab bo'lishi mumkin;

b) hozirgi xarajatlarni (yalpi ichki mahsulotga nisbatan) saqlab turgan holda, qat'iy islohotlar yordamida davlat sektoridagi raqobatchilik unsurlarini kuchaytirgan holda ushbu sektorga oid xizmatlar sifatini oshish.

2. Bozor "inson omili" degan tushunchaning tub ma'nosini ta'minlay olmaydi "kelajakkagi ko'pgina ijtimoiy zararlar yoki afzalliklarga yetarlicha baho bera olmaydi yoki ularni oldindan ko'ra olmaydi".

3. Bozorning narxlar tushimi tabiiy boyliklarni taqsimlab berayotganida ko'p jihatdan ularning tugab borishini, bu hol atrof-muhitga uzoq vaqt salbiy ta'sir qilishi mumkinligini hisobga olmaydi.

4. Ilmtalab mahsulotlar va eng yangi g'oyalar bilan xalqaro miqyosda erkin almashuvning bir o'zi ilg'or texnologiyalarning keng joriy etilishiga olib kelolmaydi. Ularni o'zlashtirish esa ongli ravishda murakkab bilimlar to'plashni, tajriba orttirishni talab etadi, bu hol esa davlat oldindan tashabbus ko'rsatishi lozimligini taqozo qiladi.

Ijtimoiy taraqqiyotdagi davlatning roliga umuman tarixiy nuqtai nazardan yondashilsa, shu narsa ma'lum bo'ladiki, xususiy kapital iqtisodga tobora kengroq ko'lamda jalb etilayotganiga qaramay, jamoat sektorining hissasi uzlucksiz oshib boradi. G'arbdagi ko'pgina yetakchi mamlakatlarda xususiy tashtirish siyosati keng ko'lamda olib borilayotganiga qaramay, ularning iqtisodida davlat sektorining ishtiroti o'sib bormoqda.

Davlatning umuman iqtisoddagi roli davlat mulkining salmog'i bilan bir qatorda yalpi ichki mahsulotdagi davlat xarajatlari ulushi ko'rsatkichlari bilan ham belgilanadi.

XIX asrning oxirlarida sanoati rivojlangan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotdagi davlat xarajatlarining salmog'i o'rtacha 8,3 % ni (AQSHda - 4%, Fransiyada - 12,6%) tashkil etgan bo'lsa, XX asrning 20-yillarida bu raqam 15,4% ga ko'tarildi.

Sanoati rivojlangan mamlakatlarda davlatning milliy resurslarini taqsimlashdagi o'rni 1929-1933 yillardagi Buyuk (depressiya) turg'unlikdan keyin salmoqli bo'ldi. 60-yillarda bu ko'rsatkich 27,9%ni. 80-yillarning boshlarida 42,6%ni tashkil etdi, bu esa o'tgan yuz yil mobaynida ta'lim, temiryo'l transporti, telegraf, pochta, ijtimoiy ta'minot, sog'liqni saqlash, sanitariya xizmatlari davlat zimmasiga yuklatilganligi bilan izohlanadi. Bu raqam keyinchalik mazkur mamlakatlarning birortasida ham 30%dan pastga tushgani yo'q. Masalan, 1998 yilda AQSHda yalpi ichki mahsulotdagi davlat xarajatlari salmog'i 38,7%ni, Yaponiyada 34,9%, GFRda 50,8%, Fransiyada 54,2%, Angliyada 54,8%ni tashkil etdi. Rivojlangan mamlakatlarda o'rtacha ko'rsatkich 1998 yilga kelib yalpi ichki mahsulotda 47,2%ga yetdi. To'rtinchi jadvaldan ma'lum bo'lganidek, dunyodagi yetakchi mamlakatlarda yalpi ichqi mahsulotdagi davlat xarajatlari satmog'i keyingi yillarda ham muttasil oshib borgan.

Bozor iqtisodiga o'tgan mamlakatlarda iqtisodiyotga davlat ta'sirining asosiy shakllari

Iqtisodda davlat sektori

"Katta yettilik"ka kiruvchi Yevropa mamlakatlari iqtisodida davlat sektori eng ko'p rivoj topdi. Uning asosiy faoliyat ko'lamlari quyidagilardan iborat bo'ldi:

- a) ishlab chiqarish kuchlarining egasi sifatida tadbirdorlik ishlarini olib borish;
- b) sotsial sohani rivojlantirish maqsadida milliy daromadning bir qismini davlat xazinasi ixtiyoriga ajratish;

v) umummilliylar miqyosda iqtisodiyotni tartibga solish. 1990-yillarda asosiy jamg'armalarga kirib kelgan yalpi qo'yilmalarning muhim qismi davlat sektoriga to'g'ri keldi: bu Fratsiyada 35%ni, Germaniyada 15%, Italiyada 10,6%ni tashkil etdi va bu sektor yalpi ijtimoiy mahsulotning 25%ga yaqinini iste'mol qildi hamda ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstrukturlik izlanishlariga sarflangan xarajatlarning 50%dan ko'prog'ini moliyalashtirdi.

Bir qator mamlakatlarda (Italiya, Fransiya, Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg, Germaniya, Buyuk Britaniyada) davlat sektori bozor iqtisodini qayta ishlab chiqarish uchun shart-sharoit ta'minlagan holda mustahkam mavqelarni egallab turibdi. U xususiy tadbirkorlik uchun unchalik naf keltirmaydigan, kam daromadli sohalarda faoliyat ko'rsatmokda.

Odatda bular ishlab chiqarish infrastrukturasi tarmoq-lari: temiryo'l, aviatsiya transporti, aloqa, quvur yotqizish yo'llari, dengiz portlari, energetika, mudofaa, atom sanoati, bir qator mamlakatlarda esa, mashinasozlik tarmoqlaridan ham iborat bo'ladi.

Tajriba shuni ko'rsatdiki, davlat korxonalarini xususiy korxonalarga nisbatan kamroq samara berishiga qaramay, ishlab chiqarishning ahamiyati faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar bilangina emas, balki jamiyatga qanchalik naf keltirishi bilan o'lchanadigan joylarda, ya'ni takror ishlab chiqarish uchun ijtimoiy shart-sharoitlar yaratib beradigan sohalarda g'oyat matlubdir. Shulardan kelib chiqib aytish mumkinki, har bir muayyan tarixiy bosqichda davlat sektorining ko'lamlari uning iqtisodiy samaradorligining qanchalik ozligi va kamxarjligiga emas, balki, xususiy kapital davlat nazoratidagi korxonalar faoliyatining taqdiri uchun o'z zimmasiga qanchalik mas'uliyat olishi bilan ham bog'liqdir.

Iqtisodiyotni tartibga solish. Soliqlar siyosati

Bozor mexanizmining samarali ishlashi uchun raqobatga asoslangan iqtisodiy usullarning iqtisodiy-ijtimoiy jixatdan zarurati tug'ilgan davlat usullari bilan maqbul ravishda uzviy bog'lash kerak bo'ladi.

Davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish shuning uchun muhimki, bozor usullari o'z holicha shunday og'ishlarga, nomutanosiblik va ziddiyatlarga olib keladiki, buning oqibatlari xatarli bo'lishi mumkin.

Binobarin, ijtimoiy bozor iqtisodi konsepsiysi, o'zining sof ko'rinishida (davlat aralashuvlari) xususiy xo'jalik xuddi keng ko'lamdag'i markazlashgan rejalashtirish kabi muqarrar ravishda iqtisodning samarasiz faoliyat ko'rsatishiga olib kelishi mumkin.

Shuning uchun ham ijtimoiy bozor xo'jaligining asosiy g'oyasi quyidagidan iborat: "bozor erkinligi tamoyili ijtimoiy uyg'unlikni saqlash tamoyiliga hamohang bo'lishi kerak".

Ana shu nazariya tarafдорлари tan oladilarki, "iqtisodni tartibga solish, faoliyatni muvofiqlashtirish jarayoni birinchi navbatda bozor orqali amalga oshirilishi lozim. Biroq, bu holda davlat bozor jarayonlarining rivoji ijtimoiy jihatdan nomaqbul va adolatsiz natijalarga olib kelish xatari tug'ilgan paytdagina ahvolni tuzatadigan u yoki bu tadbirlar orqali aralashishi lozim".

Shubhasiz, davlat tomonidan amalga oshiriladigan tartibga solish darajasi bir tekisda bo'lmay, mavjud vaziyatlarga qarab o'zgarib turadi. Biroq, u muayyan chegaradan pastga tushib ketmasligi shart, aks holda takror ishlab chiqarish jarayoniga imkon qolmaydi.

1990-yillarning boshlariga kelib bozor iqtisodiga o'tgan yetakchi mamlakatlarda davlat tomonidan tartibga solish iqtisodning 1/3 qismini qamrab oldi, moliya va kreditni tartibga solish esa butun iqtisodga yoyildi.

Davlat tomonidan amalga oshiriladigan iqtisodni tartibga solish va barqarorlashtirishdagi eng asosiy vositalardan biri soliqlar siyosatidir, xarajatlarga oid hukumat qarorlari, soliq yig'imiqlari iqtisodiy subyektlarning faoliyatini bir maromga solib turadi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida kompaniyalardan olinadigan soliqlar 34% atrofida,

Lyuksemburgda 4b%gacha, Germaniyada qayta investitsiya qilingan daromaddar bo'yicha 50%ni tashkil qiladi.

Yangi texnologiyalarni rag'batlantirish

AQSHda yangi texnologiyalarni rag'batlantirishda ko'proq davlat tomonidan bilsosita tartibga solish usulidan foydalaniadi. Bu tizim iqtisodda yangiliklarni mahsulot, texnologiya, tashkil etish, boshqarish, savdo sohalariga keng joriy qilishga zarurat tug'diruvchi doimiy iqtisodiy tazyiq va imkoniyatlar hosil qilishga asoslangan.

Nazariy tadqiqotlar olib borish uchun fandagi infra-strukturalarning ahvoli uchun, tadbirkorlik, ixtirochilik, tavakkalchilikni himoyalashni rag'batlantiruvchi umumiyligi iqtisodiy shart-sharoitni ta'minlashga davlat javobgarligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Amerika va Yevropadagi "katta yettilik" mamlakatlarida korporatsiyalardagi boshqaruvni zamona viylashtirish yangi texnologiyalarni rag'batlantirishda muhim yo'naliish hisoblanadi. Bu quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- Boshqaruvda "qattiqko'llik"ka nisbatan "yumshoqroq" usullarni ko'proq qo'llash;
- ayrim firmalarning xo'jalikni yuritishda, innovatsiya siyosati masalalarida vakolatlarini oshirish;
- yuqori malakali xodimlarning tashabbuslarini bo'g'uvchi sabablarni yo'qotish;
- ish bilan band bo'lgansharni guruhiy rag'batlantirish usullarini joriy etish.

Germaniyada davlat nazariy tadqiqotlarni kuchaytirish yo'naliishida faoliyat ko'rsatmoqda. Yangi texnologiyalarni rag'batlantirishga qaratilgan choralar silsilasida ham ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstrukturlik izlanishlariga sarflanadigan davlat xarajatlarini oshirishga (1990 yilda AQSHda yalpi milliy mahsulotning 2,8%, Yaponiyada 2,8%, Buyuk Britaniyada 2,4%, Franiyada 2,3%, Germaniyada 2,7%, Italiyada 1,5%ini tashkil etdi), ana shu xarajatlarning tarkibini shakllantirishga (soha bo'yicha taqsimot, nazariy-amaliy tadqiqotlar o'rtaisdagi nisbat, harbiy-fazoviy loyihalarni qisqartirish hisobiga fuqarolar manfaatlarini ko'zlovchi rejalgarda ustuvorlik berishga) katta ahamiyat berilmoxda. Korporatsiyalar faoliyatada bozorlarni yangi mahsulot turlari bilan o'zlashtirishga intilish kuchaymoqda.

Yangi ish o'rinlarining paydo bo'lishi, turmush darjasining oshishi sanoatning ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstrukturlik izlanishlariga sarflanadigan xarajatlar ancha yuqori sur'atlar bilan oshib borayotgan, ishlab chiqarishga juda katga miqdorda kapital qo'yilayotgan tarmoqlarida ro'y bermoqda.

Biroq, bu sohaga sarflanadigan xarajatlarning ko'payishi - iqtisod taraqqiyotining umumiyligi strategiyasidagi dastlabki qadam, xolos. Hukumat shu bilan birga mamlakatda texnik bilimlar, yangi texnikanining ommalashuviga (kichik korxonalarga alohida e'tibor bergen holda) har jihatdan yordam berishi lozim.

AQSHda 90-yillarda kichik firmalarga yordam tariqasida texnologiyalarni tarqatish bo'yicha tuzilgan 27 ta markazda, umumiyligi hisobda yiliga 50 mln dollardan sarflandi (asosan mahalliy organlarning budjeti hisobiga).

Yaponiyada xuddi shunday maqsadlar uchun 500 mln dollar ajratilib, 185 ta texnologiyani rivojlantirish markazlariga yordam ko'rsatildi.

Kichik biznesning davlat tomonidan mana shunday rag'batlantirilishi takror ishlab chiqarish jarayoniga bilsosita aralashuvning samarali vositalaridan biri bo'lib ko'rindi.

Amerika olimlarining xulosasi bo'yicha hozirgi zamonda raqobatchilik kurashidagi ustunliklar endilikda mamlakatning katta-kichikligiga ham, tabiiy boyliklarining ko'p yoki ozligiga yoxud moliyaviy kapitalning kuch-qudratiga ham bog'liq emas, endiliqda hamma gap ta'lim darajasi bilan jamiyat to'plagan bilimlar miqyosidadir.

Ilm-fan va ta'lim iqtisodiy rivojlanishda asosiy omilga aylandi. Masalan, Yaponiyada yalpi ichki mahsulot ko'payishining 2/3 qismi ushbu omil hisobiga bo'ladi, axborotga asoslangan jamiyat turi uchun bu tabiiy holdir. Bu mamlakatda ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstrukturlik izlanishlariga (NIOKR) sarflanadkgan mablag'lar quyidagicha taqsimlangan:

fundamental nazariy tadqiqotlarga 12,6%, amaliy tadqiqotlarga 24,2%, ularni ishlab chiqarishga 63,2%. Bu sohadagi o‘rtacha ish haqi mamlakatdagi o‘rtacha ish haqidan 2,6 -3,0 marta yuqori.

Ijtimoiy siyosat

Ijtimoiy himoya masalalari 1929-1933 yillardagi Buyuk depressiyadan keyin rivoj topgach, hozirga kelib G‘arbdagi yetakchi mamlakatlar davlat strategiyasining ajralmas bir qismi bo‘lib qoldi va ular har bir mamlakatda o‘ziga xos xususiyatga ega.

Masalan, AQSHda bular asosan tegishli rejalarda aks etgan ikki xil faoliyat turidan iborat:

1. "Ijtimoiy sug‘urta rejalar": ishsizlik nafaqasiga chiqish-vaqtinchha ishoizlik bilan bog‘liq holda kamaygan daromad qisman qoplanadi;

"Ijtimoiy ta‘minot": qarilik, mehnatga layoqatsizlik bo‘yicha to‘lanadigan, muayyan sugurtani, ishsizlik nafaqalarini olib bo‘lgan, birovning qaramog‘ida bo‘lgan shaxslarga mo‘ljallangan sug‘urta;

Ijtimoiy sug‘urtaning ushbu asosiy xarajatlari ish haqiga solinadigan soliqlar hisobiga moliyalashtiriladi, ya’ni ular ishlab topilgan xuquq hisoblanib, davlat xayriyasiga mutlaqo aloqasi yo‘q.

2. "Davlat yordami rejalar" yoki "Xayriya rejasi" degan dasturlar mavjud bo‘lib, bularning vazifasi "mehnatga layoqatsizligi yoki qaramog‘ida bolalar bo‘lganligi sababli o‘zi pul ishlab topa olmaydigan shaxslar"ga nafaqa to‘lashdan iborat. Bu rejalar umumiy soliq kirimlari hisobiga moliyalashtiriladi va davlatning xayriya ishlari, deb hisoblanadi.

AQSHdagi ijtimoiy siyosat odatda o‘z oldiga faqat tor doiradagi eng qashshoq, mehnatga layoqatsiz shaxslarnigina himoya qilish vazifasini qo‘yadi.

AQSHdan farqli o‘larоq ijtimoiy siyosatning yevropacha modeli turmushda muayyan qabul qilingan darajadan pastga tushib qolgan barcha fuqarolarni qamrab oladi.

Masalan, Germaniyada davlat ijtimoiy siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Ehtiyyot chora-tadbirlari - mehnat sharoitini, daromadlar taqsimotini nazorat qilish, iste’molchilarni, uy-joy ijarachilarini, atrof-muhitni, sog‘liqni himoya qilish, ta’lim, uy-joy, transport va hokazo sohalarda xizmatlar ko‘rsatish.

2. Ba‘zi toifadagi shaxslar (keksalar, bemorlar nogironlar ishsizlar)ning ma’lum turmush darajasini saqlab turish uchun zarur bo‘lgan to‘lov chora-tadbirlari, ular turli shakllarda - badallar hisobidan ijtimoiy sug‘urta, soliq tushumlari, xayriyalar va hokazolar hisobidan davlat ijtimoiy xizmatlari tarzida amalga oshiriladi.

3. "Yordam" tadbirlari, bunda turli uyushmalar orqali ijtimoiy yordam ko‘rsatishning norasmiy usullari rag‘batlantiriladi.

Ba‘zi mamlakatlarda o‘ziga xosliklar bor. Aytaylik, Yaponiyadagi ijtimoiy siyosat ushbu rejalgarda daxldor odamlar ishlaydigan korxoia va muassasalarni ularning ijtimoiy ehtiyojlarini hal etishga jalb qilish asosida qurilgan.

Biroq, eng umumiy tamoyillar - qariganda nafaqaga chiqish, kasal bo‘lganda, mehnatga layoqatini yo‘qtoganda, ishsiz qolganda nafaqalar olish huquqini ta‘minlaydigan ijtimoiy sugurta mavjudligidan iborat. Bu xil sug‘urta asosida "qars ikki qo‘ldan" tamoyili yotadi, buning ma’nosи shuki, ijtimoiy xizmatlarning tarkibi, ko‘lami sug‘urta qilingan shaxs to‘laydigan badalning miqdoriga bog‘liq bo‘ladi.

Davlatning roli

- Biznes qonunlari - "changalzorlar (jungli) qonunlari" emas.
- Davlat bozor qo‘rg‘onining ishonchli posboni. Ushbu biri-biriga qarama-qarshi iboralar o‘z o‘rnida haqiqatdir.

Davlatning roliga baho berishda eng avvalo quyidagilarni bir-biridan farqlay bilish kerak: Qonunchilik hujatlarini chiqaruvchi, ma’muriy tartibni saqlovchi, ya’ni xo‘jalikka nisbatan

tashqi kuch sifatida harakat qiluvchi davlatni hamda xo‘jalikning ayrim tarmoqlari yoxud ayrim korxonalar egasi sifatida harakat qiluvchi, ya’ni bevosita iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi davlatni.

Davlatning iqtisoddagi roli borasida quyidagilarni farqlash lozim:

1) Davlatning bevosita xo‘jalik faoliyatini;
2) uning tartibga solish, muvofiqlashtirishdagi o‘rnini. Davlat organlari firmalarning tijorat faoliyatiga aralashmaydi, lekin davlat quyidagilarni nazorat qilib turadi:

1) Iste’molchilar bilan ishlab chiqaruvchilarning manfaatlari himoya qilinishini;
2) jamiyatga taalluqli maxsus masalalar (ekologaya, sog‘liqni saqlash, ta’lim, ilm-fan, ijtimoiy ta’minot va boshqalar) hal etilishini.

Bu masalalarni faqat bozor orqali hal etib bo‘lmaydi, nega deganda, bozor manfaatlari foyda ko‘rishga, bevosita moddiy daromad olishga qaratilgan.

Mana shuning uchun ham hozirgi bozor iqtisodi haqida, bir tomonidan, bozor bilan raqobat g‘oyat muhim ahamiyatga ega bo‘lgan iqtisod ekanligini ta’kidlab o‘tish, ikkinchi tomonidan, davlat bozorning, raqobatning ishonchli posboni ekanligini uqtirib o‘tish lozim. Xuddi mana shu ma’noda iqtisod "aralash iqtisod" holida namoyon bo‘ladi.⁶

5-jadval

1990 yil o‘rtalarida (foiz hisobida) ijtimoiy ta’minot rejalarini amalga oshirishda davlat va xususiy sektorlarning ishtiroki

Mamlakatlar	Xususiy ijtimoiy sug‘urta badallari	Davlat sektori badallari	Boshqa manbalardan tushgan badallar
Belgiya	-	-	-
Daniya	14,0	78,8	7,2
Gretsiya	46,9	49,0	4,2
Ispaniya	73,1	25,8	1,0
Fransiya	76,4	20,2	3,4
Irlandiya	33,3	65,9	0,8
Italiya	67,7	30,7	1,6
Lyuksemburg	59,5	32,2	8,3
Niderlandiya	68,2	17,7	14,1
Portugaliya	64,4	33,1	2,5
Buyuk Britaniya	47,1	43,2	9,7

6-jadval

1990-yillarning boshlarida rivojlangan mamlakatlarda sog‘liqni saqlashni moliyalashtirish tizimi (umumiyya nisbatan foiz hisobida)

Mamlakatlar	Davlat budjeti	Ijtimoiy sug‘urta	Xususiy sug‘urta	Fuqarolar to‘lovi	Hammasi bo‘lib 100%
Buyuk Britaniya	73,1	7,7	5,5	13,7	100,0
Ispaniya	37,6	40,0	5,0	17,4	100,0
Italiya	35,7	40,6	4,9	18,8	100,0

⁶ Пороховский А. Капитализм: к характеристике нынешнего облика. - Экономические науки. М., Финансы и статистика, 1991, №9.

AQSH	24,5	18,7	31,2	25,6	100,0
Shvetsiya	24,0	44,8	6,9	24,3	100,0

7-jadval

Mamlakatlar	Yil	Oliy o‘quv yurtlari turlari	Davlat tomonidan moliyalash	O‘qish uchun xaq to‘lash	Boshqa manbalar
Avstraliya	1997	hamma institutlar	69,8	21	10,2
Finlyandiya	1997	davlat institutlari	85,0	8	15,0
Fransiya	1994	hamma institutlar	89,5	4,7	-
Yaponiya	1995	hamma institutlar	80,0	12,0	8,0
Norvegiya	1997	davlat institutlari	90,0	x	10,0
Ispaniya	1996	universitetlar	80,0	20,0	x
Buyuk Britaniya	1997 1994	universitetlar, xususiy institutlar	55,0 18,4	13,7 33,7	31,3 42,9
AQSH	1995	davlat institutlari	59,3	14,5	26,3
Kanada	1996 1995	hamma institutlar, universitetlar	44,8 81,0	22,4 16,0	32,8 3,0

x - mikdorning kamligi bois keltirilmaydi.

SEMINAR MASHG‘ULOTLARI REJASI

1. Bozor iqtisodi rivojlanishidagi qanday tendensiyalar (xususiyatlар) A.Smitning bozor iqtisodiga o‘zini tartibga soluvchi tizim sifatidagi qarashiga qarama-qarshi bo‘ldi va nima uchun?
2. Bozor iqtisodiga asoslangan rivojlangan mamlakatlarda davlat roli evolutsiyasining xususiyatlari qanday?
3. 1980-yillarda jahoning turli mamlakatlaridagi ommaviy xususiylashtirishning saboqlari.
4. Bozor iqtisodiga asoslangan yetakchi mamlakatlarda davlat xarajatlari ulushining o‘sishini asosiy sabablari.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Biz tanlagan yo‘l - demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li. 11-t. T., «O‘zbekiston», 2003.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-t. T.. «O‘zbekiston», 1996.
3. Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. T., «O‘zbekiston», 1995.
4. Варга В. Роль государства в рыночном хозяйстве. — ж. МЭ и МО, М., 1992, № II.
5. Раджабова З.К. «Мировая экономика». М., ИНФРА 2004.

6. Ломакин В.К. Мировая экономика. М., Финансы, 1998.
7. Майкл Прауз. Государственный сектор и качество жизни. - За рубежом. М.: 1990, №42.
8. Пороховский А.А. Роль государственной собственности в экономическом развитии США. //США. Канада. Экономика. Политика. Культура. М., 2000. №3.
9. Шишков Ю. Экономическая роль государства в современном мире. //ж. Экономист, М., 1999, №1.
10. Human Development Report 1996, Washington, 1996.

II BO'LIM RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR

1-BOB RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR UMUMIY TAVSIFI

Ikkinci jahon urushidan keyin mustamlakachilik tuzumi barbod bo'lgach, dunyoda ko'p sonli yosh mustaqil davlatlar paydo bo'ldi. Bu o'rinda Osiyo-Afrika mintaqasidagi mamlakatlar ko'zda tutiladi. Bular haqli ravishda "ozodlikka erishgan mamlakatlar" deb ta'riflanadi. Keyinchalik shu mamlakatlar bundan taxminan yuz yil burun siyosiy mustaqillikka erishgan Lotan Amerikasi davlatlari bilan qo'shib tilga olinadigan bo'ldi. Natijada "rivojlanayotgan mamlakatlar" atamasi paydo bo'ddi.

Garchi "rivojlanayotgan mamlakatlar" (RM) atamasi bir qadar shartli bo'lsada, hozir bu guruhga 120 dan ortiq davlat kiradi, bularning ba'zilari siyosiy mustaqillikka XIX asrda, qolganlari esa XX asrda - ikkinchi jahon urushi tugagandan keyingi dastlabki o'n yilliklarda erishgan.

Rivojlanayotgan mamlakatlar degachda, Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi va Okeaniyadagi 128 mamlakat, shu jumladan, dunyodagi 48 ta eng sust rivojlangan mamlakat tushuniladi. Ular yer yuzining qariyb 60 foizini egallagan bo'lib, yer yuzi aholisining deyarli 80 foizini tashkil etadi. Ularning umumjahon yalpi ichki mahsulotidagi hissasi atigi 8,3 foizni va sanoat ishlab chiqarishida 14 foizni tashkil etadi.

Tarixiy sharh

Osiyo va Afrika mamlakatlarining ko'pchiligi yaqin o'tmishda Angliya, Fransiya, Belgiya, Gollandiya, Germaniya, Portugaliya va Ispanyaning mustamlakalari edi. Shu sababli, ularning iqtisodiy tizimi ta'lim va ijtimoiy sohalari monopoliyalaridagiga aynan o'xshatib,

ularning manfaatlariga moslab shakllantirilgan.

Ozodlikka erishgan bu mamlakatlar tarixidagi bu xususiyatlar, ularning taraqqiyoti, jahon iqtisodiy xo'jaligiga integratsiya bo'lishdagi o'ziga xosligini va muammolarini izohlab beradi. Shunga ko'ra, ozodlikka erishgan davlatlar uchun birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan asosiy vazifa - faqatgina tezroq iqtisodiy taraqqiyotga erishish emas, balki o'zida mavjud bo'lgan iqtisodiy-ijtimoiy tizimlarni birlashtirish va rivojlantirishdan iboratdir.

Rivojlanayotgan mamlakatlarga xos bo'lgan asosiy belgilar

RM xo'jalik hayoti xilma-xil xususiyatlarga ega bo'lishiga qaramay, unda har holda muayyan darajada mushtarak jihatlar ham mavjudki, bular ushbu mamlakatlarni yagona bir guruhga kiritish imkonini beradi, iqtisodiy-siyosiy rivojlanish borasidagi o'xshash yoki aynan manfaatlar shular jumlasidandir.

Rivojlanayotgan dunyo mamlakatlariga xos bo'lgan ana shunday jihatlar (belgilar) avvalo quyidagilardan iborat:

- 1) Ichki ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmadagi o'tish davri xususiyatlari (RM iqtisodidagi dualizm, ko'p ukladlilik);
- 2) ishlab chiqarish kuchlari umuman past darajada rivojlanganligi, qishloq xo'jaligi, sanoat, xizmat ko'rsatish sohalaridagi qoloqlik;
- 3) jahon xo'jaligi tizimida qaramlik.

BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar ekspertlarining ma'lumotlariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlar 90-yillarning boshiga kelib, G'arbdagi rivojlangan mamlakatlardan mehnat unumдорлиги соҳасида quyidagicha orqada qolgan: sanoatda 6-10 hissa; qishloq xo'jaligida 20-25 hissa. Bu nisbat hozirgacha o'zgarmay kelmoqda.

"Uchinchi dunyo" mamlakatlarining jahon xo'jaligida tutgan o'rni, ularning tabiiy boyliklarga mo'lligi va aholisining ko'pligi bilan ajralib turadi.

Bu mamlakatlarda quyidagilar mavjud:

- Umumiyo sanoat zaxiralarining, ma'nani xom ashyolarining 8 turining (boksitlar, kobalt, mis, neft, qalay, nikel, tabiiy gaz, fosfatlar) 2/3 qismi;
- temir rudasi, molibden va urannikg 1/3 qismi;
- volfram, marganes, qo'rg'oshin, xrom, rux bilan bog'liq sanoat zaxiralarining qariyb 1/4 qismi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar qimmatbaho ma'danlar va toshlar bo'yicha dunyo zaxiralarida muhim o'rin egallaydi.

Biroq, rivojlanayottan mamlakatlarda foydali qazilma boyliklar mutlaqo teng joylashmagan. "Uchinchi dunyo"da topilgan foydali qazilmalar ularning faqat 45 tasiga to'g'ri keladi. Bular, avvalo, neftni eksport qiluvchi, ma'danlarni ishlab chiqaruvchi mamlakatlardir. Ayni paytda rivojlanayotgan mamlakatlarning 2/3 qismi umuman ma'dan va energetika zaxiralariga ega emas.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning tabiiy boyliklariga xos yana bir xususiyat, bu boyliklarni mamlakatlar bo'ylab aniqlash darajasi nisbatan juda past: mazkur 45 mamlakatning atigi 10 tasida 3 xildan ko'proq xomashyo turi mavjudligi aniqlangan.

Mana shuning uchun ham xom ashyo rivojlanayotgan mamlakatlarning faqat ayrimlari uchun ko'p tarmoqli qayta ishlash sanoatini rivojlantirish uchun yetarli moddiy zamin bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarning o'zi energetika va ma'dan xom ashyolarini chetdan olib kelishga majbur. Masalan, mamlakat importining umumiyo hajmida xom ashyo salmog'i Vyetnamda 25, Marokashda 20, Pokistonda 22, Paragvayda 25, Janubiy Koreyada 30% ni tashkil etadi.

Rivojlanayotgan dunyo mintaqalari ichida chetdan olib kelinadigan ma'dan va energetika xoma shyolariga butunlay qaram bo'lib qolgani Janubiy Osiyo hisoblanib, uning importida bu mahsulotlarning salmog'i mintaqqa bo'yicha 28%dir.

Hozirgi zamon maxsus adabiyotlarida rivojlanayotgan mamlakatlarni toifalashga oid bo‘lgan tavsiyalardan kelib chiqkdn holda bu davlatlarni quyidagi tabaqalarga bo‘lish mumkin (ko‘p jihatdan shartli ravishda):

"Yangi industrial mamlakatlar" (YAIM) yoki "yangi sanoat iqtisodlari" (YASI) yuqori tabaqani tashkil etadi, keyin esa o‘rtacha iqtisodiy taraqqiyot darajasidagi mamlakatlar, eng sust rivojlangan (yoki ko‘p hollarda eng qashshoq) mamlakatlar to‘g‘ri keladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning toifalarga bo‘linishi

Rivojlanayotgan dunyo tabaqlashgan bo‘lib, mamlakat va mintaqa ko‘lmlarida iqtisodiy taraqqiyot darajasi, iqtisodiy qoloqlikning chuqurligi, uning qay shaklda namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq muhim tafovutlar mavjud.

Iqtisodiy taraqqiyot darajasi ko‘proq yalpi milliy mahsulot aholi jon boshiga qanchadan to‘g‘ri kelishiga qarab belgilanadi. Ana shu mezondan kelib chiqilsa, rivojlanayotgan mamlakatlarni eng past, o‘rtacha va yuqori daromad nuqtai nazaridan uchta toifaga bo‘lish mumkin:

1. Eng past daromadli mamlakatlar aholi jon boshiga hisoblanganda yalpi milliy mahsulot yiliga eng ko‘pi bilan 400 AQSH dollarini tashkil etuvchi davlatlar. Asosan tropik Afrikadagi mamlakatlarning ko‘pchiligi, Osiyodagi 10 dan ortiq davlat (Janubiy Osiyo mintaqasidagi) hamda Karib havzasidagi bir davlat - Gaiti shunga kiradi.

Ana shu toifaga kiruvchi mamlakatlar⁷ BMT uslubiyatiga ko‘ra, "eng sust rivojlangan mamlakatlar" hisoblanadi; aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad 215 AQSH dollaridan oz (1995 yilda), qayta ishlash sanoatida aholi jon boshiga qo‘sishma qiymat salmog‘i nari borsa 10%, katta yoshdagi aholining savodxonlik darajasi ko‘pi bilan 70% boshlang‘ich mакtab 17% o‘rta maktab ta’limini olganlar tashkil etadi.

2. O‘rtacha daromadga ega bo‘lgan mamlakatlar 1995 yilda yalpi milliy mahsulot aholi jon boshiga 766 - 9385 AQSH dollari miqdorida to‘g‘ri kelgan davlatlardir. 20 ga yaqin Shimoliy Afrika davlatlari. Angola, Botsvana, Kongo, Namibiya, Zimbabve, Osiyo mamlakatlar - Iordaniya, Eron, Iroq, Yaman, Livan, Malayziya, Lotin Amerikasi, Karib havzasidagi davlatlarning aksariyati, Okeaniyadagi bir davlat - Papua Yangi Gvineya shu toifaga kiradi.

3. 1995 yilda yalpi milliy mahsulot aholi jon boshiga 9386 AQSH dollaridan ko‘proqni tashkil etgan davlatlar yuqori daromadli mamlakatlar toifasiga kiradi. Bular ikki turdag'i mamlakatlardir.

- yo neft eksport qiluvchilar (Quvayt, BAA, Saudiya Arabistoni va boshqalar);
- yoxud yangi ivdustrial mamlakatlar (Gonkong, Singapur, Janubiy Koreya, Argentina, Braziliya, Meksika va h.k. davlatlar)

Jahon banki uslubiyatiga ko‘ra, yangi industrial mamlakatlarga kiruvchi davlatlarning asosiy belgilari aholi jon boshiga hisoblanganda milliy daromad 1998 yilgi narxlar bo‘yicha 10000 AQSH dollaridan ko‘proqni, qayta ishlash sanoatining yalpi ichki mahsulotdagi salmog‘i kamida 20%ni tashkil etishi kerak.

Rivojlanayotgan mamlakatlar guruhida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi milliy daromad bo‘yicha Bruney eng yuqori ko‘rsatkichga ega - bu raqam 2003 yidsa 26200 AQSH dollarini tashkil etgan, ikkinchi o‘rinda Gonkong - 25160 AQSH dollari, uchinchi o‘rinda Singapur - 24570 AQSH dollari.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda turmush darjasining pastligi: uning tavsifi va asosiy sabablari

⁷ Eng kam rivojlangan mamlakatlar: Afg‘oniston, Angola, Bangladesh, Benin, Burkina Faso, Burundi, Kombodja, Kape-Verde, Markaziy Afrika respublikasi, Chad, Kamori, Kongo, Jibuti, Ekvatorial Gvineya, Efiopiya, Gambiya, Gvineya, Gvineya Bissau, Gaiti, Kiribati, Laos, Lisoto, Liberia. Madagaskar, Malavi, Maldivi. Maliy, Mavritaniya, Mozambik. Myanma, Nepal, Niger, Ruanda, G‘arbiy Samoa, Siyerro-Leone, Solomon orollari. Somali, Sudan, Togo, Uganda, Tanzaniya, Vanuatu, Yaman, Zambiya, Butan, Eritreya, San-Tome, Prinsipi va Guala.

Aholi turmush darajasining pastligi asosan quyidagilar bilan belgilanadi:

- Oziq-ovqatni yetarlicha iste'mol qilmaslik;
- aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlarning kamligi;
- uy-joy sharoitlarining nobopligi;
- yuqori darajadagi kasallanish;
- ta'lim darajasining pastligi;
- yuqori darajadagi bolalar o'limi;
- istiqbolning yo'qligi va umidsizlik kayfiyati.

Ana shu omillarning ba'zilariga murojaat qilaylik.

1. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad.

2000 yilda dunyodagi barcha mamlakatlarning umumiy yalpi ichki mahsuloti 31.493 mlrd AQSH dollarini tashkil etdi. Shu jumladan:

- Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda 25.470 mlrd AQSH dollari;
- rivojlanayotgan mamlakatlarda 5.803 mlrd AQSH dollari;
- eng sust rivojlangan mamlakatlarda 123 mlrd AQSH dollari.

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi nisbat 78,8% bilan 21,2% ni tashkil etadi, ya'ni dunyo aholisining qariyb 85%i jahon ishlab chiqarishining atigi 21,2%ga yaqin mahsulotini bergen.

Aholi jon boshiga tug'ri keladigan daromad xususida shuni aytish mumkinki, rivojlanayotgan mamlakatlarda bu daromad sanoati rivojlangan mamlakatlarga qaraganda 13,1 marta, eng sust taraqqiy etgan mamlakatlarda 64 marta kam bo'lgan.

*2000 yilda ba'zi rivojlangan va rivojlanayotgan
mamlakatlarda bir yilda aholi jon boshiga to'g'ri
kelgan daromadlar (AQSH dollari hisobida).*

Lyuksemburg	- 42930	Yaman	- 360
Shveysariya	- 38380	Nepal	- 220
Yaponiya	- 32030	Chad	- 210
Norvegiya	- 33470	Syerra-Leone	- 130
Germaniya	- 25620	Malavi	- 180
AQSH	- 31910	Burundi	- 120
Avstriya	- 25430	Efioliya	- 100
Fransiya	- 24170	Mozambik	- 220

Manba: **World Development Indicators 2001, Table 1,1; 4,2**

Bu ko'rsatkichlar tobora o'sib borishga moyil. 1960 yildan 1985 yilgacha bo'lган davr ichida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlardagi aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlardagi farq uch hissa ko'paydi: 5700 AQSH dollaridan 17 mingdan ko'proq AQSH dollargacha yetib bordi. 1995 yilda 100 dan ortiq mamlakatda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad bundan 15 yil oldindagiga nisbatan kam bo'ldi. Oqibati, ushbu mamlakatlar aholisining 1/4 qismidan ko'prog'i bundan 15 yil oldindagiga qaraganda yana ham qashshoqroq turmush kechirdi. Masalan, sobiq Ittifoqning ko'pchilik mamlakatlarda, shu jumladan, Rossiyada ham yalpi milliy mahsulot 1985-95 yillar orasida amalda 40% gacha kamaydi va buning oqibatida shaxsiy iste'mol keskin ravishda ozaydi. Daromad darajasi past bo'lган 60dan ko'proq mamlakatda bu ko'rsatkich keyingi 15 yil ichida har yili 1%ga kamaygan. Hozirgi kunda Afrikada aholi jon boshiga hisoblaganda iste'mol 1980 yildagiga nisbatan 20% kamaygan.

Milliy daromad taqsimoti

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, rivojlanayotgan mamlakatlarda qashshoqlikning yana

ham kengroq tarqalishi va kuchayishiga olib keluvchi omil kam taraqqiy etgan alohida bir mamlakat ichkarisida boylar bilan kambag‘allar o‘rtasidagi tafovut tobora o‘sib borishidan ham iboratdir. Ayni paytda aholi jon boshiga tushadigan daromad darajasi bilan olinadigan daromadlarning tengsizlik darajasi o‘rtasida o‘zaro nisbat yoki korrelatsiya yo‘qligi e’tiborga loyiqidir.

Lotin Amerikasi, Janubiy Koreya va Tayvanda daromadlar taqsimoti (Jini koeffitsiyenti bo‘yicha)⁸

Mamlakatlar	1970-1980	1990-2000
Argentina (Buenos Ayres)	0,39	0,46
Boliviya (shaharlar)	0,48	0,52
Braziliya	0,57	0,63
Chili	0,53	0,53
Kolumbiya (shaharlar)	0,58	0,52
Meksika	0,51	0,55
Peru (Lima)	0,43	0,44
Urugvay	0,45	0,42
Venesuela	0,51	0,50
Janubiy Koreya	0,39	0,34
Tayvan	0,30	0,33

Masalan, Peruni Turkiya bilan solishtirib ko‘rganda shu narsa ayon bo‘ladiki, 1990-2000 yillarda har ikkalasida ham aholi jon boshiga tushadigan daromad deyarli bir xil bo‘lgani holda, Peruda aholining kattagina qismi o‘rtasidagi qashshoqlik darajasi Turkiyadagiga nisbatan yuqoriqoq bo‘lgan (15%ga qarshi 44%). Bundan shu narsa kelib chiqadiki, iqtisodiy rivojlanishni yolg‘iz umumiy daromadlarning yoxud aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlarning o‘sish darajasi va sur’atlariga qarab belgilab bo‘lmaydi; bunda shu daromadlar mamlakat aholisi o‘rtasida qay tarzda taqsimlanishini, ya’ni bu rivojlanishdan kimlar ko‘proq manfaat ko‘rishini ham hisobga olish kerak.

Tuyib ovqat yemaslik va salomatlik muammolar

Rivojlanayotgan davlatlar aholisi uchun kam daromadlar bilan bir qatorda ovqatlanish va kasalliklar bilan bog‘liq muammolar ham dolzarbdir.

Eng sust rivojlangan mamlakatlarda inson umrining o‘rtacha davomiyligi 2001 yidda 59 yoshni tashkil etdi, vaholanki, bu raqam boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarda 69, rivojlangan davlatlarda esa 73 yilni tashkil etgan (WDI, 2001, Tabye 2.19).

Go‘daklar (1 yoshgacha bo‘lgan) o‘limi koeffitsiyenti hamon yuqori darajada: eng sust

⁸ Jini koeffitsiyenti aholining alohida guruhlari milliy daromaddan amalda qancha hissa olganliklari va daromad teng taqsimlangan taqdirda qancha hissa olishlari mumkimligi o‘rtasidagi farqni o‘lchaydi. Koeffitsiyent qanchalik yuqori bo‘lsa, daromadlar taqsimotidagi gengsizlik ham shuncha baland bo‘ladi.

taraqqiy etgan mamlakatlarda - 77 promille, boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarda esa 65 bo'lsa, rivojlangan mamlakatlarda -13 ni tashkil etadi.

1970-yillarning o'rtalarida 1 mld dan ko'proq kishi yoxud rivojlanayotgan dunyo aholisining qariyb yarmi (Xitoydan tashqari) to'yib ovqat yemaslik sharoitida kun kechirgan, ya'ni ular zarur miqdordagi kaloriyalarni olish imkoniyatiga ega bo'lмаган. Ularning 1/3 qismidan ko'prog'ini 2 yoshga yetmagan go'daklar tashkil etgan.

Keyinchalik bu vaziyat, Sahroi Kabir janubidagi Afrika mamlakatlarida og'irlashdi, bu mintaqada oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish ancha pasayib ketdi va ocharchilik keng tus oldi.

2002 yilda aholi jon boshiga hisoblanganda bir kunda iste'mol qilinadigan kaloriyalar mikdori rivojlanayotgan mamlakatlarda 2572 kaloriyadan, eng sust taraqqiy etgan mamlakatlarda 2103 kaloriyadan iborat bo'lган, bu esa, sanoati rivojlangan davlatlardagidan (3157 kaloriya) nisbatan 24 va 33% kam, demakdir.

Osiyo va Afrika aholisining qariyb 60%i salomatlikni bir me'yorda ushlab turish uchun zarur bo'lган kaloriyalarini eng kam miqdorda iste'mol qiladi. Boz ustiga, olimlarning fikricha, iste'moldagi bu yetishmovchilik dunyo bo'yicha yetishtiriladigan don mahsulotlarining boryo'g'i 2%ini tashkil qiladi. Bundan ko'rindiki, ocharchilik yer yuzi aholisi bilan oziq-ovqat mahsulotlari o'rtasidagi nisbat buzilganligining natijasi emas, balki bunga jahonda daromadlar taqsimotidagi nisbat buzilganligi ko'proq sabab bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, rivojlanayotgan mamlakatlarda yuz berayotgan ocharchilik va salomatlikning zaiflashuvi - oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ko'lamlaridan ko'ra, mamlakat qashshoqligining natijasidir.

Tibbiy muassasalar, ularda xizmat qilayotgan xodimlarning yetishmasligi rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'philigi uchun jiddiy muammo bo'lib kelmoqda.

1990-2001 yillarda rivojlanayotgan mamlakatlarda vrachlar soni har 10 ming kishi hisobiga 18, eng sust rivojlangan mamlakatlarda 5 nafarni tashkil etgan, sanoati rivojlangan mamlakatlarda esa bu raqam 280 nafardir. Tibbiy hamshiralar, xuddi shu tartibda 85,26 va 780. Ayni paytda shuni ham e'tiborga olish kerakki, rivojlanayotgan mamlakatlarda vrachlarning aksariyati asosan aholining atigi 37%i (eng kam rivojlangan mamlakatlarda 23%) yashaydigan shaharlarda istiqomat qiladi.

Masalan, Hindistonda vrachlarning 80% i aholining atigi 30% i istiqomat qiluvchi shaharlarda faoliyat ko'rsatadi.

Mehnat unumdarligi darajasining pastligi rivojmtayotgan mamlakatlarning o'ziga xos xususiyatlariga oid belgilardan biridir.

Mehnatning samaradorligi ishlab chiqarishning tegishli omillari mavjudligi bilangina belgilanmaydi. Ana shu ishlab chiqarishning texnikaviy va muhandislik ta'minlangani yoniga boshqa shart-sharoitlar, jumladan, boshqaruv tizimining layoqatliligi, uning qay darajada kelishib ishlashi, ishchilarni rag'batlantirish va h.k.larni qo'shish lozim. Shunga ko'ra, ishlab chiqarish ko'lamenti ko'paytirish uchun ichki jamg'armalar va tashqi moliyaviy manbalar real ishlab chiqarish vositalariga yangi investitsiyalar kiritish (rysisal capital goods) bilan birga, kadrlar ta'limi, ularning kasbiy tayyorlarligiga mablag' ajratish (stock of human capital) yo'lida sarflanmog'i lozim.

Ana shu investitsiyalarning qanchalik samarali bo'lishi, muayyan tashkiliy choratadbirlar ko'rishni: yerga egalik islohoti, korporativ (munitsipial) soliqlarni joriy etish, bank tizimini o'zgartirish, mustaqil, halol, samarali ma'muriy tuzilmani takomillashtirish; ularni rivojlanayotgan jamiyat extiyojlariga moslashtirish maqsadlariga qaratilgani holda, kadrlar tayyorlash va ta'lim berish rejalarini qayta qurishni taqozo etadi.

Mehnat unumdarligini oshirishdagi boshqa noiqtisodiy usullarni ham e'tiborga olish zarur bo'ladi.

"Sug'orishga olib borilgan otga suv ichira olmaslik ham mumkin" maqolini rivojlanayotgan

mamlakatlarga tadbiq etsak, shu narsa ma'lum bo'ladiki, ularni takomillashtirish uchun shart-sharoit yaratish mumkin, ammo kerakli tashkiliy, shakliy o'zgarishlarsiz muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi.

Shuningdek, ishchi bilan boshqaruvchining o'z malakasini oshirishga bo'lgan munosabatini ularning faolligi, ko'nikish darajasi, yangiliklarga va tajribaga (yexreriyyense) nisbatan tashabbuskorligi, xohish-ishtiyoqi, mehnatga, tartib-intizomga, hokimiyatga, ekspluatatsiyaga munosabatlarini e'tiborga olish lozim.

Har bir shaxsning mehnatidan qoniqish uchun uning jismoniy kuchi va irodasining zo'rлиgi bularga qo'shimcha bo'la oladi.

Jismoniy kuch egalariga rivojlanayotgan mamlakatlarda daromadning ozligi, mehnat unumdorligining pastligi bir-biri bilan chambarchas bog'liq ekani ta'sir etadi.

Qishloq xo'jalik ishlab chitsarishta va xom ashyo chetga chiqarshi (eksport)ga yuqori darajada qaramlik

Rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining ko'pchilik qismi (65%dan ortig'i) qishloq joylarida istiqomat qiladi. Rivojlangan mamlakatlarda esa bu raqam 26%dan kamroqni tashkil etadi. Shu qatori rivojlanayottan mamlakatlarda mehnat resurslarining 62%dan ko'prog'i qishloq xo'jaligida band bo'lsa, sanoati rivojlangan mamlakatlarda bu raqam 7%ni tashkil etadi.

Shunga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yalpi ichki mahsulotning qariyb 4%ini, sanoati rivojlangan mamlakatlarda esa 3%ni tashkil etgan (8-jadvalga qaralsin).

8-jadval

Aholi va mehnat resurslari soni va iqtisodning qishloq xo'jaligi sektorilaga ishlab chiqarish, 2000 yil

Mamlakatlar, mintaqalar	Aholisi (mln. kishi)	Shahar aholisi (%)	Qishloq aholisi (%)	Qishloq xo'jaligida ishchi kuchi (%)	Yalpi ichki mahsulotda qishloq xo'jaligining salmog'i
Dunyo bo'yicha	5978	44	56	35	15
Rivojlangan mamlakatlar, shu jumladan:	896	77	23	4	13
AQSH	278	77	23	3	8
Yaponiya	127	79	21	5	8
Rivojlanayotgan mamlakatlar, shu jumladan:	5082	39	61	62	12
Afrika	290	58	42	75	14
Janubiy Osiyo	1329	28	72	63	27
Sharqiy Osiyo	1837	34	66	46	14
Lotin Amerikasi	508	75	25	19	8
Sharqiy Yevropa va MDH	474	43	57	19	-

Manba: World Development Indicator, 2001, Table 1,5

Rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo'jaligida, ishlab chiqaruvchi tarmoqlarda odamlar va ishlab chiqarish bir joyda to'planib qolganligining asosiy sababi, daromadlar g'oyat

past bo‘lgan sharoitda har qanday insonning birlamchi qayg‘usi oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshpana topish dardidan iborat bo‘lganligidir.

Bu yerlardagi qishloq xo‘jaligining kam mahsuldorligi odamlar soni ko‘p ekanligi va ishlovga nisbatan yaroqli yerlar mavjudligi bilangina emas, balki ayni chog‘da sust rivojlangan mamlakatlar iqtisodining bu sohasida ibtidoiy texnologiya ustuvor ekanligi, tashkillashtirishning zaifligi, jismoniy, kapital xarajatlar cheklanganligi bilan ham izohlanadi.

Texnologik qoloqlik eng avvalo agrar sektorda notijorat dehqon xo‘jaliklari ko‘proq ustun ekanligining natijasidir. Keyin dunyoning ko‘pgina mintaqalarida, ayniqsa, Osiyo va Lotin Amerikasida yerdan foydalanish kelishuvlari mavjud bo‘lib, buning natijasida dehqonlar odatda kichikroq yer parchalarini ijara olishni ma’qul ko‘radilar.

Yerdan foydalanishning bu usuli ishlab chiqarishni kengaytirish, uning samaradorligini takomillashtirish borasidagi ko‘pgina iqtisodiy tashabbuslarga yo‘l bermaydi. Hatto, yer g‘oyat mo‘l bo‘lgan joylarda ham ibtidoiy texnikani (omoch, sixmola, ho‘kiz, qo‘tos, eshak) ishlatalish yoki inson kuchidan foydalanish natijasida oddiy bir oila ishlatadigan yer miqdori 5-8 hektar bilan cheklanadi. Amalda esa ko‘pgina mamlakatlarda bu miqdor 1-3 foektardan iboratdir.

Ana shu yer parchasi bevosita (fermada iste’mol qilish bilan) va bilvosita (shaharliklar havda fermada ishlamaydigan iste’molchilarga oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish bilan) gektar boshiga odatda 10-15 kishini boqadi. Shunga ko‘ra, qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, har gektar yerdan olinadigan sholi, bug‘doy, makkajo‘xori, soyadukkaklilar, tariq va hokazolar hosilini ko‘tarish borasidagi sa’y-xarakatlar xrzir ham, bundan keyin ham taraqqiyotning ustuvor maqsadi bo‘lib qoladi.

Eksportga qaramlik

Sustroq rivojlangan mamlakatlarning iqtisodi aksariyat hollarda birlamchi xom ashylarni ishlab chiqarishga qaratilgan bo‘lib, ikkilamchi va uchlamchi tarmoqlar keyingi o‘rinda turadi. Ana shu birlamchi xom ashyo mollar ularning boshqa mamlakatlarga qiladigan eksportining asosini tashkil etadi. Masalan, 1995-2001 yillarda "uchinchi dunyo"ga mansub bo‘lgan barcha mamlakatlarda birlamchi xom ashylar butun eksportning 65 foizini tashkil etgan. Boy neft zaxiralariiga, qimmat-baho ma’dan boyliklarga ega bo‘lgan mamlakatlar, sanoat mollarini eksport qilishda yetakchi mavqega ega bo‘lgan rivojlanayotgan davlatlar bu hisobga kirmaydi. Sustroq rivojlangan mamlakatlar eksportining asosini esa oziq-ovqat mahsulotlari, nooziq-ovqat o‘simliklar (nonfood cash crops) va xom ashylar tashkil etadi. Masalan, "sub-Saharan Africa"da birlamchi moddalar umumiy eksportdan olinadigan daromadlarning 94 foizini tashkil qildi.

Rivojlangan mamlakatlarning ko‘pchiligidagi taraqqiyotga oid birlamchi darajali loyihalarni moliyalashtirish uchun mahalliy jamg‘armalarga qo‘sishimcha chet el valutasiga ehtiyoj kuchaymoqda.

Ayni paytda chet el investitsiyalari bilan chet el yordami xorijiy valuta manbaidir. Xom ashyo mollari eksporti rivojlanayotgan mamlakatlar xazinasiga bir yilda tushadigan chet el valutasining 60-70%gacha bo‘ladigan salmog‘ini tashkil etadi. Afsuski, qarzga botgan ko‘pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda 80-yillarda eksport yo‘li bilan topilgan chet el valutasining aksariyat qismi oldinroq olingan qarzlarga foizlar to‘lashga sarflandi.

Bu mamlakatlarda keyingi bir necha yil mobaynida amalda kapitallarning xalqaro harakatida salbiy qoldiq kuzatilmokda, ya’ni bu mamlakatlarga kelib tushgan chet el valutasi miqdoriga nisbatan bu yerdan chiqib ketayotgan valuta mikdori ko‘proq bo‘lmokda.

Garchi ko‘pgina rivojlanayotgan mamlakatlar uchun eksport muhim omil hisoblansada, "uchinchi dunyo"ga mansub mamlakatlarda (neftni eksport qiluvchi mamlakatlardan tashqari) eksportning o‘sish darajasi rivojlangan mamlakatlardagi shu ko‘rsatkich bilan tenglasha olmaydi. Buning oqibati o‘laroq, rivojlanayotgan mamlakatlarning ko‘pchiligi eng qulay kelgan yillarda ham umumjahon savdosidagi salmog‘i nuqtai nazaridan rivojlangan mamlakatlarga nisbatan o‘z mavqelarini qo‘ldan chiqara boshladi. Masalan, 1950-yillarda ularning bu sohadagi salmog‘i

taxminan 33% bo'lsa, 2001 yilda 27,7%ga tushib qoldi. Ayni paytda rivojlangan mamlakatlar jahon savdosidagi salmoqlarini 60%dan 69%ga olib chiqdilar (asosan o'zaro savdo hisobiga). Vaholanki, "uchinchи dunyo" mamlakatlarining o'zaro savdosi ham ortib bordi va o'zaro yalpi eksport foizi 1970-yillardagi 20 foizdan 2001 yilda 38%ga ko'tarildi, lekin buning boshqa tomoni bor: sust taraqqiy etgan mamlakatlar o'z mahsulotlarini chetga chiqarib sotishda tobora ko'proq bir-biriga qaram bo'lib qolmoqda. Ayni paytda ularning jahon savdosidagi salmog'i kamayib ketmoqda.

Demak:

1. Rivojlanayotgan mamlakatlar (avvalo Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi va Okeaniyadagi) yer yuzidagi hududlarning qariyb 3/5 hissasini tashkil etadi, jami aholining 4/5 qismi shularda istiqomat qiladi.

2. Ularning asosiy xususiyati — jahon xo'jaligi tizimidagi qaramlilik holati, ishlab chiqarish kuchlarining g'oyat sust rivojlanganligi (bu borada qishloq xo'jaligi yetakchi mavqelarga ega).

3. Buning natijasida aholi asosiy qismining turmush darajasi past bo'lib, bu narsa aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar, tibbiy xizmatlar borasida rivojlangan davlatlardan ancha orqada qolganlikda, uzlusiz to'yib ovqat yemaslikda, bolalar o'limi darajasi yuqori ekanligida va hokazolarda namoyon bo'ladi.

4. Iqtisodning sust rivojlanganligi uning ko'p darajada eksportga qaramligini keltirib chiqaradi.

SEMINAR MASHG'ULOTLARI REJASI

1. Rivojlanayotgan mamlakatlar tavsifi, qoloqligi, qaramliligining ijtimoiy, iqtisodiy va tarixiy sabablari.
2. Ishlab chiqarish samaradorligining past darajada bo'lishi: iqtisodiy va noiqtisodiy sabablar.
3. Yuqori darajadagi ishsizlik, ish bilan to'la band bo'lmashlik hollariga sabab bo'luvchi omillar, ularning xususiyatlari.
4. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodida qishloq xo'jaligining tutgan o'rni.
5. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodining xalqaro munosabatlardagi qaramlilik va zaiflik holatlarining sabablari, ularni bartaraf etishning taxminiyo yo'llari.

ADABIYOTLAR

1. Авдокушин Е.Ф. Международные экономические отношения. Учебное пособие. М., ИВЦ "Маркетинг", 1998.
2. Ломакин В.К. Мировая экономика. М., 1998
3. Раджабова З.К. Мировая экономика. М., ИНФРА-М, 2004.
4. Мировая экономика Экономика зарубежных стран. Учебник. М., 2001.
5. Доклад о человеческом развитии за 1998 г. Нью-Йорк, Оксфорд юниверсити пресс, 1998.
6. Эльянов А. Глобализация и расслоение развивающихся стран. // МЭ и МО, 2000. №6.
7. UNCTAD. Trade and Development Report, 1998, New York and Geneva, 1998, p. 7 (Table 3).
8. Mishael P. Todor. Economic Development in the third World, New York, 1998.

9-jadval

Inson omili ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	Sust rivojlangan mamlakatlar	Barcha rivojlanayotgan mamlakatlar	Sharqiy Yevropa va MDH mamlakatlari	Sanoati rivojlangan mamlakatlar	Dunyo bo‘yicha
1. O‘rtacha umr ko‘rish ehtimoli (yil hisobida)	59	64	69	78	66
2. Katta yoshdagagi aholining savodxonlik darajasi (foiz hisobida)	49,2 (boshlang‘ich ta’lim)	70,4 (boshlang‘ich ta’lim)	98,5	98,6	77,6
3. Ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulot (AQSH dollari hisobida, mlrd.)	100	5518	1098	24323	30876
4. Yalpi ichki mahsulotning aholi jon boshiga to‘g‘ri kelishi (AQSH dollari hisobida)					
1970 y.	245	330	-	7097	1951
1980 y.	272	474	-	9344	2660
1990 y.	257	685	-	11109	3116
1995 y.	254	736	2411	12310	3298
2000 y.	420	1240	2160	26440	5020
5. Kaloriyalarni iste’mol qilishda 1 yillik miqdor (rivojlangan mamlakatga nisbatan, % hisobida)	67	76	-	100	-
6. Go‘daklar o‘limi koeffitsenti	77	65	26	13	60
7. Vrachlar (100000 kishi hisobiga)	5	18	354	280	122
8. Tibbiy hamshiralar (100000 kishi hisobiga)	26	85	809	780	241
9. Sog‘lijni saqlashga davlat xarajatlari salmog‘i (yalpi milliy mahsulotdagi % hisobida, 2000)	1,2	2	4	6,1	2,6
10. Ta’limga davlat xarajatlari salmog‘i (yalpi milliy mahsulotdagi % hisobida, 2000 y.)	3,2	4	5,1	5,4	4,6
11. Aholi jon boshiga kaloriya iste’mol qilishning bir yillik miqdori	2103	2572	2882	3157	2702
12. Ilmiy tadqiqot va tajribaning konstrukturlik izlanishlarida band bo‘lgan olimlar va mutaxassislar soni (1000 kishi hisobiga)	-	0,4	3,1	3,8	1,3
13. Qishloq xo‘jaligidagi band bo‘lgan ishchi kuchi salmog‘i					
1970 y.	85	72	29	18	56
2000 y.	76	61	19	4	49
14. Sanoatda band bo‘lgan ishchi kuchi salmog‘i:					
1970 y.	59	12	38	38	19
2000 y.	-	16	39	33	20
15. Xizmatlar sohasida band					

bo‘lgan ishchi kuchi salmog‘i: 1970 y. 2000 y.	10 15	17 23	34 42	45 57	25 31
16. Tashqi qarzlar (mlrd. dollarda; yalpi milliy mahsulot % ga ko‘ra)	572,113	2572,641	486,30	-	-

Manba: Доклад о человеческом развитии за 2000 г. Нью-Ёрк, Оксфорд юниверситети пресс-табл. 1, 5, 7, 8, 9, 12, 13, 14 15, 20, 25, 26 WDI 2001.

10-jadval

Yalpi ichki mahsulot strukturasi (2000 y.)

Jami	Qishloq xo‘jaligi	Sanoat (%)	Xizmatlar sohasi (%)
Shimoliy Amerika	2	26	72
AQSH	2	26	72
Yaponiya	2	38	60
Shvetsiya	2	32	66
Birlashgan Qirollik	2	32	66
Sharqiy Yevropa va MDH mamlakatlari	10	37	52
Yevropa Ittifoqi	3	-	67

2-BOB RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR VA JAHHON XO‘JALIGI: INTEGRATSİYANING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Avvalo dunyodagi ilg‘or sanoat markazlari bilan savdo-iqtisodiy va bo‘lak aloqalarni kengaytirish orqali xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimiga tobora kengroq qo‘shilish (intefatsiya) masalasi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun dolzarbdir. Bu munosabatlar tarixi bir necha yuz yilliklardan iborat. Dengiz kemachiligining rivojlanishi natijasida Yevropa mamlakatlari o‘zлari uchun Osiyo, Afrika, Amerika va boshqa qit’alarni kashf qildilarki, bular ularning tarixiy rivojida muhim ahmiyat kasb etdi. Biroq, bu o‘zaro ta’sirni oshirish, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar aloqadorligini kuchaytirish jarayoni jahon iqtisodi evolutsiyasiga xos bo‘lgan xususiyat va an’analarga munosib ravishda sekin-astalik bilan amalga oshdi.

Rivojlanayotgai mamlakatlarning xalqaro mehnat taqsimotidagi roli evolutsiyasining bosqichlari

1. Rivojlanayotgan mamlakatlar mustamlakachilik davrida va mustaqillikka erishishning dastlabki bosqichlarida avvalo xom ashyo manbai, tijorat bozori hamda kapitalni serdaromad sohalarga sarflash mumkin bo‘lgan o‘lka sifatida rag‘bat uyg‘otdi. Ularning eksporti cheklangan xom ashyolar bilan kifoyalanar, importi esa ularning oddiygina ehtiyojlarini ta’minlovchi iste’mol mollaridan iborat edi.

Eksportga xizmat qiladigan sanoat ishlab chiqarishidagi ayrim korxonalarining bu boradagi ahamiyata unchalik katta bo‘lmasligi.

2. 1950-yillarning ikkinchi yarmi va 60-yillarning boshlarida rivojlanayotgan

mamlakatlarning jahon xo‘jalik munosabatlaridagi ishtirokida yangi tizimga o‘tish jarayoni ro‘y berdi va bu hol 80-yillarning boshlarigacha davom etdi. Bunga sabab fan-texnika taraqqiyoti va xalqaro kapitalistik xo‘jalikning obyektiv ravishda yuzaga kelgan yangi ehtiyojlaridir.

Bu bosqichning o‘ziga xos xususiyatlari:

Birinchidan, chetga chiqariladigan xom ashyo bilan oziq-ovqatlar miqdori nisbatan kamayganidan so‘ng quyidagi holatlar ro‘y berdi:

- Eksportdagи xilma-xillik (marketingning bir turi) va xom ashyo bo‘yicha ixtisoslashishga qisman qaytish;

- neft eksportchilar erishgan yutuqlar natijasida konyukturada xomashyo ishlab chiqaruvchilar foydasiga bo‘lgan o‘zgarishlar barqaror va OPEKka o‘xshash xalqaro xom ashyo eksportchilar tashkilotlari buning garovidir, degan umidlar paydo bo‘ldi.

Ikkinchidan, quyidagilar hisobiga sanoatlashtirish jarayoni boshlandi:

- Import o‘rnini bosadigan sanoatni rivojlantirish;
- xalqaro kapitalistik xo‘jalik markazlaridagi ko‘p mehnat talab qiluvchi ishlab chiqarishlar shu mamlakatlarga olib o‘tildiki, bu narsa ko‘p hollarda arzon ishchi kuchi va h.k. afzalliliklarga ega bo‘lgan eksport sanoatini yuzaga keltirdi.

Buning natijasida jahon bozorida yangi industrial mamlakatlarning yangi avlodlari faoliyat ko‘rsata boshladi.

Uchiichidan, yuqori darajada rivojlangan va neft qazib chiqaruvchi mamlakatlarning ishchi kuchi yetishmaydigan mintaqalariga oshkora, yashirincha ravishda past malakali ishchi kuchlarining ko‘p eksport qilinishi "uchinchi dunyo" mamlakatlarida ishsizlik, to‘lov balansidagi taqchillik singari qator muammolarni hal etishda ma’lum darajada o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.

Turtinchidan, dastlab davlat yordami, imtiyozli kreditlar shaklida, 70-yillardan boshlab esa qarz shaklida tobora ko‘proq chetdan kelib turgan mablag‘lar vaziyatga muhim darajada ta’sir qildi. Chetdan kelib turgan bu mablag‘lar ko‘pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda jamg‘armaning muhim qismini molchalash, o‘sib borayotgan iste’molga pul ajratish imkonini berdi.

3. Biroq, 80-yillarda ancha umidbaxsh bo‘lib tuyulgan bu vaziyat inqirozga yuz tuta boshladi. Umumjahon iqtisodiga ta’sir ko‘rsatgan tub o‘zgarishlar natijasida o‘sish sur’atlari keskin kamayib ketdi (1980-1986 yillarda 15%gacha).

Xom ashyo yetishtirishdagi ixtisoslashuv ojiz qalqon bo‘lib chiqdi, "antikartellar"ga bo‘lgan ishonch barbod bo‘ldi. Yetakchi kapitalistik davlatlarning iqtisodiyoti neft bilan bog‘liq bo‘lgan, shunga o‘xshash boshqa tangliklar paytida yuqori darajada omilkorlik ko‘rsatdi.

Ana shu parokandaliklar iqtisodiy taraqqiyotda energetikani tejash bosqichiga o‘tish jarayonini tezlashtirdi.

"Uchinchi dunyo" mamlakatlarining qayd etilgan tanglikdan aldingi taraqqiyot tajribasi xulosasi:

- Xom ashyo sohasidagi ixtisoslashuv o‘zining harakatlantiruvchi iqtisodiy vazifalarini faqat vaqtincha va qisman, shunda ham kichik va tabiiy boyliklari serob bo‘lgan mamlakatlardagina samarali bo‘lishi mumkin;

- markazlardagi ishlab chiqarishlarni ko‘chirib kelish jarayoni iqtisodiy-ijtimoiy sabablarga ko‘ra obyektiv ravishda cheklangan bo‘ladi, rivojlanayotgan mamlakatlarning sanoat eksporti esa qo‘srimcha soliqlar va boshqa to‘sikdardan ko‘ra ko‘proq boshqa jihatlar: jumladan, rivojlangan mamlakatlarda mahsulot ishlab chiqarishda ma’dan ishlatish kamayganligi, to‘qimachilik, yengil sanoatning boshqa tarmoqlari robotlashtirilganligi oqibatida talab ozayib borayotganligi yoki ular G‘arbdagi bozor o‘lchovlariga javob bermayotganligi sababli (sifati, yetkazib berish shartlari va aniq muddatlari, tannarxi nuqtai nazaridan) kasod bo‘layotganligi oqibatida tobora qiyinlashib bordi;

- qarzdorlik vaziyati keskin yomonlashdi.

Bu ko‘pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda jamg‘arma miqdorining kamayishiga, sanoatni yangi texnika bilan quollantirishdagi qiyinchiliklarga, aholining eng qashshoq qatlamlari iste’molini davlat tomonidan molchalash imkoniyatlarining cheklanishiga, umuman,

iqtisodiy vaziyatning yomonlashuviga olib keldi.

Rivojlanayotgan mamlakatlardagi moliyaviy mablag' larning chetdan kelishidan ko'ra, chetga chiqishi ko'paydi. Juda katta miqdordagi qarzlar (1 trln., 300 mln dollardan ko'proq) rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiga yomon ta'sir qildi.

Xomashyo va tayyor sanoat mahsulotlarini eksport qiluvchi mamlakatlar uchun 80-yillardagi konyunktura o'zgarishlaridan kelib chiqadigan asosiy saboq, jahon mehnat taqsimotidagi ishtiroki tufayli yuzaga keluvchi ustunliklardan, arzon ishchi kuchi va xom ashyo bilan bog'liq bo'lган hamda o'z iqtisodini doimo qayta qurish zaruriyatidan xalos etadigan ustunliklardan uzoq vaqtgacha bemalol foydalanishga imkon beruvchi qulayliklar jahon xo'jaligida yo'qolib boryapti.

Boshqacha qilib aytganda, "uchinchi dunyo" mamlakatlarining ko'pchiligi uchun (aksariyati uchun esa kelajakda) davr shuni taqozo etadi: xo'jalikning loaqlar ayrim sohalarini jahon ishlab chiqarish jarayoniga tutashtirish jahon andozalariga javob beradigan samarador ishlab chiqarishlarni yuzaga keltirish, jahon mehnat taqsimotida qatnashuvning samarali harakatchan shakllarini izlab topish. Bu yo'l hozir amalda mavjud bo'lган jahon bozorlaridagi raqobatchilarni shunchaki siqib chiqarishnigina emas, balki, bundan tashqari xizmat bozorlarini ham yuzaga keltirishda qatnashuvni nazarda tutadi.

Fan-texnika taraqqiyotining hozirgi darajasi va rivojlanayotgan mamlakatlariing jahon mehnat taqsimotida shakllangan an'anaviy ustunliklarining o'zgarishi

Xalqaro mehnat taqsimotida uzoq vaqt rivojlanayotgan mamlakatlarning asosiy ustunligi, ayni paytda ustuvor omillaridan biri nisbatan qimmat bo'lмаган boy tabiiy boyliklar va arzon ishchi kuchidan iborat edi.

Ana shu ikki omil eksport salohiyatini ushlab turishga imkon berdi. Biroq, ana shu ixtisoslashtirish bilan bog'liq bo'lган yangi texnologiyalarini o'zlashtirishdagi qoloqlik, raqobatchiliqdagi sustkashlik aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlarning 70-yillarda jahon bozoridan siqib chiqarilishiga sabab bo'ldi.

Chunonchi:

1. Rivojlangan davlatlarning ishlab chiqarish, iste'molida yuksak texnologiyaga asoslangan mahsulotlar va xizmatlarga moyilligi birinchi navbatda rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'p resurs talab etuvchi mahsulotlariga bo'lган ehtiyojni nisbatan kamaytiradi:

- a) Rivojlangan davlatlarning yalpi iste'molida bu mahsulot salmog'i kamayishi orqali;
- b) bu mamlakatlarda axborot texnologiyalaridan tobora kengroq foydalanish hisobiga tayyor mahsulot birligiga sarflanadigan mehnat va xom ashyo xarajatlari kamayishi sababli;
- v) yangi turdag'i konstruktiv material va h.k.larni ishlab chiqarish jadal o'sib borishi tufayli.

2. G'arbda kam mehnat talab qiladigan elektron texnologiyalar ustun darajada tarqalib borayotganligi natijasida mehnat unumdarligining keskin oshishi past ish haqining ilgarigi ahamiyati ta'sirini kamaytirib, ba'zan esa uni deyarli yo'qqa chiqarmoqda. Masalan, o'ta katta integral sxemalardagi narx-navoda ish haqining salmog'i 30%dan 5,4%ga tushib ketdi, ya'ni qariyb 6 barobar kamaydi.

3. Rivojlanayotgan mamlakatlarning xalqaro mehnat taqsimotidagi nisbatan ustunliklari axborot texnologiyalarining tarqalishi bilan g'oyat murakkab darajada bog'langan raqobatbardoshlik o'lchovlari o'zgarib borayotganligi sababli ham anchagina mavqeini yo'qotmoqda. Mahsulotning aynanlik, ishonchlik kabi sifat belgilari narx ahamiyatini ikkinchi darajaga surib, tobora ko'proq ustun mavqega ega bo'lmoqda.

Masalan, elektron sanoatini olib ko'raylik. Hatto ko'p mehnat talab etuvchi ish jarayonlarini chekka joylarga olib chiqish sohasida eng ko'p jonbozlik ko'rsatgan AQSH transmilliy korporatsiyalari faoliyatida ham bu jarayon keng quloch yoygan 1970-yillardayoq rivojlanayotgan mamlakatlarda yarim o'tkazgichlar ishlab chiqarishni nisbatan kamaytirishga

intilish sezilgan edi.

Integral sxemalarda bo'lganidek, 1974-78 yillarda AQSH hududlaridan tashqarida qo'shilgan qiymat salmog'i qariyb 1/3 hissaga kamaydi (57%dan 39%ga tushib ketdi). Yaponiyada ham ahvol shunday. Yaponiya mikroprotsessor va avtomatik tizimlarni o'zlashtirishda yetakchi mavqelarni egallab olg'ach, ko'p mehnat talab qiluvchi jarayonlarni rivojlanayotgan mamlakatlarga ko'chirish borasida AQSHga nisbatan kamroq sa'y-harakat ko'rsatdi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning sanoat eksportini yuksaltirishda yetakchi ahamiyatga ega bo'lgan to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasida ham shu ahvolni ko'rish mumkin. Bu tarmoqdagi elektronlashtirish jarayoni, garchi, takomillashishdan hali ancha uzoq bo'lsa-da, elektron sanoatiga o'xshab bu sohada ham mehnat unumdarligining keskin ko'tarilishi natijasida rivojlanayotgan mamlakatlarning nisbatan arzon ishchi kuchi hisobiga raqobatchilikda erishgan ustunliklarini sezilarli darajada yo'qqa chiqaradi, deb bemalol taxmin qilsa bo'ladi.

4. Bir-biri bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarishlar va texnologik operatsiyalarni oldingidek ajratib ishlatish, ixtisoslashtirish o'rniga ularni birlashtirishga moyillik - rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi mehnat taqsimotini qayta ko'rib chiqishga sezilarli ta'sir qiladi.

5. Ko'p sonli mexanik komponentlar o'rniga, aksariyat hollarda butun tizimlardan iborat bo'lgan elektron moslamalarni qo'llash natijasida ilgari kam haq oluvchi ishchi kuchidan foydalanilgan ishlab chiqarnish jarayonlari (masalan, yig'uv) avtomatik ish usuliga o'tkazildi. Oqibatda quyi va kam malakali ishchi kuchi emas, balki bir qator an'anaviy kasblarning yuqori malakali mutaxassislari ham bundan zahmat chekdi.

6. G'arbda ko'p smenali ish sharoitida, inson salomatligi uchun zararli jarayonlarda elektron texnologiyalardan foydalanish ana shu ishlab chiqarishlarni rivojlanayotgan mamlakatlarga ko'chirish ko'lagini ham cheklamoqda.

7. Shunday mehnat taqsimoti yo'lidagi boshqa bir g'ov sanoatning qator tarmoqlarida o'zaro bog'langan ishlab chiqarish, savdo, transport va boshqa xizmat jarayonlarini sinxronlashtirish hisobiga moddiy zaxiralarni (ikki smenali ish ehtiyojlarigacha) ancha kamaytirishga bo'lgan moyillikdan iboratdir, chunki sinxronlashtirish ishlab chiqarishni ixchamroq qilib, ayni paytda uni iste'molchi markazlarga yaqinroq joylashtirishni taqozo qiladi.

Markaz bilan chekka joylar xo'jaligi o'rtasidagi texnologik tafovutlar amalda yanada kuchayishi mumkin. Biroq G'arb sanoatida avtomatlashtirilgan texnologik tizimlarni o'zlashtirish jarayoni ham takomildan ancha uzokda turibdi. Buning dalili: mahsulot birligida jonli mehnat sarf-xarajatlari hamon yuqoriligidir. Masalan, AQSHda uzoq muddat foydalanishga mo'ljallangan buyumlarda bu xarajatlar ishlab chiqarish sarflarining 40%ini, qisqa muddatli buyumlarda 27-32%ni, o'rta muddatlilarida esa 15-19%ni tashkil etadi.

Lekin aytilganlardan tushkun xulosalar chiqmasligi lozim. Hozirga kelib, rivojlanayotgan mamlakatlarning kelajagi haqidagi tushkunlik kayfiyatlarini vaziyatga to'g'ri baho berish kayfiyati bilan almashmoqda. Natijada yangi texnologiyalarni o'zlashtirish yo'lidagi g'ovlarga yetarlicha baho berilmaganligi ayni paytda bu texnologiyalarning muayyan sektorlardagi bevosita natijalari bo'rttirilganligi ma'lum bo'ldi. Ishlab chiqarish kuchlarining qayta ko'chirilishi borasida aytarli o'zgarishlar ko'zga tashlanmaydi. Lekin rivojlanayotgan mamlakatlar jahon iqtisodiyotining hozirgi yangi tuzilmasiga qo'shilib ketishi zarur.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning mehnat taqsimotiga qo'shiliishga halal beruvchi omillar

Rivojlanayotgan mamlakatlarning yangi bosqichga o'tgan jahon mehnat taqsimotida ishtirok etishi faqat xohish-istak bilangina amalga oshmaydi. Bu ishtirok ularning iqtisodi fan-texnika taraqqiyotidagi mavjud yutuqlardan foydalangan holda munosib ravishda rivojlangan bo'lishini taqozo etadi. Lekin ushbu mamlakatlarda bu jarayon endigina boshlanmoqda. Buning ustiga ularning ko'pchiligi ijtimoiy-iqtisodiy va fan-texnika rivojida g'oyat orqada qolib

ketganligi fan-texnika yangiliklaridan foydalanishga jiddiy xalal beradi. Bu yangiliklarni o‘zlashtirish masalasi quyidagi qiyinchiliklar bilan bog‘liq:

- Infrastrukturalar, sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalari kam rivojlanganligi;
- axborot bilan ta’minlanishda o‘ta past darajada ekanligi;
- eng yangi texnologiyalarning talablari xulq-atvor va tafakkur sohalarida yuzaga kelgan an’anaviy andozalarga mos kelmasligi.

Fan-texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichida ishlab chiqarish oldiga shunday yangi, yanada og‘irroq talablar qo‘yilmoqdaki, ishlab chiqarish kuchlarining sifat darajasi g‘oyat past bo‘lgan sharoitda bularni bajarish mushkul.

1. Bu narsa avvalo mehnat resurslarining sifat belgilari (intizom, malaka, mehnatga munosabat), ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish, uni fan-texnika yutuqlari bilan ta’minlashga bog‘liq.

2. Eng yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish yordamchi ishlab chiqarishlarning, har xil xizmat turlarini, ishlab chiqarish, bozor, moliya va axborot infrastrukturalari (transport, ombor xo‘jaligi, elektron-hisoblash mashinalariga asoslangan axborot tizimlari, zamonaviy aloqa turlari va hokazolar)ni rivojlantirishga ajratiladigan mablag‘larni keskin ko‘paytirishni nazarda tutadi.

3. Iqtisodni elektronlashtirish yo‘lida rivojlanayotgan mamlakatlarning ichki bozori tor ekanligidan kelib chiqadigan g‘ovlar bartaraf etilgan emas.

4. Axborot tizimini rivojlantirish uchun talab etiladigan ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstrukturlik izlanishlar xarajatlari (NIOKR) darajasi g‘oyat baland ekanligi tufayli bunga imkon yo‘q. Masalan, 2000-yillarning boshlarida yarim o‘tkazgichlarni ishlab chiqarishda NIOKRga sarflangan mablag‘lar sotilgan mahsulotlar qiyamatining o‘rtacha 10%ini ushu elektron texnologiyalarni iste’molchisi hisoblangan katta ishlovchi sanoat sohalarida esa 2% ni tashkil etgan

5. Fan-texnika taraqqiyoti tufayli ishlab chiqarish kuchlarida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarning eng muhim xususiyatlari bilan biri - taraqqiyotning shunday bir shakliga erishildiki, unda sohalar, texnologik tizimlardagi nisbatan barqarorlik ularni uzlusiz qayta qurish jarayonlari bilan almashib turadi.

6. Sanoat mahsulotlari va xizmat turlarining jadal sur’atda yangilanib turishi rivojlanayotgan mamlakatlar ishlab chiqarishida eng maqbul bo‘lgan mahsulot turlariga talabni cheklab qo‘yadi.

7. Texnologiyalarning tez o‘zgarib turishidagi o‘ta jadal sur’atlar, yangi mahsulotlar va texnologiyalarning umri qisqarib borayotganligi yetakchi davlatlarni "quvib yetish" muammosini qiyinlashtiradi.

8. Yangi texnologiyalarni ishlab chiqaruvchilar bu boradagi monopoliyani saqlab qolishga bo‘lgan tabiiy intilishlari natijasida qiyinchiliklar yana ham ko‘payadi.

9. Fan-texnika taraqqiyotining muhim qismi bo‘lmish iqtisodni axborotlashtirish sohasining ahamiyati xususida gap ketarkan, garchi axborot texnologiyasidan taraqqiyot maqsadida foydalanilsada, axborotlashtirish taraqqiyot omili emas, balki uning natijasi hamdir. Boshqacha qilib aytganda, iqtisodda, yoxud hech bo‘lmasa uning ayrim sohalarida qandaydir darajaga erishilgandan keyingina undan samarali foydalanish mumkin. Vaholanki, an’anaviy texnologiyalarga suyangan holda bunday darajaga erishish yo‘lidagi intilishlar endilikda unchalik samara bermay qo‘ydi, negaki, shu asosda ishlab chiqarilgan mahsulotlar yangi texnologiyalar bilan ta’minlangan mahsulotlar oldida umuman raqobatbardoshlikni yo‘qotib, sotilish bozorlaridan mahrum bo‘lmoqda.

1. Sanoat mahsulotlarini eksport qilishda rivojlanayotgan mamlakatlar duch kelayotgan qiyinchiliklar hozirgi sharoitlarda xalqaro mehnat taqsimotiga faol qo'shiluv, jahon xo'jaligiga integratsiyalashish faqat sanoat mollarini chetga chiqarish bilan bog'liq emas. Bular turli an'anaviy milliy ishlab chiqarishlar, xizmat turlari va boshqalar ham bo'lishi mumkin. Xususan, ishlab chiqarish va qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlab chiqishdagi ixtisoslashuv ham shunga kiradi.

2. Jhon iqtisodi taraqqiyotidagi ko'p bosqichlilik muhim omil hisoblanadi. Chunki o'z taraqqiyotida ilgarilab ketgan ayrim mamlakatlardan bo'shab qolgan makon va sohalarni ijtimoiy-iqtisodiy, fan-texnika, texnologiyalar evolutsiyasida orqada qolgan mamlakatlar egallab oladi.

3. Xozirgi bosqichdagi kapitalistik ishlab chiqarishning tabiatidagi o'zgarishlar avvalo mayda va o'rta kompaniyalarning ahamiyati kuchayganligida, buning natijasida zamonaviy ishlab chiqarishni tashkil etish uchun zarur bo'lgan kapitalning miqdor darajasi pasayib borayotganligida namoyon bo'lmoqda.

4. Modomiki, jahon hamjamiyati bora-bora harbiy-siyosiy va ekologik falokatlarga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan qashshoqlik bilan o'ta darajadagi qoloqlikn bartaraf etishdan g'oyat manfaatdor ekan, u qoloq mamlakatlarning jahon xo'jalik aloqalari tizimiga yanada kengroq, chuqurroq qo'shiluvini ta'minlash, ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojini jadallashtirish yo'lida ko'proq sa'y-harakat ko'rsatishga majburdir.

5. Ilg'or kapitalistik davlatlar ozodlikka erishgan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojidan ko'zlagan maqsad yolg'iz tinchlikni saqlash va ekologiya qayg'usidan iborat emas. Bu yerda dastlab markazning chekka o'lkalarga iqtisodiy jihatdan qaram ekanligini e'tiborga olish kerak. 1950-70 yillarda jahon iqtisodida, xususan, jahon kapitalistik xo'jaligida "uchinchi dunyo" mamlakatlarining ahamiyati oshib borayotganligi yaqqol sezildi. O'z navbatida rivojlangan davlatlardagi sanoat va bank korporatsiyalari "uchinchi dunyo" bilan ko'proq qiziqa boshladidi. Ularning bozorlariga, xom ashyo manbalariga, kapital joylashtirish sohalariga kirib borish uchun firmalararo va davlatlararo raqobat kuchaydi. Har ikkala omilning natijasi o'laroq, jahon kapitalistik xo'jaligi markazlarining o'zi chekka o'lkalarga ko'ttroq qaram bo'lib qoldi.

Bu dastlab industrial mamlakatlarda yalpi ichki mahsulogning o'sish sur'atlari yuqori bo'lganligi, rivojlanayotgan mamlakatlarda bo'lgan talab ortib borganligi, ular chetga chiqarayotgan yalpi mahsulotlarining 50-60 foizi rivojlangan davlatlar bozorlariga to'g'ri kelayotganligi bilan izohlanadi. Amerikalik mutaxassislarning taxminlariga ko'ra yaqin o'n yil ichida bu bozorlar muttasil kengayib, ancha vaqtgacha faoliyat ko'rsatib turadi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga kiruvchi mamlakatlarda 1996-2005 yillarda yalpi ichki mahsulotning o'rtacha yillik o'sishi 7-8 foiz bo'ladi, deb taxmin qilinmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun o'z mahsulotini sotishda yangi bozorlarga kirib borish imkoniyatlarining kengayishi, Urugvay raundi yakunlariga binoan, rivojlangan mamlakatlarda import g'ovlari muttasil kamayib borayotganligiga ham daxldordir.

Hozirgi paytda rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchiligi avvalo iqtisod va eksport soha tizimlarini takomillashtirishdek o'ta muhim jarayonlarga tashqi omillar ta'sir ko'rsatishi mumkinligini e'tiborga olgan holda jahon mehnat taqsimotidagi o'rnini o'zgartirishga harakat qilmoqda.

Eksport tarmoq tizimining ahamiyatli ortib, unumli foydalanish xalqaro mehnat taqsimotida samarali qatnashuv imkonini oshiradigan muhim vositaga aylanmoqda. Ayrim mahsulot bozorlaridagi vaziyatni o'rganish, turli sohalarni tashqi savdo ko'lamiga jalb etish nechog'li foydali ekanligini hisoblab ko'rish natijasida rivojlanayotgan mamlakatlarning hukumat tashkilotlari eksportda qayta ishlash sanoati mahsulotlari salmog'ini ko'paytirish manfaatli ekan, degan xulosaga keldi. Xususan, qishloq xo'jalik mahsulotlari, ma'dan-xom ashyo eksportida qayta ishlangan mahsulotlar salmog'ini oshirish zarurligi belgilandi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon sanoat tizimidagi o'rn o'zgarib borayotganligi bilan bog'liq bo'lgan vazifa ular uchun ikki yo'nalishda: ichki ishlab chiqarish tizimlarini qayta qurish va eksportda sanoat mahsulotlari hajmini ko'paytirish sohalarida kuch-g'ayrat sarflash

lozim, degan ma'noni anglatadi.

Har ikkala yo'naliш tashqaridan, rivojlangan jahon kapitalistik xo'jaligi tomonidan bo'ladigan kuchli bir ta'sirga duchor bo'lishi mumkin.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning ichki iqtisodiy va eksport tizimi xalqaro kapitalistik xo'jalikdagi evolutsiyaning tabiatni, yo'naliшlari, jahon kapitalizmi markazlari olib borayotgan tashqi iqtisodiy strategiya bilan bevosita bog'liq. Ana shu jahon xo'jaligi markazlari o'zgarib turgan xalqaro mehnat taqsimotida qanday o'rinnegallash yo'lidagi izlanishlarini o'z navbatida ishlab chiqarishni samaradorligini ta'minlash orqali, ya'ni ayrim oqsayotgan sanoat sohalariga mablag' ajratib yordam ko'rsatish, tadbirkorlarga soliqlarda imtiyozlar berish orqali tarmoklarni ichki qayta qurish, asosiy kapitalni yangilash jarayoni bilan qo'shib olib borishga intilmokda. 1970-yillarning o'talaridan amalga oshira boshlangan bu chora-tadbirlar "yangicha homiylik" degan nom olgan.

Qoloq raqobatga bardosh berolmaydigan sohalarni - to'qimachilik, teri-poyafzal, metallurgiya, avtomobilsozlik, kemasozlik sohalarini texnik jihatdan zamonaviylashtirish "samaradorlashtirish"ning asosiy elementlaridan biri bo'ldi. Bu sohalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashdan maqsad bandlilikni saqlab qolish manfaatlaridan iboratdir (garchi bu manfaatlar milliy xo'jalik samaradorligini oshirishda to'g'anoq bo'lib turgan bo'lsa ham).

Shunday sharoitda yirik xususiy kapital uchun qoloq sohalar faoliyatini to'xtatib, ularni rivojlanayotgan mamlakatlarga ko'chirish foydaliroq edi. Rivojlanayotgan mamlakatlar bu jarayonni o'z navbatida jahon sanoat tizimini qayta qurishning boshlanishi deb baholadilar, uni iloji boricha tezlashtirishni, bu sohalarning tizimini o'zlarining milliy rivojlanish strategiyalariga moslashtirishni asosiy maqsad, deb bildilar.

Lekin rivojlangan mamlakatlarning qoloq sanoat sohalarida amalga oshirilgan keyingi zamonaviylashtirishlar ozodlikka erishgan davlatlar uchun yangi muammolarni keltirib chiqardi. Zamonaviylashtirish jarayoni davlat tomonidan mablag' bilan ta'minlanishidan, soliqdag'i imtiyozlardan foydalangan, mahsulotlarning ichki narxlari sun'iy ravishda oshirilishidan manfaatdor bo'lgan holda bu sohalar yangi texnologik asoslar (robotlashtirish, avtomatlashtirish, eng yangi buyumlarni ishlatish)ga o'tkazila boshlandi. Rivojlangan davlatlar endi importni yana ham qattiqroq cheklash yo'liga o'tib oldilar. Natijada AQSHdagi transmilliy korporatsiyalarining chet elga chiqaradigan investitsiyalarining o'sish darajasi pasayib ketdi. Masalan, bu holni qora metallurgiyada ko'rish mumkin, ayni paytda esa ichki kapital investitsiyalari qo'paydi (birgina 2001 yilda 22 foizga oshdi). Bular avtomatlashtirishga, ko'p energiya-mehnat talab qiluvchi jarayonlarni kamaytirishga mo'ljallandi.

AQSH, Yaponiya, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida avtomobil sanoatini zamonaviylashtirish ancha keng ko'lamda olib borildi, bu narsa ko'p mehnat talab qiluvchi jarayonlarni kamaytirishga, yig'uv ishlab chiqarishlarni chekka o'lkalarga olib chiqish zaruratinini ozaytirishga imkon berdi.

Xalqaro kapitalistik xo'jalik markazlariga qarashli mamlakatlarning ishlab chiqarish tizimida, tashqi savdodagi ixtisoslashuvida amalga oshirilgan qayta qurish ikkala guruh mamlakatlari uchun ma'lum oqibatlarga sabab bo'ldi.

Birinchidan, ishlab chiqarishning ichki tarmoqlari o'zgarishi va uni texnologik yangilanishi:

- 1) rivojlanayotgan mamlakatlardan keltiriladigan xom ashyo iste'molining yanada kamayishiga;
- 2) yosh davlatlarning sanoat mollarini eksport qilish imkoniyatlari cheklanib qolishiga;
- 3) tadbirkorlik kapitalining ba'zi qismini rivojlangan mamlakatlardan rivojlanayotgan mamlakatlarga oqib kelishini susayishiga olib keladi.

Ikkinchidan, rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda ishlab chiqarishning davlat tomonidan rag'batlantirilishi natijasida ichki talab jadalroq o'sib boradi (bu hol boshqa sabablar qatori to'la bo'lmanган bandlilik bilan izohlanadi), buning ustiga inflatsiyaga qarshi kurash, pul miqdorini ko'paytirmaslik, budjetdag'i taqchilliklarni kamaytirish davlat tomonidan maxsus cheklab turiladi.

Boshqacha qilib aytganda, rivojlangan kapitalistik mamlakatlar mahsulotlarini tobora ko‘proq chet elga chiqarib sotishga, ayni paytda xalqaro miqyosda yangi iktisoslash-tiruvga yo‘l bermaslik zarurati bilan to‘qnashadilar.

Rivojlanayotgan mamlakatlardan qaramlilik miqyoslari kengayganligini e’tirof etish, rivojlangan mamlakatlar to‘qigan “o‘zaro qaramlilik” aqidasining muhim qismidir. U G‘arbning birgalikda olib borayotgan harakat dasturini tobora ko‘proq belgilaydi. Faqat 70-yillarning o‘zidagina rivojlangan kapitalistik mamlakatlarning rivojlanayotgan mamlakatlarga sanoat mollari eksportidagi salmog‘i 31 foizdan 40 foizga ko‘tarildi va hozir ham ahvol shunday.

“O‘zaro qaramlilik” aqidasi transmilliy korporatsiyalar manfaatlardagi evolyudiyani ham nazarda tutadi.

Transmilliy korporatsiyalarning ozodlikka erishgan mamlakatlardagi qayta ishslash sanoatini rivojlanirishga bo‘lgan munosabati, ularning chekka o‘lkalar (periferiya) tashqi iqtisodiy aloqalaridagi ahamiyati uch asosiy guruhga kiruvchi omillar bilan belgilanadi.

Xalqaro kapitalistik xo‘jalik markazlaridagi texnologik o‘zgarishlar birinchi guruhga oid bo‘lib, ular davlat subsidiyalari bilan birgalikda ishlab chiqarish xarajatlarining kamayishi, ayni paytda mehnat unumdorligining oshishiga, ya’ni ishlab chiqarish samaradorligining ko‘tarilishiga olib keladi. Bu rivojlanayotgan mamlakatlarning yaqindagina samaradorligi nisbatan yuqoriqo bo‘lib turgan sohalariga ham taalluqlidir.

Unumdorlikni oshirish jarayonida xarajatlar tizimining o‘zgarishi mehnatni tejaydigan usullar joriy etilishini rag‘batlantiradi, texnologik yangiliklar esa ishlab chiqarishni mahsulot sotiladigan bozorga yaqinroq joylashtirishni taqozo qiladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar qayta ishslash sahasidagi AQSH investitsiyalari 1982 yilgacha “uydagi” dan ko‘ra ko‘proq foyda keltirgan bo‘lsa, 1982 yildan boshlab buning aksini ko‘rish mumkin. Natijada rivojlanayotgan mamlakatlar sanoatining boshqa tarmoqlariga joylashtirilgan bevosita investitsiyalarning o‘sishida sustkashlik sezildi.

Mahsulotni sotish imkoniyatlari ikkinchi guruhga kiradi: Transmilliy korporatsiyalar uchun homiylik bilan himoyalangan G‘arb bozorlarida ishlab chiqarishni tashkil etish rivojlanayogan mamlakatlarda eksportga mo‘ljallangan ishlab chiqarishni tashkil etishdan ko‘ra foydaliroq bo‘ldi.

Yuz bergen ana shu o‘zgarishlar transmilliy korporatsiyalar tashqi siyosatini anchagina qayta qurishga sababdir. Rivojlanayottan mamlakatlarga kelayotgan bevosita investitsiyalar darajasi pasaymoqda. 1970-yillarda o‘rtacha 16,4 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 1982-1983 yillarda 11,8 foizga va oxirgi yillarda yanada pasaydi.

Lekin shuni hisobga olish zarurki, aksariyat bevosita investitsiyalar kam mablag‘ talab qiladigan xizmat ko‘rsatish sohalariga joylashtiriladi, shunda ham ishtirokning noaksiyadorlik shakli foydaliroq hisoblanadi.

Shunga ko‘ra rivojlanayotgan mamlakatlarga kelayotgan kapitalning sur’at darajasi yoki salmog‘ida ro‘y berayotgan pasayishlar transmilliy korporadiyalarning okean ortidagi bozorlarga qiziqishi kamayganidan ko‘ra, ko‘proq o‘sha joylarga kirib borishning yangi-yangi vositalarini qidirayotganligidan dalolat beradi.

Bugungi kunda, transmilliy korporatsiyalar uchun bu mamlakatlarda muhim ishlab chiqarishlarni tashkil etishdan ko‘ra, muhim savdolarni amalga oshirish ahamiyatliroqdir.

Shunday qilib, transmilliy korporatsiyalar rivojlanayoggan mamlakatlarda ishlab chiqarishni shakkantirishga yordam berib, ayni paytda o‘zi ham ushbu ishlab chiqarish strukturasiga moslashyapti.

Sanoat mollari jahon bozorida rivojlanayotgan mamlakatlarning tuttan o‘rni

Texnika taraqqiyoti chekka o‘lkalarning nisbatan arzon ishchi kuchi bilan bog‘liq ustunliklariga batamom putur yetkaza olmadi. Buning ustiga rivojlanayotgan mamlakatlarga yangi texnologiyalarning kirib kelishi yangi ustunliklarni yuzaga keltirdi.

Mana shunga ko'ra, turli-tuman g'ovlarga hamda obyektiv va subyektiv qiyinchiliklarga qaramay, bir qator chekka mamlakatlar **muqoyasadagi** an'anaviy afzalliklar va yangi qo'lga kiritilgan ustunliklardan faol foydalanganliklari tufayli o'z eksportlari fazilatlarini oshirish va diversifikatsiya qilishda anchagina yutuqlarga erishdilar.

Rivojlanayotgan mamlakatlardagi ba'zi ishlab chiqaruvchilar eng yirik jahon korporatsiyalari bian tenglashadigan darajaga yetdilar. Bularning raqobatdagi ustunliklari qisman mehnat hajmiga nisbatan kam xarajat sarflanishi bilan bog'liq. 1985 yilda Janubiy Koreya va Braziliyada avtomobil sanoatida soatbay ish haqi 1,7 AQSH dollaridan iborat bo'lga, Yaponiyada bu raqam 6, GFRda 12, AKSHda 20 dollarni tashkil etgan bo'lsa, hozirgi kunda ham bu farqlar sezilarli darajada.

Biroq, ilg'or texnologiyalarning o'zlashtirilishi, robotlashtirish, avtomatlashtirishning joriy etilishi natijasida sifat va samaradorlikka erishiluvi ham katta ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon sanoat mahsuloti va yalpi ichki mahsulotning umumiy hajmida rivojlanayotgan mamlakatlarning salmog'i 1950 yildan 2000 yilgacha ancha ko'tarildi. Bu o'sish darajasi keyingi 25 yil ichida eksportga mo'ljallangan sanoatlashtirishning afzalliklari aniq ko'rniib, uning tarafdarlari ko'paygandan keyin yuqoriga ko'tarildi.

Neft eksportidan keladigan tushumlar ikki baravardan ko'proq kamaygani (347 mlrd dollardan 137 mlrd dollargacha) tufayli 1980-1988 yillarda sanoat mahsulotlarini chetga chiqarish olis o'lkalar uchun tashqaridan keladigan mablag'larni ko'paytirishda yagona manba bo'lib qolganligi sababli bu sohada ko'tarilish yuz berdi. 1971-2001 yillarda rivojlanayotgan mamlakatlarning sanoat eksportidagi salmog'i 3,8 hissa, mashina-texnika mahsulotlari bo'yicha esa 10 baravar ko'paydi.

Mashina-texnika mahsulotlari orasida hozirgi zamon ashyolari va texnologiyasidan foydalanim ishlab chiqariladigan mahsulotlar eng ko'p muvaffaqiyatga erishdi. Birinchi navbatda 6u elektronikadir. Avtomobillar, samolyotlar, kemalar, elektr uskunalarini, ba'zi qurol-yarog' va texnik jihatdan murakkab bo'lga boshqa buyumlarni jahon bozoriga olib chiqishda sezilarli yutuqlarga erishildi.

Chunonchi, Koreya chetga chiqarayotgan avtomobillar sonini 1970 yilda 28819, 1980 yilda 123135, 2002 yilda 1218020 donaga olib chiqdi. Tayvan metallni qayta ishlashda q'llaniladigan zamnaviy asbob-uskunalar eksportida eng yuqori mavqega ega bo'ldi.

Shunisi e'tiborliki, rivojlangan davlatlarga sanoat mollarini eksport qilishda rivojlanayotgan mamlakatlar sanoatining salmog'i ortib bormoqda. Lekin sanoat mahsulotlarini eksport qilishda rivojlanayotgan mamlakatlar bir xilda qatnashayotgani yo'q.

Ayrim mamlakatlarning, bir guruh mamlakatlar va mintaqalarning sanoat mahsulotlari eksportidagi roli sekin-asta o'zgarib bormoqda. An'anaviy hisoblangan yetakchilar (Hindiston, Braziliya, Meksika va boshqalar) o'z mavqelarini boy bermoqda, ko'proq yangi kichik davlatlar keskin ravishda oldindi marralarga chiqib olmoqda.

Ayni paytda rivojlanayotgan mamlakatlardagi sanoatlashtirish jarayoni - texnologik, ijtimoiy-iqtisodiy qoloqlikni imkonli boricha jadallashtirishga, xalqaro mehnat taqsimotida faol ishtirokiga, eng serharakat va istiqbolli sohalarini o'zlashtirishlariga bog'liq.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon iqtisodiga qo'shiluvida milliy hukumatning ta'siri sezilarli. Zotan, ushbu mamlakatlarning yarim asrdan ko'proq tajribasi shuni ko'rsatadiki, ulardagi o'zgarishlarning umumiy yo'nalishi, harakatida davlat o'rnatgan tartib-qoidalar, iqtisodiy siyosat hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Bularning har ikkalasi rivojlanayotgan iqtisodlarning umumiy taraqqiyot an'analari, mavjud imkoniyatlari, ehtiyojlariga qanchalik ko'proq moslashgan bo'lsa, zamnaviylashtirish yo'lidagi olg'a siljishlar ham shunchalik ko'p samara berdi.

Shuning bilan birga, rivojlanayotgan mamlakatlarning xalqaro mehnat taqsimotidagi tajribasi shuni ko'rsatadiki, hozirgi sharoitda ularning jahon xo'jaligi aloqalaridagi an'anaviy ishtirokida ko'pincha tashqaridan ko'rinnaydigan tangliklar ro'y bermoqda.

Xulosa: jahon iqtisodi va xalqaro iqtisodiy munosabatlar evolutsiyasidagi murakkab jarayonda o'zining mustaqil o'mini izlab topish asosiy vazifadir.

SEMINAR MASHG'ULOTLARI REJASI

1. Rivojlanayotgan mamlakatlarning xalqaro mehnat taqsimotidagi roli qay tarzda va nima sababdan o‘zgarib bordi?
2. Rivojlanayotgan mamlakatlarning xalqaro mehnat taqsimotidagi an’anaviy ustunliklari o‘zgarishiga qanday sabablar (omillar) ta’sir qilmokda?
3. Rivojlanayotgan mamlakatlarning hozirgi xalqaro ms’hnat taqsimoti tizimiga qo‘siluviga xalal beruvchi assosi muammolar.
4. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodini zamonaviylashtirishning asosiy yo‘l va usullari, xalqaro meqnat taqsimotida ularning ahamiyatini oshirish.
5. Sanoat mahsulotlari xalqaro bozorida rivojlanayotgan mamlakatlarning o‘rnini va ahamiyatini.

ADABIYOTLAR

1. Арефьева Е. Международное разделение труда: Место и роль освободившихся стран.- Ж-Азия и Африка Сегодня, № 3, 1987.
2. Аркадьев Е. "Третий мир": Резервы роста.— ж. МЭ и МО, №1, 1992.
3. Басовский Л.Е. Мировая экономика. Курс лекций. М, ИНФРА-М, 2003.
4. Ломакин В.К. Мировая экономика. М., Финансы ,1998.
5. Михалев В. Развивающиеся страны структурная адаптация и приоритеты отраслевой политики.-ж. МЭ и МО. №4, 1993.
6. Раджабова З.К. Мировая экономика. М., ИНФРА-М, 2004.
7. Шейнис В. Структурные сдвиги в экономики капитализма и перспективы развивающихся стран.— ж. Азия и Африка Сегодня, № 11. 1988.
8. Шейнис В Эльянов А. Спозиций оптимизма.-ж. Азия и Африка Сегодня, № 10, 1989.
9. Эльянов А. Развивающиеся страны на рынке промышленных изделий. - ж. МЭ и МО, №5, 1992.
10. Эльянов А. Развивающиеся страны в международном разделении труда - ж. МЭ и МО,

3-BOB

RIVOJLANAYOGGAN MAMLAKATLarda IQTISODIY ISLOHOTLAR. XUSUSIYLASHTIRISH MUAMMOLARI

Rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan qiziqishning ortib borishiga sabab, ularning jahon hamjamiyatidagi mavqeい, boshqa davlatlarning va eng avvalo rivojlangan davlatlarning tarixiy rivojiga ta’siridir.

O‘z navbatida jahon iqtisodida yuz berayotgan jarayonlar ozod bo‘lgan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Va nihoyat, rivojlanayoggan davlatlar siyosiy mustaqillikka erishganlaridan so‘ng duch kelgan ko‘p muammolar sobiq ittifoq respublikalari, Markaziy Osiyoning mustaqil davlatlari oldida hozir ko‘ndalang bo‘layotgan muammolarga juda o‘xshab ketadi.

Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o‘zaro bog‘liqligining kuchayib borishi

Mustamlakachilik davri

Mustamlakalar rolining o‘zgarishi metropoliyada kapitalizm rivojlanishiga bog‘liq ekanligi (kapitalizmdan oldingi davr)dir.

- Dastlabki kapital jamg‘arish davrida mustamlakalarning ahamiyati amalda qullar,

qimmatbaho buyumlar, noyob tropik tovarlarni olib chiqib ketish bilan cheklangan.

- Yirik mashina sanoati rivojlanishi bilan xom ashyo yetkazib beruvchi manba va megropapiyadan keltirilgan mahsulotlar sotiladigan bozor sifatida ularning ahamiyati ortdi.

- Kapitalizmning imperialistik bosqichi davrida mus-tamlaka va qaram mamlakatlar moliya kapitalchining ekspluatatsiya obyektiga aylandi (ichki va tashqi savdoni monopoliyalashtirish).

Mustamlakachilikdan keyingi davr

Ozod bo‘lgan daklatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari: Siyosat:

- Siyosatning iqtisoddan ustuvorligi;
- ijtimoiy rivojlanishni tezlashtirishga urinish -sotsialistik yo‘nalishlarning ommalashuvi, iqtisodda davlat rolining ustuvorligi.

Iqtisod:

Ilgarigidek rivojlangan mamlakatlar uchun xom ashyo va energiya resurslari manbalari.

XX asr oxirida jahon eksportida rivojlanayotgan mamlakatlarning boksitlar bo‘yicha ulushi 71%, temir rudasi bo‘yicha 49,7%, neft 83,5%, marganes rudasi 49,3%, fosfatlar 79,9%, qalay 78,2%, mis 53% va h.k.ni tashkil etdi.

G‘arb-Sharq - arzon xom ashyoni ko‘zlash

- 1970-yillardagi energiya va xomashyo inqirozi. Rivojlangan mamlakatlarning javobi - energiya va materiallar tejaladigan texnologiyalarni o‘zlashtirish. Natija –xom ashyoga bog‘liqlikning qisman qisqarishi.

- Fan-texnika taraqqiyotidagi yangi bosqich - iqtisodning internatsionallashuvi, ustuvor aloqalarni rivojlanayotgan mamlakatlardan rivojlangan mamlakatlarga qayta yo‘naltirish.

Jahon iqtisodidagi bunday an'analar quyidagi natijalarga olib keldi:

1. Rivojlanayotgan mamlakatlarning xom ashyo va energiya resurslari yetkazib beruvchi, rivojlangan mamlakatlarning mahsulotlari uchun bozor sifatidagi ahamiyatining nisbatan kamayishi.

2. Ko‘pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon iqtisodidagi tuzilmaviy va fantexnika borasidagi o‘zgarishlarga faolroq moslashuvi.

3. Bu mamlakatlardagi ichki jarayonlarning sanoati rivojlangan davlatlar bilan munosabatlari chuqurlashuviga bog‘liqligining kuchayishi (rivojlangan mamlakatlarda urushdan keyin to 1990 yilgacha ishlab chiqarish o‘sishining eng uzoq davri bo‘ldi).

Aytib o‘tilgan an'analar ozod bo‘lgan davlatlarning jahon iqtisodiy hamjamiatidagi ahamiyatining o‘zgarishiga sezilarli ta’sir etdi. 80-yillar oxirida bu mamlakatlarning ayrimlari qishloq xo‘jaligi, ishlab chiqaruvchi sanoat va xizmatlarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi bo‘yicha G‘arb mamlakatlarining 60-yillar boshidagi o‘rtacha darajasiga yetdi. Ayniqsa, eksport tuzilishidagi muvaffaqiyatlar sezilarli bo‘ldi.

Neft ishlab chiqaruvchilar va eksport qiluvchilar (OPEK) tashkilotiga kirmaydigan mamlakatlarda 1980-yillar mobaynida eksportdagi tayyor mahsulotlar ulushi 1/3 dan 2/3 gacha o‘sdi.

Biroq ozod bo‘lgan davlatlarning jahon iqtisodi holati bilan chambarchas bog‘liqligi bir qator salbiy oqibatlarga olib keldi. 1990-yillarning o‘rtalaridan boshlab rivojlangan mamlakatlar iqtisodidagi davriylik omili, Sharqiy Yevropa davlatlarida ishlab chiqarishning keskin pasayishi, Fors qo‘ltig‘i mintaqasidagi inqiroz oqibatida jahondagi iqtisodiy vaziyatning yomonlashuvi tufayli jahon importi qisqardi, xomashyo (neftdan tashqari) narxi pasaydi. Demak, milliy budjetga tushum qisqardi, moliya resurslarining yetishmovchiligi oqibatida jahon kapital bozorlarida foiz stavkasi yuqorilashib ketdi, ko‘pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar uchun chet el kreditlarini olishning imkonini bo‘lmay qoldi.

Ana shular natijasida rivojlanayotgan mamlakatlarning tashqi iqtisodiy munosabatlariga jiddiy putur yetdi, ularning xalq xo‘jaligidagi turli sohalar va tarmoqlarida noxush oqibatlar sodir

bo‘ldi.

Taxminan 2/3 qism rivojlanayotgan mamlakatlarda 80-yillarda milliy daromad kamaydi. Bunday kamayishning eng ko‘pi 19 davlatda 35%ni tashkil etdi.

BMT ma’lumotlariga ko‘ra, umuman 80-yillarda milliy iqtisodning o‘sish sur’atlari 7,2% o‘rniga 2,3%ni tashkil etdi.

“Uchinchi dunyo” mamlakatlarida inflatsiya yuqoriligidagi qoldi.

1989 yil - 104,1%,

1990 yil - 71%.

Jahon iqtisodidagi pasayish oqibatida “uchinchi dunyo” mamlakatlarining istiqbollari ko‘p jihatdan milliy xo‘jaliklar jahon xo‘jaligining o‘zgarib borayotgan talablariga monand qayta ko‘rib chiqishga va chuqur o‘zgarishlarni amalga oshirishga bog‘liq ekan.

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB) tomonidan tayyorlangan jahondagi iqtisodiy vaziyatga muvofiq rivojlanayotgan mamlakatlar joriy to‘lov balansining taqchilligi 1995 yilda 65 - 70 mlrd AQSH dollarini tashkil etgan, 2001 yilda esa - 80 mlrd.

Sabab: chet el kreditlari bo‘yicha to‘lovlarining ortishi, foydaning bevosita chet el investitsiyalariga o‘tkazilishi.

Milliy mahsulotni yaratishda ichki moddiy, moliyaviy va inson resurslari asosiy rolni o‘ynasagina “uchinchi dunyo” mamlakatlarida iqtisodiy ilohotlarni o‘tkazishda muvaffaqiyatlarga erishish mumkinligiga borgan sari ko‘proq ishonch hosil qilinmovda.

Bu holda “uchinchi dunyo”da ishlab chiqarilgan tovarlarning raqobatbardoshligini oshirish, ularni jahon bozorlariga eksport qilishni kengaytirish katga ahamiyat kasb etadi.

Aynan shu omil (eksport) import to‘lovlar, milliy iqtisodni texnik-iqtisodiy jihatdan qayta qurish va qarz majburiyatlarini to‘lash uchun zarur valuta resurslarining asosiy manbai bo‘lmog‘i lozim.

Iqtisodiy rivojlanishni tezlashtirishga yordam beradigan tadbirdardan biri sifatida milliy iqtisodni xususiylashtirish siyosati ko‘zda tutilgan edi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda xususiylashtirish muammolari va samaradorligi

Mustaqillikka erishilganidan so‘ng ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda yetakchi rol davlatga tegishli edi. Chunki davlat ko‘p o‘zgarishlarning tashabbuskori bo‘lgan.

Deyarli 70-yillar oxiriga qadar rivojlanayotgan mamlakatlarda mulkchilik, yalpi ichki mahsulot, investitsiyalar, ish bilan ta’minlashda davlat ulushi ortib bordi. 80-yillar boshiga kelib davlat sektori ulushiga:

- Qishloq xo‘jaligida bandlik bo‘yicha 44%;
- yalpi ichki mahsulot bo‘yicha 10-20%;
- investitsiyalar bo‘yicha 20-60% to‘g‘ri keldi.

Biroq, davlatning iqtisoddagi ustuvor ishtiroti ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda kutilgan natijani bermadi. Rivojlanayotgan iqtisodga davlatning aralashuvi oqibatlari 60-70-yillarda tanqidga uchradi, lekin 80-yillarda bu borada burilish yuz berdi.

Davlat bo‘g‘inida budjet kamomadi o‘sishi oqibatida ba’zi rivojlanayotgan mamlakatlarning qarzdorlik inqirozi anchagini keskinlashganligi tufayli g‘arb kreditorlari o‘z siyosatlarini qayta ko‘rib chiqdilar.

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki hamda Xalqaro valuta jamg‘armasida rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodini “tarkibiy moslash” deb ataladigan yangi siyosat ma’lum qilindi.

Endi aniq davlat loyihalari uchun beriladigan kreditlar o‘rnini quyidagi maqsadlarda beriladigan qarzlar egalladi:

- 1) Moliyaviy ahvolni barqarorlashtirish;
- 2) xususiy sektorni rivojlantirish;
- 3) xususiylashtirish dasturini o‘tkazish.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning o‘zida ham davlatning imkoniyatlariga ishonmay qo‘yildi. "Uchinchi dunyo" mamlakatlari muammolarini iqтыsodda xususiy bo‘g‘inning ustuvorlik roliga suyanibgina hal qilishi mumkin, degan umumiy xulosa shakllandi va kundankunga o‘sib bordi.

Biroq, amaliyat shuni ko‘rsatdiki, rivojlanayotgan mamlakatlarda xususiy lashtirishning haqiqiy ko‘lamni shu masala yuzasidan bo‘ladigan munozaralar ko‘lamidan ancha orqada qoldi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning 28 tasida Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki olib borgan tadqiqotlarga muvofiq, 80-yillarda 3975 ta davlat korxonasidan 137 tasi (3,4%) yopilgan yoki tugatilgan, 85 tasi (2%) butunlay yoki qisman sotilgan va 45 tasi (1%) ijara qo‘yilgan yoki boshqaruvga topshirilgan. Xususiy lashtirish sur’ati ham kutilganidan ancha sekin amalga oshirilgan.

Xususiy lashtirish natijalarini tahlil qilishda, faqat uning ko‘lamni va sur’atinigina baholash muhim bo‘lib qolmasdan, xususiy lashtirilgan korxonalarining ish samaradorligini baholash ham juda muhimdir.

Tajriba shuni ko‘rsatdiki, rivojlanayotgan mamlakatlardagi xususiy lashtirishning samaradorligi sanoati rivojlangan mamlakatlardagiga nisbatan umuman ancha past bo‘lgan:

- Xususiy shaxslarga berilgan ko‘pgina korxonalar kam foyda ko‘radigan yoki hatto zarar keltiradiganligicha qolgan;

- xususiy lashtirilgan kompaniyalarga shunchalik ko‘p imtiyozlar berilganki, natijada ilgarigi davlat korxonalarini o‘rnida amalda xususiy monopoliyalar paydo bo‘lgan va xususiy lashtirishning mohiyati - ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun raqobatni kuchaytirish omili yo‘qqa chiqarilgan.

Nima uchun xususiy lashtirish kutilganiga nisbatan qiyinchilik bilan kechdi va kam samarali bo‘ldi?

1. Obyektiv shart-sharoitlarni hisobga olmasdan, yuqorida o‘tkazilgan, buning ustiga ko‘pincha tashqi omillar ta’sirida boshlangan har qanday davlat islohoti kabi davlat mulki va nazoratini xususiy shaxslar ixtiyoriga berish quyidagi har xil ixtimoiy kuchlar:

- Vazirliliklarning amaldorlari va davlat korxonalarining rahbarlari;
- davlat sektori kasaba uyushmalari;
- ziyorilar;
- aholi, ayniqsa, shahar aholisining keng qatlami va birinchi navbatda, subsidiyalangan narxlardan foyda ko‘rvuchi aholining jiddiy qarshiligidagi uchradi.

Davlat mulkini chet elliklarga va ishi yurishib turgan milliy ozchilikka sotishni istamaslik omilini qam shunday sabablar jumlasiga qo‘shish mumkin.

2. Xususiy sektorning kuchsizligi, sotib olishga qodir shaxslar doirasining torligi.

3. Xususiy lashtirishdagi texnik murakkablik va moddiy xarajatlarning kattaligi.

Xususiy lashtirish to‘g‘risidagi qarorlar ko‘pchilik hollarda obyekt qiymatini sinchiklab o‘rganmay, aniq harakatlarning mukammal dasturini ishlab chiqmay turib, o‘zboshimchalik bilan qabul qilingan.

4. Iqtisodiy yuksalish paytlarida, anchagina rivojlangan, raqobat mavjud bo‘lgan tarmoqlarda serdaromad korxonalarini xususiy lashtirish nazariy jihatdan ancha silliq kechgan. Aynan shunday hollarda bozor imkoniyatlarining ta’siri resurslardan samarali foydalanishga tezroq olib kelgan va korxonaning daromadligini oshirgan.

Amalda esa rivojlanayotgan mamlakatlarning hukumati ko‘pincha inqirozli iqtisodiy vaziyatda budjet taqchilligi ta’sirida eng avvalo zarar ko‘rayotgan yoki kam daromad keltirayotgan korxonalarini xususiy lashtirishga qaror qiladi, bunda u korxonalarining ish samaradorligini oshirish, budjet uchun qo‘shimcha daromad olishni ko‘zda tutadi. Ana shu keyingi omillar amalda xususiy lashtirish uchun asosiy ichki turtki hisoblanadi.

Umumiy xulosa qilinganda rivojlanayotgan raqobatni xususiy mulksiz tasavvur qilib bo‘lmasa-da, umuman olganda, xususiy korxonalar davlat korxonalariga nisbatan samaraliroq

ishlasa-da, rivojlanayotgan mamlakatlarning haqiqiy shart-sharoitlari o‘ziga xos bo‘lganligi sababli xususiyashtirish yagona maqsad bo‘lmasligi lozim.

Xususiyashtirish "uchinchi dunyo" mamlakatlari iqtisodini erkinlashtirishning asosi emas, balki vositalaridan biri hisoblanadi.

Shuning uchun xususiyashtirish siyosatining muvaffaqiyati (samaradorligi) iqtisodni tuzilmaviy qayta qurishning boshqa vositalari muvaffaqiyatiga ko‘p jihatdan bog‘liq.

Davlat mulki to‘g‘risida gapiradigan bo‘lsak, uning rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodidagi ahamiyati Osiyo sharoitida anchagina katta imkoniyatlarga ega. Samaradorlikni baholashda xususiyashtirishning faqat sof iqtisodiy oqibatlarini emas, balki uning rivojlanayotgan iqtisodga yomon ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy oqibatlarini ham hisobga olish lozim.

Xususan, jamiyat birlamchi zarur tovarlarni bozor narxida sotish sharoitiga tezda o‘tish imkoniyatiga har doim ham ega bo‘lavermaydi, muayyan vaqt mobaynida aholining kundalik ehtiyojlarini qondirish uchun iqtisodiy samaradorlikdan voz kechishga majbur bo‘ladi.

SEMINAR MASHG‘ULOTLARI REJASI

1. Jahon iqtisodida rivojlakgan mamlakatlar rolining evolutsiyasi.
2. 1980-yillar va 90-yillar boshida "uchinchi dunyo" mamlakatlari iqtisodi tavsifi, uni rivojlantirishning dolzARB masalalari.
3. "Uchinchi dunyo" mamlakatlarida xususiyashtirishning samaradorligi xususiyatlari va muammolari.

ADABIYOTLAR

1. Арефьева Е. Международное разделение труда: место и роль освободившихся стран — ж, "Азия и Африка сегодня", № 3, 1987.
2. Басовский Л.Е. Мировая экономика: Курс лекций. М, ИНФРА - М, 2003.
3. Журавская Е. Процессы приватизации в развивающемся мире. Тенденции мирового экономического развития. Обзор за 1990 и начало 1991 гг. М., "Наука", 1991.
4. Лоуакин В.К. Мировая экономика. М., ИНФРА-М, 2004.
5. Раджабова З.К. Мировая экономика М., ИНФРА-М, 2004.
6. Чехутоев Б.К. "Третий мир: жизнь требует реформ"-Тенденции мирового экономического развития. Обзор за 1990 в начало 1991 гг. М., "Наука", 1991.

4-BOB RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR VA KAPITALNING XALQARO HARAKATI

Kapitalni chiqarish sabablari, an’analari va hududlari

Hozirgi zamon sharoitida jahon iqtisodiy rivojlanishidagi umumiy an’ana internatsionallashuvning chuqurlashuvi oqibatida transmilliy korporatsiyalar rivojlanishining tezlashuvi va natijada turli mamlakatlar korporatsiyalari o‘rtasidagi kurashning kuchayishidir.

Bunda, katta biznesdagi asosiy rol ilgarigidek AQSHga tegishli bo‘lishiga qaramay, (2000 yilda jahoning rivojlangan mamlakatlariga qarashli 100 ta yirik korporatsiyalardan 28 tasi AQSHga tegishli bo‘lgan), ularning vaziyatlari boshqa milliy kapitallar, eng avvalo, G‘arbiy Yevropa va Yaponiya sarmoyalari siquviga duch kelmoqsa.

Masalan, 1960-1987 yillarda kapitalistik dunyoga qarashli 100 ta yirik konsernning savdo

oboroti 18,9 marta ortdi. Ayni vaqtda bunda AQSH ulushi 70,6% dan 45% gacha qisqardi. G'arbiy Yevropa mamlakatlari ulushi 27,8% dan 36,8% gacha, Yaponianing ulushi 1,6% dan 12,4% gacha yoki 7,8 marta ortdi.

Keyinchalik ham AQSH ulushi qisqarib bordi. 1996 yilda uning yirik korporatsiyalari oborotining umumiyligi summasi 28,8% ni tashkil qildi, ayni paytda G'arbiy Yevropa mamlakatlari ulushi 35,2% ni, Yaponianing ulushi 32,2% ni, 2001 yilda chet ellar bilan bo'lgan savdosotiqa ham AQSH ulushi 27% ni tashkil qilgani holda G'arbiy Yevropa korporatsiyalari ulushi 38% ni, Yaponianing ulushi 26% ni tashkil etdi.

Jahon xo'jaligining yetakchi markazlari o'rtasidagi raqobat kurashining rivoji chet el investitsiyalari oqimi geografiyasida yangi an'analarga sabab bo'lmoqda. Rivojlangan mamlakatlar transmilliy korporatsiyalar kapitalini rivojlanayotgan mamlakatlarga chiqarishning ancha jonlanganligi shu mamlakatlarda Amerika va Noamerika transmilliy korporatsiyalarini o'rtasidagi qarama-qarshilikning jiddiy kuchayishiga, jahon iqtisodiyogining chekka hududlarida Amerikaning yetakchilik roli yo'qolishiga olib keldi.

Yaponiya korporatsiyalari Amerika transmilliy korporatsiyalarining eng yirik raqobatchilari hisoblanadi. Chet el mamlakatlariga investitsiyalar kiritishdagi yapon fenomenining mohiyati shundaki, yapon korporatsiyalari kiritadigan bevosita investitsiyalarning anchagina qismi rivojlanayotgan davlatlarga, eng avvalo Osiyo va Lotin Amerikasiga to'g'ri keladi.

Quyida keltirilgan jadvaldan ko'rilib turibdiki, 90-yillar o'rtasiga kelib Yaponianing bevosita chet el investitsiyalarida rivojlangan mamlakatlar, shu jumladan, AQSH ulushi ancha kamaygan, ayni paytda rivojlanayotgan mamlakatlar, eng avvalo, Janubiy, Sharqiy. Janubi-Sharqiy Osiyo va Xitoy ulushi keskin ko'paygan (17%dan 42%gacha).

Eng yuqori ko'tarilish davri (chuqqi davr)da va iqtisodiy pasayishdan keyin Yaponiya bevosita chet el investitsiyalarining taqsimlanish geografiyasি

Mintaqa (mamlakat)	Davr cho'qqisi (1989-1991)	Iqtisodii pasayishdan keyin (1994-1996)
Barcha mamlakatlar (mlrd AQSH dollari)	41,0	21,0
Rivojlangan mamlakatlar (%)	83,0	58,0
AQSH (%)	51,0	37,0
Yevropa Ittifoqi (%)	23,0	13,0
Rivojlanayotgan mamlakatlar (%)	17,0	42,0
Janubiy, Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo (%)	11,0	34,0
Xitoy (%)	1,1	12,0
Markaziy va Sharqiy Yevropa (%)	0,1	-

Manba: World Investment Report 1997: Trends and Determinants, GN, New York and Geneva, 1997.

1990-yillar oxirigacha Osiyodagi yapon investitsiyasi 2,5 marta oshdi, chet ellarga Yaponiya ko'rsatadigan yordamning 70%ni Osiyo va Hind submintaqasi uchun mo'ljallangan. Yapon tadbirdorlari ishlab chiqarishni rivojlanayotgan mamlakatlarga chiqarib, tashqi bozorda o'z tovarlarining raqobatbardoshligi pasayishiga qarshi turishga harakat qilishadi.

AQSH bevosita chet el investitsiyalari borasida ham keskin o'zgarishlar ro'y berdi. 1995-1997 yilda rivojlangan mamlakatlar ulushi 75,8% dan 65% gacha qisqardi, ayni paytda rivojlanayotgan mamlakatlar ulushi 26,9% dan 34,3% gacha o'sdi. Bunda ham yangi an'analar

paydo bo‘lganligi diqqatni jalg qiladi. Xususan, bevosita chet el investitsiyalarining Osiyo mamlakatlari dagi ulushi nisbatan qisqargani holda Lotin Amerikasi mintaqasidagi ulushi ko‘paygan (17,4% dan 20,8% gacha). Bu hududda AQSH hali ham asosiy xorijiy investor hisoblanadi. AQSH bevosita chet el investitsiyalarining Lotin Amerikasi mintaqasidagi umumiy hajmi 1995-2001 yillarda deyarli 97 mlrd AQSH dollariga yetdi, Lotin Amerikasi mamlakatlari kiritilgan investitsiyalar umumiy hajmining 64%ini tashkil etdi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar xususiy investitsiyalar bilan bir qatorda rasmiy taraqqiyot yordamini ham oladi. Aytib o‘tish kerakki, keyingi yillarda bunday yordamning qiymati ancha kamaydi: 90-yillar boshida davlatning mablag‘ bilan ta‘minlashi rivojlanayotgan mamlakatlarga kirib kelayotgan investidiyalar oqimining yarmidan ko‘pini tashkil etgan bo‘lsa, 2000 yilda bu ulush atigi 14%ni tashkil etdi. Ayni paytda 1990-97 yillarda investitsiyalarning umumiy hajmi har yili 16%ga o‘sdi, davlatning mablag‘ bilan ta‘minlashi esa har yili 3%ga kamaydi.

Eng sust rivojlangan mamlakatlarga rasmiy taraqqiyot yordami ko‘rsatish ancha yuqoriroq, unga investitsiyalar oqimining asosiy ulushi to‘g‘ri kelgan. 1990-95 yillarda u barqarorligicha qoldi va faqat 1996 yilda 14%ga qisqardi va 2001 yilda ko‘tarildi.

Eng sust rivojlangan mamlakatlarda xususiy kapital oqimm ahvoli ham boshqacha. Bu yerda xususiy investitsiyalarning ahamiyati ortayotganligi investitsiya va moliya sohasidagi erkinlashtirish, jahon miqyosiga chiqishga intilish o‘sayotganligida ham o‘z aksini topmoqda. Bu guruhga kiruvchi mamlakatlarda kapitalning harakatidagi to‘siqlar bekor qilinmoqda.

Chet el xususiy investitsiyalaridan portfel investitsiyalari bevosita chet el investitsiyalariga nisbatan "harakatchanroq", chunki ular bevosita chet el investitsiyalaridan farqli o‘laroq istiqboldagi taraqqiyot maqsadlarida emas, balki tezroq foyda olish maqsadlarida jalb qilinadi.

1990-2000 yillar mobaynida tijorat banklarining ssudalari rivojlanayotgan mamlakatlarga kirib kelayotgan xususiy kapitallar oqimining taxminan o‘rtacha 1/10, portfel investitsiyalar taxminan 1/3 va bevosita chet el investitsiyalari taxminan 1/2 ulushini tashkil etdi.

Umuman, bevosita chet el investitsiyalarini rivojlanayotgan mamlakatlarga chiqarishning o‘sishi haqida gapirliganda shuni ta‘kidlash lozimki, 2000 yilda bevosita chet el investitsiyalari umumjahon oqimining deyarli 2/5 ulushi bu mamlakatlarga to‘g‘ri kelgan. Bu ular 1993 yilda erishgan darajadan 2 marta, 1985 yildagidan 10 marta ko‘pdir. 1996 va 1997 yillarda bevosita chet el investitsiyalari rivojlanayotgan mamlakatlarga G‘arbiy Yevropaga nisbatan deyarli 30 mlrd AQSH dollari miqdorida ko‘p kiritildi.

Shu bilan birga, bevosita chet el investitsiyalarini jalb qilish bo‘yicha peshqadamlar Janubiy, Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo - 82,4 mlrd AQSH dollari (53,3%), Lotin Amerikasi - 56,1 mlrd AQSH dollari (37,7%) va Afrika -5 mlrd AQSH dollari atrofida (3,2%) bo‘ldi.

Xususiy sektorga ko‘maklashadigan Xalqaro moliya korporatsiyasi chet el investorlari nuqtai nazaridan Afrika hozircha past istiqbolli ekanligini ta‘kidlaydi. Haqiqatan, 2001 yilda bevosita chet el investitsiyalarini rivojlanayotgan mamlakatlarga chiqarish umumiy hajmida bu mintaqaning ulushi atigi 3,6%ni tashkil etdi.

Bu yerda xo‘jalik faolligini rag‘batlantirish maqsadida Xalqaro moliya korporatsiyasi birinchi navbatda quyidagi choralarini ko‘rmokda:

- Xususiy tadbirkorlik uchun qulay muhit yaratish;
- mikrokorxonalarini (qabul qilingan tasnif bo‘yicha) rag‘batlantirish dasturini amalga oshirish.

Sharqiy Osiyo mamlakatlarining chet el investorlarini qiziqtiradigan tomonlari quyidagilar:

- Ularning yuqori sur’atlarda barqaror o‘sishi va siyosiy jihatdan barqarorligi;
- ularning ichki bozorlari sig‘imi ancha oshganligi. 2000 yilda 75 mln osiyolik oila o‘rtacha amerikalikning daromadiga yetadigan yillik daromadga yetishishi lozim edi.

1992 yilda bevosita chet el investitsiyalarini oladigan eng yirik rivojlanayotgan mamlakat Xitoy bo‘ldi. 1993-96 yillarda rivojlanayotgan mamlakatlarga kirib kelayoggan bevosita chet al investitsiyalarining umumiy oqimiga nisbatan Xitoyning ulushi 36% yoki yiliga o‘rtacha 35 mlrd

AQSH ddshgariga, 1997 yilda 30,4% yoki 45,3 mld AQSH dollariga to‘g‘ri keldi. Chet el investorlari uchun Xitoyning o‘ziga jalb qiladigan tomoni faqat investitsiyalarning miqdori emas, balki iqtisodning yuqori sur’atlar bilan rivojlanayotganligydir. Xitoy iqtisodi 1990-96 yillar mobaynida yiliga 10% dan ko‘proq o‘sib bordi.

Bundan tashqari, mamlakatda ishchi kuchi arzonligi ham muhim ahamiyatga ega. Bu esa Xitoyda ko‘p mehnat talab qiladigan eksport tovarlari ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yayotgan transmilliy korporatsiyalar uchun juda muhim omildir.

Chet el kapitalining rivojlanayotgan mamlakatlardagi iqtisodida ishtirok etish shakllari:

I. Chet el kapitalining rivojlanayotgan mamlakatlardagi iqtisodiga kirib borishining asosiy shakli halqaro korporatsiyalarning sho‘ba korxonalari hisoblanadi. Bunga dalil rivojlanayotgan iqtisodga kirib kelayotgan kapitalning umumiy oqimida transmilliy korporatsiyalar bevosita investitsiyalarining ulushi 1975-79 yillardagi 14,5% dan 1980-85 yillarda 17,2% gacha o‘sganligi.

Urushdan keyingi butun davr mobaynida rivojlanayotgan mamlakatlarda chet el investitsiyalariga to‘g‘ri keladigan foyda normasi sanoati rivojlangan mamlakatlardagidan yuqori bo‘lgan. Masalan, 1950 yilda AQSH korporatsiyalari rivojlangan mamlakatlardagi iqtisodiyotiqa qo‘ygan kapitallarga to‘g‘ri keladigan foyda normasi 13,5% ni, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa 23,6% ni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich 1970 yilda 8,9% va 15,1%, 1980 yilda 15,5% va 22,8%, 1985 yilda 16,2% va 14,1%, 1988 yilda 16,6% va 19,4%, 2000 yilda 19,4 va 21,2 bo‘lgan. Ushbu ma’lumotlardan oxirgi vaqlarda foyda normasining pasaygani ko‘rinib turibdi.

Bevosita xususiy investitsiyalardan foydalanishning nisbiy samaradorligi pasayishiga sabab:

- Rivojlanayotgan mamlakatlardagi chuqur ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar;
- milliy hukumatlarning mamlakatlardagi iqtisodiy vaziyatni o‘z qo‘lida tutib turishga intilishi;
- bozor iqtisodining yetakchi markazlarvda ishlab chiqarishda mehnat va energiya tejadaligan texnologiyaning rivojlanishi.

O‘z navbatida, rivojlanayotgan mamlakatlardagi chet el kompaniyalarining faoliyatini faollashtirishga yordam berish uchun har jihatdan intiladilar, chunki chet el kapitali:

- Ishlab chiqarishni zamonaviy texnika va texnologiya bilan jihozlashga yordam beradi;
- xususiy tadbirkorlikni mustahkamlaydi;
- mamlakat xo‘jaligini rivojlantirishni tezlashtiradi, deb umid qiladilar.

Biroq, tashqaridan keladigan moliya oqimi harakati juda ehtiyyotkorlik bilan yuz beradi. Eng avvalo, ular aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadi o‘rtacha bo‘lgan mamlakatlarga mo‘ljallanadi, bu ko‘rsatkich past bo‘lgan mamlakatlarni chetlab o‘tadi, kamdan-kam hollardagina bunga rioxay qilinmaydi.

Daromadi past bo‘lgan mamlakatlardagi rasmiy kanallar bo‘yicha beriladigan yordamga umid qilishi mumkin, bu hol bunday mamlakatlarning ko‘pchiligi xususiy kapital bozorlari uchun sharoit yarata olmasliklarini bildiradi.

Keyingi yillarda rivojlanayotgan mamlakatlarga beriladigan yordam hajmini qisqartirish an‘anasi paydo bo‘ldi. Masalan, 2001 yilda u 48 milliard AQSH dollarigacha kamaydi.

Shu bilan birga, AQSHning bu mamlakatlarga noharbiy moddiy yordami ulushi ancha qisqarib borayotganligi e’tibor-ni jalb qiladi. 1997 yilda Yaponiya bu mamlakatlarga shu maqsadda 14,5 milliard AQSH dollarini, Fransiya 8,4 mld, Germaniya 7,5 mld, AQSH 7,3 mld AQSH dollarini ajratdi.

Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, 1995 yilda AQSH hukumati yordam dasturiga yalpi ichki mahsulotning atigi 0,1%ini ajratdi. Bu yordam urushdan keyingi yillarda eng kam hisoblanadi.

Bundan tashqari, ba’zi mamlakatlardan (Hindiston, Xitoy, Indoneziya)dan tashqari rivojlanayotgan mamlakatlardagi o‘zlarining sof milliy kapitalining tashqariga chiqib ketishidan aziyat chekmoqda.

Bu guruhdagi mamlakatlarda kapital qo‘yishdan manfaatdor emaslik sabablari:

- Makroiqtisodiy nobarqarorlik;
- infratuzilmaning nobarqarorligi;
- ishchi kuchining past malakaliligi;
- bozor xo‘jaligining institutsional sharoitlari rivojlanmaganligi.

Keyingi yillarda ba’zi rivojlanayotgan davlatlarning hukumatlari tomonidan transmilliy korporatsiyalarning faoliyatini yo‘lga qo‘yish kuchayganligi tufayli bu mam-lakatlar iqtisodiyotida chet el kapitalining ishtirok etishi borasida tashkil etishning yangi shakllari paydo bo‘ldi. Ular korxonalarga birqalikda egalik qilish va ularni qurishni, litsenziya berish, boshqarish uchun bitimlar tuzishni, korxonani boshdan-oxirigacha qurib berish, xalqaro subpudrat va h.k.ni ko‘zda tutadi.

II. Qo‘shma korxonalar aksiyadorlik kapitalining o‘ziga xos shakli hisoblanadi.

Uyushma kapitalistik mulkning o‘ziga xosligi shundaki, firmaning haqiqiy kapitali harakatini nazorat qilish ishlari sheriklar orasida taqsimlanadi. Bunday shakl milliy va chet el kapitali orasidagi ma’lum murosani bildiradi.

Jahon iqtisodining hozirgi rivojlanish bosqichida aralash kompaniyalarning tuzilishi rivojlanayotgan mamlakatlarning ham, transmilliy qorporatsiyalarning ham manfaatlarini qoniqtiradi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning sanoat kompaniyalariga xalqaro monopoliyalar ishtirokini tashkil etib, birinchidan:

1) Kapital natural-moddiy shakldagi kapital taqchilligi muammosi ma’lum darajada hal qilinadi;

2) ishlab chiqarishga yangi texnika va texnologiya kiritiladi, uni tashkil qilish tajribasi o‘zlashtiriladi, mahsulotni kafolatli sotish imkoniga ega bo‘linadi va h.k.

Ikkinchidan, milliy davlat tomonidan transmilliy korporatsiyalar faoliyatini nazorat qilish doirasi kengayadi.

Qo‘shma tadbirkorlikni rag‘batlantirish uchun rivojlanayotgan mamlakatlar hukumatlari ko‘pincha imtiyozli soliq tartibini joriy qiladi; odatda soliqqa tortish maqomi bo‘yicha tashkil qilinadigan qo‘shma korxonalar mahalliy kompaniyalarga tenglashtiriladi, lekin ularga soliq imtiyozlari ham tadbiq qilinishi mumkin.

Odatda davlat murakkab texnologiya qo‘llaniladigan muhim, o‘zi uchun zarur sanoat tarmoqlarida, yuqori eksport daromadlarini ta’minlaydigan tarmoqlarda qo‘shma korxonalar tuzilishini qo‘llab-quvvatlaydi.

Ko‘pchilik hollarda rivojlanayotgan mamlakatlar qo‘shma korxonalarda milliy mulk ulushini ko‘paytirishga harakat qiladi va shu yo‘l bilan chet el kapitali ishtirok etadigan korxona ustidan to‘liq nazorat o‘rnatish uchun kurashadi.

Biroq, kapitalning katta ulushiga egalik qilish har doim ham iqtisodiy faoliyatni amalda nazorat qilishni ta’minlayvermaydi. Chet el investorlarining kapitalda anchagina kichik ulushda ishtiroki ham ularga yaxshigina daromad ko‘rishlari uchun imkon berishi mumkin.

Mahalliy sheriklariga nisbatan moliya va texnologiya borasida ustun bo‘lgan chet el investorlari korxonaga ma’muriy va texnikaviy rahbarlik tizginini o‘z qo‘llarida tutib turishga, uni o‘zlarining transmilliy ishlab chiqarish majmulariga singdirib yuborishga qodirlar.

Ba’zi Amerika ekspertlarining fikricha, agar chet el kompaniyasi istalgan mahalliy kompaniya kapitalining 5% ulushiga egalik qilsa, bu mahalliy kompaniyani chet el kompaniyasining filiali deb hisoblash mumkin.

III. Keyingi 20-25 yil mobaynida transmilliy korporatsiyalar shu’ba yoki qo‘shma korxonalar tuzishdan voz kechmagan holda (bu usul hali ham chet el kapitalining mahalliy iqtisodda ishtirok etishining muhim shakli hisoblanadi) rivojlanayotgan davlatlarning kompaniyalari bilan bitimli munosabatlarni (texnologiya yetkazib berish to‘g‘risida, korxonani jihozlash yoki qurish, boshidan to oxirigacha qurish haqida, mutaxassislar tayyorlab berish to‘g‘risida va h.k.) yo‘lga qo‘yishga borgan sari ko‘proq harakat qilmoqda.

Chet el korporatsiyasining sanoat obyektlarini boshidan oxirigacha ("kalit topshirilguncha") qurishi deganda uni ma’lum muddat ishlatib, keyin qabul qiluvchi mamlakat

hukumatiga topshirish tushuniladi (bu usul asosan rivojlanayotgan mamlakatlarda qo'llaniladi).

Bunday kompaniya yoki korxonada ishtirok etadigan chet el monopoliyasi ishlab chiqariladigan mahsulotning muayyan qismini sotib olish, ba'zan jahon narxlaridan arzonroqqa sotib olish (berilgan kreditlar, jihozlar va turli xizmatlar evaziga) huquqiga ega bo'ladi.

Kompaniya yoki korxona chet ellik sherikning qarzidan qutilganidan so'ng u shartnomada ko'rsatilgan vaqt mobaynida o'z ulushidagi mahsulotni jahon narxlarida sotib olish huquqini saqlab qolishi mumkin.

Trans va ko'p millatli konsernlar mulkka egalik qilishdan bitimli munosabatlarga o'tganda chet ellardagi ko'pchilik yuridik jihatdan mustaqil firmalarni akiyyadorlik kapitali, shaxsiy munosabatlar orqali emas, balki bu firmalarni texnologik va tashkiliy jihatdan o'zlariga bog'lab qo'ygan holda tasarruf qiladilar.

Bitimli munosabatlar rolining oshishi rivojlanayotgan davlatlarning qarzi ko'payib borayotganligi, jahon kapital bozorida foiz stavkalarining o'sishi, transmilliy banklarning bitimli munosabatlarni mablag' bilan ta'minlashi kengayayotganligi bilan ham izohlanadi.

Bitimli munosabatlar transmilliy korporatsiyalarni o'ziga jalb etishining sababi, ular rivojlanayotgan mamlakatlardan iqtisodiga kapital kiritishdagi siyosiy va tijorat tavakkalchiligi bilan bog'liq bo'lmaydi. Bundan tashqari, bitimli munosabatlar ko'pincha aksiyadorlik nazorat shaklini qo'shimcha to'ldiradi. Masalan, British Leyiavd kompaniyasi Keniyadagi yuk mashinalari, avtobuslar ishlab chiqaradigan korxonaning 45% aksiyalariga egalik qilgani holda, shu mamlakat hukumati bilan mazkur korxonani un yil dayumida boshqarish uchun bitim tuzdi.

Shunga qaramay, istiqbolda xalqaro korporatsiyalarning rivojlangan mamlakatlardan iqtisodiga kirib borishining asosiy shakli bevosita investitsiyalar bo'lib qolishi ehtimoli bor. Rivojlanayotgan mamlakatlarga kelsak, ularda bevosita chet el investitsiyalari mutloq o'sgani holda monopoliyalarning ushbu mamlakatlardan iqtisodiga kirish tadbirlarida bevosita investitsiyalarning ahamiyati pasayib borishi mumkin.

Rivojlanayotgan mamlakatlardan kapital olib chiqish

Keyingi 20-25 yilda rivojlanayotgan mamlakatlardan kapitalni olib chiqish keng quloch yoydi. 1980-yillarning ikkinchi yarmidan to 2001 yilgacha ulardan olib chiqilgan bevosita chet el investitsiyalari hajmi 8 marta, rivojlangan mamlakatlardan esa bu ko'rsatkich 3 marta o'sdi.

Kapital eksport qiluvchi rivojlanayotgan mamlakatlarni 2 guruhga ajratish mumkin:

- Sanoati ancha rivojlangan, milliy, transmilliy korporatsiyalari bo'lgan va o'z faoliyatini kengaytirayotgan mamlakatlardan (Argentina, Braziliya, Hindiston, Janubiy Koreya va h.k.)-
- Neft eksport qiluvchi mamlakatlardan.⁹

I. Rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchiligidagi kapital hosil bo'lishi jarayoni jamg'arish sur'atlari past va miqdori kichik bo'lgan mayda tarqoq kapitallar massasi bilan bog'liq. Biroq, ayrim tarmoqlarida borgan sari kapital mablag'larning qudratli generatori sifatida namoyon bo'layotgan milliy korporatsiyalar shakllanayotgan va kuch to'playotgan ba'zi rivojlanayotgan mamlakatlardan (masalan, Osiyoning yangi industrial mamlakatlari va h.k.)da kapitalning nisbatan ortiqcha jamg'arilishi yuz bermoqda. Bunday ortiqcha jamg'arilish asosida quyidagilar yotadi:

1. Bu mamlakatlarda yetakchi kapitalistik davlatlardan keltirilgan texnika asosida rivojlanayotgan yirik sanoat ishlab chiqarishi bilan ichki bozorninng torligi orasidagi qaramaqshilik mavjud.

Ichki bozorning torligiga sabab xo'jalik yuritishning eskirgan arxaik shakllarining juda ko'pligidir. Chunki:

- an'anaviy mehnat zamonaviy ishlab chiqarish vositalarini deyarli talab qilmaydi;

⁹ Neft eksport qiluvchi mamlakatlardan: Jazoir, Angola, Bahrayn, Bruney, Dor-us-salom, Kamerun, Kongo, Ekvador, Misr, Gabon, Indoneziya, Eron, Iraq, Quvayt, Liviya, Malayziya, Meksika, Nigeriya, Ummom, Qator, Saudiya Arabiston, Trinidad va Tobago, Tunis, Birlashgan Arab Amerikalari va Venesuela.

- aholining xarid qilish qobiliyati ham juda past. Hatto zamonaviy bo‘g‘inda ham real ish haqi juda pastligi tufayli mehnatkashlarning xarid qilish qobiliyati ham past. Shuning uchun ham ba’zi rivojlanayotgan davlatlarda shakllanayotgan yirik shaxsiy kapital dastlabki bosqichlardoq ortiqcha jamg‘arila boshlanadi.

Muayyan mahsulotni ishlab chiqarish va sotishning samarali (ayniqsa optimal) miqdori shu maqsulotni sotishga mo‘ljallangan ichki bozorning mutlaqo torligiga taqalib keladi.

2. Iqtisodning turg‘unlashgan tarqoqligi - xo‘jalikning turli bosqichdagi har xil texnologik shakllari va turlari parallel (yonma-yon), avtonom (alohida-alohida) mavjudligi, ular o‘rtasidagi chuqur tafovutlar ko‘pincha yirik milliy kapitalning ichki iqtisodda risoladagidek aylanishiga keskin to‘siqlarni vujudga keltiradi.

Rivojlanayottan mamlakatlar iqtisodining tarqoqdigi shaxsiy kapitalning ortiqcha jamg‘arilishi bilan milliy iqtisod darajasida kapitalning o‘tkir taqchilligi yonma-yon bo‘lishiga, ya’ni kapitalning nisbatan ortiqcha to‘planib qolishiga olib keladi.

Rivojlanayetgan iqtisodning tarqoqligi:

- kapitalistik sektor bilan yonma-yon tarzda xo‘jalikning ko‘plab eskirgan arxaik shakllari mavjud bo‘lishida;

- kapitalistik sektorga kiruvchi tarkibiy qismlar orasida o‘zaro aloqalarning kuchsizligi, uning pastki buginlari yuqori bo‘g‘inlariga bo‘ysunmasligida aks etadi.

Milliy kapital bozorining tarqoqligi, "almisoq"dan qolgan kapital shakli - savdogar va sudxo‘rlar kapitalining mavjudligi, shunga o‘xshash omillar kapitalni tarmoqlararo harakati yo‘lida qo‘srimcha g‘ovlar qo‘yadi. Demak, ozod bo‘lgan mamlakatlarning rivojlangan guruhi ichida ortiqcha kapital hosil bo‘lishi jarayoni yuz beradi. Ana shu ortiqcha kapital eng yuqori foyda olish mumkin bo‘lgan soxalarni izlab, chet ellarga yo‘l aladi.

II. Rivojlanayotgan mamlakatlardagi kapital egalari biron bir sohaga mo‘ljallangan kapitalga to‘g‘ri keladigan foyda normasi mamlakat ichidagi foyda normasidan oshmaydigan hollarda ham o‘z kapitallarini chet ellarga yo‘naltiradilar. Buning sababi, kapitalni chiqarish uning faoliyat sohasini kengaytirishi bilan aylanishini oshiradi, natijada foyda massasi, normasining o‘sishiga olib keladi.

Bundan tashqari, biron bir rivojlanayotgan mamlakatda kapitalni chetga chiqarishning konkret iqtisodiy-siyosiy sabablari ham mavjud bo‘ladi:

- milliy valutadagi mablag‘larni boshqa mamlakatlarning valutasiga o‘tkazish yo‘li bilan ularni qadrsizlanishdan saqlab qolish;

- milliy hukumatning mamlakat iqtisodi ichidagi valuta, soliq nazorati va h.k.larni kuchaytirishga qaratilgan tadbirlaridan bo‘yin tov lash;

- kapitalni milliy lashtirish ehtimolidan, siyosiy janjal vaziyatlari natijasida yuz berishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlar va h.k.lardan asrash.

III. Neft qazib oluvchi mamlakatlarda kapitalni eksport qilish borasida shakllanadigan ortiqcha kapitalning o‘ziga xos xususiyatlari bor. Uning bevosita manbai kapitalistik jamg‘arish jarayoni emas, balki neft resurslari monopoliyasi bilan bog‘liq **rentadir**.

Bu davlatlarni rivojlanayetgan mamlakatlarga taqqoslaganda xam, qoloq bo‘lgan iqtisodi 70-yillar o‘rtasida ro‘y bergen energetika inqirozi va neft narxining oshib ketishi natijasida bu yerga juda katta miqdorda oqib kelgan pul massasini o‘zlashtirishga qodir emas edi. Natijada ortiqcha kapital hosil bo‘lish jarayoni yuz berdi.

IV. Kapital rivojlanayotgan mamlakatlardan tadbirkorlik yo‘li bilan va ssuda shaklida chiqariladi. Bu kapital chet ellarda portfel investitsiyalar, davlat qimmatli qog‘ozlariga qo‘yilgan pul, bank depozitlari, kreditlar tarzida joylashtiriladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlardan olib chiqiladigan tadbirkorlik kapitalining asosiy qismi ozod bo‘lgan boshqa mamlakatlarga asosan qo‘sni davlatlarga joylashtiriladi. Biroq, rivojlanayotgan mamlakatlar investorlarining ba’zilari rivojlangan mamlakatlarga ham kirib boradi.

1980-yillarning ikkinchi yarmidan 2001 yilgacha bo‘lgan davrda rivojlanayotgan mamlakatlardan olib chiqilgan bevosita chet el investitsiyalari 11,3 mlrd dan 91,3 mlrd AQSH

dollarigacha yoki 8 marta ko‘paygan.

Bir qator rivojlanayotgan mamlakatlardan olib chiqib ketilayotgan mablag‘larning asosiy qismini shu mamlakatlarni boshqarayotgan yoki boshqargan rejim rahbarlari qo‘yayotgan chet el pul omonatlari tashkil qilmoqda (F. Markos Fillipinda, J.K. Dyuvalye Gaitida va h.k.).

Ozod bo‘lgan mamlakatlardan kapital olib chiqilishi rivojlanayotgan va rivojlangan davlatlar iqtisodiga turlicha va qarama-qarshi ta’sir ko‘rsatmoqda. Shuning bilan birga, rivojlanayotgan mamlakatlarning kapital eksporterlariga aylanishi ko‘p jihatdan ijobjiy hisoblanadi. U bu mamlakatlarning iqtisodiy aloqalari kengayishiga, mustaqilligi oshishiga, jahon iqtisodidagi roli kuchayishiga yordam beradi. Bir ozod bo‘lgan davlatdan ikkinchi ozod bo‘lgan davlatga kapitalning olib chiqilishi ularning xo‘jaligi internatsionallashuvini tezlashtiradi, nisbatan qoloq davlatga yangi texnologiya, ishlab chiqarish tajribasi, moliyaviy yordam berilishi imkoniyatini yaratadi.

Ushbu bobga shunday xulosa yasash mumkin:

1. Jahon iqtisodining internatsionallashuvi, transmilliy korporatsiyalar rivojlanishining tezlashuvi yangi bozorlar uchun ular o‘rtasidagi kurashni keskinlashtiradi.

2. O‘z navbatida jahon iqtisodiyotining‘ yetakchi markazlari orasidagi raqobatning kuchayishi chet el investitsiyalari geografiyasida yangi oqimlarni keltirib chiqaradi, rivojlanayotgan mamlakatlarga bevosita chet el investitsiyalari olib kirishning ilgarilab ketishiga olib keladi.

3. Ayni vaqtda rivojlanayotgan mamlakatlar ichida keyingi ikki o‘n yillar mobaynida bevosita chet el investitsiyalarini jalg qilish borasida yaqqol yetakchi mamlakatlar paydo bo‘ldi. Bular, Janubiy, Sharqiy, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlaridir. Ularning o‘ziga jalg qiladigan tomoni, ichki bozorlari yuqori sur’atlar bilan o‘smoqda va ko‘lamlari kengaymoqda.

4. Rivojlanayotgan mamlakatlarga xususiy investitsiyalar kirishi bilan birga ular rasmiy yordam ham oladilar. Biroq, keyingi 10 yil mobaynida rasmiy yordam birmuncha qisqardi.

5. Chet el kapitalining rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodda ishtirok etishining asosiy shakli u yerlarda chet el filiallarini tuzish bo‘lib qolmoqda. Bundan tashqari, aralash (qo‘shma) korxonalar tuzish, shu mamlakatlar bilan bitimli munosabatlarni yo‘lga qo‘yish kabi usullar ham keng quloch yoymoqda.

6. Keyingi 20-25 yil ichida o‘z navbatida rivojlanayotgan mamlakatlardan kapital olib chiqish ko‘lami kengaymoqda.

7. Yangi industrial mamlakatlarda kapitalning jamg‘arilishi bilan bir vaqtda, ayrim tarmoqlar, iqtisodning zamonaviy tarmoqlarida ichki bozorning torligi kuzatilmoqda. Bunga sabab xo‘jalikning eskirib qolgan an‘anaviy shakllari ko‘plab saqlanib qolganligi va iqtisodning tarqoqligidir.

8. Rivojlanayotgan mamlakatlardan kapitalni olib chiqilishida iqtisodi "neft dollari"ning ortiqcha ko‘p massasini o‘zlashtirishga qurbi yetmaydigan neft qazib oluvchi davlatlar katta rol o‘ynamoqda.

9. Umuman, rivojlanayotgan mamlakatlardan kapital chiqarish ularda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy va h.k. jarayonlarga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi, bu hol ularning mustaqilligi kuchayishiga, jahon xo‘jaligiga chuqrarroq kirib borishiga yordam beradi.

SEMINAR MASHG‘ULOTLARI REJASI

1. Rivojlanayotgan mamlakatlarga kapitalning olib chiqilishi sabablari, an‘analari va geografiyasidagi o‘zgarishlar.
2. Rivojlanayotgan mamlakatlarga kapital olib chiqilishi tuzilmasining rivojlanishi.
3. Chet el kapitalining rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodida ishtirok etish shakllari.
4. Rivojlanayotgan mamlakatlardan kapital olib chiqqilishining sabablari va an‘analari.
5. Kapital eksportining rivojlanayotgan davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyati.

ADABIYOTLAR

1. Басовский Л.Е. Мировая экономика. Курс лекций — М., ИНФРА-М, 2003.
2. Белоус Т.Я. Международные монополии и вывоз капитала. М., «Наука», 1987.
3. Брагина Е, Гумен Р. Мировая промышленность: статика и динамика. - ж. МЭ и МО, М., 1995, №5.
4. Ковалевский А. Частные прямые инвестиции странах Азии Африки и Океании. -ж. "Азия и Африка сегодня". М., 1989, №5.
5. Ломакин В.К. Мировая экономика. М., «Финансы», 1998.
6. Раджабова З.К. Мировая экономика. М., ИНФРА-М, 2004.
7. Солюс Г.П., Кузнецова А.И. Развивающиеся страны в сетях финансовой зависимости. М., Финансы и политика, 1990.
8. Хвойник Л. Трудные проблемы внешнего финансирования развивающихся стран. — ж. "МЭ и МО", 1990, №3.
9. World Investment Report 1998: Trends and Determinants, UN, New York and Geneva, 1998.

5-BOB ZAMONAVIY JAHON IQTISODIDA YANGI INDUSTRIAL MAMLAKATLAR

1960-yillar oxiri 70-yillardan boshlab rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodi uchun rivojlanish sur'atlarining yuqoriligi, xalqaro iqtisodiy munosabatlarga qo'shilishi xarakterlidir. 1970-96 yillar mobaynida ularning jahon savdosidagi ulushi 18,9% dan 28,7% gacha, ya'ni 1,5 martadan ko'proq o'sdi.

Biroq, bu umumlashtirilgan ko'rsatkich ushbu yutuqlarga erishishda "uchinchi dunyo" mamlakatlari turli guruxlarining haqiqiy ishtiropini aks ettirmaydi. Amalda esa vaziyat shundayki, aytib o'tilgan davrda ulardan ko'pchiligining jahon bozoridagi ishtiropi kamaygan. Yuqorida aytib o'tilgan yutuqlarga bir necha mamlakatlar tufayligina erishildi. Umumiyl tovar eksportiga 15 ta rivojlanayotgan davlatning hissasi 41,5 dan 77% gacha, jumladan, qayta ishlov beruvchi sanoat eksportida ularning hissasi 27,1 dan 91,8% gacha o'sdi. Ular orasida "Yangi industrial mamlakatlar" deb ataladigan davlatlar, avvalo Lotin Amerikasi va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari yetakchi o'rinni egalladi Ular keyingi 20-30 yilda jahon iqtisodiga shiddat bilan kirib kelishdi.

Bir davlatni yangi industrial mamlakatlar jumlasiga qo'shish uchun umumiy mezon yo'q. Ba'zi olimlarning fikricha, eksportda sanoat tovarlari ancha katta o'rın tutadigan bir qator rivojlanayotgan mamlakatlar (Braziliya, Meksika, Argentina, Hindiston, Singapur, Indoneziya, Janubiy Koreya, Tayvan va h.k.)ni, o'rtacha rivojlangan kapitalistik mamlakatlar (Ispaniya, Gretsiya, Irlandiya va h.k.)ni "yangi industrial mamlakatlar" jumlasiga qo'shish mumkin. 1978 yilda eksportda sanoat maxsulotlari ulushi Gonkongda 96%, Janubiy Koreyada 85%, Hindistonda 60%, Singapurda 45%, Braziliyada 33%, Argentina va Meksikada 26% ni tashkil etdi.

Boshqa ba'zi iqtisodchilarining fikricha, bir qator ko'rsatkichlar yig'indisini hisobga olish lozim. Shunday qilib, qanday mamlakatlarni yangi industrial mamlakatlar jumlasiga kiritish kerakligi borasida mutaxassislarning fikri turlicha bo'lmoqda. Shunga qaramay, jahon iqtisodiy amaliyotida Argentina, Braziliya, Meksika, Singapur, Janubiy Koreya, Tayvan, Indoneziya, Gonkong, Filippin, Malayziya, Tayland kabi davlatlar "yangi industrial davlatlar" nomini mustahkam egallab oldi.

Yangi industrial mamlakatlar iqtisodi tavsifi.

Eksportning roli

Yangi industrial mamlakatlardan ba'zilarini, ya'ni Osiyo-Tinch okeani mintaqasida joylashgan Janubiy Koreya, Gonkong (hozir XXR hududida), Tayvan va Singapurni "yangi Yaponiya" yoki "to'rt ajdarxo" deb atashadi. Bunga sabab ularning iqtisodiy jihatdan tez rivojlanganligidir. Bu taraqqiyotning asosini eksport tarmog'ining rivojlanishi, tayyor mahsulotlarni eksport qilishni ko'paytirishdagi muvaffaqiyatlar, raqobatbardoshlikning yuqoriligi, jahon bozoridagi o'ziga xos tajovuzkorlik tashkil qiladi.

Yangi industrial mamlakatlar "to'rt ajdarho" iqtisoddagi keskin yuksalish tufayli 1970-yillar o'rtalaridan boshlab o'z rivojida, ayniqsa, eksportda yuqori natijalarga erishdi va amalda sanoati rivojlangan davlatlar darajasiga ko'tarildi. 80-yillarning ikkinchi yarmida ularning iqtisodiy o'sish sur'atlari 7-8% dan pastga tushmadi, o'rtacha olganda umuman 10% ni tashkil qildi.

Tashqi qarzi juda katta bo'lgan ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlardan farqli ravishda, "to'rt ajdaho" o'z to'lov balanslarida yirik ijobji qoldiqni jamladi: 1987 yilda u 30 mldr AQSH dollarini tashkil qildi. Bu ko'rsatkich o'sha vaqtida barcha G'arbiy Yevropa mamlakatlaridan picha kamroq edi. Shuning uchun ham "to'rtlik"da pul jamg'armasining darjasini eng yuqorilardan biri bo'ldi. Masalan, Tayvanning valuta zahiralari 1989 yilning o'zida 76 mldr AQSH dollarga yetdi. Bu AQSH, Buyuk Britaniya, GFRnikidan ko'p, faqat Yaponianikidan ozgina kam edi.

Shuning uchun ham bu davrda yangi industrial mamlakatlar o'z tarixlarida inflatsiyadan deyarli qiynalmadilar, ularda ishsizlar deyarli bo'lmasdi, aholining hayot darjasini esa juda yuqori bo'ldi.

"To'rtlik"ning eksporti birinchi navbatda AQSH va Yaponiyaga qaratilgan. Agar iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a'zo mamlakatlarning umumiyligi importida yangi industrial mamlakatlarning ulushi 7%ni tashkil qilgan bo'lsa, AQSH importida 14%gacha, Yaponiya importida 11%ni tashkil etadi.

Yangi industrial mamlakatlarning Amerika bozoriga moslashganligini to'qimachilik mahsulotlari va kiyim-kechaklar importida ularning ulushi 46%, maishiy texnikada 37%ny tashkil qilganidan bilsa bo'ladi.

Shu bilan birga, yangi industrial mamlakatlardan AQSH bozoriga sanoat mahsulotlarining oqib kirishi ko'p jihatdan Amerika va Yapon transmilliy korporatsiyalarining faoliyagi natijasi hisoblanadi. Masalan, Yaponiya bu mamlakatlardan o'z raqobatdoshlari - AQSH bozorlariga kirib borish uchun yo'lak sifatida faol foydalanadi. Rivojlangan kapitalistik davlatlarning korporatsiyalari yangi industrial mamlakatlardagi imtiyozli tadbirkorlik sharoitlaridan foydalanishadi. Yanada raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish uchun arzon ishchi kuchi va xom ashyo, soliq imtiyozlari va h.k. shular jumlasiga kiradi. Aynan shu mamlakatlarning manfaatlari yangi industrial mamlakatlar iqtisodidagi ustuvor yo'nalishlarga, tashqi savdo tuzilishiga asosiy ta'sir ko'rsatishi bejiz emas Shu nuqtai nazardan Malayziya tashqi savdo ko'rsatkichlari ancha ibratli. Quyida keltirilayotgan jadvaldan ko'rinishdiki mamlakat importining katta qismini oraliq tovarlar tashkil qiladi. Oraliq tovarlar deganda yakunlovchi operatsiyalarni bajarish uchun chetdan keltirilgan, keyin xalqaro bozorga chiqariladigan tovarlar tushuniladi. Shuning uchun eksportda qayta ishlovchi elektron sanoat mahsulotlari yetakchi rol o'ynaydi.

Malayziya eksporti va importi tuzilishi (%da)

	1998	2001
Eksport	100	100
Asosiy xomashyo tovarlari:		
kauchuk	0,97	0,97
palma yog'i	6,2	5,6

tayyor to'sin va taxtalar	1,5	-
xom neft	2,6	-
Ishlov beruvchi sanoat mahsulotlari:	82,9	84,6
gazlama, kiyim-bosh, poyafzal	3,3	-
neft-kimyo mahsulotlari	4,8	-
elektron sanoat mahsulotlari	56,4	55,9
metalga ishlov berish mahsulotlari	2,9	-

Janubiy Koreya iqtisodining tez sur'atlar bilan rivojlanishida eksportning g'oyatda tez o'sishi eng muhim ahamiyat kasb etdi. 1960 va 1989 yillar orasida har yillik eksport o'rtacha 30% o'sdi, shu davr oxirida esa, 60 mlrd AQSH dollaridan oshdi. Mamlakat eksporti diversifikatsiyasida ham yuqori natijalarga erishildi: 1962 yilda 69 nomdag'i eksport tovarlari, 1989 yilda 5270 nomda eksport tovarlari chiqarildi, ya'ni har yillik eksport tovarlari 200 ta yangi mahsulot bilan to'ldirib borildi.

Keyinchalik eksportning o'sish sur'atlari ancha qisqardi, bunga mintaqadagi inqiroz sabab bo'ldi. Agar 1995 yilda Janubiy Koreya eksporti hajmi 1994 yildagiga nisbatan 31,5% o'sgan bo'lsa, 1996 yilda 4,1%, 1997 yilda 7,2% va 2001 yilda 6,1%ga o'sdi.

Mamlakat hukumati litsenziya, imtiyozli qarzlar berish, importni kreditlash asosida eksport mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish bilan tashqi bozorga mo'ljal olish yo'lidan og'ishmay bordi. Natijada milliy firmalar orasida raqobat kuchaydi: shu bilan birga, eksport mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish "o'ziga xos" tarzda rag'batlantirildi. Janubiy koreyalik iqtisodchi B.Songning aytishicha, hukumat ko'rsatmalarini bajarmagan yoki uning rejalariga mos ish yuritmagan korxonalar iqtisodiy infratuzilmadan uzib qo'yilardi (hatto suv va elektr energiyasi berish to'xtatilardi).

Yangi industrial mamlakatlarning iqtisodiy yuksalish sabablari

Ba'zi mutaxassislarining fikricha, bu mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish cho'qqisiga chiqishlariga asosiy sabab, ularning qulay geografik mintaqada joylash-ganligidir. Ular turli qit'alarni birlashtiradigan asosiy savdo yo'llari tutashgan yerda joylashgan. Masalan, Gonkong qadimdan Xitoya borishdagi Janubiy darvoza vazifasini o'tagan. Tinch va Hind okeanlari tutashadigan Singapurni esa, har doim Sharqning g'arbiy darvozasi va G'arbning sharqiy darvozasi deb atashgan.

Yana bir xil mutaxassislarining fikriga ko'ra, ushbu rivojda boshqa ko'p omillarning uyg'unlashuvi katta ahamiyatga ega bo'lib, omillar ichida uddaburonlik bilan yuritilgan epchil soliq siyosati alohida ajralib turadi. Bu siyosat Gonkong va Singapurga ko'pgina chet el savdosoti va sanoat kompaniyalarini, umuman moliya kapitalini jalb qilishiga imkon berdi.

Janubiy Koreya, Singapur, Gonkong va Tayvanga yirik g'arbiy va yapon biznesini tortgan muhim magnit bu yerda ishchi kuchining arzonligi, mahalliy xalqning mehnatsevarligi, ish qobiliyati yuqoriligi bo'ldi. Quyidagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 1995 yilda to'qimachilik sohasida va kiyim-bosh ishlab chiqarishda ishchi kuchining qiymati AQSHda Koreya Respublikasidan 19,0 va 9,1, Indoneziyadan 68 va 5, Turkiyadan 58 va 61 foiz yuqori bo'lgan.

Ayrim mamlakatlar va sanoat tarmoqlarida ishchi kuchi qiymati 1980 va 2002 yillarda (AQSH dagi ish haqiga nisbatan)

Mamlakat	To'qimachilik tarmog'i		Kiyim-bosh ishlab chiqarish	
	1980	2002	1980	2002
Koreya Respublikasi	0,74	0,83	0,79	0,90
Hindiston	1,16	0,85	1,19	0,90

Indoneziya	0,58	0,34	1,14	0,85
Turkiya	0,69	0,45	0,71	0,48

Bular albatta yangi industrial mamlakatlarning rivojlangan davlatlar bilan faol munosabatlarga kirishuvidagi muhim omillardir. Biroq, jahon iqtisodi rivojining hozirgi bosqichi, uning xususiyatlari hal qiluvchi omil bo‘lgan.

Yangi industrial mamlakatlarning yuqorida sanab o‘tilgan tabiiy omillari (geografik o‘rni, arzon ishchi kuchi va h.k.) ancha ilgaridan ma’lum, lekin bu omillarning aynan keyingi 2-3 o‘n yilliklarda qo‘l kelgani tasodif emas. Bu mamlakatlar o‘zlariga xos xususiyatlardan jahon iqtisodi rivojining yangi zamonaviy bosqichida uddaburonlik bilan foydalandilar, bu bosqich uchun quydagilar xos:

- iqtisodning internatsionallashuvi, bu hol xalqaro mehnat taqsimotining yanada rivojlantirilishi va shunga bog‘liq ravishda jahonning eng rivojlangan mamlakatlari milliy xo‘jaliklarining tarkibi o‘zgarishi bilan bog‘liq;
- yirik ko‘lamli ommaviy ishlab chiqarishdan mayda seriyali xususiy ishlab chiqarishga o‘tish;
- ishlab chiqarishni markazlashish, bir joyga to‘planishdan chiqarish, bozor o‘zgarishlariga tez moslasha oladigan mayda va o‘rtacha korxonalarining ahamiyatini oshirish;
- shu munosabat bilan mayda kapitallarning ahamiyati oshishi;
- xo‘jalik yuritishning yangi turi - mahsulotlar ishlab chiqarishning bozor qonunlari erkinligini, xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan iqtisodiy jarayonlarga rejali ta’sir ko‘rsatilishini o‘zida jamlagan turiga talab oshganligi;
- mulkchilik shakllarining ko‘pligi, ular orasidagi munosabatlarning uyg‘unligi mavjudligi;
- inson omilining roli oshganligi, iqtisodning intellektuallashishi, ya’ni fan yutuqlariga suyanishi.

Bu yerda bir-birini izlab yurgan, bir-biridan manfaatdor bo‘lgan sheriklar uchrashib qolgandagidek hol yuz berdi. Osiyodagi yangi industrial mamlakatlarning taqdirida rivojlangan mamlakatlardan Yaponiya alohida rol o‘ynadi. Osiyo mamlakatlaridagi shiddatli iqtisodiy yuksalish taxminan shunday davrga to‘g‘ri keldiki, bu davrda yapon kapitali o‘zining quadratini sezib, bu kapitalni joylashtirishning yangidan-yangi joylari va tarmoqlarini qidirayotgan edi. Aynan o‘sha "to‘rtlik" yapon biznesi uchun juda qulay joylashganligi deyarli hal qiluvchi rolni o‘ynadi. Yaponiya 70-yillar oxirida bu mamlakatlar iqtisodiga kapitalini faol joylashtirib, chet el investorlari ichida u yerlarda yetakchi o‘rinni mustahkam egalladi (Yaponiya 1988 yilda Singapurda raqiblarini ortda qoldirib, birinchi o‘ringa chiqdi).

Yapon investitsiyalari turli shakllarda tez o‘sib bormoqda: sanoatga doir va boshqa loyihibar mablag‘ bilan ta’milanadi, mahsulotlarni joylarda yig‘ish uchun zarur qismlar yetkazib beriladi, mahalliy xodimlarga ish o‘rgatiladi va h.k.

1997 yilda Janubiy, Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyoning rivojlanayotgan mamlakatlariiga Yaponianing bevosita chet el investitsiyalari umumiylajmining 22,6% (2001 yilda 18,4%) ulushi to‘g‘ri kelgan (ayni vaqtda boshqa barcha rivojlanayotgan mamlakatlarning ulushi 36,9%ni tashkil qilgan).

Ilgari Yaponiya o‘z texnologiyasini boshqa mamlakatlar bilan istar-istamay baham ko‘rgan. Biroq, endi vaziyat o‘zgara boshladi. Yaponiya bo‘yicha mutaxassis Ronald Morzening fikricha, "Ular yangi industrial mamlakatlarning iqtisodiy kuchayishiga yordam beradi hamda shu tufayli u yerlarda siyosiy va strategik tayanchga ega bo‘ladi".

Shu narsa juda muhimki, yangi industrial mamlakatlarning o‘zi yapon kapitali va boshqa kapitallardan shuningdek, jahon iqtisodi rivojidagi boshqa zamonaviy an’ana-lardan ancha samarali foydalandi.

Masalan, Singapurda oldiniga Yaponianing 60-yillardagi tajribasi, ya’ni avvalo eksportga mo‘ljallangan ishlab chiqarish tajribasi o‘zlashtirildi. Eng yangi texnologiyaning arzon ishchi kuchi bilan uyg‘unlashuvini ta’minlash maqsadida litsenziyalar, patentlar sotib olishga zo‘r berildi.

Vaqt o‘tishi bilan bu tajriba o‘z ahamiyatini yo‘qotdi. Yaponianing shunday rivojlanish modelini tanlagan Janubiy Koreya, Tayvan mamlakatlari tomonidan raqobat kuchayib, o‘z salbiy

ta'sirini ko'rsata boshladi. Bundan tashqari, rivojlangan mamlakatlar o'z ichki bozorlarini himoya qiluvchi kuchli to'siqlarni yarata boshladilar.

Bunday sharoitda Singapur, to'rtlikning boshqa a'zolari kabi, o'ta murakkab texnologiya yaratishni, fan yutuqlariga asoslangan ishlab chiqarishni rag'batlantirishni, malakali kadrlar tayyorlash uchun katta mablag'lar sarflashni mo'ljal qilib oldi.

Singapur hukumati kam unumli qo'l mehnatini siqib chiqarish uchun 1979 yildan boshlab qo'l mehnati uchun (eng kam) ish haqini majburiy (tadbirkorlar uchun) oshirish siyosatini yuritdi. Bu chora tadbirkorlarni eski kam istiqbolli tarmoqlarni tugatib, ishlab chiqarishni yangilashga, avtomatlashtirishga majbur qildi.

Fan yutuqlariga asoslangan tarmoqlarga mo'ljal olib, Singapur, Janubiy Koreya, Tayvan kabi rivojlanayotgan mamlakatlar, AQSH, Yaponiya, Germaniya kabi eng rivojlangan mamlakatlarga ancha jiddiy raqobatchiga aylandi.

Buning natijasida AQSH "to'rtlik"dan elektron qismlarni sotib olishni ancha qisqartirdi. O'z ichki bozorlarini ularning tovarlari bilan to'ldirmaslik maqsadida boshqa choralarni ham ko'rdi.

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda hukumatning roli

Bozor tizimi iqtisodiy hayotda xususiy sektorning yetakchi o'rin egallashini ko'zda tutadi. Biroq, iqtisodiy rivojlanishning dastlabki bosqichida "siyosiy yechimlar iqtisodiy omillardan ustunlik qilganda" davlat yetakchi rolni o'z qo'liga olgani ma'qul deyish uchun keskin asoslar bor. Masalan, 1960-yillarda Koreya rahbariyati fikricha, ular o'z kuchlarini xususiy tadbirkorlikni yuksaltirish uchun sharoit yaratishga jamlashi lozim edi, shu maqsadda xususiy tadbirkorlarga quyidagi yordamni ko'rsatdi:

- 1) hukumat ijtimoiy infratuzilmani, shu jumladan, yo'llar, to'g'onlar, portlar, temir yo'llar, sanoat zonalari, maktablarni barpo qilish uchun qo'lidan kelgan hamma ishni qildi;
- 2) xususiy tadbirkorlikni kengaytirishni osonlashtirish, uning yo'lidagi to'siqlarni olib tashlash uchun hukumat yangi qonunlar qabul qildi, eskilarini sinchiklab qayta ishlab chiqdi;
- 3) jamg'armalarni ko'paytirish, eksportni kengaytirish, milliy kapitalni, chet el xususiy kapitalini joylashtirishga yordam berish, chet ellardan investitsiyalar, texno-logiyalarni jalgilish maqsadida ko'plab yangi institutlar tashkil qilindi, siyosiy tarzdagi ko'ttlab tadbirlar ko'rildi;
- 4) yirik ko'lamli loyihalar (elektr stansiyalari, po'lat quyish zavodlari, kemasozlik korxonalari qurish) uchun ketadigan xarajatlarni qoplashga ishlatiladigan tashqi qarzlar bo'yicha kafolatlar berib, hukumat ko'pincha xususiy tadbirkorlarning investitsiya borasidagi faoliyati bilan bog'liq tavakkalchilikni o'z zimmasiga oldi;
- 5) davlat ma'muriy apparatining samaradorligini oshirishga doir tadbirlar ko'rildi (xodimlarni chet ellarda o'qitish, malakasini oshirish va h.k.).

Koreyaning urushdan keyingi iqtisodi nisbatan kichik bo'lganligi, iqtisodiy rivojlanish maqsadi ancha oddiyligi, xususiy tadbirkorlarga zarur ma'lumotlar, boshlagan ishini kelajagini ko'ra bilish o'quvi yetishmaganligi tufayli iqtisodiy rivojlanish jarayonini boshqarish uchun hukumat ayrim faoliyat turlari, ba'zi sanoat tarmoqlari uchun rag'batlantiruvchi omillar yaratish yo'li bilan bozor kuchlarini ma'lum yo'nalishga solib yuborishga harakat qildi. Xukumat tutgan ana shu faol o'rin koreys iqtisodini keskin yuksaltirishga turtki bo'lgan asosiy harakatlantiruvchi kuchlardan biri bo'ldi.

Biroq, iqtisodiyot o'sgani va murakkablashgani sari, jahon iqtisodiy vaziyati tez-tez o'zgarib turganligi tufayli siyosatdonlarga shu narsa ayon bo'la boshladiki, bozor mexanizmi, xususiy iqtisodiy faoliyatga davlatning ortiqcha aralashaverishi salbiy oqibatlarga olib kelar ekan

Ikkinchi neft inqirozidan (1978-79) keyin davlatning iqtisodni boshqarish uslubi ro'y bergan salbiy holatlar (qudratli og'ir sanoatning yengil sanoatga nisbatan ortiqcha rivojlanishi, inflatsiyaning yuqoriligi, daromadlarni taqsimlashdagiadolatsizliklar, to'lov balansining buzilishi) tufayli borgan sari tanqidga uchray boshladi.

Yangi koreys hukumati mamlakatdagi iqtisodiy vaziyatni va konyukturaning keskin o'zgarganligini hisobga olib, 1980-yillar boshida xo'jalik siyosatini narxlarning muqim

barqarorligiga erishish, bozor kuchlarining erkinroq harakatlanishiga yo'l qo'yish, tadbirkorlik faoliyatiga yumshoqrok, yondoshish tomoniga o'zgartira boshladi.

Hozirgi vaqtida koreys biznesmenlari ilgarigiga nisbatan ancha qattiq raqobat sharoitida faoliyat ko'rsatmokdalar, hukumatning yo'naltiruvchanlik roli va uning investitsiyalar, ishlab chiqarish va eksportdagi faollikni qo'llab-quvvatlash darajasi past bo'lmoqda.

Davlatning iqtisodiyotni rivojlantirishning dastlabki bosqichlarida ustuvor rolni o'ynashi faqat Koreyagagina xos emas. Shu bilan birga, ko'pincha, "tez va tartibli iqtisodiy o'sish uchun rivojlanayotgan mamlakatda avtoritar hukumatning bo'lishi qanchalik o'zini oqlaydi va qanchalik zarur" degan savol tug'iladi. Biroq, muammo shundaki, ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarda toki muayyan madaniy va iqtisodiy shart-sharoitlar pishib yetilmaguncha siyosiy demokratiya shakllanmaydi. Demokratiyani rivojlantirishning muhim shartlaridan biri, aholi ko'pchilik qismining farovonligi muayyan darajaga yetishidir. "Aqlning ulug'vorligi - farovonlik oqibati", degan qadimgi Xitoy maqoli bor. Demokratiya "aqlning ulug'vorligini", ya'ni sening e'tiqoding va manfaatlariga zid bo'lsa ham murosasozlikka borishga va elektoratning har qanday qarori bilan kelishishga tayyorlikni bildiradi. Bu esa aholining farovonlik darajasi ancha yuqori bo'lishini, hech bo'limganda, umumi surunkali ocharchilik bo'lmasligini taqozo qiladi.

Siyosiy demokratiyaning boshqa iqtisodiy sharti bozor tizimining mavjudligi hisoblanadi. Bozor qobig'idagi iqtisodiy rivojlanish davlatning iqtisodiyotga aralashuviga avtoritar iqtisodiy tuzumga qarshi bo'lg'an kuchlarni keltirib chiqaradi. Keyingi yillar mobaynida koreys siyosiy tizimining ravon faoliyat ko'rsatayotganligiga aynan shu omil asos bo'lmoqda.

Mamlakatda vujudga kelgan iqtisodiy tajriba qanchalik kuchli yo'l-yo'riqlarga asoslanmasin, uning asosini turli mulkchilik shakllariga mo'ljal olinganligi tashkil qiladi. Ana shu keyingi omil monopoliyani bartaraf qilishga olib keldi. Xo'jalik mexanizmi o'z epchilligi, harakatchanligi, tashqi va ichki sharoitlar o'zgarishiga moslashuvchanligini saqlab qoldi. Hukumatning iqtisodiyotga aralashuvi va ta'siri uning jamg'armadagi katta ulushi bilan ta'minlab turildi, lekin xususiy sektor mustahkamlangan sari bu ulush ancha kamaydi: 80-yillar boshiga kelib, birinchi 5 yillik rejadagi 40,7% dan 20,6% ga tushib qoldi.

Davlat mulkchiligi ham shunga monand o'zgarib bordi. Davlat korxonalari soni 60-yillarda yuqori sur'atlar bilan o'sdi va 70-yillar o'rtalarida eng yuqori qiymatga erishdi. Lekin beshinchi besh yillik (1982-86) rejani amalga oshirishga kirishar ekan, hukumat xususiy lashtirish siyosatini yurita boshladi. Bunda u xususiy sektor korxonalarni, metallurgiya va neft-kimyo tarmoqlaridagi korxonalarni samarali boshqarishi mumkin deb hisobladi. "Iqtisodiyotning va chet el davlatlari bilan munosabatlarning murakkablashib borayotganligi tufayli davlat aralashuvini cheklash, xususiy sektorning qarorlar qabul qilishiga ko'proq erkinlik berish zarurligi" borgan sari oydinlashib bordi.

Davlat bilan xususiy investitsiyalar o'rtasidagi nisbatning sifat jihatidan o'zgarishi ilmiytadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalar (NIOKR) kabi ustuvor sohada ham yuz berdi. Bu nisbat 1970 yilda 79:21ni tashkil qildi (jami 10,4 mlrd von, yalpi milliy mahsulotning 0,4%). Bu ko'rsatkich rivojlangan G'arb mamlakatlari ko'rsatkichlariga teng yoki hatto undan ortiq bo'lgan.

1986 yilda bu nisbat 20:80 ni tashkil etdi, ya'ni nisbat tubdan o'zgardi (1,878 mlrd von, yalpi milliy mahsulotning 2,5%) va 2002 yilda shu darajada bo'ldi. Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalariga qilingan bunday katta xarajat hayratli bo'lib, ko'p jihatdan mamlakatning muvaffaqiyatlarini izoxlaydi.

Yangi industrial mamlakatlar iqtisodiyoti rivojining muvaffaqiyati sabablaridan yana biri mahalliy hokimiyatlarning umumiyligi ta'lim va kasbiy tayyorgarlik tizimini rivojlantirishga katta e'tibor berishidir. Ilgari yangi industrial mamlakatlarning afzalligi arzon ishchi kuchi mavjudligi bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, bu hol asta-sekin o'z qiymatini yo'qotdi. Hozirgi zamon iqtisodiyotida rivojlangan yuqori texnologik ishlab chiqarish o'z mehnatidan manfaatdor bo'lgan, katta ish haqi oladigan malakali ishchi kuchisiz samarali bo'la olmaydi. Janubiy Koreyada chet el resurslari, mahalliy resurslardan foydalanishning yuqori samarali bo'lganligiga asosiy sabab mahalliy kadrlarning malakali ekanligidir. Janubiy Koreyaga xos mehnatning

asosiy ko'rsatkichlaridan biri ana shu yuqori malakali ishchilardir. Tadqiqotchilar mahalliy ishchi kuchining sifatini juda yuqori baholaydi. Ular ta'kidlashicha, "Janubiy Koreya mehnat qilishga chanqoq, ma'lumotli va fidokor ishchi kuchiga ega, uning ulkan xususiyat-laridan biri ham ana shudir".

Davlat tomonidan yaratilgan turli darajadagi ta'lim tizimlari, shu jumladan, ishlab chiqarishda kadrlar tayyorlanishi ishchi kuchining yuqori sifatlari bo'lishini ta'minladi.

Mamlakatda katta yoshli aholining savodxonligi 93% ga yetdi (Tayvanda 79%, Yaponiyada 99%).

Tayvanda davlat tomonidan ta'lim tizimiga birinchi darajali ahamiyat beriladi. Amaldagi qonunga muvofiq bu maqsadlarda milliy budgetning kamida 15%ni, viloyatlar budgetining 25%ni, uyezd yoki shahar budgetining 35%ni sarflanadi. 20 mln aholi yashaydigan orolda 120 ta universitet va kollej ishlab turibdi. Keyingi bir necha yildan boshlab maktab bitiruvchilarining yarmidan ko'pi oliy uquv yurtlarida o'qishni yana davom ettiradi.

Madaniyat masalalariga ham xuddi shunday katta ahamiyat berildi. 1978 yilda Chan Kayshining o'g'li prezident Szyan Szingo ichki siyosatning bir qator ustuvor yo'nalishlarida milliy madaniyatni yuksaltirish, fuqarolarning ma'naviy dunyosini boyitish masalalarini ilgari surish haqida bayonot berdi.

Mamlakatda "madaniy hayotni sifat jihatidan ko'tarish yo'li bilan iqtisodiy yuksalishni ijtimoiy barqarorlik bilan uyg'unlashtirish" shiorini amalga oshirish borasida katta ishlar qilindi. Tayvanda G'arb dunyosi bilan ittifoqning naqadar foydali ekanligi ta'kidlandi. Hozirgi Tayvan amalda ikki tilli mamlakat hisoblanib, bu yerda millionlab kishilar ingliz tilida ham gaplashadi, ingliz tili maktablarda majburiy tarzda o'qitiladi. Bu yerda: "Agar biz dunyoga faqat iyerogliflar orqali qaraganimizda edi, hozirgi muvaffaqiyatlarimizga erishmagan bo'lardik", deyishadi. Madaniyat masalalariga bunchalik ustuvor e'tibor hozirgi zamon jahon iqtisodiyotining rivojlanish an'analari va xususiyatlari bilan izohlanadi.

Faqatgina kasbiy va aqliy saviyani emas, balki umummadaniy saviyani ham oshirmay turib, jahon iqtisodiy hamjamiyatiga samarali kirib borish (integratsiya) mumkin emasligiga yangi industrial mamlakatlarda vaqtida ahamiyat berishdi.

Umumiy xulosalar quyidagicha:

1. Yangi industrial mamlakatlarning asosiy xususiyati -iqtisodning yuqori sur'atlarda rivojlanishidir. Buning asosida eksport tarmoqlarning, avvalo, sanoat tovarlari ishlab chiqaradigan tarmoqlarning rivojlanishi yotadi.
2. Bu dashtatlar eksportining o'ziga xos xususiyati, ularning AQSH va Yaponiya bozorlariga mo'ljal olganligidir. Bu Amerika va Yapon transmilliy korporatsiyalarining tezkor faoliyati bilan izohlanadi.
3. Yangi industrial mamlakatlar iqtisodiyoti, eksportining yuqori sur'atlarda rivojlanishi sabablari, ularning jahon iqtisodiyotining hozirgi zamon rivojlanish bosqichida o'z geografik o'rinnari, arzon ishchi kuchi, xom ashyo borasidagi afzallikkardan samarali foydalana olganliklari bilan izohlanadi.
4. Yangi industrial mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishda yuqori ko'rsatkichlarga erishishida, bu yerda siyosiy demokratiyani yaratishda davlatning faol siyosati yetakchi rol o'ynadi; shu tufayli zarur iqtisodiy, tashkiliy va h.k. omillar yaratildi.
5. Yangi industrial mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishdagi muvaffaqiyatlaridan biri mahalliy xrkimiyatlarning ta'lim tizimini rivojlantirishga, yuqori malakali kadrlar tayyorlashga katta e'tibor bergenliklari hamda mintaqalarning mamlakatlarida ta'limning an'anaviy tarzda qadrlanishidir.
6. Milliy madaniyatni yuksaltirish, fuqarolarning ma'naviy dunyosini har taraflama boyitish masalalariga ham xuddi shunday e'tibor berildi.

SEMINAR MASHG'ULOTLARI REJASI

1. Janubi-Sharqiy Osiyo yangi industrial mamlakatlar (YAIM) iqtisodi va eksporti rivojlanishining xususiyatlari.

2. YAIM iqtisodi juda tez rivojlanishining va ularning jahon xo‘jaligiga integratsiyasining ichki va tashqi sabablari
3. Hududdagi YAIMda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirhsda davlatning roli.
4. Hudud mamlakatlaridagi valuta-moliya inqirozining sabablari va uni mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishiga ta’siri.

ADABIYOTLAR

1. Брагина Е. Республика Корея: закономерности экономического чуда. - ж. "МЭ и МО". 1991, №10.
2. Дак Ву Нам. Опыт экономического развития Республики Корея в условиях рыночной системы, — ж. "МЭи МО". 1991, №4.
3. Иванов П.Н. Гонконг. История и современность. М., "Наука", 1990.
4. Международные экономические отношения. Проблемы тенденции развития. Санкт-Петербург, 1990.
5. Оникиенко А. Модернизация на Тайване: от экономической либерализации к политической демократии. — ж. "МЭ и МО" 1993, №2.
6. Раджабова З.К. Мировая экономика. М., ИНФРА-М, 2004.
7. Тэор Т.Р. Мировая экономика, СП Питер, 2001.
8. Федоровский А. Новые индустриальные страны: динамика роста сохраняется - Тенденции мирового экономического развития. Обзор за 1990 г. и начало 1991 г., М., "Наука", 1991.
9. Федоровский А. Южнокорейский опыт внешне ориентированного развития; МЭ и МО, М., 1999, №7.
10. Чудодеев А. Прыжок "четырех китов" - ж. Новое время, 1989, №27.
11. How big is Asia. The Economist, 7.11.98.

6-BOB OSIYO-TINCH OKEANI MINTAQASI DAVLATLARI (ASOSIY TAMOYILLAR VA INTEGRATSIYALASHUVNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI)

Rivojlanayotgan jahoning ayrim mintaqalaridagi iqtisodiy rivojlanishning yuqori sur’atlari, ularning tashqi iqtisodiy, savdo aloqalari kengayishiga kuchli turtki bo‘ldi. Shu bilan birga, bir qator ichki va tashqi omillarga ko‘ra, mintaqaviy ichki hamkorlikni kengaytirish, chuqurlashtirish, yangi hududiy birlashmalarning paydo bo‘lishi borgan sari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday ittifoqlarning a’zolari faqat rivojlanayotgan mamlakatlar emas, balki ilg‘or mamlakatlar ham ushbu mintaqa a’zolari xisoblanadi.

Iqtisodiy rivojlanish sohasida ham, mintaqa ichidagi kooperatsiyada ham ilgarilab ketganlardan biri - Osiyo-Tinch okeani mintaqasi hisoblanadi. Bu mintaqa davlatlari o‘rtasida iqtisodiy rivojlanish borasida o‘sish eng yuqori bo‘lgan davlatlar: Япония, AQSH, yangi industrial mamlakatlar (Janubiy Koreya, Tayvan, Gonkong, Singapur), Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasi a’zolari bo‘lgan mamlakatlar hamda Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Xitoy.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasi mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari va mintaqada davlatlararo hamkorlikni rag‘batlantiruvchi omillar umuman, mintaqa mamlakatlarining iqtisodiy jihatdan yuqori sur’atlarda rivojlanishiga, bu yerda joylashgan davlatlarning samarali siyosati, hukumatlar, sanoat va fan doiralarining birgalikdagi harakatlari sabab bo‘ldi. Shuni ta’kidlash joizki, ularning iqtisodiy strategiyalarida tafovut bo‘lishiga qaramay, quyidagi bir qator o‘xshash tomonlari ham bor:

1. Eksportga mo‘ljallangan siyosat yuritish, bunda:

- Iqtisodiy rejalashtirish va siyosatni tanlashda qiymat omillarini doimiy hisobga olish rag‘batlantiriladi;
- jahon xo‘jaligi bilan integratsiyalashish xususiy sektorning samaradorligini oshiruvchi mexanizmlarni ishga soladi;
- eksport chet el valutasida daromad keltiradi.

2. Yuqori jamg‘arish normasi. Ma’lumki, biron-bir mamlakatning omonatlari, jamg‘armalari uning yalpi milliy mahsuloti hajmining 20%ga yetsa, u o‘z-o‘zini tiklab turuvchi rivojlanish bosqichiga erishadi. 1960 yilda Osiyodagi yangi industrial mamlakatlar va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasiga a’zo davlatlar ichida faqat Tayvanda jamg‘arish normasi 20%ga yetdi. 1982 yildan boshlab barcha a’zo mamlakatlarda 20%dan oshdi. Shunday qilib, o‘z jamg‘armalari, chet el manbalaridan keladigan qo‘sishmcha mablag‘lariga ega bo‘lgan bu mamlakatlar iqtisodini keng ko‘lamda investitsiyalashga erishdi.

3. Xususiy sektorniig faoliyati va iqtisodiyotni samaraliroq rivojlanirish mahsadida xususiylashtirish siyosatiining o‘tkazilishi. Bu yerda xususiylashtirishning ikki - mulkchilikni va boshqaruvni xususiylashtirish tomonlari bor. Mulkchilikni xususiylashtirishda ijtimoiy tengsizlikni vujudga keltirmaslik yoki abadiylashtirmaslik choralarini ko‘rish lozim. Shuning uchun ham Xitoya tovarlar oqimini tartibga solish borasida bozor qonunlari va mexanizmlari qabul qilinishi davlat mulki saqlangani holda amalga oshiriladi. Xususiy mulkchilik yetakchi bo‘lgan Yaponiyada ham mulkchilik va boshqaruv bir-biridan alohidadir.

4. Qishloq ho‘jaligi sohasidagi taraqqiyot. Mintaqadagi mamlakatlarda qishloq xo‘jaligini gullab-yashnayotgan tarmoqqa aylantirish maqsadida agrar sektorga alohida e’tibor qaratildi. Xususan, Janubiy Koreyada qat’iylashtirilgan narxlarni saqlab turishga qaratilgan davlat dasturi qabul qilingan va u muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda, qishloq infratuzilmasini yaxshilashga doir ilmiy tadqiqotlar o‘tkazildi, har xil tadbirlar ko‘rildi.

5. Iqtisodiy moslashish (adaptatsiya) siyosati. 1970-yillar boshida yuz bergen neft inqirozi davridagi iqtisodiy pasayishga qaramay, Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari yuritgan iqtisodiy siyosat ularni bu murakkab davrni qarzlarsiz bosib o‘tishga imkon berdi. Buning ustiga ular 3-4% o‘sishga, keyin esa jahon iqtisodidagi umumiyligi yuksalish sharoitida 10% va undan ortiq o‘sish sur’atiga erisha oldi. Umuman, Sharqiy, Janubi-Sharqiy Osiyo va Tinch okeani havzasi mintaqasi mamlakatlari 1980-2000 yillarda yalpi milliy mahsulotning o‘rtacha yillik o‘sish sur’atlari 7,8%ni, Sharqiy Osiyoda - 9,3%, Janubi-Sharqiy Osiyoda - 6,3%ni tashkil etdi. Xitoy esa bu ko‘rsatkich bo‘yicha yetakchi bo‘ldi - unda 10,1%ga yetdi.

6. Osiyo-Tinn okeani mintaqasi mamlakatlari uchun bu yerda milliy intilishlarni samarali amalga oshirish uchun qulay bo‘lgan xalqaro hamkorlik muhiti mavjudligi muhim umumiyligi omil hisoblanadi. Shu bilan birga, u kooperatsiya jarayoni mehnat taqsimotining an’anaviy vertikal va gorizontal turlariga asoslangan boshqa mintaqalardan ancha farqlanadi. Birinchi tur XIX asrda ustunlik qilgan, sanoati rivojlangan mamlakat bilan xomashyo yetkazib beruvchi mamlakat yoki metropoliya bilan mustamlaka o‘rtasidagi munosabatni ifodalagan. Ikkinci tur Yevropa Ittifoqiga xos bo‘lib, unda taxminan bir xil darajada rivojlangan, madaniyati o‘xhash bo‘lgan industrial mamlakatlar o‘zaro savdo-iqtisodiy hamkorlik olib boradilar. Bulardan farqli o‘laroq, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari mehnat taqsimoti "uchayotgan g‘ozlar" tipidagi rivojlanish nomini olib, unga o‘ziga xos o‘sish turi to‘g‘ri keladi. Ma’lumki, bu hududda AQSH birinchi va yetakchi davlatga aylandi. XIX asr oxirlaridan boshlab Yaponiya eng zarur iste’mol tovarlari sohasida, keyinroq uzoq muddat foyda-laniladigan tovarlar, sanoatning turli sohalarida quvib yetish usulidagi rivojlanish strategiyasiga amal qildi. Hozirgi vaqtida yangi industrial mamlakatlar hamda Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiaiiyasiga a’zo davlatlar Yaponiya yo‘lidan bormoqda.

Ko‘rilayotgan mamlakatlardagi integratsiya jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari shundaki, Osiyo mamlakatlarining rivojlanish darajasi, tabiiy resurslarning ko‘p yoki kamligi, madaniy, tarixiy va diniy xususiyatlar jihatdan farqlarning kattaligi tufayli ularning Yevropa Ittifoqi ruhida iqtisodiy integratsiyalashuvi mumkin emas. Biroq, aynan shu ko‘p turlilik ularning "uchayotgan g‘ozlar" tipida birgalikda rivojlanishini taqozo qiladi. Bunda har qaysi mamlakat

o'zaro to'ldiruvchi mehnat taqsimoti yordamida oldinga harakatlanish uchun o'z xususiyatlarini ishga soladi.

Ma'lumki, xalqaro mehnat taqsimotining bu turi, "Shimol-Janub" doirasida industrial va rivojlanayotgan mamlakatlar orasida munosabatlarning rivojlanishiga yordam berdi. Bir vaqtlar Yaponiya va Amerika kapitallari ko'p mehnat talab qiladigan ishlab chiqarishlarni yaratish uchun Osiyo mamlakatlariga keng ko'lama investitsiyalar kiritgan edi. Endi Osiyodagi yangi industrial mamlakatlar uzoq muddat foydalaniladigan iste'mol buyumlari ishlab chiqarishni avj oldirishmoqda. Ular yirik bozorlarga aylanib, mintaqasi savdo-sotiqning kengayishiga hissa qo'shmaqda. Bundan tashqari, 1990-yillarning o'rtalariga kelib, Singapur va Gonkong muhim kapital eksportchilariga aylandi. Janubiy Koreya va Tayvan bevosita investitsiyalar kiritish, texnologiya o'tkazish yo'li bilan boshqa mamlakatlarga yordam ko'rsatmoqda.

Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasiga a'zo davlatlarda mehnat, tabiiy resurslar mo'l bo'lib, ularni boshqa mamlakatlarga, o'z mintaqalaridagi mamlakatlarga yetkazib bermoqda. Masalan, Indoneziya, Malayziya va Bruney neft eksport qiladi. Bundan tashqari, ko'p mehnat talab qiladigan ishlab chiqarishlar Osiyodagi yangi industrial mamlakatlardan Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasiga a'zo davlatlarga o'tib turadi. Shuning uchun ularda xom ashyo emas, balki eksport qilinadigan shu xom ashyoga ishlov berish darajasini oshirish tadbirlari ko'rildi. Mintaqaning ko'p davlatlari qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish borasida sezilarli taraqqiyotga erishdi.

Mintaqa ichidagi integratsiyani rag'batlantiruvchi tashqi sabablar ichida Yevropa va Amerikada ro'y berayotgan iqtisodiy bloklarning shakllanish an'anasi ajralib turadi. Bu Yevropa Ittifoqi doirasida yagona bozor hosil bo'lishi munosabati bilan Yevropa iqtisodiyoti autsayder mamlakatlar uchun yopilib qoladi, degan xavotir bilan bog'liq.

"Sharqiy Yevropa omili" ham ularni xavotirga soladi. Bunga ko'ra, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda kapitalga ehtayoq keskin oshib ketishi va shu sababli ssuda foizi ko'tarilishi mumkin.

Retsipiyyent (qabul qiluvchi) mamlakatlar orasida turli jamg'armalar uchun, kapitalning kirib kelishi uchun, shu jumladan, rivojlanishiga rasmiy davlat yordami, xususiy kreditlar, investitsiyalar uchun jahon miqyosida raqobatning kuchayishi ham muhim o'rin tutadi.

Janubiy Koreya ilgari kapitalning netto-eksportchisi bo'lgan bo'lsa, 1991 yildan boshlab netto-importchisiga aylandi. Agar 1986-91 yillarda mamlakatta bevosita chet el investitsiyalari kiritish o'rtacha hajmi 863 mln AQSH dollarini tashkil qilgan bo'lsa, 2000 yilda u 3300 mln dollarga yetdi yoki 3,5 marta ko'paydi. Singapur, Indoneziya va mintaqaning boshqa davlatlariga kirdigan bevosita investitsiyalar oqimi ancha o'sdi (11-jadval).

11-jadval

Janubiy, Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlariga bevosita chet el investitsiyalarining kirishi (mln AQSH dollarida)

Mamlakatlar	1986-91 (yiliga o'rtacha)	1992	1993	1994	1995	1996	2000
Janubiy Koreya	863	727	588	809	1776	2325	3300
Malayziya	1605	5183	5006	4342	4132	4672	1500
Tailand	1325	2114	1804	1322	2002	2268	6200
Xitoy	3105	11156	27515	33787	35849	40800	45300
Indoneziya	746	1777	2004	2109	4348	6194	2700
Singapur	3592	2204	4686	8368	8210	9440	7000
Filippin	501	228	1238	1591	1459	1520	500
Janubiy,	2351	6964	7024	6457	8487	10875	9109

Sharqiy va Janubi- Sharqiy Osiyo mamlakatlari						
--	--	--	--	--	--	--

Indoneziya, Malayziya, Tailand, Xitoyga kreditlar berildi. Tayvan ham kapital netto-importchisiga aylanmokda. Bundan kelib chiqqan holda shuni e'tiborga olish kerakki, bevosita investitsiyalar retsipyentlari orasida sanoati rivojlangan mamlakatlarning ulushi o'sishi ochiq-oydin kuzatilmogda. Boshqacha aytgaida, rivojlangan mamlakatlar firmalar darajasida bir-birlari bilan borgan sari ko'proq hamkorlik qilishmoqda. Umuman aytish mumkinki, yangi industrial mamlakatlar va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasiga a'zo mamlakatlar jamg'armalar uchun kuchayayotgan xalqaro raqobatga kirishdilar. Bu jamg'armalarning og'ir shartlari ushbu mamlakatlarni birgalikda hamkorlik qilishga majbur etmoqda.

Mintaqa ichidagi hamkorlikni rivojlantirishdagi asosiy ichki omillar

Osiyo-Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari - etnik, til, madaniyat, diniy e'tiqod, tarixiy yo'l, texnologik daraja, tabiiy resurslarining kam-ko'pligi jihatidan bir-biridan keskin farq qiluvchi mamlakatlar majmuidir. Shuning uchun birinchi omil shu turli-tumanlikdan eng samarali foydalanish zaruriyati bilan bog'liq. Bunga mintaqada transport, aloqa vositalarining yuqori rivojlanganligi qo'l keladi.

Endi hudud ichida almashinuv jarayoni o'sib borgani sari ikki tomonlama aloqadan ko'p tomonlama aloqaga o'tish rusumi yetakchi omilga aylanmoqda. Masalan, ilgari Avstralaliyaning temir rudasi asosan yapon metallurgiya zavodlariga yetkazib berilgan bo'lsa, endi Janubiy Koreya va Tayvan zavodlariga ham yetkazib berilmoqda.

Osiyo-Tinch okeani hududi mamlakatlari majmuiga industrial mamlakatlar ham, rivojlanayotgan mamlakatlar ham kiradi. Shuning uchun olimlarning fikricha, Tinch okeani hududi asosida "Shimol-Janub" dialogini rivojlantirish jahon miqyosidagi (global) dialog uchun yangi imkoniyat ochib berishi mumkin. Osiyo-Tinch okeani mamlakatlarining turli-tumanligini hisobga olib, olimlar bu hududda Yevropa Ittifoqi tipidagi hamjamiyat tuzilmasi yaqin o'rtada paydo bo'lishiga uncha ishonayotganlari yo'q. Buning o'rniغا, ular, hududda erkin va moslashuvchan (epchil) hamkorlik tuzilmalariga, hatto Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasiga a'zo mamlakatlardagidan mustahkamroq munosabat o'rnatishga imkon beradigan tuzilmalarga intilish haqiqatga yaqinroq bo'ladi, deb hisoblashadi.

Shubhasizki, bozor mexanizmlari orqali amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyat hududda aloqalarni, almashinuvni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, hudud mamlakatlari o'rtasida madaniyat, fan, ta'lim, texnologiya sohalarida ham almashinuvlarni kengaytirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Tinch okeani hududidagi hamkorlikni chuqurlashtirishda shuni inobatga olish kerakki, bu mamlakatlar hudud doirasidan chiqib, jahon iqtisodiga integratsiyalashish jarayonini tezlashtirish borasida o'z xatti-harakatlarini birlashtirib, hamkorlikning yanada samarali bosqichlariga intilmoqdalar.

Mintaqa ichidagi o'zaro munosabatlar, "Osiyo kichik tizimi" doirasidagi aloqalarning kuchayishi avvalo quyidagi sohalarda yuz bermoqda:

- Savdo-sotiq;
- bevosita investitsiyalar;
- firmalar o'rtasidagi sheriklik;
- davlatlararo darajadagi hamkorlik.

Mavjud ma'lumotlarga muvofiq o'zaro tashqi savdo bo'yicha o'sish jahon sur'atlariga nisbatan ilgarilab amalga oshmoqda, umuman hudud mamlakatlarining bir-birlariga sherik sifatidagi roli kuchaymoqda. 1980-yillarning ikkinchi yarmida bu hududda joylashgan yangi industrial mamlakatlarning Osiyodagi rivojlanayotgan mamlakatlarga, shu jumladan, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasiga a'zo mamlakatlarga chiqargan eksport hajmi rivojlangan mamlakatlarga bo'lgan eksport ulushidan ko'proq bo'ldi.

1996 yilda Gonkongning umumiy eksportida, Osiyo va Okeaniya mamlakatlariga eksport

ulushi 55,4%, rivojlanayotgan mamlakatlarga 47%, Indoneziya, Malayziya, Filippin, Janubiy Koreya va Tailandga 5,3%-ni tashkil qildi.

Xitoy uchun yangi industrial mamlakatlar bozorining ahamiyati 1980 yillar ikkinchi yarmida Amerika bozoriga qaraganda deyarli 5 marta yuqori bo'ldi (umumiy eksportida ulushi 37,8%, Amerika bozori ulushi esa 7,7%). Bu ko'rsatkich Yaponiyanikidan ikki marta (16,2%) yuqori bo'ldi. 1996 yilda bu mamlakatlarning Xitoy eksportidagi ulushi 48,7%gacha o'sdi.

Malakasiz ishchi kuchi resurslari juda katta bo'lган Xitoy uchun eksport asosan ko'п mehnat talab qiladigan ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lib, shunday mahsulotlar eksporti Xitoyda 1980-yillarda yiliga о'rtacha 25% o'sgan bo'lsa, uning umumiy eksportida bunday mahsulotlar ulushi 1975 yildagi 30%dan 2000 yilda 80% gacha oshdi.

Xo'sh, Xitoyda bunday mahsulotlar ishlab chiqarishning tez sur'atlarda o'sishi boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarni jahon bozoridan siqib chiqardimi? Yo'q, bunday hol yuz bermadi. Birinchidan, Xitoy eksporti boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarning o'rnini emas, balki daromad darajasi nisbatan yuqori bo'lган yangi industrial mamlakatlarning eksporti o'rnini egalladi. Ikkinchidan, bugungi kunda jahonda sermehnat tovarlarga bo'lган ehtiyoj keragidan ortiqdir.

Masalan, Xitoyda sermehnat tovarlar eksporti tez rivojlanayotgan ayni paytlarda sharqiy Osiyoning "to'rt yo'lbarsi" (Gonkong, Janubiy Koreya, Singapur va Tayvan)da bunday mahsulotlar eksporti pasaydi: 1994 yildagi 55%dan 2001 yilda 20%ga tushdi. Xitoy eksporti bu mamlakatlar eksporti o'rnini bemalol egalladi. Natijada "to'rt yo'lbars" mamlakatlarining kiyimkechak, o'yinchoq va sport tovarlari bo'yicha jahon bozoridagi umumiy ulushi qisqardi. O'sha "to'rt yo'lbars" mamlakatlarining Xitoya kiritgan bevosita kapitallari Xitoyning eksporti o'sishiga olib keldi: ularning firmalari ko'п holda o'z ishlab chiqarish liniyalarini Xitoya ko'chirdilar. Ayni paytda "yo'lbarslar" ishlab chiqarishning katta kapital qo'yish, yuqori malakali ishchi kuchlarni talab qiladigan sohalariga, yangi murakkab texnologiyalarga e'tiborni kuchaytirib, ushbu mahsulotlarni (kompyuter, elektronika, kemalar va h.k. zamonaviy buyumlar) ishlab chiqarishda bir pog'ona ko'tarildilar.

Xitoyning ochiq iqtisodiyoti uning jahon savdosidagi nisbiy afzalliklarini o'zgartirib yubordi; shuning uchun "yo'lbarslar" qarshilik qilish o'rniga, tug'ilgan imkoniyatlardan foydalanishdi, o'z resurslarini oddiy ishlab chiqarishdan murakkab ishlab chiqarishga ko'chirishdi, dividend maqsadida o'z bilimdari, tajribalaridan Xitoyda ishlab chiqarishni kuchaytirish uchun foydalanishdi.

Yaponiya va AQSHga kelsak, bu yerda ham yangi industrial mamlakatlar, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari va Xitoy bilan bo'lган tovar oboroti ularning eksport bo'yicha, import bo'yicha umumiy o'sish sur'atlaridan oshdi. Masalan, AQSHning bu mamlakatlarga eksport ulushi 1970 yilda 16,2%, 1987 yilda 24,2% va 2001 yilda 19%ni, Yaponiyada esa, tegishlichcha 55, 61,4 va 47,6%ni tashkil etdi.

Hududning rivojlanayotgan mamlakatlari o'rtasida savdo-sotiqning o'sish sur'atlari yuqoriligi hudud ichidagi aloqaning borgan sari zich va sertarmoqroq bo'lib borayotganliganing mustaqil omilidir.

Hududda o'zaro bog'liklikning kuchayishi chet el investitsiyalarining o'sib borishi bilan izohlanadi.

udud ichidagi firmalararo aloqa va sheriklikni turli usullarda jadallashtirish o'zaro bog'liqpikni kuchaytirishning ustuvor omillari jumlasiga kiradi, bu yapon korporatskyalari uchun xalqaro ishlab chiqarish tizimining shakllanishi bilan bog'liq. Gap shundaki, sarmoya eksportining turli maqsadlari nisbati asta-sekin o'zgarmoqda. Ko'pchilik kompaniyalar uchun endilikda retsipyent mamlakatning bozorini eksport orqali egallah emas, balki xarajatlarni optimallashtirishga, resurslarning barcha turlaridan foydalanishga, mahsulotlarni jahon bozori miqyosida sotishga imkon beradigan xalqaro ichki va korporatsiyalararo tashkiliy-boshqaruva tizimini yaratish asosiy maqsad bo'lib qoldi. Masalan, keyingi bir necha yil mobaynida o'z tashqi iqtisodiy faoliyatida faqat eksportni ko'zlaydigan yapon korporatsiyalari ulushi 46% dan 23% ga tushib qoldi. Firmalar orasida vazifalar ratsional taqsimlanadigan xalqaro sheriklik

tizimlarini tuzishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yan yapon firmalarining ko‘lami esa 50% ni tashkil qildi. Bu ko‘rsatkich o‘sib borish tendensiyasiga ega. Shubhasiz, Osiyo va Tinch okeani hududi mamlakatlari, uning "Osiyo kichik tizimi" bunday sheriklikning markazi hisoblanadi. Bunda yapon korxonalari yangi industrial mamlakatlar bilan faqat mahsulotning o‘zlashtirib bo‘lingan turlarini emas, balki yangilarini ishlab chiqish borasida ham hamkorlik qilishga harakat qilishdi.

Ayniqsa, bunday munosabatlar Janubiy Koreya bilan jadal olib borilmoqda. "Turli tarmoqlarga tegishli firmalar munosabatlari tizimi" Yaponiya-Janubiy Koreya firmalararo munosabatlarida yangi aloqalar jumlasiga kiradi. Uning mohiyatn, turli tarmohlarda band bo‘lgan mayda va o‘rta tadbirkorlar doimiy ishlovchi guruhlar (jamiyatlar, ittifoqlar va h.k.) doirasida muntazam ravishda texnikaviy, iqtisodiy axborotlar bilan almashib turishadi, o‘zlarining ko‘p jihatdan umumiy hisoblangan boshqaruv, moliyaviy va boshqa muammolarini muhokama qilishadi, to‘plagan tajribalarini o‘rtoqlashishadi.

Odatda, guruhlar davlat, mahalliy hokimiyat organlarining tashabbusi va ishtirokida tashkil qilinadi. Mayda biznesni tashkil qilishda bunday tizim juda samaralidir. Bunday tizim Yaponiyada yaxshi yo‘lga qo‘ylgan bo‘lib, keyingi yillarda Janubiy Koreya hukumati ham shunday tuzilmalar yaratishni ma’qullamoqda. Yaponiya va Janubiy Koreya firmalarining tarmoqlararo aloqalari ilk bor 1991 yidda boshlandi.

So‘nggi vaqtarda yangi industrial mamlakatlar, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlar assotsiatsiyasi davlatlari o‘rtasida yirik korporatsiyalarining o‘zaro hamkorligi ancha faollashdi. Bu mamlakatlarning sanoat, moliya va boshqa sohalardagi yetakchi kompaniyalarining moliyaviy-iqtisodiy qudrati ancha oshganligi ularning faoliyat sohalarini faol diversifikatsiyalash, qo‘shilish, kirib borish siyosatini o‘tkazish, Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyoda hududlararo sheriklik tarmoqlarini yaratish imkoniyatlarini berdi. Masalan, Singapur konglomerati "Keppel" va Indoneziya firmasi "Astors" investitsiyalar, ishlanmalar sohasida qo‘shma korxona tuzish haqida kelishib olishdi. "Keppel" Filippin kemasozligi va qimmatli qog‘ozlar operatsiyalari sohasida ko‘p mikdordagi aksiyalar paketini sotib oldi.

Indoneziya va Singapur Indoneziyaning Liau orollarida infratuzilmani rivojlantirishga doir o‘z loyihibarini amalga oshirishni rejalashtirdi. Liau orollariga Singapur sarmoyasi borgan sari ko‘proq kirib bormoqsa. Yangi industrial mamlakatlar va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasi davlatlari korporatsiyalarining Xitoy va Vyetnamga qiziqishi ortib, Osiyo-Tinch okeani hududining iqtisodiy jihatdan o‘sayotgan qismida, ayniqsa, "Osiyo kichik tizimi" doirasida borgan sari jadallahayotgan o‘zaro munosabatlar shakllanmoqda.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi hamkorlikni tashkiliy rasmiylashtirish (institutsionlash) va uning xususiyatlari Mintaqqa ichidagi savdo-iqtisodiy munosabatlarning yuqorida aytib o‘tilgan omillari hududda davlatlararo hamkorlikni tashkiliy rasmiylashtirish jarayonini tezlashtirdi. 1989 yilning noyabrida Kanberra (Avstraliya)da Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy kengashi (ATES)ning 12 davlati tashqi ishlar va savdo vazirlarining 1-konferensiysi bo‘lib o‘tdi. O‘z xarakteri, maqsadi, konsepsiysi, ishtirokchilar tarkibi va boshqa ko‘p jihatlari bilan ATES boshqa zamonaviy, hududiy guruhlardan ancha ajralib turadi. Xo‘jalikning rivojlanish sharoitlari, darajasi, iqtisodlarining tuzilishi, madaniyati, milliy ruhiyati, tarixiy-siyosiy an‘analari bir-biridan keskin farq qiladigan davlatlar birinchi marta iqtisodiy birlashma tuzishdi. Shu bilan birga sanoati rivojlangan, rivojlanayotgan mamlakatlar teng huquqli sheriklar kabi ishtirok etishadi. AQSH va Kanadani hisobga olmaganda, ATESga xalqaro siyosiy iqtisodiy, xo‘jalik va boshqa munosabatlarda hozirgi vaqtgacha sust rol o‘ynagan davlatlar kirdi.

Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy kengashining faoliyati dastlabki yillarda uning ishidagi asosiy 2 sohani belgilab berdi. Birinchidan, savdo-sotiq tarmog‘ini erkinlashtirish, ko‘lамини kengaytirish maqsadida hamkorlik qilish, a’zo mamlakatlar o‘rtasidagi to‘siqlarni bartaraf etish umumjahon savdosini erkinlashtirish masalalarini hal qilishda harakatlarini muvofiqlashtirish borasida hamkor bo‘lish.

Dastlabki qadamlar sifatida quyidagi ishlarga kirishildi:

- Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy kengashi mamlakatlari Yevropa Ittifoqi mamlakatlari qishloq

xo‘jaligini subsidiyalash hajmini tezda va keng ko‘lamda qisqartirishini talab qildilar;

- AQSH Yaponiyadan uning qishloq xo‘jaligi mahsulotlari importini erkinlashtirishini talab qildi;
- aqliy (intellektual) mulkni muhofaza qilish, kelgusi 10 yil mobaynida jahon to‘qimachilik mahsulotlari savdosida miqdoriy cheklashlarni bekor qilishga urinishlar bo‘ldi.

Ikkinchidan, Osiyo-Tinch okeani hududi mamlakatlarini texnologik jihatdan rivojlantirish, yuqori darajada rivojlangan hududiy infratuzilma (axborot, aloqa, kadrlar tayyorlash va h.k.)ni yaratish masalasi ko‘yildi. Bunda quyidagi ikki yo‘nalishga ustuvorlik berildi:

- 1) Hudud ichidagi savdo va investitsiya oqimlari to‘g‘risidagi axborotlarni to‘plash, ishlab chiqish va o‘rganish;
- 2) savdo-sotiqni, investitsiyalarni, texnologik transfertlarni rag‘batlantirish mexanizmlarini yaratish.

Infratuzilmani rivojlantirish va fan-texnika taraqqiyotiga ko‘maklashish sohasida Yaponiya qiziqarli takliflar kiritib, quyidagilarni bajarishga tayyorligini bildirdi:

- 1) texnologiyalarni yig‘uvchi texnololislardan yaratishni o‘z zimmasiga olish, ular orqali hududning rivojlanayotgan mamlakatlariga rivojlangan mamlakatlar texnologiyalarini yetkazib berish;
- 2) tadbirkorlarning keng ko‘lamda ishtiroki bilan Osiyo-Tinch okeani savdo-sanoat ko‘rgazmasini tashkil qilish;
- 3) mutaxassislar tayyorlashning kompleks dasturini ishlab chiqish. Osiyo-Tinch okeani texnologiya, boshqaruv va tadqiqotlar markazini barpo qilish;
- 4) investitsiya, texnologiya, inson resurslari, savdo-sotiq bo‘yicha ma’lumotlar hududiy bazasini yaratish.

Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy kengashining tuzilishi, uning faoliyatidagi dastlabki natija shuni ko‘rsatadiki, ehtimol, internatsionallashuvning hozirgi sharoitiga va jahondagi o‘zaro bog‘liqlikning o‘sishi talablariga to‘liqroq javob beradigan noan’anaviy hududiy birlashma tuzilishi ro‘y berdi. Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy kengashi faoliyati konsepsiysi, uning quyidagi muhim 3 prinsipi bunga dalil:

- 1) Birinchi prinsipga ko‘ra, hudud ichidagi iqtisodiy aloqalarni erkinlashtirish (bojxona tariflarini pasaytirish va h.k.)ga doir tadbirlarni ushbu birlashmaga kirmaydigan davlatlarga ham joriy qilish. Konsepsiada markaziy o‘rin olgan "ochiq hududiylik" tushunchasining mohiyati ana shunda;
- 2) hamkorlikning moslashuvchan, tarmoqlangan shakllariga mo‘ljal olish: bunda ishtirokchilardan har biri birlashma faoliyatining o‘zi yaxshi imkoniyatlarga ega bo‘lgan qirralarini ta‘minlashni zimmasiga oladi va birlashmaning "o‘z" sohasiga doir faoliyatini muvofiqlashtirib turadi.

Bunda vaziyat taqozosiga va real ehtyyojlarga qarab ishtirokchilar orasida aloqalar paydo bo‘ladi hamda rivojlanadi, kuchayadi yoki zaiflashadi. Boshqacha aytganda, birlashmani tarmoqlangan tarzda tashkil qilish - bu markazlashgan, qat’iy shakl olgan tizimlarga teskari tizimdir.

Misol: Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasi (ASEAN) mamlakatlarining xodimlarini o‘qitish va tayyorlash ishlarini imkoniyati yaxshiroq bo‘lgan Avstraliya yoki Kanadada amalga oshirish samaraliroq. Bunday loyihani mablag‘ bilan ta‘minlash vazifasini esa, Yaponiya o‘z zimmasiga olishi mumkin va h.k.

Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy kengashi doirasidagi hamkorlik bu birlashmaga kirmaydigan mamlakatlar uchun ham ochiq bo‘lishi mumkin, deb taklif qilinadi.

- 3) Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy kengashi konsepsiyasining, birinchi navbatda, xususiy tadbirkorlik sektorida hamkorlikka mo‘ljallanganligi. Davlatlar iqtisodiy hamkorlik jarayoniga unchalik ko‘p aralashmasligi, hech bo‘lmaganda, birlashma uchun umumiyl bo‘lgan firmalarning xujalik faoliyati erkinligini cheklaydigan reglamentlar kiritishdan o‘zini tiyishi lozim.

Xalqaro ishlab chiqarishning yirik ichki va firmalararo tizimlari paydo bo‘layotgan bugungi kunda firmalarning roliga urg‘u berish ma’lum ma’noda ochiqlikning kafolatidir.

Mintaqadagi hamkorlikning boshqa turlari

Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy kengashi mintaqadagi davlatlararo iqtisodiy hamkorlikning bo‘lishi mumkin bo‘lgan yagona turi emas. Keyingi paytlarda o‘ta hududiy darajada, ishtirokchilar soni kamroq bo‘lgan turli-tuman hamkorlik tizimlarini izlash faol tarzda olib borilmoqda.

Ishchanligi pastroq va sustroq bo‘lgan yirik uyushmalar (forumlar) bilan bir qatorda hududlararo (yoki hududlar ichidagi) ikki yoki uch tomonlama asosdagi, turli mamlakatlarning chet viloyatlaridagi hamkorlikning kichik shakllarini topish ustida ishlar olib borilmoqda.

- 1) 90-yillar boshida Saravannabumi - "Oltin uchburchak": Tailand-Birma-Hindixitoy hamkorligini tiklash rejasi paydo bo‘ldi;
- 2) Boshqa uch tomonlama loyiha - "Yuksalish uchburchagi" : Singapur-Riau arxipelagi (Indoneziya) va Malayziyadagi Johar shtati hamkorligi realroq;
- 3) Vyetnam va Janubiy Xitoyning shimoliy viloyatlari hamkorlikda yuksalishning istiqbolli yangi zonasini tashkil qilishga qodir (chevara yaqinidagi savdo-sotiqning rivoji bunga asos bo‘la oladi).

SEMINAR MASHG‘ULOTLARI REJASI

1. OTH hududidagi davlatlar iqtisodiy rivojlanishining asosiy xususiyatlari qanday?
2. Hududdagi integratsiya jarayonlarining asosiy sabablari va ularning xususiyatlarini tushuntiring.
3. OTH davlatlarining haqiqiy iqtisodiy o‘zaro bog‘liqligining darajasi va sohasi.
4. OTHda hamkorlikni rasmiylashtirish tashkil etilishining xususiyatlari.
5. OTIK faoliyati g‘oyasining asosiy tamoyillari va ularning xususiyatlarini tushuntiring.

ADABIYOTLAR

1. Арин О. Геометрия взаимозависимости. — ж."Азия и Африка сегодня". - М., 1998, №3. 207
2. Арии О. Миф о Азиатско-тихоокеанском регионе. — ж."Азия и Африка сегодня". — М., 1988, №1.
3. Басовский А.Е. Мировая экономика. Курс лекций. М., ИНФРА-М, 2003.
4. Требенников Э. Диалог США-АСЕАН в новом Тихоокеанском контексте. ж."МЭ и МО", М., 1992.
5. Гребенников Э. Тихоокеанская региональная интеграция. ж."МЭ и МО" - М., 1993, №1.
6. Косшин Л. Экономическая рост стран Восточной Азии и интеграция. - ж."МЭ и МО" - М.: 1996, №3.
7. Ломакин В.К. Мировая экономика М., Финансы, 1998.
8. Мальцева О., Семенов Е. Экономическая интеграция в АТР. -ж "МЭ и МО", М., 1995, №19.
9. Окита С. Тихоокеанский регион: Перспективы развития.—ж. "Азия и Африка сегодня". - М., 1990, №5
10. Раджабова З.К. Мировая экономика М., ИНФРА-М, 2004.
11. Чудодеев А. Смена ориентиров. — ж." Новое время". М, 1989, №50
12. Целишев И. Сотрудничество в АТР: Основа, возможности специфики (Статья 1). - ж."МЭ и МО", М., 1991, №11.
- 13// Целишев И. Сотрудничество в АТР: Основа, возможности специфики (Статья 2). - ж."МЭ и МО", М., 1991, №12.
14. Доклад о человеческом развитии за 1998 г. Нью-Йорк, . Оксфорд Юниверсити пресс, 1998, табл.26. 212-бет,
15. World investment report 1998: Trends and Determenants. UN New York and Geneva, 1998.

III BO'LIM **IQTISODIY O'TISH DAVRIGA XOS MAMLAKATLAR**

1-BOB

REJALI TIZIMDAN BOZOR MUNOSABATLARIKA O'TISH: VAZIFALARI, SHAKLLARI, MUAMMOLARI

O'tish jarayonining uzoq muddatga mo'ljallangan maqsadi, har bir mamlakatda iqtisodiy islohotlarni amalgalashishdan ko'zlangan maqsad kabi, aholining hayot darajasi izchil o'sib borishini ta'minlaydigan barqaror bozor iqtisodini yaratishdir. O'tish davrida hali ko'p ishlar yakunlanmay, turli-tuman muhim masalalarga javob topilmaydi. Shu bois bozor tizimiga o'tishda bugungacha to'plangan tajribalar bilan tanishish dolzarblik kasb etadi. Oldiniga rejali tizimning muvaffaqiyatlari ancha zal-vorli bo'ldi:

- Xalq xo'jaligini industrlashtirishdan so'ng ishlab chiqarish hajmi o'sdi;
- ijtimoiy kafolatlar umumiy ta'limni, turar-joyni, sog'liqni saqlashni, butun aholining ish bilan bandligini o'z ichiga oldi;
- 1930-yillardagi buyuk inqiroz bu mamlakatlarni chetlab o'tdi;
- daromadlar nisbatan teng taqsimlandi;
- asosiy tovarlar va xizmatlar hammaning qurbi yetadigan darajada bo'ldi.

Biroq, vaqt o'tishi bilan markazlashgan rejalshtirish tizimi samaradorligining pastligi sezilib qoldi va bu quyidagi oqibatlarga olib keldi:

- rejalshtirish organlari bozor iqtisodi sharoitida narxlarga doir barcha ma'lumotlarga ega bo'lmadi;
- rejalshtirishning muvaffaqiyati shaxsiy munosabatlar va aloqalarga bog'liq bo'lib, bu sanoat, qishloq xo'jaligi uchun halokatli oqibatlarga olib keldi;
- qattiq nazorat mexanizmining kiritilishi oqibatida shaxsiy tashabbus so'ndirib turildi, bu ko'pincha shaxsga sig'inishga, tizimdagi oliy mansab namoyandalarining korrupiyaga berilishiga olib keldi.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifati pasayishi, ko'p mehnat va energiyani talab qilishi rejali tizim yaratgan rag'batlantirish omillarining buzilgan mahiyatini aks ettirdi, iqtisodi markazlashtirilgan mamlakatlarni jahon bozorlari va bevosita chet el investitsiyalaridan ajratib qo'ydi.

Quyidagi asosiy alomatlar o'tash davri iqtisodi uchun xos:

1. Iqtisodning nobarqarorligi, ishlab chiqarishning qisqarishi, ishsizlikning ko'payishi, inflatsiyaning kuchayishi.
2. O'tish davri iqtisodining alohida shakllari mavjudligi. Masalan, mulkchilikning aksiyadorlik shakli, nomenklatura-korporativ mulkchilikning bir turi ekanligi va h.k.

O'tish davri iqtisodining asosiy vazifalari:

Korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, tadbirkorlikni rivojlantirish.

Davlat tasarrufidan chiqarish - xo'jalikni to'g'ridan-to'g'ri boshqarish vazifalarini davlat zimmasidan soqit qilish, mulkchilik xarakterini o'zgartirmagan holda tegishli vakolatlarni korxonaning o'ziga berish, demakdir.

Xususiylashtirish davlat mulkini turli shartlarda iqtisodiy subyektlarga berish yo'li bilan mulk egasining o'zgartirilishini nazarda tutadi. Yangi mulk egasi mulkidan o'z xo'jalik faoliyatida foydalanadi va uning natijalari uchun to'liq mulkiy javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

2. Bozor infrastrukturasini shakllantirish, xo'jalik munosabatlarini o'rnatishning yangi mexanizmlarini, tovar, jamg'arma, valuta, bank, mexnat birjalari va h.k.ni tashkil qilish.
3. Iqtisodni monopoliya ta'siridan chiqarish. Bu tadbir raqobatni kuchaytirish, bozorda

muvozanatga erishish (firmalar o'rtasida ro'y beradigan kelishuvchilik, qo'shilish, har xil bitimlarga qarshi cheklashlar tizimini ishlab chiqish)ni nazarda tutadi.

4. Narx belgilash ustidan davlat nazoratini bekor qilish yo'li bilan narxlarni erkinlashtirish, narxlarni bozor qonunlari, talab va taklifga moslab shakllanishiga o'tish.

5. Muomaladagi pul massasini cheklash maqsadida qatyiy pul-kredit siyosatini o'tkazish yo'li bilan moliyaviy-iqtisodiy barqarorlashtirish (bunday siyosatni o'tkazmay turib, narxlar ustidan nazoratni bekor qilish inflatsiyaning yuqori sur'atlarda yuz berishiga olib keladi).

6. Aholining kam ta'minlangan qismi bozor iqtisodi sharoitlariga oson moslashishi uchun kuchli ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini joriy qilish.

7. Iqtisodni iste'mol tovarlari ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatishni ilgarilama rivojlanish yo'nalishiga qayta tashkil qilish, ishlab chiqarishning moslashuvchanligini, uning talab o'zgarishlari va yangi texnologiyalarga uyg'unligini oshirish.

Bozor iqtisodiga o'tish asosan ikki yo'nalishdan iborat. Birinchi yo'nalish qisqa muddatlar ichida iloji boricha ko'p tub islohotlarni amalga oshirishni ko'zda tutadi. Ikkinci yo'nalish qisman o'zgarishlarni amalga oshirish, ularni bosqichma-bosqich chuqurlashtirib borishga asoslanadi.

Birinchi - tub islohotlar yo'nalishida markazlashgan rejalah tizimi o'rniga bozor iqtisodi asosiy elementlarini barpo qilishga qaratilgan islohotlar majmui ko'zda tutiladi. Bu esa narxlarni, savdoni zudlik bilan erkinlashtirish, narxlarning turg'unligini ta'minlashga qaratilgan izchil barqarorlashtirish dasturini amalga oshirishdan iboratdir. Boshqa tadbirlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: joriy operatsiyalar uchun valutani erkin ayriboshlashga o'tish, yangi xususiy korxonalar tuzish uchun shart-sharoitlar yaratish, davlat korxonalarini xususiyashtirish, sanoatni monopoliyadan chiqarish, buxgalteriya xisobining yangi standartlarini qabul qilish va h.k.

Polsha iqtisodiyotida 1990 yilda o'tkazilgan keskin islohotlar, Markaziy-Sharqiy Yevropaning boshqa mamlakatlaridagi ko'p sonli dasturlar, 1992 yildan keyin esa yangi mustaqil davlatlardagi tadbirlar umuman yuqorida aytilgan kompleks modelga mos keladi. Polsha va boshqa mamlakatlarning tajribalari shuni ko'rsatadi, ba'zi o'zgarishlar haqiqatan ham tez yuz berishi mumkin ekan.

Biroq, bozor tipidagi huquqiy institutlar moliya tizimining shakllanishi uchun yillar va hatto o'n yillar kerak bo'ladi.

Ikkinci modelda islohotlar oldiniga tajriba tartibida o'tkazilib, keyin muvaffaqiyatli chiqqan tajribani keng yoyish mumkin. Bu ijtimoiy himoyalangan bozor munosabatlari o'tishni nazarda tutadi.

Islohotlarni bosqichma-bosqich o'tkazish, masalan, Xitoy olib borayotgan yo'l hisoblanadi. Xitoy 1978 yidda narxlarni erkinlashtirishga kirishdi. Oldiniga islohotlarning barchasi qishloq xo'jaligini tiklashga qaratildi, ayrim joylarda xo'jalik yuritishning jamoat usuli o'rniga dehqon xo'jaliklari tuzildi, keyinchalik mamlakatning boshqa viloyatlarida ham shunday xo'jaliklar tuzishga ruxsat berildi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish narxlari ko'tarildi, dehqonlarning daromadlari oshirildi. Bozor asosida ishlaydigan qishloq xo'jaligi kooperativlari tuzishga ruxsat berildi. 1984 yilga kelib islohotlar shaharlarda ham boshlandi. Mahalliy o'z-o'zini" boshqarnish organlari katga moliyaviy mustaqillikka erishdi. Davlat korxonalarini boshqarish tizimida islohotlar o'tkazildi, ilgari davlat budgetidan mablag' bilan ta'minlanadigan korxonalarni mablag' bilan ta'minlash endi talabchan bank tizimi zimmasiga yuklandi. Savdosotiqa, chet el kapitali kiritilishiga ko'yiladigan cheklashlar asta-sekin yumshatildi, ko'pgina institutsional islohotlar o'tkazildi, xususan, markaziy bank ishlari butunlay qayta tashkil etildi.

Rejali xo'jalik yuritish tizimidan bozor tizimiga o'tishning ikki modeli mavjud degani, hali barcha mamlakatlar xohdaganini shunday tanlash imkoniyatiga ega ekanligini bildirmaydi. Har bir variant uchun o'zining iqtisodiy, siyosiy, tarixiy va boshqa shart-sharoitlari majmui mavjuddirki, ular o'z yondashuvini taqozo etadi.

Markaziy-Sharqiy Yevropa mamlakatlari islohotlarni o'tkazishga ancha qulay makroiqtisodiy, strukturaviy, institutsional sharoitlarda kirishdi. Islohotlar inflatsiya sur'ati ancha past bo'lgan sharoitda boshlandi. Bu mamlakatlarning geografik jihatdan qulay

joylashganligi yangi savdo munosabatlariga kirishishlari uchun qo‘l ketti.

Bozor iqtisodiga o‘tish variantlari:

- Bozor institutlarini asta-sekin tashkil qilishning evolyutsion yo‘li (Xitoy, Vengriya va boshqa mamlakatlari);
- inqilobiy yo‘li - radikal, tub o‘zgarishlar zudlik bilan o‘tkaziladi (Sharqiy Yevropaning ko‘pchilik mamlakatlari, Polsha va h.k.).

Ko‘rsatilgan variantlar o‘rtasidagi farq-tafovut izchil o‘zgartirishlar, barqarorlash tadbirlarini o‘tkazish muddatlari, xalq xo‘jaligini bozor mexanizmlari bilan qamrab olish darajasi, davlatning tartibga solib turish faoliyati ko‘lami bilan izohlanadi.

Bozor iqtisodiga evolyutsion yo‘l bilan yoki rezolyutsion yo‘l bilan o‘tishni tanlash faqat siyosiy rahbariyatning xohishiga emas, balki siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, tarixiy kabi omillarga ham bog‘liq bo‘ladi.

Mutaxassislar fikricha, quyidagi shart-sharoitlar mavjud bo‘lganda bozor iqtisodiga evolyutsion yo‘l bilan o‘tgan ma’qulroq:

- Xususiy tadbirkorlik ko‘nikmalarini saqlab qolgan avlodlar ishlaydigan tarmoqlar va ancha taraqqiy etgan qishloq xo‘jaligi hamda hunarmandchilik ishlab chiqarishlari borligi;
- og‘ir sanoat va harbiy sanoat kompleksining nisbiy ulushi uncha katta emasligi;
- barqaror moliya tizimi;
- siyosiy va xo‘jalik oliv namoyandalari ichida islohotlarni o‘tkazishdan manfaatdor qatlamlarning ko‘pchilikni tashkil qilishi.

Inqilobiy usulni tanlash odatda noilojlikdan qilingan tadbir hisoblanadi. U ko‘pchilik hollarda ma’muriy buyruqbozlik tizimidan qutilish ehtiyoji yig‘ilib qolgan tuzilmaviy nomutanosibliklar oqibatida kelib chiqqan o‘tkir tovar taqchilligi bilan bog‘liq.

Bozor iqtisodiga o‘tishning evolyutsion yo‘liga xos umumiy alomatlar

1. Islohotlarning boshlanishi quyidagi tadbirlar yordamida iste’mol bozorida dinamik muvozanat o‘rnatalishi bilan bog‘lanadi:

- Bozor o‘zgarishlariga moslashuvchan narxlar tazimi yordamida;
- xususiy sektorda iste’mol mollari ishlab chiqarishni va xizmat ko‘rsatishni tezroq yo‘lga qo‘yish, ularga bo‘lgan bozor ehtiyojlarini qondirish yordamida.

2. Bozor munosabatlari oldiniga iste’mol tovarlarini ishlab chiqarish va sotish sohalarini qamrab oladi, shundan keyingina investitsiya tarmoqlariga yoyiladi.

3. Narxlarni erkinlashtirish islohotning keyingi bosqichlarida amalga oshiriladi va monopoliya an’analari kuchli bo‘lgan tarmoqlarda narxlar ustidan davlat nazorati saqlanib qoladi.

4. Inflatsiyaning kuchayishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida keskin moliya siyosati o‘tkaziladi.

5. Bozor infrastrukturasi jadal shakllantiriladi, xususiy tadbirkorlik rag‘batlantiriladi.

Evolyutsion yo‘lning o‘ziga xos alomati - odatda islohotlar qishloq xo‘jaligidan boshlanadi, chunki bu sohada xususiy xo‘jalik tashabbusi uchun muayyan muhit ochiladi.

Qishloq xo‘jaligining, iste’mol tovarlari ishlab chiqarish bo‘yicha u bilan bog‘liq tarmoqlarning rivojlanishi uchun berilgan turtki bozor mexanizmlarining yoyilishi uchun o‘ziga xos harakatlantiruvchi kuchga aylanadi va ayni paytda iste’mol bozorining ehtiyojini qondirish bilan birga islohotlarni yanada chuqurlashtirish uchun qulay ijtimoiy muhit yaratadi.

Iqtisodni isloq qilishga inqilobiy yondashuv (falaj qilib davolash - shok terapiyasi) usuli

Inqilobiy yondashuv chuqr institutsional islohotlarni amalga oshirishni, mulkchilik shakllarini keskin o‘zgartirish (xususiy lashtirish)ni nazarda tutadi.

Rossiya va Polshada falaj qilib davolash tarafдорлари o‘z iqtisodiy dasturlarini amalga oshirishning ikki bosqichini ajratib ko‘rsatishadi.

Birinchi bosqichda (1—2 yil) bozor va moliyaviy muvozanatga erishish uchun inflatsiyaga qarshi keskin choralar ko‘rish.

Ikkinchi bosqichda (10-15 yil) iqtisodda belgilangan tub o‘zgarishlarni amalga oshirish, uning rivojlanishini ta’minlash ko‘zda tutiladi.

Islohotlarni o‘tkazish yo‘lidagi yutukdarni baholash uchun ushbu to‘rt asosiy ko‘rsatkichdan foydalaniladi: erkinlashtirish, mulkiy huquqlar va xususiy mulkchilikni

rivojlantirish, tegishli institutlarning mavjudligi hamda ijtimoiy siyosatning yo‘nalishi.

SEMINAR MASHG‘ULOTLARI REJASI

1. Ma’muriy-buyruqbozlik iqtisodiyoti parchalanishing sabablari.
2. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrining muhim vazifalari.
3. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning asosiy shakllari (variantlari) va ularning xususiyatlari.
4. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tishning xususiyatlari. Islohotlarni o‘tkazishda iqtisodiyogai tubdan isloh qilish usuli («shokovaya terapiya» usuli).
5. Iqtisodiy o‘tish davriga xos mamlakatlarda institutsional qayta shakllantirishlar.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Biz tanlagan yo‘l - demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li. 11-t. T., «O‘zbekiston», 2003.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., «O‘zbekiston», 1999.
3. Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida, T., "O‘zbekiston", 1995.
4. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo‘lidan.4-t. T., "O‘zbekiston", 1996.
5. От плана крышки. Отчет о мировом развитии. 1996, МБРР, Вашингтон, 1996.
6. Раджабова З.К. Мировая экономика. М., ИНФРА-М 2004.
7. Экономическая теория (под редакцией Камаева) глава 23. М., 1998.
8. Экономическая теория (под редакцией Базилева, Гурко), Минск, 1998, глава 7.

2-BOB ERKINLASHTIRISH VA IQTISODIY O‘SISH

O‘tish davrini boshidan kechirayotgan barcha mamlakatlarda iqtisodiy ahvolni yaxshilashda keng ko‘lamlı erkinlashtirish va barqarorlashtirish omillari muhim rol o‘ynaydi. Erkinlashtirish narx-navoning erkin belgilanishini, savdoning davlat tomonidan nazorat qilinishi to‘xtatilishini, yangi kompaniyalarни hech bir to‘siqsiz tuzish mumkinligini taqozo qiladi Barkarorlashtirish inflatsiyaning qisqartirilishini xalq xujaligi, tashqi iqtisodiy sohalardagi nomutanosibliklar bartaraf qilinishini ko‘zda tutadi.

Islohotlarning bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan bu ikki omili o‘tish jarayonining dastlabki bosqichlarida amalga oshirilishi mumkin va lozim.

Erkinlashtirish natijasida aholi va korxonalar iqtisodiy qaror yechimlarni mustaqil amalga oshirish huquqiga ega bo‘lib, oqibatda markazlashgan iqtisodning ikki asosiy muammosi - bузilgan rag‘batlantirish tizimi va axborot taqchilligi muammolari bartaraf qilinadi. Erkinlashtirish korxonalarни iste’mol talabini hisobga olishga majbur qilib, ularga raqobatli sharoitda foyda ko‘rish imkonini beradi, nisbiy narxlarning haqiqiy talab va taklif nisbatiga mosligini ta’minlaydi.

Barqarorlashtirish ham o‘tish jarayonining ajralmas uzviy qismi hisoblanadi, chunki makroiqtisodiy nomutanosiblik bozor islohotlarining barcha yutuqlarini yo‘qqa chiqaradi. Bozor iqtisodiga erishgan turli mamlakatlarning tajribasi shuni ko‘rsatadiki, agar inflatsiya darajasi taxminan 50%dan oshsa, iqtisodning rivojlanishi keskin sekinlashadi. Inflatsiyaning yuqori bo‘lishi nisbiy narx omilini buzib aks ettiradi, mavhumlikni keltirib chiqaradi, mavhumlik esa omonatlarning jamg‘arilishiga, investishshlashga xalaqit beradi. Shuning uchun erkinlashtirish har doim iqtisodiy o‘sishning asosi hisoblanadigan narxlarni barqarorlashtirish bilan birga olib borilishi lozim.

Erkinlashtirish, barqarorlashtirish va iqtisodiy o‘sish bir-biri bilan uzviy bog‘langai. Bu

qonuniyat bozor sari borayotgan Osiyo mamlakatlari uchun ham, Yevropa mamlakatlari uchun ham taalluqli. Barcha mintaqalarda iqtisodiy o'sishning sabablari ko'p jihatdan yangi kompaniyalarining ochilishiga cheklashlarning bekor qilinganligi, ilgari qoloq hisoblangan - xizmat ko'rsatish, eksport ishlab chiqarishi sohalarining (Osiyo mamlakatlarida qishloq xo'jalik sohasining ham) gurillab rivojlanganligi bilan ham izohlanadi. Marx-navoning erkin belgilanishi va erkin savdo, yordam puli (subsidiya) va imtiyozli kreditlarning qisqartirilishi yetakchi tarmoqlarda iqtisodiy o'sishning tiklanishiga yordam berishi mumkin, chunki bu hol korxonalarini raqobat va budgetning qatyiy cheklanganligi sharoitiga solib, ularni o'z ish uslublarini o'zgartirishga majburlaydi.

O'tish davri iqtisodini boshidan kechirayotgan turli mamlakatlardagi bozor o'zgarishlari, sur'atlari, ko'lamlari bir-biridan keskin farq qilib, har qaysi mamlakatdagi dastlabki shart-sharoitlar, siyosiy vaziyatlar iqtisodiy siyosat uslubi, islohotlar strategiyasini belgilab beradi. Polshada erkinlashtirish "rezolyutsion" yo'l bilan amalga oshirildi: 1990 yilning yanvar oyida narxlarning 90%ni erkinlashtirildi, tashqi savdodagi cheklashlarning ko'p qismi olib tashlandi, savdoda davlat monopoliyasi bekor qilindi, joriy operatsiyalar uchun valutaning erkin ayrboshlanishi ta'minlandi.

1992 yilning yanvar oyida Rossiya narxlar va import operatsiyalar sohasida kuchli (chuqur) erkinlashtirish amalga oshirildi.

Polsha va ma'lum darajada Rossiya tajribasi shuni ko'rsatdiki, falaj qilib davolash strategiyasida asosiy urg'u bozorda muvozanatga erishish vositasi sifatida moliyaviy-iqtisodiy barqarorlashtirish, davlat budgetini balanslashtirishga qaratildi.

Barqarorlashtirish tadbirlari aholi va korxonalarining ortiqcha pul mikdorlari (mavjud tovar massasiga nisbatan) ko'rinishidagi inflatsiya bo'lishini bartaraf qilishga qaratiladi.

Shuning uchun narxlar ustidan davlat nazoratining bekor qilinishi, shu tufayli narxlar bilan ish haqining o'sish sur'atlari o'rtasida keskin tafovut paydo bo'lishi (ish haqining amalda deyarli o'zgarmay qolishi oqibatida) tez orada narxlarni yanada oshirish imkonini yo'qqa chiqarishi lozim, chunki aholining to'lov imkoniyatlari pasayib ketadi.

Davlat budgeti taqchilligini yo'qotish yoki hech bo'lmaganda keskin kamaytirish, ssuda foizini inflatsiya darajasidan oshirish (bu hol joriy talabni qo'shimcha ravishda qisqartirishga olib keladi) tadbirlari ham inflatsiyaning pasayishiga, bozorning barqarorlashishiga yordam beradi.

Ko'rilgan barcha tadbirlar haqiqiy talabni aks etgiradigan ayrim tovarlar bo'yicha ratsionalroq narxlar nisbatini ta'minlashga imkon beradi.

Falaj qilib davolash davrida iqtisodiy tizimda yuz bergan muhim institutsional o'zgarishlar:

- Narxlarni erkinlashtirish (Polshada 1990 yil yanvaridan 90% tovarlar uchun narxlar bozor asosida belgilandi, 5% tovarlar uchun narxlar davlat tomonidan ma'muriy tarzda tartibga solindi, qolgan 5% tovarlar uchun narxlarni o'zgartirishga davlat organlarining ruxsati talab qilindi).
- monopoliyaga qarshi qonunlarning qabul qilinishi va bir kdtor tarmoqlarda davlat korxonalarining **mavdalashtirilishi**;
- davlat korxonalarining to'liq tijorat hisobiga o'tkazilishi, korxonalar va davlat moliya mablag'larining ajratilishi;
- an'anaviy markazlashgan rejalashtirishning bekor qilinishi;
- kichik xususiylashtirishni (ayniqsa, savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalarida) keng yoyish;
- katta xususiylashtirishni o'tkazish uchun huquqiy va tashkiliy negizlarni ishlab chiqish (sanoatda, qurilishda, transportda, yirik xo'jalik birlklari ko'p bo'lgan tarmoqlarda);
- xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida xususiy sektorning dinamik rivojlanishini ta'minlash;
- milliy valutaning erkin ayrboshlanadigan valutaga yagona barqaror kurs bo'yicha (ichki) ayrboshlanishiga erishish;
- ijtimoiy himoya tazimi asoslarini yaratish, ishga joylash xizmatini yo'lga qo'yish, ishsizlik bo'yicha nafaqalarni joriy qilish.

Bu o'zgarishlarning eng asosiy alomati iqtisodning mustaqil boshqarilishiga yo'l ochib

berish maqsadida davlatning iqtisodga aralashuvini minimallashtirish hisoblanadi.

Davlat moddiy va moliyaviy resurslarni taqsimlash uchun mas'uliyatni o'zidan soqit qiladi. Davlatning asosiy vazifasi bozorning ahvolini nazorat qilib turish, soliq, kredit va boshqa iqtisodiy vositalar yordamida unga ta'sir ko'rsatishdan iborat bo'lib qoladi.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, birinchi bosqichning natijasi iste'mol bozorida tovar taqchilligini bartaraf qilish va muvozanatga erishish bo'lmog'i lozim, ana shunda istalgan tovarni bemalol sotib olish mumkin bo'ladi.

Biroq yuqorida qayd etilgan o'zgarishlar quyidagi oqibatlarga olib keladi:

- aholining kam ta'minlangan va notijorat sohalarida band bo'lgan aholi qatlaming hayot darajasi keskin pasayadi;
- investitsiyaga talab, ishlab chiqarishga kapital qo'yish kamayadi;
- aholining to'lov qobiliyati umuman pasayishi oqibatida iste'mol mollari ishlab chiqaradigan sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish hajmi pasayadi;
- ishsizlik ko'payadi va (asosan nazariy jihatdan) bankrotlar soni ortadi.

Vengriya va Polsha kabi mamlakatlar islohotlarni boshqa-boshqa yo'llar bilan amalga oshirishdi, lekin 1997 yilga kelib iqtisodni umumiylashtirishda taxminan bir xil muvaffaqiyatlarga erishishdi.

Iqtisodning juda tez sur'atlar bilan rivojlanishi evolyutsion yo'lni tanlagan Xitoyda islohotlar 1978 yildan beri o'tkaziladi. Vyetnamda ham anchagina jo'shchin rivojlanish yuz berib, 1986 yidda markazlashtirilgan rejalashtirish tizimidan voz kechilgan edi. Bu hol 1989 yildan keyin yaqqol namoyon bo'ldi. O'shanda islohotlar sur'ati keskin tezlashgan edi.

Bozor iqtisodiga jadallik bilan kirishgan Markaziy - Sharqiye Yevropa mamlakatlaridan farqli o'laroq, Xitoy rejalashtirishni bozor munosabatlari bilan uyg'unlashtirgan bir necha bosqichdan o'tib, 1992 yilda yangi maqsadini e'lon qildi: "Sotsialistik bozor iqtisodini barpo etish".

Xitoyda 1978 yilda boshlangan narxlar islohoti ikki yo'nalishda amalga oshirildi: davlat xaridlari ulushi izchil qisqartirib borildi, bozor narx belgilagan tovarlar miqdori oshib bordi. Islohotlar qishloq xo'jaligida boshlandi va asta-sekin iste'mol tovarlariga tarqaldi.

Hukumat narxlarning uch darajali tizimini yaratish yo'lini tanladi. Bu tizimga ko'ra, qat'iy davlat narxlari bilan birga erkin ("suzuvchi") narxlar (bular uchun yuqori va past chegaralar belgilangan) va bozor narxlari mavjud.

Islohot strategiyasining mohiyati bozor narxlarining amal qilish sohalarini asta-sekin kengaytirib, qat'iy davlat narxlari ulushi qisqartirib borishidadir. Birinchi bosqichda (1979-87) chakana narxlar 50%, ikkinchi bosqichda (1987-92) yana 30% erkinlashtirildi.

1993 yilda don uchun chakana narxlar erkinlashtirildi va ayni paytda oziq-ovqat mahsulotlari uchun kartochkalar bekor qilindi. Davlatning narxlarga ta'sir qilish iqtisodiy vositalari takomillashtirildi (masalan, barqarorlashtiruvchi ehtiyot jamg'armalari tashkil qilinishi). Xitoydagagi islohotlarning asosiy ziddiyatlari - biri ikkinchisini inkor qiladigan ikki iqtisodiy mexanizm: tugab borayotgan rejali tizim va paydo bo'layotgan bozor tizimining mavjudligidir.

1979 yilda o'tkazilgan iqtisodiy islohot natijasida Xitoyda iqtisodning ikki sektorli modeli paydo bo'ldi. Bozor mexanizmlari iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda asosiy harakatlantiruvchi kuch bo'ldi va u investitsiya talab qiluvchi ishlab chiqarish sohasini ham ancha keng qamrab oldi.

Iqtisodning ikkala sektorida ham tartibga solishning bozor va ma'muriy metodlari ko'shilib ketganligi Xitoy uchun xos alomat hisoblanadi.

Xitoyda bozor asoslariga o'tish asta-sekin, ravon yuz berayotganligiga sabab shuki, u yerda faqat nomenklatura moslasha oladigan islohotlarga o'tkazilmoqda. Shuning uchun ko'pincha islohotlarni tezlashtirish va samaradorligini oshirish ijtimoiy barqarorlik yo'lida qurbon qilinadi, ma'lum darajada bozor munosabatlariga aralashib qolgan nomenklatura qatlamlari o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilish ham ko'zda tutiladi.

O'tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlardagi iqtisodiy yuksalishning asosiy

harakatlantiruvchi kuchi ilgari zaif bo‘lgan eksport va xizmat ko‘rsatish sohalari hisoblanadi.

Vyetnamda savdo-sotiq siyosati anchagina keng, lekin qisman erkinlashtirishni ko‘zda tutadi, Xitoyda esa asosiy kuchlar eksportga faol ko‘maklashishga qaratilgan edi. Hozir ikkala mamlakatda ham davlat eksporti ba’zi muhim tovarlarnigina o‘z ichiga oladi. undan tashqari davlat eksportining ulushi borgan sari qisqarib bormoqda. Ko‘pgina tovarlar eksporti butunlay davlat nazoratidan chiqarilgan, mavjud cheklashlar esa majburiy hisoblanmaydi, biroq importni davlat tomonidan tartibga solib turish Xitoyda xali ham saqlanmoqda.

SEMINAR MASHG‘ULOTLARI REJASI

1. Iqtisodiy o‘tish davriga xos mamlakatlarda erkinlashtirishning roli, ahamiyati va vazifalari.
2. Markaziy, Sharqiya Yevropa va MDH mamlakatlarida iqqisodiyoti erkinlashtirishning xususiyatlari.
3. Erkinlashtirish va iqtisodiy o‘sishning o‘zaro bog‘liqligi.
4. Barqarorlashtirish o‘tish davrining zaruriy tarkibiy qismidir.
5. Iqtisodiy o‘tish davriga xos mamlakatlarda makroiqtisodiy barqarorlashtirish.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Erishgan marralarimizni mustahkamlab, islohotlar yo‘lidan izchil borish - asosiy vazifamiz. «Xalq so‘zi», 10 fevral 2004 yil.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-t. T., «O‘zbekiston», 1996.
3. Karimov I.A. O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T., «O‘zbekiston», 1996.
4. Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida, T., «O‘zbekiston», 1995.
5. От плана к рынку. Отчет о мировом развитии. 1996, МБРР, Вашингтон, 1996.
6. Раджабова З.К. Мировая экономика М., ИНФРА-М, 2004.
7. Экономическая теория (под редакцией Камаева), М., 1998, глава 23.
8. Экономическая теория (под редакцией Базилева, Гурко), Минск, 1998, глава 7.

3-BOB MULKCHILIK: XUSUSIYLASHTIRISH JARAYONI VA USULLARI

Bozor iqtisodiga o‘tayotgan yangi davlatlarning tajribasi shuni ko‘rsatadiki, raqobatni kuchaytirish, korxonalarining samaradorligini oshirishning yo‘llaridan biri mulkchilik huquqlarini asta-sekin nomarkazlashtirishdir.

Xususiy sektor yetakchi o‘rinni egallaydigan iqtisodni yaratishning ikki yo‘li mavjud, davlat mulkini xususiylashtirish va yangi xususiy korxonalar tashkil qilish.

O‘tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlar davlat korxonalarini boshqarish bilan bog‘liq muammolarga duch kelishadi. Ba’zi mamlakatlar mulkchilik shakllarini ommaviy tarzda o‘zgartirmay turib ham bozor o‘zgarishlarini muvaffaqiyat bilan amalga oshirmoqda. Lekin bunday islohotlarning natijalarini uzoq muddat birday ushlab turish qiyin. Boshqa bir davlatlar uchun yagona strategiya zudlik bilan ommaviy tarzda xususiylashtirish hisoblanadi. Lekin yetti o‘lchamay qilingan xususiylashtirish salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun bugungi kunda o‘tish davri mamlakatlari iqtisodini rivojlanturuvchi omillar tizimining negizini tashkil qiluvchi mulkchilik huquqini shakllantirish dolzarb masalalardan biri xisoblanadi.

Mulkchilik huquqi nima?

Mulkchilik huquqi mulkdan foydalanish huquqini, mulkdan boshqalarning foydalanishiga yo‘l qo‘yish yoki ta’qilash huquqini, mulkdan daromad qilish huquqini va

mulkni sotish yoki uni boshqacha yo‘l bilan tasarruf qilish huquqini o‘z ichiga oladi.

Rivojlangan bozor iqtisodiga o‘tgan mamlakatlarning davlat korxonalarini bilan xususiy korxonalarini bir-biriga taqqoslab ko‘rish borasida olib borilgan amaliy tadqiqotlar (1980-yillarda o‘tkazilgan) natijasida shunday xulosaga kelindiki, xususiy kompaniyalarda ish unumdarligi, mexnat faoliyati ko‘rsatkichlari davlat korxonalaridagidan yuqori bo‘lar ekan. Sanoati rivojlangan mamlakatlar va rivojlanayotgan mamlakatlarda xususiy lashtirishga qadar, xususiy lashtirishdan keyin korxonalarining ishini tahlil qilish borasida keyingi vaqlarda olib borilgan tadqiqotlar natijasi - xususiy mulkchilik shakllarining afzalliklari kattligini ko‘rsatadi. Masalan, Jahon banki tomonidan 18 ta mamlakat (6 ta rivojlanayotgan, 12 ta rivojlangan mamlakatlar) dagi 61 ta xususiy lashtirishning kompaniyaning ishini taxlil qilish shuni ko‘rsatdi, kamida 60% holatda rentabellik, savdo hajmi, ish samaradorligi, mablag‘lar qo‘yish hajmi o‘sganligi aniqlangan, bunda ish bilan bandlik darajasi pasaymagan. Bozor iqtisodi rivojlangan mamlakatlarda, daromad darajasi o‘rtacha yoki yuqori bo‘lgan rivojlanayotgan mamlakatlarda korxonalarining iqtisodiy samaradorligini belgilashda xususiy mulkchilik shakli asosiy omil bo‘lganligi amalda hech qanday shubha tug‘dirmaydi.

O‘tish davrini boshidan kechirayotgan boshqa mamlakatlarga nisbatan Polshada xususiy lashtirish sekinroq kechdi. Xulosa: 1994 yildan mamlakatda kuzatilgan yalpi milliy mahsulotning 6%li yillik o‘sishi xususiy lashtirish shart emasligidan dalolat beradi. Iqtisodning yuksalishiga sabab, davlat korxonalarining samaradorlik darajasi emas, balki yangi korxonalar tashkil etish hisobiga xususiy sektorning kengayganligidir.

Bu mamlakatlar uchun Yangi Zelandiya tajribasi ibratlidir. Unga ko‘ra, qat’iy budjet cheklashlari, raqobat yordamida ba‘zi davlat korxonalarining ishini yaxshilash mumkin, bunda mulkchilik shaklini o‘zgartirish shart emas.

Ommaviy xususiy lashtirish yaqin kelajakda ideal mulk egalarini paydo qilmasligi ham mumkin, lekin u kapital bozorlarining rivojlanishini, iqtisodning umuman faoliyat ko‘rsatishini nazorat qilib turadigan institutlarning takomillashishini ta’minlasa, oqibat natijada yana mukammalroq korporativ boshqaruvga olib kelishi mumkin.

Xo‘sh, korporativ boshqaruv degani nima? Kichik korxonalarda korporativ boshqarish bevosita amalga oshiriladi: odatda, korxona egasi korxona faoliyatini boshqaradi. Biroq, yirik korxonalarda egalik qilish va boshqarish vazifalari bir-biridan ajratilgan. Shuning uchun korxona egasi ma‘muriyatning faoliyatini nazorat qilib turishi lozim. Bunday nazorat usullaridan biri - aksiyadorlar tomonidan amalga oshiriladigan bevosita nazoratdir. Ikkinci usul - korxonaning ish ko‘rsatkichlari yomonlashgan hollarda aksiyalarini sotishni ko‘zda tutadi: aksiyalar kursining pasayishi menedjerlarni intizomga chaqirishi, ya’ni ularni hushyor torttirishi lozim.

Korxonalarini xususiy lashtirish usullari

Jahon amaliyotida hozircha xususiy lashtirishning quyidagi uch usuli qo‘llangan:

1. Korxonalarni tashqi mulkdorlarga sotish.

Bu usul bozor iqtisodi shakllanib bo‘lgan mamlakatlar (Buyuk Britaniya), daromad darajasi o‘rtacha bo‘lgan rivojlanayotgan mamlakatlar (Chili)da muvaffaqiyat bilan qo‘llangan. Biroq, korxonalarni bunday usulda sotish qimmat turadigan, sekin amalga oshadigan, kutilganidan murakkabroq bo‘lgan jarayon va asosiysi, bunday usulda ayrim korxonalargina sotilgan. Buning sabablaridan biri - mahalliy kapitalning kamligi, sotib olishga qurbi yetmasligi, xususiy lashtarilgan korxona chet el kapitaliga bog‘liq bo‘lib qalgani tufayli siyosiy keskinlikning vujudga kelishidir.

Korxonalarni chet elliklarga sotish usuli jamiyatdaadolatsizlik bilan qilingan jarayon deb idrok qilinadi. Oddiy fuqarolar bu jarayonda ishtiroy eta olmaydi va xususiy lashtirishning bu usuli oshkoraliidan holi u o‘zboshimchalik va korrupsiyaga yo‘l ochib beradi, deb hisoblaydilar.

2. Davlat korxonalariniing ma‘muriyat va xodimlar tomonidan sotib olinishi.

Korxonani uning ma‘muriyati, xodimlari tomonidan sotib olinishi xususiy lashtirishga muqobil usul, bu usul Polsha, Ruminiya, Sloveniya va Xorvatiyada keng tarqaldi.

Aytish joizki, bu usul ba‘zi kamchiliklardan xoli emas. Kamchiliklardan biri - boyliklarning notejis taqsimlanishi: yaxshi ishlab turgan serdaromad korxona xodimlari

qimmatli aktivlarni olishadi, ayni paytda ziyon ko'rib ishlayotgan korxona xodimlari qo'liga past qiyamatli aktivlar tegadi yoki uzoq vaqt hech qanday daromad ololmasliklari mumkin. Uning yana bir kamchiligi - korporativ boshqaruvga putur yetkazishidir.

3. Aholi o'rtasida xususiylashtirish cheklari (vaucherlar) tarqatish va vaucher egalari o'rtasida mulkni nisbatan teng taqsimlash.

Xususiylashtirishning bu shakli birinchi marta Litva, Mongoliya, sobiq Chexoslovakiyada qo'llangan. Keyin Albaniya, Armaniston, Qozog'iston, Moldova, Polsha, Ruminiyada takrorlangan. Vaucherdan Rossiya va Gruziyada foydalanilganda bu yerdarda korxonalarning ma'muriyati va xodimlariga ustunlik berishdi. Natijada ziyon ko'rib ishlayotgan korxonalarda uning samarasi juda past bo'ldi va vaucherlar begonalar qo'liga o'tib ketdi. Vengriya, sobiq Yugoslaviya, Makedoniya Respublikasi va O'zbekiston vaucherlardan umuman yuz kechgan bir necha mamlakat jumlasiga kiradi. Bu mamlakatlar o'z qarorlarining sababini shu bilan izoxlashdiki, aksiyalarning tarqatilishi ularni qabul qilib oluvchilar nazarida aksiyalarning qiymatani yo'qotadi, vaucher dasturlari esa "haqiqiy" mulk egalari paydo bo'lishini kechiktirib yuboradi.

Kichik korxonalarni xususiylashtirish

Yirik korxonalarni xususiylashtirishga nisbatan kichik korxonalarni xususiylashtirish oson. Ularning ko'pchiligi savdo-sotiqlari va xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanadi. Bu faoliyat turlari oddiy texnologiyalardan foydalanishni, bozorga erkin kirib borishni ko'zda tutadi. Kichik korxonalarni xususiylashtirishda katta kapitalning mavjudligi, qayta tuzish zarurati, tartibga solish, boshqarishdagi kamchiliklar kabi jiddiy muammolar paydo bo'lmaydi. Kichik korxonalarni xususiylashtirish vazifasini mahalliy hokimiyat o'z zimmasiga olishi mumkin. Yirik korxonalarni baholashga nisbatan kichik korxonalarni baholash ancha oson bo'lganligi uchun ularni sotishdagi ochiq savdoda zarur bo'ladigan ma'lumotlarga istagan odam ega bo'lishi mumkin.

Davlat korxonalarini xususiylashtirish o'tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlarning uzoq muddatli rivojlanishidagi muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, yangi firmalarni ochishga ko'maklashish ham muhimdir. Yirik korxonalarning mulkini taqsimlash uzoq davom etadigan jarayon bo'lganligi uchun aynan shu yangi xususiy korxonalar tezroq foyda ko'rilishini "ta'minlaydi. Masalan, Polshada juda sekinlik bilan amalga oshirilgan rasmiy xususiylashtirish dasturlari emas, balki juda ko'p yangi korxonalarning tashkil qilinishi mamlakatda iqtisodiy rivojlanishga sabab bo'ldi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, texnika taraqqiyoti va mehnat unumdarligining oshishi aynan yangi tashkil qilingan kompaniyalarda yuz berdi.

SEMINAR MASHG'ULOTLARI REJASI

1. Iqtisodiy o'tish davriga xos mamlakatlarda xususiylashtirish.
2. Iqtisodiy o'tish davriga xos mamlakatlarda yirik korxonalarni xususiylashtirish modellari.
3. Iqtisodiy o'tish davriga xos mamlakatlarda o'rta va yirik korxonalarni xususiylashtirish usullari.
4. Kichik korxonalarni va fermer xo'jaliklarini xususiylashtirish.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Erishgan marralarimizni mustahkamlab, islohotlar yulidan izchil borish - asosiy vazifamiz. «Xalq so'zi», 10 fevral 2004 yil.
2. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chiqurlashtirish yo'lida, T., «O'zbekiston», 1995.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmokda. T «O'zbekiston», 1999.
4. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-t. T., «O'zbekiston», 1996.
6. От плана к рынку. Отчет о мировом развитии. 1996, МБРР, Вашингтон, 1996.

7. Раджабова З.К. «Мировая экономика» М., ИНФРА, 2004.
8. Экономическая теория (под редакцией Камаева), М., 1998, глава 23.
9. Экономическая теория (под редакцией Базилева, Гурко), Минск, 1998, глава 7.

4-BOB O'tish davrida ijtimoiy himoya

Qashshoqlik bilan kurashish, inson kapitalini asrash, uni bozor iqtisodiy ehtiyojlariga tayyorlash iqtisodiy yuksalishga, ijtimoiy adolatga, siyosiy barqarorlikka ko'maklashadi.

Ishlab chiqarishning inqirozi, daromadlar borasidagi tengsizliklar oqibatida Markaziy - Sharqiy Yevropa mamlakatlari va yangi mustaqil davlatlarda kambag'allik keskin ko'payib ketdi. Ish haqining erkinlashtirilishi, daromadlarni tabaqlanishi darajasi yuqori bo'lган xususiy sektorning ulushi o'sib borishi oqibatida butun mintaqada daromadlarning tengsizligi kuzatildi. Ayrimlar haddan tashqari boyib ketdi, ko'pchilik kambag'allashdi va hatto qashshoqlashdi.

Kambag'allik darajasi qanday aniqlanadi? Mutlaq kambag'allik shaxsiy yoki oilaviy daromadlar (yoki xarajatlar)ni muayyan miqdordagi tovarlar, xizmatlar qiymatiga taqqoslash yo'li bilan aniqlanadi. Nisbiy kambag'allik daromadlarni boshqa shaxslar yoki oilalarning daromadlariga taqqoslab belgilanadi. Subyektiv kambag'allik amaldagi daromadlarini muayyan shaxslar o'zlarini kutayotgan va tasavvur qilayotgan daromadlarga taqqoslab belgilanadi.

Kambag'allik muammolarini hal qilishning kaliti iqtisodiy o'sishni tiklash. Biroq, aholining ba'zi toifalari, masalan, malakalari darajasi bozor talablariga mos bo'lman xodimlar, keksalar, bolalar va ko'p bolali oilalarning muammolarini faqat iqtisodiy o'sish bilangina hal qilib bo'lmaydi. Axrlining bu guruhi uchun egasiga borib yetadigan (adresli) yordam dasturini ishlab chiqish zarur. Lekin aholining hayot darajasini haqiqatan ko'tarish uchun iqtisodiy o'sish barqarorligini ta'minlash lozim.

Bozor iqtisodiga o'tish davrida yuz berayotgan jarayonlar mehnat bozoriga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Bu uch yo'ialishda sodir bo'ldi: ish haqi darajasi va tarkibi o'zgardi, mintaqalar, tarmoqlar bo'yicha ish bilan bandlik tarkibi o'zgardi va ishsizlik bandlikni tartibga solish mexanizmidan biriga aylandi.

O'tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlarda mehnat bozorlarini qayta qurish jarayoni uch yo'nalishning biriga ko'ra yuz beradi. Birinchi yo'nalishga muvofiq, davlat sektoridagi ish bilan bandlik keskin pasayib ketadi. Bu yo'nalish Markaziy - Sharqiy Yevropa mamlakatlari uchun xos. Ikkinci yunalish bozor iqtisodi sharoitlariga moslashish yo'li bo'lib, u Rossiyada va yangi mustaqil davlatlarning ko'pchiligidagi amalga oshirilgan. Bu mamlakatlarda ish bilan bandlik ishlab chiqarish hajmiga nisbatan ancha sekinlik bilan qisqardi. Korxonalar ommaviy tarzda ishdan bo'shatish yo'lidan qoqganliklari tufayli xodimlar rasman shtatda qolganliklari holda eng kam ish haqi olishgan yoki hech narsa olishmagan, lekin ko'p vaqtlarini norasmiy sektordagi ishga bag'ishlab, korxonalarining ba'zi imtiyozlaridan foydalanib turishgan.

Uchinchi yo'nalish - Xitoy modeliga muvofiq davlat sektoridagi bandlik 1993 yilgacha o'sib bordi, keyin esa biroz pasayish yuz berdi.

Ishsizlikning ortib borishi bilan Markaziy - Sharqiy Yevropa mamlakatlari va yangi mustaqil davlatlarda ushbu ikki masala: korxonalarga ko'maklashishni davom etgirish kerakmiyo'qmi va mehnat bozoridagi faol siyosat nimadan iborat bo'lishi lozim, degan masalalar dolzarb bo'lib qoldi. Ishsizlik darajasi yuqori va ishchi kuchining' sharoitga moslashuvchanligi past bo'lgan mintaqalarda o'zini o'nglab olishi kutilayotgan yoki yopib qo'yilishi butun mintaqaga uchun og'ir salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan korxonalarga ish haqi uchun vaqtinchalik mablag' bilan yordam berish (subsidiya) maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin. Biroq, bunda shuni hisobga olish kerakki, bu subsidiyalar asta-sekin bekor qilinishi lozim.

Mehnat borasidagi faol siyosat uch asosiy yo'nalishda mavjud: bandlik xizmati (ishga joylashish uchun ko'maklashish va maslahat berish); kasbga o'rgatish; yangi ish o'rinnarini tashkil qilish.

Mamlakatda yuqori malakali va jismonan sog'lom mehnat resurslari mavjud bo'lган

taqdirdagina iqtisodiy yuksalishga erishish mumkin. Shu nuqtai nazardan o'tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlar mustahkam negizga ega. Shuni ta'kidlash lozimki, markazlashtirilgan rejali tizimning ijobiliy tomonlari tufayli Markaziy - Sharqiy Yevropa va MDH mamlakatlarida ko'p yutuqlarga erishildi: deyarli umumiy boshlang'ich, to'liqsiz o'rta ta'lim berilishi, daromad darajasi nisbatan o'xshashligi, boshqa davlatlarga nisbatan savoddilik darajasining yuqoriligi, aniq fanlar sohasida texnikaviy bilimlar va tayyorgarlikning usgunligi. Ta'lim olish borasida erkaklar bilan ayollarning teng huquqliligi ham muhim yutuq bo'lib, bu omil aholining umumiy saviyasiga, salomatligiga, ish unumdoorlishga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Biroq, ta'lim va sog'lijni saqlash tizimlari raqobatli sharoitdagi erkin bozorning kun sayin o'zgarib turadigan ehtiyojlarini qondirishga emas, balki buyruqbozlik asosidagi iqtisod ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan edi. Shuning uchun ayni paytda shu tizimlarda ham tegishli islohotlarni o'tkazishga to'g'ri keladi.

Insonning salomatligiga to'rt guruhdagi omil ta'sir ko'rsatadi: daromad, yashash tarzi, atrof-muhitning ahvoli va kasbga doir kasalliklar, shuningdek, tibbiy xizmat sifati.

O'tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlarda sog'lijni saqlash tizimi to'rt usulda mablag' bilan ta'minlanadi:

Birinchi usul — nakd pul bilan ta'minlash. Bu asosiy usul bo'lib, yuz yillar mobaynida qo'llanib kelinadi. Budgetdan mablag' ajratish uchun soliq tushumlari, sog'lijni sug'urtalash tizimi bo'limgan eng kambag'al davlatlarda hozir ham qo'llaniladi.

Ikkinci usul - xususiy sug'urtalash xizimi. Bu asosan tushadigan foydaga asoslangan bo'lib, ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarda qo'llaniladi. Sanoati rivojlangan mamlakatlar ichida faqat AQSHda qo'llanadi, lekin bu yerda davlat ham sog'lijni saqlash tizimiga kattagina mablag' ajratadi.

Uchinchi usul - ijtimoiy himoyalash. Bu usul Argentina, Germaniya, Koreya Respublikasi, Urugvay, Chili, O'zbekiston va qator yangi mustaqil davlatlarda qo'llaniladi.

To'rtinchi usul - soliq tushumlaridan mablag' ajratish ko'pchilik mamlakatlarda, jumladan, Buyuk Britaniya, Daniya, Norvegiya, Shvetsiya va Lotin Amerikasi, Yaqin Sharq, Shimoliy Afrikaning ko'pgana mamlakatlarida asosiy manba hisoblanadi.

SEMINAR MASHG'ULOTLARI REJASI

1. O'tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlarida kambag'allik muammolarining yechimi.
2. Bandlik va ijtimoiy himoya.
3. Mehnat bozori shakllari.
4. O'zbekiston ishchi kuchlari xalqaro migratsiyasi.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Erishgan marralarimizni mustahkamlab, islohotlar yo'lidan izchil borish - asosiy vazifamiz. «Xalq so'zi», Yufebral 2004 yil.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., «O'zbekiston», 1997.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.. «O'zbekiston», 1999.
4. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T., «O'zbekiston», 1996.
5. От плана к рынку. Отчёт о мировом развитии, 1996. МБРР, Вашингтон, 1996.
6. Раджабова З.К. Мировая экономика. М., ИНФРА, 2004.

5-BOB

MEHNAT BOZORI VA UNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Mehnat bozorining mohiyati va uning assosiy xususiyatlari.

2. Raqobatli mehnat bozoriga ta'sir etuvchi omillar.
3. Mehnat bozorining rusumi.
4. Bandlik nazariyasi: an'anaviy, Keyns.
5. Ishsizlik va uning ko'rinishlari: friksion, tarkibiy (struktura) va davriy (siklik).
6. Ishsizlik darajasini aniqlash.
7. Ishsizlikning iqtisodiy va noiqitsodiy xarakatlari.
8. Bandlik bo'yicha davlat siyosati: mehnat qilish kafolati, mehnat munosabatlarini tartibga solish, ishsizlik nafaqasi, bandlik bo'yicha loyihalarni amalga oshirish.
9. Bandlik bo'yicha davlat xizmat idoralari: vazifalar, tuzilmalar, muammolar.

Har bir jamiyatning imkoniyatlari (resurslari) cheklangan bo'lib, ulardan iloji boricha unumliroq foydalanish istagi tug'ilishi tabiiydir. Bu tabiiyki, mehnat resurslariga ham taalluqlidir.

To'la bandlilik deganda, faqat mehnatga yaroqli imkoniyatlardangina foydalanish ko'zda tug'iladi. Bolalar, qariyalar hamda nogironlar ma'lum qismining mehnatidan foydalanishni ta'qiqlab qo'yadigan qonunchilik buni nazarda tutadi.

To'la bandlilik mamlakatning mehnatga qobiliyatlari barcha fuqarolari ish bilan band degan ma'noni anglatmaydi. Biror kishi mehnat qilishni xoxlab ish joyini qidirsagina uni ishsiz desa bo'ladi. To'la bandlilikda ishsizlik faqat friksion va tuzilmaviy (ya'ni biror kishi turmush sharoitlari o'zgarganligi yoki boshqa sabab tufayli o'z xohishi bilan ish joyini almashtirmoqchi bo'lganligidagi ishsizligi bilan) ishsizlik bo'yicha belgilanadi. Bu hol ishsizlikning tabiiy darjasasi deb baholanadi va u doim mavjuddir.

Tabiiy ishsizlik darajasini inobatga olib, iqtisodning real ishlab chiqarish imkoniyatlарини bilish yoki tabiiy ishsizlik darajasini inobatga olib ishlab chiqariladigan milliy mahsulot hajmini belgilash mumkin. Xuddi ana shu holda iqtisod "cheklangan imkoniyatlardan to'la foydalangan holda" ishlab chiqarishi mumkin bo'lgan aniq mahsulot mikdori yuzaga keladi.

To'la bandlilik holati uchun xos bo'lgan tabiiy ishsizlik darjasasi ishchi kuchi bozorida muvozanat saqangan taqdirda yuzaga keladi. Bunday paytda ish qidirib yurganlarning soni bo'sh turgan ish joylari yoki vakansiyalarga teng bo'ladi. Ana shu holatda har bir ishchi kuchi taklifiga tegishli talab ham topiladi.

Tabiiy ishsizlik darjasasi iqtisodning ijobjiy omili hisoblanadi. Nega deganda, bu holatda ish vaqt kam yo'qotiladi, chunki mehnat bozorida muvozanat bor. Demak, ish joyini qidirishga juda kam vaqt sarflanadi. Talab hamisha tarifga to'g'ri keladi. Mehnat bozorida ishchi kuchi oshib ketmagani kabi unga tanqislik ham sezilmaydi.

Tabiiy ishsizlik darjasasi iqtisodda bir holatda turmaydi, ko'pincha tabiiy holatdan yo yuqori, yo past bo'ladi. Bu ko'p jihatdan iqtisodning qaysi pallada turganiga bog'liq. Masalan, ishlab chiqarish darjasasi ko'tarilib, "jonlanish" pallasi boshlanganida bandlilik to'la holga, ishsizlik darjasasi tabiiy darajaga yaqinlashadi.

Shunday holatlar bo'ladiki, bandlilik 100%ga ko'tariladi. Masalan, bu holat ikkinchi jahon urushi paytida harbiy buyurtmalar bilan bog'liq bo'lgan, o'shanda hukumatlarda ishchi kuchiga talab katta bo'lib, ishdan bo'shashlar ta'qiqlab qo'yilgan va qonunchilik yo'li bilan ishchi kuchi taklifi ko'payishiga imkon berilgan (ikki ishda ishslash, ish vaqtidan so'ng mehnat qilish va h.k.lar). Bunday sharoitda bandlilik ortadi, lekii daromad ko'paygani tufayli inflatsiya ham yuzaga keladi. Iqtisodchilar ishchi kuchining 95-96%ni band bo'lsa, optimal daraja, deb hisoblashadi. Bu raqam albatta o'zgarib turadi. Masalan, aholi tarkibida yoshlar ko'payib, demografik vaziyat o'zgorganida tabiiy ishsizlik darjasasi o'sishi mumkin, nega deganda, yoshlarning ish topishi ancha mushkul bo'ladi, bunday vaziyatlarda qonunchilik yo'li bilan o'zgarishlar qilish talab eti-ladi. Masalan, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash dasturi, ishsizlik bo'yicha nafaqalarni joriy etish kabi. Ishsiz qolgan odam ishsizlik nafaqasini ko'proq olsa, o'ziga ma'qul kelgan ish joyini shoshmasdan topishi ehtimoli ham osonlashadi. Demak, ikkinchi marta ish joyini yo'qotmaydi.

Ishsizlik shunchalik murakkab va jiddiy ijtimoiy masala ekan, barcha choralar bilan unga qarshi kurashish kerakmi degan ma'no kelib chiqadi bundan. Bu masalada bozor iqtisodining imkoniyatlari qanday?

Hamma bozorlarda talab va taklif qonunlari hukmron. Mehnat bozorida odamlar ma'lum haq evaziga o'z molini, ya'ni o'zining ishchi kuchini taklif qiladi, ish beruvchilar esa unga talabgor bo'lib, sotib oladi va haqini to'laydi. Demak, mehnat bozorida bozorga xos bo'lgan to'rtta zarur element mavjud: talab, taklif, narx va raqobat. Ishchi kuchi narxi degani uning ish haqi. Ish haqi darajasi esa bandlilik va ishsizlik o'rtasidagi nisbatga bog'liq.

Ishchi kuchi taklifini shakllantiruvchi omillar quyidagilar:

- Mavjud ish haqi darajasi;
- madaniyat;
- din;
- kasaba uyushmalariniig mavjudligi;
- soliqlar darajasi;
- ishchi kuchining tarkibi (masalan, unda yoshlar ko'proq bo'lishi mumkin);
- ishchi kuchining hududiy bo'linishi.

Ishchi kuchiga bo'lgan talab ish beruvchilarning umumiyligi iqtisodiy talabiga ko'ra, qancha mahsulot ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish zarurligi bilan bog'liq bo'lgan odam yollash ehtiyojiga qarab belgilanadi. Demak, bu ishlab chiqarishning umumiyligi talabiga, uning texnik jihatdan qay darajada jihozlanganligiga bog'liq. Ya'ni ma'lum miqdordagi mashinalarga ma'lum miqdordagi odamlar zarur. Bunday holatda ishlab chiqarish jarayoni ishlab chiqarish xarajatlari maqbul darajada bo'lgan tarzda davom etadi va ular tarkibiga kiradigan ish haqi ham shunga yarasha to'lanadi.

Mehnat bozori faoliyatini ta'riflovchi bir qancha iqtisodiy nazariyalar bor.
"An'anaviy (klassik) bandlik nazariyasi"

An'anaviy bandlik nazariyasiga ko'ra, to'la bandlik bozor iqtisodida odatiy hol hisoblanadi, shuning uchun davlat siyosatining eng yaxshi turi bunga aralashmaslik siyosatidir, deb ta'riflanadi.

An'anaviy bandlik nazariyasi bozor iqtisodiyotida yalpi xarajatlar ishlab chiqarilgan mahsulotlar va xizmatlarni sotib ololmasligi kabi vaziyat yuzaga kelmasligiga asoslanadi. Agar shunday holat yuz bersa, narx va ish haqi singari tartibga solish vositalari o'z-o'zidan ishga tushib ketadi, buning natijasida umumiyligi xarajatlarning kamayishi ishlab chiqarish ko'laming pasayishiga, bandlilik va sof daromadlarning ozayishiga olib kelmaydi.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqilsa, taklif ko'paygan taqdirda ish haqi (narxi)ning pasayishi muvozanatni tiklashga olib keladi.

Mabodo, ish haqi, ish izlab yurganlarning barchasi ish joyini topguday chegaradan yuqori bo'lsa, mehnat bozorida takliflar keragidan ortiq bo'ladi.

Demak, an'anaviy bandlik nazariyasi juda yuqori darajadagi ish haqini nazarda tutadi. Bozor qoidalari ishga tushishi lozim: serob taklif ish haqi narxiga "tazyiq" qiladi, toki, u pasaymaguncha, ya'ni ishsizlik (avtomatik ravishda) ish haqi darajasini kamaytiradi, oqibatda muvozanat tiklanadi - to'la bandlilik holati yuzaga keladi. Lekin amalda ish haqining kamayishi nazariyadagidan ko'ra, nisbatan ancha sustroq ro'y beradi. Ishlovchilar o'z daromadlaridan voz kechgilari kelmaydi. Bundan tashqari, ish beruvchilar ham ish haqi barqaror bo'lishidan manfaatdor, chunki bu narsa ishlab chiqarishni, daromadni rejalashtirish imkonini beradi, jamiyatda xotirjamlikni ta'minlaydi. Kasaba uyushmalari bilan ish beruvchilar o'rtasida tuziladigan qo'shma shartnomalarda ish haqi darajasi belgilab qo'yiladiki, bu narsa uning bozor muvozanati qonunlariga muvofiq o'zgarib turishiga xalaqit beradi. Demak, ishsizlik davom etaveradi.

Ish haqi yuqori darajada, ortiqcha taklif serob bo'ladi, bu esa - an'anaviy nazariyaning ta'rifi bo'yicha ixtiyoriy ishsizlikdir, chunki ishlovchilar ish haqining kamayishiga yo'll qo'yaydi. Bu endi yuqori darajadagi ish haqi uchun jamiyat to'laydigan soliq, demakdir.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, davlatning bandlik masalalariga aralashuvni ortiqcha

ko‘rinadi. Nega deganda bu sohadagi tartib-qoidalar o‘z-o‘zidan muvozanatni saqlab turadi. Lekin amalda nazariya boshqa, tajriba boshqa. Muntazam ravishda uzoq davom etgan ishsizlik va inflatsiya doim mavjud. Oqibatda yangi nazariya - bandlik bo‘yicha Keyns nazariyasi paydo bo‘ldi.

1936 yilda ingliz iqtisodchisi Djon Meynard Keyns bozor iqtisodiyotidagi bandlilik darajasiga o‘ziga xos ta’rif berdi. Unga ko‘ra, bozor iqtisodida to‘la bandlikka kafolat beruvchi qonun-qoida yo‘q. To‘la bandlik tabiiy emas, ko‘proq tasodifiy holdir. Shunday ekan, davlat bozorda ro‘y beruvchi jarayonlarga faol aralashmog‘i lozim.

Keyns qayd etadiki:

- ish haqini kamaytirish imkoniyatlari juda kam;
- ish haqi kamaytirilgan taqdirda ham uning samarasi oz bo‘ladi, chunki ishlovchilarining daromadlari pasayadi, oqibatda ishlab chiqariladigan mahsulotlar va xizmatlarga bo‘lgan yalpi talab kamayadi.

Binobarin, davlat yalpi talabning ko‘payishiga qaratilgan faol moliyaviy siyosatni amalgalashirib, investitsiyalarni rag‘batlantirib, soliqlarni kamaytirgan holda (bular ishchi kuchiga bo‘lgan talabni ko‘paytiradi va bandlilik darajasini oshiradi) ishsizlikka qarshi kurashishi lozim.

Ish haqini asta-sekin, keskin bo‘lmagan holda oshirish bo‘yicha takliflarni ham ko‘rib chiqish lozim bo‘ladi. Massachusetts universitetining professori Martin Veyman quyidagilarni taklif qiladi:

- ish haqining bir qismi firmanın rentabelligi bilan bevosita aloqador bo‘lishi shart. Daromadning boshqa qismi ushbu foydaning ma’lum hissasidan iborat bo‘lishi kerak.

1980-yillardan boshlab foydadagi ishtirok ulushi g‘oyasi mehnat shartnomalarida kafolatlangan eng kam ish haqi ko‘zda tutilgan holda qayd etiladigan bo‘ldi. Chunonchi, Veymanga ko‘ra, kafolat bo‘yicha soatiga to‘lanadigan 10 dollar o‘rniga 5 dollar, plus firma foydasining ma’lum foizi (hissadorlik ish haqi) to‘lanadi. Hissadorlik ish haqi qo‘rinishidagi bu farq mutanosiblikni tezroq tiklashga yordam beradi, chunki kafolatlangan ish haqi darajasi ancha past. Ishlovchilar hissadorlik orqali keladigan ish haqiga ko‘proq manfaatdor. Chunki bu ularga chegaralanmagan ish haqi olish imkoniyatini beradi. Natijada ularning mehnat unumdarligini oshirishga va mahsulot tannarxini kamaytirishga olib keladi.

Ishsizlik Friksion ishsizlik

Har bir inson o‘zi xoxlagan joyga o‘z mehnatini taklif qilish yoki ishdan ketish huquqiga ega. Ana shundan kelib chiqqan holda, har bir qolatda odamlarning ma’lum bir qismi "ish axtarib yuradi". Ba’zilar o‘z istak-xohishlariga ko‘ra ish joyini o‘zgartiradi. Yana bir toifadagilar ishdan bo‘shatilganligi sababli yangi ish joyini qidiradi. Uchinchi toifadagilar esa mavsumiy ish bilan band bo‘ladi. Qolaversa, ko‘pgina fuqarolar, ayniqsa, yoshlar bиринчи bor ish qidirayotgan bo‘ladi. Ana shu toifalarga kiruvchilarining umumiy soni yil davomida oylar bo‘yicha o‘zgarib turadi, chunki ishga joylashganlar o‘rnini ishga kirmoqchi bo‘lganlar to‘ldirib turadi.

Yuqorida sabablar bo‘yicha ish qidirib yurgan va yaqin orada ishga joylashishni kutayotgan odamlarni iqtisodchilar "friksion ishsizlar" deb, ana shu ishsizlik turini esa "friksion ishsizlik" deb nomlashadi. Bu hol tushunarli, nega deganda friksion ishsizlik mexnat bozoridagi vaziyat u yoki bu tomonga og‘ganligini va muvozanat buzilganligini bildiradi.

Friksion ishsizlik muqarrar narsa. Uning yuz bergani ma’qul, deb hisoblanadi. Nega deganda, ko‘p odamlar yuqoriroq maosh olish, o‘zining ijodiy imkoniyatlarini to‘laroq namoyish etish maqsadida ish joyini o‘zgartiradi. Shu tariqa friksion ishsizlik natijasida mehnat resurslaridan foydalanish ancha durust holatga keladi, jamiyat daromadlari oshadi, milliy daromad ko‘payadi.

Tarkibiy ishsizlik

Friksion ishsizlik sekin-asta tarkibiy ishsizlikka olib keladi.

Talab tuzilishi, ishlab chiqarish tuzilishi vaqt o‘tgan sari o‘zgarib boradi. Texnologiyalar o‘zgarishi natijasida ishchi kuchiga bo‘lgan talab ham o‘zgaradi. Ba’zi kasb turlariga bo‘lgan talab kamayadi, boshqa kasb turlariga ehtiyoj oshadi. Ayni paytda mayjud kasb turlariga bo‘lgan talab oshishi ham mumkin. Yangi kasb turlari paydo bo‘ladi. Buning natijasida mexnat

bozoridagi muvozanat buzilib, ishsizlik vujudga keladi.

Ishchi kuchi sustroq bo'lib, u talab sohasidagi o'zgarishlarni darrov qabul qilolmaydi. Buning oqibatida ishlovchilarning ayrim qismi zarur bo'lgan yangi mehnat ko'nikmalariga ega emasligi, ya'ni uning endi haridga arziyidigan bisoti yo'qligi ma'lum bo'ladi. Undagi mavjud mexnat ko'nikmalari eskirgan, unga talab ham yo'q. Ishsizlikning bu turi "tarkibiy ishsizlik" deb nomlangan.

Ishchi kuchlarini hududiy jihatdan qayta taqsimlash, yangi hududlarni o'zlashtarish bo'yicha tadbirlar tarkibiy ishsizlikka sabab bo'lishi mumkin. Bunday halatlarda dastlabki o'zlashtirish davrida ko'proq quruvchilik ixtisosidagi ishchilar yollanadi. Lekin keyinchalik kam malakalilar ishsiz qoladi.

Shu tariqa qishloq xo'jaligini keng mexanizatsiyalash malakasiz qishloq xo'jaligi ishchilariga hojat qoldirmaydi. Narxlarning pasayishi sababli ko'mir, neft va gaz ishlab chiqarishdagi oqsoqlik oqibatida shu sohalardagi ishchilar o'rtasida ishsizlik yuzaga keladi. Tarkibiy ishsizlik aholi uchun og'ir oqibatlar olib keladi. Friksion ishsizlar mehnat bozorida u yoki bu narxda o'z ko'nikmalarini sotishi mumkin. Tarkibiy ishsizlar yangi ko'nikmalarga ega bo'lmaydi. Masalan, paxta teruvchi maxsus tayyorgarlik ko'rmagan bo'lsa, elektron hisoblash mashinasi bo'yicha dasturchi yoki operator bo'lib ish-lay olmaqdi-ku. Ba'zi hollarda esa mavjud mehnat ko'nikmalarini ishlatishga muvofiqroq joy tanlash maqsadida har kim turgan joyini o'zgartirishi mumkin. Tizimdagagi uzoq muddatli ishsizlik shunga ham bog'liq.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, friksion ishsizlik va tarkibiy ishsizlik sarhisob qilinganida ishsizlikning tabiiy darajasiga teng keladi. Bu daraja bozor iqtisodiyoti nuqtai nazaridan har bir mamlakat mehnat resurslarining 4-5% iga to'g'ri keladi.

Davriy ishsizlik

Davriy ishsizlik deganda, iqtisodiy davrning pasayish bosqichi bilan bog'liq bo'lgan ishsizlik tushuniladi. Pasayish davri mahsulotlar va xizmatlarga bo'lgan talabning kamayishi, bandlikning qisqarishi, ishsizlikning ko'payishi bilan ajralib turadi. Bu hol davriy ishsizlikni talab kamaygan ishsizlik deb nomlashga imkon beradi. Masalan, 1933 yildagi Buyuk inqiroz paytida davriy ishsizlik 25%ga ko'tarilgan.

Ishsizlikni aniqlash daroji

Aholining barcha qismi shartli ravishda uch toifaga bo'linadi:

- mehnat qilish layoqatiga yetmagan aholi;
- mehnat qilish layoqatiga yetgan aholi;
- mehnat layoqatidan o'tgan aholi.

Har qanday davlat qonunchilik yo'li bilan bu chegaralarni aniqlab qo'yadi. Odatga ko'ra, birinchi toifaga 16 yoshga yetmagan o'smirlar kiradi. MDH mamlakatlarida ishga layoqatlilik darajasi erkaklar uchun 16-60, ayollar uchun esa 16-55 yosh qilib belgilangan. Qator boshqa mamlakatlarda pensiya yoshi balandroq bo'lib, ko'p hollarda erkaklar va ayollar uchun barobardir.

Ishsizlik darajasi qanday aniklanadi?

Avvalo aholining mehnatga qobiliyatli qismidan tuzatish - mehnat muassasalarida turganlar, harbiy xizmatchilar, birinchi va ikkinchi toifa nogironlari, mehnatga qobiliyatli yoshdagi o'quvchilar, o'z xohishi bilan ishlashni istamaydigan fuqarolar mustasno etiladi (ayiriladi).

Qolgan aholi ishlayotganlar va ishlashni xohlaydiganlar bo'lib, salohiyatli ishchi kuchi hisoblanadi. Demak, ishchi kuchi deganda ishlovchilarni va faol ish axtarib yurgan ishsizlarni tushunish kerak. Xuddi shu ma'noda faol ish qidirish alomati ishsizga xosdir.

Ishsizlik darajasi ishchining ish bilan ta'minlanmagan ulushidir.

Ishsizlik darajasi: (Ishsizlar soni/ishchi kuchi soni) x 100%.

MDH mamlakatlarida mehnat vazirligi yoki davlat bandlilik xizmati ishsizlarni ro'yxatga olib boradi. Mintaqaviy organlar (mehnat birjaları, bandlilik bo'iicha davlat xizmat organları)ga murojaat qilgan ishsizlarni ro'yxatga oladi. Ya'ni bu mamlakatlarda ishsizlik to'g'ridan-to'g'ri hisobga olish orqali aniklanadi.

Dunyodagi ko‘pchilik davlatlarda ishsizlik darajasi har oyda o‘tkaziladigan oralatib olinadigan tadqiqotlarga ko‘ra belgilanadi. AQSHda 60 ming oila shunday savol-javobga tushladi. Tadqiqot dasturiga ko‘ra, oiladagi ishlovchilarning soni, oila a’zolari nima uchun ishlamasligi, nimaga ishdan bo‘shaganligi, kim ish qidirayotganligi yoki ish qidirishni xoxlamaganligi, bunga nima sabablar borligi va boshqalar xisobga olinadi.

Yuqorida keltirilgan hisob-kitobda quyidagilar o‘zgartirilib turiladi:

- qisman band bo‘lganlar;
- ish topishdan umidini uzganlar; - axborotdagi chalkashliklar.

1. Ishlovchilar toifasiga to‘la bo‘lmagan ish kuni yoki to‘la bo‘lmagan ish haftasi bilan ishlayotganlar kiradi. Misol tariqasida ko‘rsatilgan mamlakatda bunday fuqarolar, turli sanoat sohalarida 26 ming kishidan iborat (ular noilojlikdan to‘la bo‘lmagan (ish kuni) bilan bandlar). Bundan tashqari, yana 3000 ga yaqin ayol o‘z xohishi bilan ish kunini to‘la bajarmaydi. Agar shular ishlovchilar ro‘yxatidan chiqarib tashlansa, ishsizlik darajasi 2,5% ga ko‘tariladi.

2. Ish topishdan umidini uzganlarning bir qismi mehnat birjasida qayd qilinmaydi, savol-javoblarda ish topishga xohish-iroda borligini aytishmaydi. Natijada rasmiy statistika ularni ro‘yxatga kiritmay, ishsizlik darajasini pasaytirib ko‘rasatadi.

3. Juda ko‘p fuqarolar mehnat birjalarida ro‘yxatdan o‘tishi, savol-javoblarda «ish qidirib yuribman», deb aytishlari ham mumkin. Faol ish qidirib yurganlarga beriladigan ishsizlik nafaqlari ham bunga sabab bo‘lishi mumkin. Bu hol ishsizlik darajasining oshishiga olib keladi.

Shunday ekan, davlat iqtisodiy jixatdan qanchalik sog‘lom ekanligi aniq ma’lum bo‘lib turishi uchun ishsizlik darajasini belgilash uslubini hamisha takomillashtirib borishi kerak bo‘ladi.

Ishsizlikning iqtisodiy va noiqtisodiy chiqimlari

Tabiiy darajadan oshib ketgan ishsizlik jiddiy iqtisodiy xatarga olib keladi.

Eng asosiy yo‘qotish - ishlab chiqarilmagan mahsulotdir. Iqtisodiyot ishslash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ishlar moqchi bo‘lganlar uchun yetarli ish joyini ta’minlab berolmas ekan, qo‘shimcha ishlab chiqariladigan mahsulotlar va xizmatlardan mahrum bo‘ladi.

Iqtisodchilar buni yalpi milliy mahsulot hajmidagi oqsoqlik deb baholashadi. Masalan, yuqorida keltirilgan misolda mamlakatning yalpi milliy mahsuloti 2000 yilda 39 mlrd dollardan iborat bo‘lgan, ya’ni har bir ishlovchi bir yilda 6500 dollarlik yalpi milliy mahsulot bergen. Agar hamma ishsizlar mehnatga jalb qilinganida yalpi milliy mahsulot 780 mln dollarga ko‘paygan bo‘lar eda. Amadda ishlab chiqarilgan mahsulot mana shu imkoniyat darajasidan past, shuning uchun ham bu halni yalpi milliy mahsulotdagi oqsash deyiladi. Ishsizlik darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, bu oqsash xam shunchalik baland bo‘ladi.

AQSH iqtisodida bu borada o‘ziga xos doimiy mikdor ishlab chiqilgan. Iqtisodiyotchi-matematik Artur Ouken amaldagi ishsizlik darajasi tabiiy ishsizlik darajasidan bir foizga ortib ketsa, yalpi milliy mahsulotdagi yo‘qotish 2,5%ni tashkil etishini isbotlab bergen. Masalan, tabiiy ishsizlik darajasi 5% bo‘lib, amaldagi ishsizlik darajasi 9%ni tashkil etsa, yo‘qotish (9 - 5) x 2,5-10%dan iborat bo‘ladi.

Agar MDH mamlakatlaridagi ishsizlikning shakllanish darajasini kuzatsak, bu yerda ishsizlikning aksariyati ayollardan, yoshlardan, xizmatchilardan, pensiya yoshiga yetib qolgan past malakali ishchilardan iborat ekanliga ma’lum bo‘ladi. Bular mehnat bozorida eng kam layoqatli hisoblanuvchi aholi guruhlaridir.

AQSHdagi ishsizlikning ko‘rinishlari shundan dalolat beradiki, u yerda ham ishsizlik darajasi yoshlar, kam malakali xizmatchilar va boshqalar o‘rtasida ancha yuqori. AQSH olimlari bunga quyidagi holatlarni sabab qilib ko‘rsatishadi:

- firmalar malakali xizmatchilar - "oq yoqali" xizmatchilarni ishdan kamroq bo‘shatadi;
- katta yoshdagilarga nisbatan yoshlarning malakasi past, ba’zan esa, butunlay yo‘q;
- aholining bir qismiga nisbatan ta’lim sohasida kamsitish holatlari, yirik shaharlarda ularning gettollarda yashashi natijasida ayniqsa yoshlar uchun ish toiiishning qiyinlashuvi.

AQSHdagi o‘ziga xos vaziyat shundan iboratki, ishsizlik darajasi erkaklarga nisbatan ayollar o‘rtasida ancha kamroq. Erkaklar ko‘proq investitsiya mahsulotlarini ishlab chiqaradigan

sohalarda ishlashadiki, bu sohalar ko‘proq o‘zgaruvchan bo‘lib, davriyiligi bilan ajralib turadi.

Ishsizlikning iqtisodiy chiqimlari haqida gap ketganda, aqoli daromadining kamayishini, mehnat ko‘nikmalari yo‘qolishini ham ta’kidlash lozim bo‘ladi.

Ishsizlik ijtimoiy chiqimlarga ham olib keladi. Mehnat bir butunlik hissini uyg‘otadi. Inson uchun ish - bu maqom, obro‘-e’tibor, degani. Ish kunimizni, hayotimizni bezab turadi. Ishsiz odam kasb-hunari yaramay qolganligidan nadomat chekadi. «Men endi ortiqcha ekanman», deb o‘zini qiyaydi. Statistika ma’lumotlariga ko‘ra, o‘zini-o‘zi o‘ldi-rish hollari ishsizlar orasida ko‘proqdir. Spirtli ichimliklar, narkotik moddalarni iste’mol qilish hollari va jinoyatchilik ko‘payadi. Vrachlarning ta’kidlashicha, ishsizlikning ortishi millatning salomatligiga putur yetkazadi. Asabiy lashish, uyqusizlik, bosh og‘riqlari, hayotdan bezish hollari ishsizlar orasida ko‘proq uchraydi. Uzoqqa cho‘zilib ketadigan ishsizlik yomon oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ham unutmaslik kerak. Xuddi ana shunday sharoitda Hitler Germaniyada hokimiyat tepasiga kelgan edi. Yuqori darajadaga ishsizlik ijtimoiy tartibsizliklarga, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy yo‘lidagi o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin va olib keladi ham. Ishsizlik nafaqalari

Ishsizlik uchun nafaqalar miqdori ishsizlik darajasiga katta ta’sir qilishi mumkin. Bu quyidagicha ro‘y beradi:

- ishsizlik uchun nafaqa juda oz bo‘lsa, ishsiz bo‘lsa-da, faol ish qidirib yurganlarning hammasi ham bandlik xizmati ro‘yxatidan o‘tavermaydi. Bu hal rasmiy ishsizlik darajasining pasayishiga olib keladi;
- ishsizlik nafaqasi haddan tashqari yuqori bo‘lsa, ishga kirishni xohlamagan ko‘p odamlar uchun yaxshigina daromad manbai bo‘lib xizmat qiladi. Bu narsa rasmiy ishsizlik darajasini sun’iy ravishda oshirib yuboradi.

Ishsizlik uchun nafaqalar kimning hisobidan to‘lanadi? Shuni alohida ko‘rib chiqish lozim bo‘ladi. Ana shunday nafaqalar beriladigan mamlakatlarning aksariyatida ish beruvchilar va ishlovchilar haqining ma’lum miqdori ajratilib beriladigan maxsus sug‘urta jamg‘armalari tashkil etiladi. MDHdagi ko‘pchilik davlatlarda ana shunday to‘lovlarni faqat ish beruvchilar tomonidan ta’minlanadi. Ana shu to‘lovlarni soliq turi deb ham hisoblash kerak. Shuni e’tiborga olish kerakki, bu to‘lovlarni kim berishidan -ish beruvchimi yoki ishlovchimi qat’iy nazar, ular ishlovchilarning daromadini qirqadi.

Ishsizlik uchun nafaqalar miqdorini aniqlash - bu miqdor ishsiz odam va uning oila a‘zolarining muayyan ehtiyojlarini qoplashi lozim. MDH mamlakatlarining ko‘pchiligidagi ishsizlik darajasi yo‘rtacha, yoki eng kam miqdordagi (minimal) ish haqiga qarab belgilanadi. O‘rtacha ish haqiga nisbatan beriladigan ishsizlik nafaqasining o‘rtacha miqdori koeffitsiyenti alohida e’tiborga sazovordir. G‘arbiy Yevropaning ko‘pchilik mamlakatlarida va AQSHda ana shu koeffitsiyent o‘rtacha ish haqining 50% iga teng keladi yoki undan ham oshadi. Rossiya Federatsiyasida bu raqam 25% dan kamroq bo‘lsa, O‘zbekistonda 70%dan ko‘proqni tashkil etadi. Bu narsa shundan dalolat beradiki, Rossiyada yo‘ishsizlik nafaqalari miqdori xususida qattiq qonunchilik joriy etilgan yoki ko‘proq kam ish haqi oladigan Fuqarolar ishsizlikka uchraydilar.

Ishsizlik yuzasidan to‘lanadigan nafaqalarni moliyalashtirish, ishsizlarga yangi ish joylarini tashkil etishga, muddatidan oldin pensiyaga chiqadiganlar (MDHdagi ko‘pchilik davlatlardagi pensiya qonunlari va umuman qonunchilik bo‘yicha pensiya yoshi arafasida bo‘lgan, bandlilik xizmati ro‘yxatidan o‘tgan shaxslar muddatdan oldin pensiyaga chiqish huquqiga ega hisoblanadi) uchun beriladigan pensiya to‘lovlari sarflamagan holda ishsizlik nafaqalaridan o‘z maqsadlarida foydalanish lozim. MDHning ko‘pchilik mamlakaglarida rasmiy ishsizlik darajasi tabiiy darajadan ancha past, lekin islohotlar amalga oshirilib borilgan sari bu daraja ko‘tarilishi ham mumkin. Bundan tashqari, tarkibiy va davriy ishsizlik ko‘tarilishi, bu esa, ishsizlikni uzoq muddatga cho‘zishi mumkin. Demak, ishsizlik nafaqapari muddatini uzaytirish lozim bo‘ladi. Oqibatda xarajatlar ko‘payadi. Bu o‘rinda jamg‘armalarga salbiy ta’sir etuvchi inflatsiya jarayonini hisobga olishga to‘g‘ri keladi.

Bandlik bo‘yicha davlat siyosati

1933 yildagi Buyuk inqiroz davrida iqtisodga, mehnat bozoridagi jarayonlarga davlat albatta aralashishi kerak, degan aqida muhim bo‘la boshladi. Ana shu holda hukumatlar xatti-harakati yalpi farovonlikni oshirishga qaratildi.

Hukumatning xatti-harakati mehnat qilish kafolatini ta’minlovchi quyidagi yetti banddan iborat:

1.Mehnat bozorini himoyalash.

Hukumat to‘la bandlikni ta’minlash kafolatini oladi. Haq to‘lanadigan ish tezroq olish garovi bo‘lmish mahsulotlar va xizmatlarga bo‘lgan umumiylabni bir darajada saqlab turish mas’uliyati ham ularning zimmasida. Amalda bu mamlakat iqtisodidagi bo‘sh ishchi o‘rinlarni ishsizlik darajasi bilan tenglashtirib turish, demakdir. Ba’zi mamlakatlarda o‘ziga xos soliq, moliyaviy siyosat oqibatida to‘la bandlilikka erishilgan. Bu siyosat esa, keskin iqtisodiy yuksalishga qaratilgan.

2.Bandlik kafolatlari.

Mehnatkashlar ishdan bo‘shatilishiga qarshi muayyan kafolatga egaki, bu kafolatlar qonunchilik yo‘li bilan, oldindan xabar bermagan holda ish joyini qisqartirmoqchi bo‘lgan tadbirkorlarga nisbatan jazo choralarini qo‘llash orqali amalga oshiriladi. Bandlik kafolati ishga qabul qilish paytida kamsitishga qarshi kurashishni, ijtimoiy jihatdan zaifroq bo‘lgan kishilarni (nogironlarni) mehnatga jalb etish imkoniyatlarini oshirish tadbirlarini qamrab oladi.

3. Mexnat xavfsizligi.

Davlat mehnatkashlarning hayoti va salomatligini o‘z nazorati ostida saqlaydi, mehnat gagiyenasi, xavfsizlik texnikasi bo‘yicha tadbirlar belgilaydi. Ayrim mamlakatlarda inspeksiya xizmatlari tomonidan nazorat qilinadigan minimal meyorlar mavjud. Boshqa bir mamlakatlarning korxona va firmalarida, mexnat xavfsizligani ta’minlash bo‘yicha qonuniy ravishda chora-tadbirlar ko‘rish yo‘lga qo‘yilgan.

4.Ish joyini saqlat kafolati.

Teylor tizimidan kelib chiqqan ish joyini saqlash kafolati bugunga kelib, ko‘pgina kasaba uyushmlari va mehnatkashlar guruhining asosiy maqsadiga aylanib qoldi. Bu narsa mehnat taqsimotidagi jadal yuksalishga, ish o‘rnining yo‘qolishi va tarkibiy ishsizlikka olib keladigan holatga qarshi turishga imkon beradi.

5. Daromadlar kafolati.

Ko‘pgina hukumatlar qashshoqlikni tugatish, "beshikdan go‘rgacha" daromad olishni ta’minlash borasida ko‘pdan-ko‘p va’dalar beradi. Bu masalani hal etish uchun eng kam ish haqini belgilash, jamoa muzokaralari huquqini joriy etish, ish bilan band bo‘lмаган аholiga davlat tomonidan moddiy yordam ko‘rsatish yo‘llaridan foydalaniladi.

6. Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish kafolatlari. Hukumatlar ta’lim olish va kasb-hunar o‘rgatish sohasidagi hamma ijtimoiy chiqimlarni ko‘tarishi, o‘qish jarayoni, kasbni egallash, sog‘liqni saqlash va boshqalarga mablag‘ ajratish orqali ishchi kuchining samaradorligini rag‘batlantirishi ko‘zda tutiladi.

7. Mehnatkashlar vakillari xuquqlarining kafolati. Hukumatlar qo‘shma muzokaralarni o‘tkazish chog‘ida mehnatkashlarga yon bosish majburiyatini oladi. Qonunchilik, tartib-qoidalar, rasm-rusumlar, kasaba uyushmlari va boshqa tashkilotlar mehnatkashlarning manfaatlarini himoya qilganlari taqdirdagina ularning siyosiy-iqtisodiy mavqeini ko‘tarishga imkon beradi.

Mehnat munosabatlarini yo‘lga qo‘yishda hal qiluvchi quyidagi beshta omilga e’tibor beraylik.

1. Himoyalash tartiboti - mehnatkashlar ayrim toifalarining "himoyasizlik" ko‘rinishlarini cheklashga mo‘ljallangan ximoya tartiboti.

2. Rag‘batlantirish tartiboti - bu faoliyatning muayyan turlari mavjudligi va rivojlanishiga da’vat etuvchi shart-sharoitni yaratishga qaratilgan.

3. Cheklar tartiboti - ba’zi shaxslar yoki bir guruh mehnatkashlarning boshqalarga nisbatan ko‘proq imkoniyat olishiga yo‘l qo‘ymaydi (tartib-qoidalar bunga imkon bermaydi).

4. Yuqorida bo‘ladigan tartibot - hukumat nuqtai nazaridan mehnatkashlar manfaatlariga mos tushadigan yo‘nalishlar bo‘yicha ularni "boshqarish"ga mo‘ljallangan.

5. Moliyaviy tadbirlar mehnat bozorida taklifni yuzaga keltirishga yoki ma'lum darajada bandlikni saqlashga mo'ljallangan soliqlar, yordam pullaridan foydalanish, eng kam mikdordagi ish haqiga qo'shimcha berish yoxud kam malakali ishlovchilardan, yo vaqtincha ishlovchilardan foydalanadigan korxonalarini qo'llab-quvvatlash.

Shuningdek, mehnat munosabatlarini tartibga solishga qarshi qaratilgan ikki amalga ahamiyat berish kerak:

- mehnatkashlarning ijtimoiy ta'minoti qonun asosida kamaytiriladi;
- qonunchilik o'zgarmagan holda ijtimoiy himoya darajasi kamayadi. Buning sabablari quyidagicha: a) ayrim qonunlarga rioxal qilmaslik; b) qonunchilikka to'la rioxal qilgan holda ijtimoiy himoyalash darajasini saqlash uchun kamroq mablag' ajratish; v) mehnat ahlining o'zo'zini himoya qilish huquqini cheklash; g) haq-huquq va imkoniyatlari bobida mehnat axdining miyasini "qotirish"; d) mehnat ahlining ish statusini barbod etish ("D" bandi bilan asosan to'la bo'lмагan ish kuni turlari bog'liq; "v" va "g" bandlari esa kasaba uyushmalarining tarqalib ketishi, muntazam ishsizlik va daromadlardagi ortib borayotgan tengsizlik bilan bog'liq).

Ikkinchi jahon urushi tugashi bilan AQSHda ishsizlik muammosi kuchaydi va 1946 yilda bandlik bo'yicha maxsus qaror qabul qilindi. Unda shunday jumlalar bor: "AQSHning ushbu kongressi shuni ta'kidlaydiki, bandlilik borasida federal hukumat hamisha ro'y beradigan siyosiy vazifalar va mas'uliyat soqalarida uning umumiy maqsadlari va vazifalariga ko'ra hamda milliy siyosatga bog'liq boshqa siyosiy yo'nalishlar nuqtai nazaridan bor imkoniyatlarini ishga soladi".

1978 yilda qabul qilingan va Xemfri-Xoukins qonuni deb ataluvchi to'la bandlilik va me'yoriy o'sish qonuni iqtisodiyotni barqaror qilish sohasida federal hukumat oldidagi vazifalarni belgilab berdi va kengaytirdi Qonun bo'yicha hukumat oldiga kelasi 5 yil uchun iqtisodiyot borasida maqsadlarni aniqlash, shu maqsadlarni amalga oshirish uchun dastur yoki rejalarini tayyorlash vazifasi qo'yilgan. Ayni paytda ishsizlik darajasini 4%ga tushirish, inflatsiya sur'atini nolga yaqinlashtirish vazifasi ham yuklangan. Shuningdek, AQSHning jahon bozorlaridagi mavqeini yaxshilash, xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish, davlat sektori ko'lamini kamaytirish ham mo'ljallangan.

Fransiyada bandlik siyosati davlat darajasida bo'lib, mehnat sohasida turar joyidan qat'iy nazar hamma fuqarolarga teng imkoniyatlar berishdan iborat. Bu yerda bandlik xizmati faoliyati yangi ish joylarini tashkil etishga, mehnat bozorida eng zaif aholi tabaqalarini himoya qilishga, ya'ni ishsizlik darajasining oshmasligiga, uning salbiy natijalari ko'paymasligiga qaratilgan.

Demak, bozor iqtisodiga o'tish davrida shunday tizim yaratish kerakki, toki har bir fuqaro asosiy hayotiy ehtiyojlarini ta'minlashga yetadigan kafolatli daromadga ega bo'lsin.

Davlat bandlik xizmatlari ushbu tizimning asosini tashkil etmog'i lozim. Bu xizmatlar ishsizlarni va ish izlab yurganlarni ro'yxatga oladi, ishsizlik nafaqalari to'lash orqali ularga moddiy yordam ko'rsatadi, ishsizlarni o'qitish, qayta tayyorlash jarayonini tashkil etadi, o'qish davrida ularga stipendiyalar to'laydi, yangi ish joylari yaratish borasida faoliyat ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida aholi bandligi xizmatlari "Aholi bandligi haqida qonun" va shunga taallukdi me'yoriy hujjatlar asosida faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

SEMINAR MASHG'ULOTLARI REJASI

- 1 Iqtisodiy o'tish davriga xos mamlakatlarda qashshoqlik, iqtisodiy o'sish, tengsizlik.
- 2 O'tish davrida daromadlar tengsizligining oshish sabablari.
- 3 Iqtisodiy o'tish davriga xos mamlakatlarda mehnat bozoridagi islohotlar.
- 4 Iqtisodiy o'tish davriga xos mamlakatlarda ijtimoiy yordam tizimidagi islohotlar.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Erishgan marralarimizni mustahkamlab, islohotlar yo'lidan izchil borish - asosiy vazifamiz. «Xalq so'zi», 10 fevral 2004 yil.

2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., «O'zbekiston», 1997.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqsa T., «O'zbekiston», 1999.
4. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T., «O'zbekiston», 1996.
- 5 От плана к рынку. Отчет о мировом развитии. 1996, МБРР, Вашингтон, 1996.
6. Раджабова З.К. Мировая экономика. М., ИНФРА, 2004.

6-BOB

O'ZBEKISTON JAHON XO'JALIGI TIZIMIDA VA UNING XALQARO MEHNAT TAQSIMOTIDA TUTGAN O'RNI

O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgach, jahon hamjamiatiga muvaffaqiyat bilan qo'shib, xalqaro munosabatlarning tenghuquqli subyektiga aylandi. Hozirda O'zbekiston Respublikasi deyarli barcha nufuzli xalqaro tashkilotlarning a'zosi, uni dunyoning 174 davlati tan oldi, 123 mamlakati bilan diplomatik munosabatlar o'rnatilgan. Toshkentda 43 ta xorijiy diplomatik vakolatxonalar ishlab turibdi.

Jahon amaliyotiga "islohotlarning o'zbek modeli" degan nom mustahkam joylashib oldi. O'tish davri iqtisodiy rivojlanishining o'zbek modeli asosida I.Karimovning "davlat bosh islohotchi" degan tamoyili yotadi. Bunda o'z ichki resurslari - iste'dodli mexnat ahli, paxta, oltin, uran va yirik xorij sarmoyadorlari mablag'lariga suyanadigan qudratli iqtisodiy tizimni barpo etishga asosiy e'tibor qaratiladi.

O'zbek modelining o'ziga xos xususiyati shundaki, unda bozor o'zgarishlari barqarorlik dasturlari bilan birga olib boriladi. Bozor islohotlarini barqarorlik dasturlari bilan birligida amalga oshirish uchun islohotlarning qonuniy huquqiy asosini yaratish, qisqa muddat ichida milliy valutani joriy etish, pul muomalasini tartibga solish, giperinflatsiyani yo'qotish, umumiy to'lov quvvati talabi, umumiy taklifni muvofiqlashtirish zarur edi. Davlatning budget-soliq siyosatini vujudga keltirish, uning yordamida davlat budgetani balanslash vazifasini hal etish, budget taqchilligini xalqaro andozalar darajasiga yetkazish, natijada kelgusi iqtisodiy o'sish uchun sharoit yaratish talab qilinar edi.

Ko'pgina mafkuraviy aqidalardan voz kechildi. Ochiq iqtisodiyotga o'tish bozor iqtisodiyotiga o'tishning tarkibiy bir qismiga aylangan yangi vaziyatda O'zbekiston integratsiya jarayonlarida faol va keng ko'lamda qatnashuv yo'lida g'ov bo'lib turgan to'siqlarni yengib o'ta boshladи.

Ushbu muammoning muvaffaqiyatli hal etilishi pirovard oqibatda, birinchidan, bozor sharoitiga o'tish yo'lida mamlakat iqtisodiyotini sog'lomlashtirish, uni tarkibiy qayta qurish, ikkinchidan, buning uchun ta'sirchan qonunchilik, tashkiliy, moddiy va texnik omillarni yuzaga keltirish bilan bog'liqdir.

Iqtisodiyotni sog'lomlashtirish, tarkibiy qayta qurish haqida shuni aytish mumkinki, bularni amalga oshirish uchun sa'y-harakat, vaqt va imkoniyatlar talab etiladi. O'zbekistonning xalqaro integratsiya jarayonlarida bevosita ishtiroki uchun qonunchilik asoslarini, qulay shart-sharoit yaratish unchalik yengil kechmaydi, chunki u o'zining yangi tarixida mustaqil davlat sifatida jahon sahnida endigina chiqa boshladi.

O'zbekiston o'tgan yillar mobaynida sobiq Ittifoq davridan keyinga sheriklar bilan iqtisodiy aloqalarning uzilishi tufayli yuzaga kelgan oqibatlarni yengib o'tishga, barqarorlikka, yalpi ichki mahsulotning o'sishiga erishishga muvaffaq bo'ldi. 2004 yilda uning o'sishi 4,9%ni tashkil etdi. Mamlakatda sanoatning asosiy tarmoqlari - neft, gaz, mashinasozlik, metallga ishlov berish, oltin qazib olish va boshqa sohalar saqlab qolindi, yangi - avtomobilsozlik, neft-kimyo sanoati barpo etildi. O'zbekiston energetika mustaqilligiga erishdi va o'zini-o'zi don bilan ta'minlash vazifasini hal etmoqda. 2001 yilgi don importi 1992 yilga qaraganda 4,5 mln tonnadan 1 mln tonnagacha qisqardi.

O'zbekistonda "O'zDEUavto" (Andijon) avtomobil zavodi qurilib, muvaffaqiyat bilan ishlamokda. Buxoroda neftni qayta ishlash zavodi foydalanishga topshirildi. 1998 yilda Markaziy Osiyoda yirik hisoblangan shakarni qayta ishlash zavodi (Xorazm), yuk avtomobillarini ishlab chiqaradigan zavod (Samarqand) qurilishi tugallandi. O'zbekistonda aviapark to'la yangilandi, endilikda xalqaro yo'llarda Ds-10, A-310 "Boing" samolyotlaridan foydalanilmoqda. Telekommunikatsiyalar sektoriga «Siemens» va «A1katye1» konserni investitsiyalari jalg qilingan.

O'zbekiston oltin qazib olish hajmini oshirib bormoqda. 1990-yillar boshida mamlakat yiliga 70 tonna oltin qazib olgan bo'lsa, 1998 yilda 87 tonnaga yetdi.

Bugungi kunda mamlakatda 2,7 mingta turli konlar borligi aniqlangan. Ular mineral xom ashyolarning ko'pchilik turini o'z ichiga oladi. Bu xom ashyolarning 60 dan ortiq turi ishlab chiqarishga jalg qilingan. Umumiy mineral xom ashyo salohiyati 3,3 trillion AQSH dollarini tashkil qiladi.

Muhim strategik resurslar - neft va gaz kondensati, tabiiy gazning 155, qimmatli metallarning 40dan ortiq, rangli, noyob va radioaktiv metallarning 40, tog'-kimyo xom ashyolarining 15 istiqbolli konlari aniqlangan. Respublika oltin zaxirasi bo'yicha dunyoda to'rtinchchi, oltin qazib olish bo'yicha yettinchchi o'rinda turadi, shuningdek, mis bo'yicha o'ninchchi va o'n birinchi, uran bo'yicha yettinchchi va sakkizinchchi o'rinda turadi.

Respublikada marmarning 20, granitning 15 ta koni aniqlangan. Oq va qora dekorativ toshning katta tabiiy qatlamlariga ega bo'lgan konlar Yevroosiyo zonasidagi eng yirik konlardan hisoblanadi. Uldaring zaxirasi 85 million kubometrdan ortiq, bu toshga ishlov berish korxonalarini yuzlab yillar mobaynida xom ashyo bilan ta'minlash imkoniyatini beradi, degan gap bor,

Bugun O'zbekiston jahon bozoriga paxta tolasi ishlab chiqaradigan va yetkazib beradigan eng yirik mamlakatlardan biri hisoblanadi. Respublika paxta tolasi ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda beshinchchi, uni eksport qilish bo'yicha esa ikkinchi o'rinda turadi.

O'zbekiston meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha MDHda yetakchi o'rinalardan birini egallaydi. Bu mamlakatdagi qulay tabiiy iqlim sharoitlari yil davomida kartoshka, sabzavotning ko'plab turlari va boshqa ekinlardan bir necha marta hosil olish imkonini beradi.

Qayd etilgan salohiyatdan samarali foydalanish maqsadida Respublika iqtisodiyotiga xorij investitsiyalarini jalg etishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlaridagi yirik investitsion loyihalarni amalgalashga alohida e'tibor qaratilmoqda Xuddi shu maqsadda bu yerda qonuniy tartibda soliq va bojxona masalalarida qator imtiyozlar tizimi yaratildi. Bu esa o'zbek bozoriga xorij investorlarini yana ham keng jalg qilish imkonini beradi.

1998 yil o'rtalarida "Chet el investorlari to'g'risida" va "Xorijiy investorlar huquqlarini himoya qilish kafolatlari va chora-tadbirlari to'g'risida"gi ikki qonun amalgalashga kiritildi. Bunda ishlab chiqarish sohasiga, katta eksport salohiyatiga ega bo'lgan korxonalarga qo'yilgan xorij investitsiyalarini rag'batlantirishga qaratilgan imtiyozlar alohida ko'zga tashlanib turadi. Xususan, iqtisodning uyetuvor sektoriga kiritilgan bevosita xorij investitsiyalari respublikaning investitsion dasturiga kiritilib, unga ko'ra xorij kapitali ishtirokida barpo etilgan korxonalar yetti yil mobaynida daromad solig'idan ozod etiladilar.

Hozirgi vaqtida O'zbekistonda 3,5 mingdan ortiq qo'shma korxonalar ro'yxatga olingan. Ularning ta'sischilari tarkibida "Nyumont", (AQSH), "RENK KSEROKS" (Buyuk Britaniya), "Mersedes-Bens" (Germaniya), "Buller" (Shveysariya), "DEU korporeyshn" (Koreya Respublikasi), "Bursel" (Turkiya) va boshqa jahonga mashhur firma-lar bor. Jahondagi tamaki ishlab chiqarish va yetkazib berish bilan shug'ullanadigan yirik kompaniya - "BAT Investmens" bilan birgalikda Respublika tamaki sanoatini xususiylashtirish loyihasi tugallandi. Unga ko'ra iqtisodiyotga 250 mln AQSH dollariga yaqin investitsiya kiritildi.

Xorij investorlari uchun yagona qulay sharoit yaratish maqsadida eng ustuvor tarmoqlar qayd etilgan investitsion dastur ishlab chiqildi. Bular:

- Ilg'or texnologiyani qo'llash asosida xalq iste'moli tovarlarini ishlab chiqarish;
- qishloq xo'jalik mahsulotlarini chuqur qayta ishlash; mineral xom ashyo resurslarini olish va chuqur qayta ishlashga doir ekologik toza korxonalarini tashkil etish;
- ishlayotgan korxonalarda tabiatni muhofaza qiluvchi tadbirlarni amalga oshirish;
- sanoat va maishiy xizmat chiqindi-qoldiqlarini qayta ishlash;
- radioelektronika sanoati va asbob-uskunalarini ishlab chiqarish;
- zamonaviy axborot, telekommunikatsiya tizimlarini tashkil etish;
- resurs, energiya tejash asbob-uskunalarini ishlab chiqarish;
- dori-darmonlar, tibbiyot texnikasi asbob-uskunalarini ishlab chiqarish;
- turizm industriyasini rivojlantirish.

Xorijiy investorlar uchun quyidagi keng kafolatlar belgilandi:

- siyosiy xavf-xatardan sug'urta qilish shu maqsadda O'zbekistonda "O'zbekinvest" milliy sug'urta kompaniyasi ishlab turibdi, shuningdek, 10 mln AQSH dollari ustav kapitaliga ega bo'lgan "O'zbekinvest Interneshnl" xalqaro kompaniyasi tuzildi);
- milliylashtirish va rekvizitsiya qilishdan sug'urta qilish;
- qonuniy faoliyat natijasida olingan foyda va boshqa mablag'larni xorij valutasida chet elga o'tkazish;
- mulkdorning xohishiga ko'ra, foydadan respublika hududida qayta investitsiya yoki boshqa tarzda foydalanish.

Keyingi qonunlar investitsiyalash sharoitlariga salbiy ta'sir ko'rsatadigan hollarda xorijiy investorlarga nisbatan ularning investitsiyalari amalga oshirilgan paytda joriy qonun normalari 10 yil mobaynida o'zgarishsiz qo'llanaveradi.

- xorijiy investorlarning huquqlarini kansituvchi normativ hujjatlar qabul qilingan paytda ularga yetkazilgan zararlar sud tartibida davlat organlari tomonidan qoplanadi.

Xorijiy investorlar uchun qator huquqiy va iqtisodiy imtiyozlar ham ko'zda tutilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- o'z xususiy ishlab chiqarish mahsulotlarini litsenziyasiz, to'siqlarsiz olib chiqish;
- respublikaga olib kelinayotgan import tovarlarga boj olmaslik;
- xorijiy jismoniy va yuridik shaxslarni davlat mulkini xususiylashtirish jarayoniga erkin kira olishini ta'minlash (bunga ko'chmas mulkni keng sotish va xususiy-lashtirilgan korxonalar aksiyalarini 30 foizgacha hajmda sotib olish ham kiradi);
- xorijiy yuridik va jismoniy shaxslarga ular joylashgan uy-joy binolarini yer maydonlari bilan birga xususiy mulk qilib sotish.

Xorijiy investitsiyalarni jalg etish bo'yicha ishlarni bir joyga to'plash, yordam ko'rsatish uchun Respublika Vazirlar Mahkamasi huzurida investitsiyalarga yordam ko'rsatish xizmati, Davlat mulk qo'mitasida esa ko'chmas mulk va xorij investitsiyalari bo'yicha agentlik tashkil etildi.

Bozor infrastrukturasi institutlarining tizimi yaratilib, ularga investitsion jamg'armalar va banklar, sug'urta kompaniyalari, Respublika jamg'arma birjasi, Ko'chmas mulk birjasi, Tovar xom ashyo birjasi va boshqalar kirdi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining real sektoriga 2000 yilgacha jalg qilingan xorijiy investitsiyalarning hajmi 12 mlrd AQSH dollaridan oshib ketdi. 1999 yilda 2,0 mlrd AQSH dollari o'zlashtirildi. Respublikada investitsiyalar taqsimotiga nazar solganda, ustuvor tarmokdarning rivojlanishi ko'zga tashlanadi. Xususan, 2000 yilda xorijiy investitsiyalarning umumiyligi hajmidan 15 foizga yaqini O'zbekistonning neft va gaz sanoatida, mashinasozlikda - 12%, transport va telekommunikatsiyada - 10%, kimyo sanoatida - 10%, yengil sanoatda - 4%ga yaqin inves titsiya o'zlashtirildi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonning iqtisodiy qiyofasini tubdan o'zgartirib yuborgan qator yirik loyihamalga oshirildi. Ular orasida Farg'onasining Asaka shahrida bunyod etilgan "O'zDEUavto" qo'shma korxonasi bor. Loyiha Janubiy Koreyaning "DAEWOO" kompaniyasi bilan birgalikda amalga oshirildi. Bu zavoddan chiqayotgan "Neksiya", "Tiko", "Damas", "Matiz" avtomobilari (yiliga 100 mingga yaqin) qisqa muddat ichida mamlakat shahar va qishloq yo'llarini yaqin qildi. Ular Markaziy Osiyo davlatlari,

Rossiya va boshqa mamlakatlarga eksport qilinmoqda.

1999 yil bahorida SamarqandDa "SamKochavto" o'zbek-turk qo'shma korxonasi foydalanishga topshirildi. Unda minglab qulay va ixcham avtobuslar, turli markadagi yuk avtomobilari ishlab chiqarilmoxda. Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, avtomobilsozlikning rivojlanishi iqtisodiyotning bir-biriga bog'langan tarmoqlarining yuksalishiga va aholi bandligining barqaror o'sishiga olib keladi. Avtomobil ishlab chiqarishidagi bir ishchi o'rin bir-biriga bog'liq tarmokdarda 7-8 o'rinni vujudga keltiradi.

Hozirgi kunda respublikada ushbu yangi tarmoqda 14 mingga yaqin kishi ishlamoqda. Loyiha quvvati yiliga 200 ming avtomobildan iborat Asaka zavodi 100 minglik 250 quvvatdan oshmoqda. Ishlab chiqarishning bir joyda to'planishi 30% ga yetdi. Bir necha yildan keyin bu ko'rsatkich qo'shni davlatlar korxonalarini dasturga tortish bilan 70%ga yetishi rejalashtirilgan. Yaqin ikki yil ichida xususiy va xorijiy investitsiyalar hisobiga akkumulator batareyalari, avtomobil oynalari, oyna ko'rsatkichlar, avtomobilarning turli ehtiyyot qismlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi.

1998 yil may oyida Parijdagi xalqaro avtotransport ishlab chiqaruvchilar tashkiloti qarorgohida "O'zavtosanoat" assotsiatsiyasi bu tashkilotga 33-tenghuquqli a'zo sifatida qabul qilindi.

Toshkentda yirik aviatsiya zavodi joylashgan. U MDHda "Il-76" harbiy transport samolyoti ishlab chiqaradigan yagona korxona hisoblanadi. Zavod "Il-114-YUO" rusumli O'zbekiston - Rossiya o'rta magistral yo'lovchi samolyotining yangi modifikatsiyasini ishlab chiqarishga tayyorgarlik ko'rmoqda. Unga Kanadaning "Pratt end Uitni" dvigateli va "Gamilton standart" Amerika firmasining samolyot parragi o'rnatilgan. Bu samolyot mamlakatning ichki avia yo'llaridagi "Yak-40", "AN-24" rusumli samolyotlarning eskirgan nusxalari o'rniga almashtiriladi.

1991 yilga qadar respublikada qazib olingan neft hajmi uni o'zini-o'zi ta'minlashi uchun yetarli emas edi. O'zbekistonga o'rtacha 6 mln tonnacha neft olib kelinar, ayni vaqtida uning tashqarisiga 7-8 mlrd kubgacha gaz tashilar edi.

Mustaqillikka erishilgandan keyin neft va gaz sanoatini tubdan qayta qurish, mamlakat o'zini-o'zi neft mahsulotlari bilan ta'minlashdan iborat strategik vazifa qo'yildi. Bunda ilg'or texnologiya va asbob-uskunalardan foydalanishga o'tish katta rol o'ynadi. Masalan, "Kellog" (AQSH) va "Nisho Ivay" (Yaponiya) kompaniyalari bilan birgalikda Ko'kdumaloq neft kondensati zavodida mamlakatimizda birinchi marta "Saykling protsess" ulkan texnologiyasi qo'llanildi, u yer qa'ridan uglevodorod yonilg'isini qazib olishni ko'paytirish imkonini berdi. Bu loyiha xorij sheriklarni tarmoqqa jalg qilish bo'yicha ishlarning boshlanishi bo'ldi.

1997 yil avgustida Buxoro neftni qayta ishslash zavodi foydalanishga topshiriddi. Jahon yutuqlarini hisobga olgan holda "Teknip" (Fransiya) va "Marubeni" (Yaponiya) kompaniyalari bilan hamkorlikda qurilgan bu zavod mamlakat neftni qayta ishslash sanoati rivojida tub burilish bo'ldi. Zavod yirinchi navbatining quvvati yiliga 2 mln tonna neft yetkazib beradi.

Yaponianing "Mitsui" kompaniyasi bilan hamkorliqsqa Farg'onan neftni qayta ishslash zavodini qayta qurish loyihasining amalga oshirilishi o'zbek neftini qayta ishslash asosida avtobenzin, dizel yonilg'isi, aviakerosin olish imkonini beradi. Mazkur loyihani moliyalashtirish Yevropa tiklanish va rivojlanish banki kreditlari hisobidan amalga oshirilmoqda.

Qizilqumda "AAB Lumus global" (AQSH), "Mitsui", "Nisho Ivay" (Yaponiya) kompaniyalari konsersiumi tomonidan amalga oshirilayotgan Sho'rtan gaz-kimyo kompleksi Markaziy Osiyodagi yirik qurilishlardan bo'lib, u neft tarmog'i va O'zbekiston iqtisodiyoti taraqqiyotida muhim qadam bo'ladi. Mazkur zavodning ishga tushishi kimyo sanoati uchun asosiy mahsulot bo'lgan polietilen bilan mamlakat o'zini-o'zi ta'minlashiga imkon beradi.

Qishloq xo'jaligidagi islohotlar ham chuqurlashmoqda. O'zbekistonda 500 dan ortiq jamoa xo'jaligi qishloq xo'jalik shirkatlariga aylantirilgan bo'lsa, bugungi kunda ularning aksariyati fermer xo'jaliklariga aylantirilmoqda. Oila pudrati, bog' va tokzorlarni uzoq muddatli ijaraga berish hisobiga mulqdorlarni shakllantirish yo'lga qo'yildi. Don ekiladigan maydonlarning 95% dan ortiqrog'ida, paxtazorlarning 87%ida oila pudrati sharoitida faoliyat

olib borilmoqda. Xo‘jalikda xarajatlar hisobining chek tizimi keng joriy etilmokda. O‘zbekistonda 54 ming hektar bog‘ va 28 ming hektar tokzorlar uzoq muddatli ijaraga berilgan.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonda so‘nggi 10 yil ichida olib borilgan iqtisodiy islohotlar tufayli mamlakatda makroiqtisodiy vaziyat barqarorlashdi. 1997 yildan boshlab nafaqat yalpi ichki mahsulot hajmi bo‘yicha, balki uning yillik aholi jon boshiga miqdori bo‘yicha ham o‘sish ta’milnab, iqtisodiyotning real sektorida muhim tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Lekin so‘nggi 10 yil ichida jahon iqtisodida bir qancha muhim voqealar bo‘ldi. Bular: 1992-1993 yillardagi Yevropa valuta inqirozi, 1994-1995 yillar Meksikada bo‘lgan inqiroz, 1997 yil Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlaridagi moliya inqirozi - bu 1998 yil jahon moliya inqiroziga aylandi, 1998 yil Rossiya tizimli inqirozi, 1998 yil energetika inqirozi kabilardir.

Bo‘lib o‘tgan bu voqealar O‘zbekiston iqtisodiyotiga u yoki bu darajada salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Jhon bozorida mineral-xom ashvo resurslarining muhim turlari, strategik xom ashvo narxining tushib ketishi paxta, qimmatli va rangli metallar, mineral o‘g‘itlarni eksport qiluvchi O‘zbekiston uchun valuta tushumi, to‘lov balansi, ayrim tarmoqlarni texnikaviy qayta jihozlash va rivojlantirishning qisqartirilishiga olib keldi.

Mamlakat ichki bozorining torligi, eksportning xom ashvo resurslariga jahonda o‘zgarib turadigan narxlarga bog‘liqligi import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar rivojidan ko‘ra ko‘proq eksportni kengaytirish siyosatiga o‘tish strategiyasini qayta ko‘rib chiqishni talab etmoqda. O‘zbekistonning iqtisodiy jihatdan yanada yuksalishi va ishlab chiqarish samaradorligi oshishi uning jahon bozoriga nafaqat xom ashvo resurslarini, balki tayyor mahsulotlarning ham eksportchisi sifatida chiqishi bilan mustahkam bog‘likdir.

O‘zbekiston ishchi kuchlari xalqaro migratsiyasi

Barcha mamlakaglarning iqtisodi yildan yilga sivilizatsiya taraqqiyotining jahondagi tendensiyalariga tobora ko‘proq bog‘liq bo‘lib bormoqda. Bugungi kunda hech bir mamlakat faqat o‘z qobig‘ida o‘ralib yashashi mumkin emas. Ishlab chiqarish, kapitalning jadallik bilan internatsionallashuvi mehnat bozorini internatsionallashuviga olib kelmoqda. Mamlakatning xalqaro mehnat taqsimoti, savdodagi amalga oshirayotgan ishlari kabi jahon hamjamiyati a’zolari mehnat migratsiyasi jarayonlariga ham jalb qilinib boradilar. Bugungi kunda buning sababi iqtisodiy sabablarda namoyon bo‘ladi. Ishchi kuchlarning migratsiyasiga sabab bo‘ladigan omillar haqida gap ketganda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti darajasidagi farqlar, ish haqining nisbatan pastligi, mehnat sharoiti xodimni qanoatlantirmayotgani kabi holatlarni qayd etish kerak bo‘ladi. Immigratsion jarayonlar, eng avvalo, tadbirkorning eng arzon xorijiy ishchi kuchlaridan foydalanishi tufayli qo‘shimcha foyda olish istagi tufayli yuzaga keladi.

O‘zbekiston mustaqillik yillarida xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimiga yana ham mustahkam tortshshb bormoqda.

O‘zbekiston tarixining oldingi davridan farqli ravishda jahon iqtisodi taraqqiyotining hozirgi bosqichi uchun xarakterli bo‘lgan mehnat resurslari xalqaro migratsiyasi jarayoni zudlik bilan rivojlanib bormoqda. Ishchi kuchlarining xalqaro migratsiyasi - mehnatga qobiliyatli aholining ishga joylashish maqsadida bir mamlakatdan boshqa mamlakatga ko‘chib o‘tishidir. Ko‘chib ketgan (migrant) mehnatkashlarning miqyosi, davomiyligi va kasb strukturasiga qarab ishchi kuchlarining xalqaro migratsiyasi turli ko‘rinishga ega bo‘lishi mumkin. Bular: ichki va tashqi, vaqtincha va davomiy, yuksak malakali mutaxassislar migratsiyasi, yashirin migratsiya va nisbatan yaqinda paydo bo‘lgan, so‘nggi yillarda keng yoyilgan mehnatkash xotin-qizlar migratsiyasi.

Ishchi kuchlari migratsiyasining hozirgi kundagi o‘ziga xos xususiyati - uning strukturasi, geografiyasi miqyosi kengayib, o‘zgarib borayotganidir. Migratsiya strukturasi eng avvalo etnik, jinsiy, yosh, kasb belgilariga qarab farq qiladi.

Ishchi kuchlari xalqaro migratsiyasining boshqa xususiyatlaridan yana biri - uning yildan-yilga ko‘plab mamlakatlar va kishilarni jahon migratsion jarayoniga jalb qilib, kengayib borayotganidir. Migratsiyaning bu ulkan ko‘lami tufayli jahon mehnat bozori, ularning markazlari tarkib topdi. Ko‘plab manbalarda turli mualliflar jahon migratsion markazlari

miqdorini har xil talqin qiladilar. Mazkur darslikda bunday markazlarning 8 tasi ajratib ko'rsatilgan. Bular -AQSH, G'arbiy Yevropa, Janubi-Sharqiy Osiyo, Yaqin Sharq, Lotin Amerikasi, Afrika, Kanada, Avstraliya. O'z navbatida bu markazlarning har biri migrantsion harakatda o'z xususiyatlari va yo'nalishlariga ega.

Yuqorida sanab o'tilgan mamlakatlar va mintaqalar, jahon migrantsion markazlarining qaysi biriga qarashli ekanligidan qatyiy nazar, ishchi kuchlari migrantsiyasi yuzaga chiqishining o'zlar uchun ijobiy va salbiy oqibatlarini belgilaydilar.

O'zbekiston integratsion jarayonga kirib borgani sari migrantsion davraga ham tortilib, ro'y berayotgan jarayonlarning o'zi uchun ahamiyati, mohiyatini belgilab boradi.

O'zbekistondagi mehnat migrantsiyasi jarayonlarini tahlil qilganda, ularni 1991 yildan oldingi va keyingi, ya'ni mustaqillikka erishgandan keyingi davrni ko'rib chiqish maqsadga muvofiqliqdir.

O'zbekistondagi 1991 yilgacha bo'lган mehnat migrantsiyasining ajralib turadigan xususiyati shundaki, bu davrda migrantsion jarayonlar stixiyali xarakterga ega bo'lib, aholi nisbatan kam harakatliligi bilan ajralib turgan. Asosan mehnat resurslarining ichki ko'chib yurishi ko'proq bo'lган. Respublikaga ishchi kuchlarining tashqaridan oqib kelishi urushdan keyingi vaziyat bilan, ya'ni ko'plab Rossiya, Ukraina, Belorusiya korxonalarining O'zbekiston hududiga ko'chirib keltirilishi bilan bog'liqdir. Bundan tashqari, 1966 yil Toshkentdag'i zilzila tufayli ishchi kuchlari migrantsiyasining ko'payishi kuzatildi. Sobiq ittifoq mamlakatining Yevropa qismidagi respublikalaridan ishchi kuchlarining turli sabablar bilan ko'chib kelishi va doimiy yashab qolish jarayoni sodir bo'ldi.

1991 yildan boshlab O'zbekiston mehnat bozoridagi vaziyat tubdan o'zgardi. Mustaqillikning dastlabki yillarda respublikadagi migrantsion jarayonlar geopolitik vaziyatning o'zgarishi, barcha respublikalarning mustaqil deb e'lon qilinishi bilan bog'liq bo'ldi. 1994 yildan boshlab O'zbekistondagi mehnat migrantsiyasi tamoman boshqacha ahamiyat kasb etib, u xalqaro aloqalarning mustahkamlanishi, xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi, O'zbekistonning ko'plab xalqaro tashkilotlar tomonidan tan olinishi va boshqalar bilan belgilandi.

Hozirgi kunda respublikaning milliy chegaralari nafaqat eksport va import tovarlar, xizmatlargagina emas, balki ishchi kuchlarga nisbatan ham ochiqdir. Bir tomonidan, investitsiyalarni jalg qilish, qo'shma korxonalar barpo etish, konlarni o'zlashtirish qo'shimcha xorijiy ishchi kuchlarni respublikaga jalg etishni talab qiladi. Boshqa tomonidan, ma'lum darajada past bo'lsa ham ishsizlikning mavjud bo'lishi, yurtdoshlarimizning vaqtincha chet elda ishga joylashishga va ayni vaqtda o'z farovonligini oshirishga intilishi ishchi kuchlarini eksport qilish yoki respublika emmigrantsion siyosatini amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratadi. Emigratsion siyosat o'z navbatida chet mamlakatlar bilan iqtisodiy hamkorlikni amalga oshirishda, xorijiy ish beruvchilarni izlashda, ular bilan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini chet elga ishga jo'natish uchun ikki tomonlama shartnomaga, bitimlar imzolashda namoyon bo'ladi. Bunda shuni ta'kidlash kerakki, chet el korxonalarini bilan tuzilgan va imzolangan shartnomalar xodimlarimizni ishga joylashtirish bilan ularni ishlab chiqarishdan ajralmagan holda xorij korxonalarida o'qitishni ham ko'zda tutadi.

Ishchi kuchlarining xalqaro migrantsiyasi kabi O'zbekistondagi mehnat migrantsiyasining ham ijobiy va salbiy tomonlari bor. Bu esa, respublika iqtisodi uchun uning ahamiyatini belgilab beradi. Eng avvalo, O'zbekistonda ishchi kuchlar emmigrantsiyasining ijobiy ta'siri haqida gapirganda, shuni qayd etish zarurki, yurtdoshlarimizning chet elda vaqtincha ishga joylashtirilishi tufayli respublikada ishsizlik muammosi hal etiladi. Bundan tashqari, xodimlar malakalarini oshirish, o'z farovonliklarini yaxshilash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Lekin emigratsiyaning eng ahamiyatli samarasи shundaki, shartnomalar orqali chet elga chiqkan migrantlar o'zlarining oylik ish haqlarini O'zbekiston Respublikasi milliy bankidagi hisob daftarchalariga o'tkazishadi va qaytib kelgach ulardan foydalanishadi. Bu esa, mamlakatimizga valuta tushumining ko'payishiga olib keladi. Emigratsiyaning salbiy oqibati shundaki, malakali ishchi kuchlarining qo'nimsizligi yuz beradi. Ayrim yurtdoshlarimiz shartnomaga asosida chet elga ishga joylashish uchun borib, u yerda katta pul beradigan ish qidirib, shartnomalarni buzadilar,

oqibatda ish beruvchi tomon uchun ham, bizning tomon uchun ham ko'llab muammolarni keltirib chiqaradilar.

Ishchi kuchlarining O'zbekistondagi imigratsiyasi mamlakat iqtisodiga ijobiy ta'sir etadi. Xorijlik sheriklar bu yerda o'z korxonalarini barpo etib, ularga kapital jalb qilib, birligida ishlab chiqarishni amalga oshirib, ayni vaqtida zamonaviy texnologiya va o'z malakali ishchi kuchlarini ham olib keladilar. Bu esa o'z navbatida, mahsulot sifatini yaxshilash va oshirish, mutaxassislarimizni yangi texnologiya bilan tanishtirish, ularga zamonaviy ishlab chiqarish tajribasini berishga imkoniyat yaratadi.

Xalqaro Transport koridorlari (yo'laklari)

Janubi-Sharqiy Osiyodan to O'rta yer dengizgacha cho'zilib ketgan "Bukj Ipak yo'li" Sharq va G'arb xalqlarini yuzlab yillar davomida bir-biri bilan bog'lab kelgan. Bu yo'ldan olib o'tiladigan asosiy tovar - ipak bo'lib, mahsulotni ishlab chiqarish texnologiyasini Xitoy ustalari ming yillab sir tutganlar. "Ipak yo'li" nomi shundan, lekin tuyalar karvoni bu yo'ldan faqat ipaknigina emas, balki katta miqdordagi xom ashyo, bronza buyumlari, chinni, jun, kobaltni ham olib o'tgan.

Ipak yo'lining tarixi kamida ikki ming yillikni, miloddan oldingi 500-yildan XVI asrga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Buyuk Ipak yo'lining asosiy yo'nalishi Italiyadan Turkiya orqali Iraq va Eronga, undan Markaziy Osiyoga, keyin esa, Shimoliy Pomirdan, Koshg'ar va Yorkentga cho'zilganchilikdan. Bu yerda ikkiga ajralgan. Shimoldan Takla-Makal cho'liga o'tab, Lobnor ko'li yomon kirib borgan va ko'chmanchi xalqlar joylashgan cho'l orqali o'tib, keyin Xitoyga bongan.

Buyuk Ipak yo'lining o'rta qismi Markaziy Osiyoda nisbatan tor va yagona bo'lgan. Keyin esa, bir necha tarmoqlarga ajralib, shaharlar, mamlakatlarga qarab tarqalib ketgan. Bir tomonidan - u Irlandiya sohillari va norveg fiordlariga, Portugaliya va Daniya, Suzdal va Ural tog'lariga borib taqalsa, boshqa tomonidan Yaponiya, Indoneziya ortidagi Pryanost orollari, Seylon va Filippingacha cho'zilib bongan. Xullas, ana shu yo'llardan tinimsiz tovarlar o'tib turgan. Bu katga yo'lda Markaziy Osiyo mintaqasi yetakchi rol o'ynagan.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo mamlakatlarda iqtisodiy islohotlar yo'lida jahon iqtisodiy markazlari bilan o'zaro aloqalarni faollashtirish yanada dolzarb masaladir. Bu katta iqtisodiy kompleksni transport bilan ta'minlash alohida ahamiyat kasb etadi. Birinchi navbatda, bu eksport tannarxida transport xarajatlarining ulushi kattaligi bilan bog'liqdir. Chunonchi, transport tizimining ahvoli ko'p jihatdan mintaqqa mamlakatlari eksport tovarlarining umumiyligi raqobatbardoshligini belgilab beradi.

Transport xarajatlarini qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar Markaziy Osiyo respublikalari iqtisodiy taraqqiyoti uchun katta ahamiyatga egadir. Uning serqatnov katta yo'llari yuk tashishning tranzit yo'laklari rolini bajaradi.

1991 yilda Markaziy Osiyoning 5 ta mustaqil respublikasi tashkil topganidan keyin Ipak yo'lini qayta barpo etish g'oyasi yana bir yangi muhim omilga aylandi. Dengizga chiqish imkonini bo'limgan mamlakatlarning umumiyligi soni 32 taga yetdi. Ayni shu ma'noda TRASEKA loyihasi eng yirik davlatlararo loyiha hisoblanadi. Bu loyihaning maqsadi mintaqqa transport infrastrukturasini yaxshilashga texnik yordam ko'rsatish, respublikalar o'rtasidagi, ularning yaqin qo'shnilarini, G'arbiy Yevropa bilan transnport, savdo aloqalarini rivojlantirishda uyg'unlikni ta'minlashdan iboratdir. Loyiha Markaziy Osiyodagi 5 va Kavkaz ortidagi 3 respublika transport idoralarining rahbarlari ishtiroy etgan Bryussel konferensiyasida Yevropa ittifoqi bilan birligida ma'qullandi. Unda avtomobil, temir yo'l, dengiz transportiga doir, avtomobil yo'llari, savdoni yaxshilash, bojxona tartib-qoidalarini bir normaga solish xususida 23 loyiha qabul qilindi.

O'zbekiston, Turkmaniston, Ozarboyjon, Gruziya davlatlari rahbarlari tomonidan 1996 yil 13 mayda imzolangan "Tranzit yuk tashishni tartibga solish sohasidagi hamkorlik to'g'risida" to'rt tomonlama hukumatlararo bitim va "Temiryo'l transporti faoliyatini muvofiqlashtirish

to‘g‘risida” shartnoma imzolangandan keyin Transkavkaz temir yo‘li bo‘yicha tovarlar tashish yangilandi. Toshkent-Ashgabot-Turkmanboshi-Boku-Poti va Botumi yo‘nalishi bo‘yicha (Kaspiyda paromdan foydalanib), yuk Qora dengaz orqali Konstansiya (Ruminiya) portiga boradi. U yerdan esa Yevropa bozoriga chiqadi. Biroq u yerda ham muayyan muammolar bor. Poti va Turkmanboshi portlari tiklanish va qayta qurishga muhtoj. Bu ishlarga mablag‘larning bir qismi O‘zbekistonning pudratli transport firmalariddn tushadi, bu firmalarning ko‘pchiligi ushbu portlarda o‘z vakolatxonalarini ochmoqdalar.

Imzolangan hujjatlar bitimda qatnashayotgan mamlakatlar yuklarini tashishda muhim ustunliklarni nazarda tutadi. Bular:

- temir yo‘lda amalda bo‘lgan tariflarni 50% imtiyozli kamaytiradi;
- yuklar va temir yo‘llarning yuradigan hamma sostaviga birinchi navbatda xizmat qilish;
- tranzitning erkin rejimi;
- port xizmatlarida imtiyozli sharoitlar va boshqa imtiyozlar berish.

To‘rt tomonlama bitim imzolangan vaqtidan keyin o‘tgan davr mobaynida unga Tojikiston, Bolgariya, Qиргизистон, Qozog‘iston va Ruminiya qo‘shildi. Bunga muvofiq bu yo‘nalish bo‘yicha yuklar oqimi ortdi va kelajakda u ko‘payib boradi. Mohiyatiga ko‘ra, Xitoyning Sharqiy portlari, Koreyaning Yevropa bilan bog‘lovchi transport yo‘lagida yuk tashishni jonlantirish TASISning “Savdoga yordam” dasturi doirasida amalga oshiriladi va TRASEKA loyihasiga kiradi. TASIS dasturini amalga oshirishda yaqin vaqt ichida Buxoro viloyatida paxta tolasini konteynerlarga ortishning zamonaviy markazini barpo etish, uni TRASEKA yo‘lagi orqali eksport qilish ko‘zda tutiladi.

Andijon (O‘zbekiston Respublikasi) - O‘sh (Qиргизистон Respublikasi) - Koshg‘ar (Xitoy Xalq Respublikasi) yangi temir yo‘lining qurilishi Markaziy Osiyo davlatlarining yaxshi qo‘shnichilik munosabatlari, iqtisodiy aloqalarini kengaytirish, mustahkamlashga yordam beradi, yangi trans-kontinental temir yo‘l magistralini vujudga keltirishning real imkoniyatlarini yaratadi. Bu qisqa yo‘l Sharqda XXRni O‘zbekiston, Qиргизистон Respublikalari bilan va Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari orqali Yaqin Sharq, Janubiy Yevropa bilan bog‘laydi. Bu magistral Tinch va Atlantika okeanlari o‘rtasidagi mavjud transport aloqalariga muqobil bo‘lishi mumkin.

Agar Rossiya Federatsiyasi orqali Vladivostokka o‘tadigan parallel to‘rt yo‘nalishga ega bo‘lgan Transsibir magistralini hisobga almaganda, Atlantika okeanidan Tinch okeanigacha Yevroosiyo kontinentida yer ustidagi savdo aloqalari ancha sust rivojlanmoqda. (Bunga qiyosan shuni ko‘rsatish mumkinki, Shimoliy Amerika kontinentida temir yo‘l sohasi yuksalgan davrdan boshlab 9 ta transkontinental temir yo‘li yo‘nalishi bo‘lib, ularning 2 tasi Kanadadan, 7 tasi Qo‘shma Shtatlardan o‘tgan). Rossiya Federatsiyasidan janubga tomon cho‘zilgan Osiyo kontinentining keng hududi orqali yaqin orada Xitoydan Markaziy Osiyo orqali Istanbulga to‘g‘ri temir yo‘l yo‘nalishi o‘tadi. Bundan tashqari, BMTning Osiyo va Tinch okeani iqtisodiy-ijtimoiy komissiyasi o‘zining “Osiyoda qurukdiqsagi transport yo‘li strukturasini rivojlantirish” (ALTID) dasturi doirasida Janubiy Osiyo orqali Singapurdan, Hindiston orqali Turkiyaga o‘tadigan transosiyo temir yo‘li qurilishini nihoyasiga yetkazishga harakat qilmoqda. Lekin bu magistralda qatar bir-biriga bog‘lanadigan yo‘l tarmoqlarini qurish kerak bo‘ladi.

IV BO‘LIM **XALQARO IQTISODIY TASHKILOTLAR VA ULARNING JAHON IQTISODIDAGI MOHIYATI**

Xalqaro Iqtisodiy Tashkilotlar (XIT) xalqaro bitim asosida ma’lum iqtisodiy aksqalarni (valuta, kredit, soliq, transport, tovar almashuvi va h.k.) olib borish maqsadida tuzilgan tashkilotdir. XIT shu tashkilotning umumiy prinsiplari va yo‘nalishini belgilovchi yuridik hujjat asosida o‘z faoliyatini olib boradi. Bu hujjat har bir a’zo tomonidan imzolanib, nizom (ustav), deklaratsiya : yoki bitim tarzida bo‘ladi.

XIT - tuzilishining asosiy maqsadi jahon xamjamiyatida yoki ma’lum mintaqada iqtisodiy

hamkorlikni kengaytirishdir.

XITlar faoliyat ko‘lami nuqtai nazaridan jahon miqyosidagi yoki mintaqaviy tashkilot bo‘lishi mumkin.

Jahon miqyosidagi (umumjahon) XITlar: Xalqaro valuta jamg‘armasi, Jahon banki, Umumjahon savdo tashkiloti, Xalqaro mehnat tashkiloti, BMTning Iqtisodiy-ijtimoiy kengashi, unga tegishli maxsus muassasalar, Jahon Islom konferensiyasi tashkiloti va h.k.

Mintaqaviy XITlar: Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (EKO), BMTning mintaqaviy tashkilotlari - ESKATO, YEEK va h.k.

Nima uchun bu tashkilotlar haqida chuqurroq bilishimiz kerak? Chunki dunyo hamjihatligiga, iqtisodiy hamkorlik rivojini ta’minlashga, intefatsion jarayonlarga bir tomonidan davlatlararo munosabatlar bilan chiqilsa, ikkinchi tomondan, aynan shu tashkilotlar faoliyatida qatnashish orqali erishiladi.

Jahon hamjihatligida bo‘lish, unda muhim o‘rin egallash davlat mavqeini mustahkamlab, xalq farovonligini ta’minlovchi katta omil bo‘lib kelgan.

XITlar klassifikatsiyasida hukumat, hukumatlararo, nohukumat va boshqa turlari ham ajratiladi.

Jahon banki (JB)

Tashkil etilgan vaqt - 1944 yil iyul, Bretton-Wuds, (AQSH, Nyu-Gempshir shtati), shtab-kvartirasi (qarorgohi) Vashingtonda joylashgan.

Bretton-Wuds xalqaro hamkorligi tomonidan Jahon bankiga belgilangan vazifalar unga berilgan nom - ya’ni Xalqaro qayta tiklanish va taraqqiyot banki (MBRR)da o‘z aksini topdi. Asosiy vazifa sifatida iqtisodiy taraqqiyotni moliyalashtirish yuklatildi. Agarda jahon banking birlamchi kreditlari ikkinchi jahon urushidan so‘ng Yevropaning iqtisodiyotini tiklashga yo‘naltirilgan bo‘lsa, keyin-chalik u o‘z e’tiborini jahoning qoloq mamlakatlari iqtisodini tiklashga qaratdi. Hozirgi vaqtida esa Jahon banking asosiy maqsadi rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotiga, mazkur mamlakatlarning ishlab chiqarish darajasini oshirishga yordam berish va aholining ijtimoiy ahvolini yaxshilashga ko‘maklashishdir.

Jahon banki o‘z tarkibiga yirik ikkita tashkilotni: Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (MBRR) va Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasini (MAR) oladi. Ulardan tashqari unga yana uchta boshqa tashkilotlar ham bilvosita kiradi: Jahon banki bilan uyushgan, ammo huquqiy, moliyaviy jihatdan mustaqil faoliyat ko‘rsatuvchi - Xalqaro moliyaviy korporatsiya (MFK) (bu tashkilot rivojlanayotgan mamlakatlardagi xususiy korxonalarni moliyalashtirishga yordam beradi). Investitsion kelishmovchiliklarni tartibga solish xalqaro markazi va Investitsiyalarni har tomonlama kafolatlovchi agentlik (MIGA).

Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi (MAR) mamlakatlarga imtiyozli kreditlar berish bilan shug‘ullanib, ular donor mamlakatlars tomonidan beriladigan xayriya mablag‘lari asosida moliyalashtiriladi. Jahon banki dunyodagi kapital, qimmatbaho qog‘ozlar bozorlarining asosiy mablag‘ oluvchisi hisoblanadi. Bundan tashqari, bank bir qator mamlakatlardan obligatsiya, zayom sotish orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri qarz oladi, yig‘ilgan mablag‘lar qoloq mamlakatlarning taraqqiyoti yo‘lida ishlatiladi va ularga imkoniyati darajasidagi past foizlar hisobida beriladi.

Jahon banki kredit olish, uni qaytara olish darajasida bo‘lgan mamlakatlars uchun mablag‘larni mujassamlaydi. Ammo, boy mamlakatlarga yoki alohida shaxslarga jahon banki tomonidan kredit berilmaydi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining jon boshiga yalpi milliy mahsulot 1200 dollar atrofida bo‘lgan taqdirda ular Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankidan kredit olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu kreditlar 12-15 yil ichida qoplanishi lozim. Ikkinchi tomondan, Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi (MAR) kreditlarni qoloqroq mamlakatlarga, ya’ni ulardagi yalpi milliy mahsulot jon boshiga 800 dollardan kam bo‘lgan mamlakatlarga beradi (asosan MAR tomonidan berilayotgan kreditlarning 80 foizini hozirgi vaqtida aholi jon boshiga 700 dollardan kam bo‘lgan mamlakatlars oladi). Bu kreditlar bo‘yicha foizlar olinmasdan, ko‘pgina hollarda ular 35-40 yillar oralig‘ida to‘lash sharti bilan beriladi.

Jahon banki o‘z faoliyatini rivojlanayotgan va qoloq, mamlakatlarga texnik loyihalarni, iqtisodiy dasturlarni moliyalashtirish jihatdan yordam berish orqali bu mamlakatlarning iqtisodiy salohiyatini oshirishga yordam beradi. Bu vazifalar bankning asosiy uzoq muddatli vazifasi hisoblanadi.

Oxirgi yillarda bank oldingi yillardagi tajribalariga tayangan holda mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish bosqichlari darajalarini inobatga olib, loyihacharni tanlash jarayonida asosan rivojlanayotgan mamlakatlarning qoloq qatlamlarini qamrashga, ularning taraqqiyot darajalarini oshirishni nazarda tutgan holda olib borilyapti.

Shuning uchun ham, Bank tomonidan texnik va moliyaviy jihatdan yordam berish darajasi taqsim etilayotgan konkret loyihani ko‘rib chiqishda asosan mamlakatning iqtisodiy ahvoliga bog‘liq bo‘ladi.

Bank mamlakatlarga texnik jihatdan yordam berish va moliyalashtirish jarayonida BMT tomonidan belgilangan dasturga asosan ham texnik yordam beruvchi, ham loyihani ijro etuvchi sifatida qatnashadi.

Bank tomonidan tanlanadigan loyiha, ularning yo‘nalishlari milliy mamlakatlar, ularning mahalliy hokimiyatlari, boshqa tegishli tashkilotlar bilan har tomonlama kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Bank kredit ajratish jarayonida o‘z mutaxassislari ishtirokida kredit oluvchi mamlakatlarning iqtisodini sinchkovlik bilan tahlil etish asosida qaysi sohaga asosiy e’tibor berish yoki kapital qo‘yilmalarni joylashtirish borasida u yoki bu sohani tanlash imkoniyatidan foydalanadi. Bunday taxlitda ish yuritish ushbu mamlakatning asosiy muammolari yechimida qatnashib, uning rivojlanishiga yordamlashishni nazarda tutadi.

Jahon bankining O‘zbekistonidagi faoliyati

O‘zbekiston jahon bankiga 1992 yil 21 sentabrda a’zo bo‘ldi, uning oldidagi majburiyatlarini bajarish uchun 12,1 mln AQSH dollari miqdorida badal to‘ladi. O‘zbekistonga MBRR tomonidan 2493 aksiya (jami aksiyalar miqdorining 0,17 foizi) chiqarildi, ovozlar esa - 2743 (0,18 foiz)ni tashkil etdi.

Jahon banki 1993 yili Toshkentda o‘z vakolatxonasini ochdi va uning O‘zbekistonidagi asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iboratdir:

- Bozor strukturasing shakllanishida texnik yordam ko‘rsatish;
- ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarni rivojlantirish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirishga moliyaviy jihatdan ko‘mak berish;
- mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash.

Bozor tizimlarini shakllantirishga texnik jihatdan yordam berish borasida respublikada makroiqtisodiy sohada monitoring o‘tkazish, ularni tahlil etish, bank tizimi, buxgalteriya hisobkitoblarini, kommunikatsiyalarni rivojlantirish kabi tadbirlar kiradi. Jumladan, bu borada Jahon banki tizimining vakillari bilan birgalikda respublikada bank tizimining rivojlanish darajasi yo‘nalishida tadqiqot ishlari olib borildi, undan kelib chiqqan holda bozor mexanizmining nnfrastrukturasing mujassamlash, ilmiy-texnikaviy salohiyat darajasini aniqlash borasida ham ancha ishlar olib borildi.

Jahon banki energetika sohasini rivojlantirish va islohotlarni chuqurlashtirishga mo‘ljallangan loyihalar uchun ham kredit ajratib, Orol muammolari yechimiga, ishlab chiqarish sektorlari rivojiga, paxtani qayta ishlab chiqarish sohasiga ham e’tiborini qaratmoqda.

12 oktabr 1993 yil - birinchi kredit. Institutsional rivojlanish bo‘yicha texnik yordam loyihasi Jahon banki tomonidan 21 mln AQSH dollari miqdoridagi zayom 20 yil muddatga, shundan 5 yil imtiyozli muddatdir. Loyihaning umumiyligi 25 mln AQSH dollari. Moliyalashtirishning boshqa manbalari: O‘zbekiston hukumati - 400 ming AQSH dollari, YEI - 2,6 mln AQSH dollari, Yaponiya - 1 mln. AQSH dollari (keyinchalik qator kreditlar bo‘ldi).

MBRR tomonidan moliyaviy sektorni isloh etish borasidagi loyihani moliyalashtirish bo‘yicha zayom ajratish ko‘zda tutilgan. Ushbu loyiha bo‘yicha hozirda ozroq mikdorda avans ajratilgan, moliyaviy sektorni isloh etish bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rish, uni amalga oshirish

uchun komissiya tarkibi tuzilgan.

Xalqaro rivojlanshi assotsiatsiyasi (XRA - MAR)

1960 yil noyabrdan o‘z faoliyatini boshlagan MAR Jahon Banki tarkibiga kirib, uning faoliyati kam rivojlangan mamlakaglarga moliyaviy yordam ko‘rsatishdan iborat.

MAR ga 170 ga yaqin davlat a’zodir. MARning kredit siyosatiga binoan, kreditlar MBRR, foizlarini to‘lashga imkoniyati bo‘lmagan davlatlargagina berilishi mumkin. MAR kreditlarini (bulardan foiz olinmaydi) olish imkoniga yalpi ichki mahsulot aholi jon boshiga yiliga 800 dollardan oshmagan davlatlar ega bo‘lishi mumkin, ammo MAR amaliyotda ko‘pgina davlatlarga ushbu ko‘rsatkich 700 dollardan oshmagan taqdirda kredit beradi. Ushbu bank kreditlari 35-40 yil muddatga berilib, kredit olingan birinchi 10 yil davomida hech qanday qaytaruv to‘lovlari to‘lanmaydi.

MAR MBRRga o‘xshab kapital bozorida qo‘sishmcha mablag‘lar jalb etish imkoniyatiga ega emas. Har uch yilda uning jamg‘armasini donor mamlakatlar mablag‘ bilan to‘ldirib turadi. A’zolik badallari ularning MBRRga bo‘lgan badallari bilan taqqoslanib, MAR a’zolarining kelishuviga nisbatan 2 guruhga: rivojlangan mamlakatlar va sust rivojlangan mamlakatlarga bo‘linadi.

Birinchi guruhga kiruvchi davlatlar erkin konvertatsiyalanadigan valutada to‘lab, ular asosan moliyalashtirish uchun ishlatalidi.

Ikkinchi guruhga kiruvchi davlatlar badalining o‘ndan bir qismini erkin konvertatsiyalanadigan valutada to‘lab, qolgan qismini milliy valutada to‘lashi mumkin.

Xalqaro valuta fondi (XVF - MVF)

MVF 1944 yil iyulda Bretton-Vuds (AQSH, Nyu-Gempshir shtati)da tashkil topgan, qarorgohi Vashingtonda joylashgan.

MVF - Hukumatlararo korporativ valuta-moliyaviy tashkilot bo‘lib, faoliyati davlatlararo vujudga keladigan, to‘satdan ro‘y beruvchi va oldindan bilish mumkin bo‘lmagan milliy valutalarning o‘zgaruvchanligi, davlatlarning milliy valutalarini almashtirish doirasidagi muammolarni bartaraf etishga qaratilgandir. MVF o‘z faoliyatini "shartnomaviy moddalar" nomini olgan Nizomga binoan olib borib, mazkur jamg‘arma a’zolari tomonidan imzolangan. Jamg‘arma tomonidan tegishli normalar belgilangan. Har bir davlat oldidagi muhim majburiyatlar aniqlanib, unda a’zolarning hech qanday to‘siqsiz milliy valutalarini almashtirishi, jamg‘armaga o‘zining monetar siyosati bo‘yicha kelgusi reja va vazifalari to‘g‘risida ma’lumotlar berishini talab etadi. Shu bilan birga ulardan o‘z faoliyatini MVFning tavsiyanomalariga moslashtirishni talab etadi, ishning bu tarzda olib borilishi a’zo davlatlarning faoliyatları bilan kelishilgan holda ishni tashkil etishga yordam beradi. MVFdagi belgilangan normalarga tayangan holda unda doimo umumiyl pul zaxirasi mavjuddir, ular ko‘zda tutilmagan qiyin iqtisodiy holatlarda foydalaniлади.

MVFning maqsadi

MVF o‘z faoliyati asosini jahon iqtisodiyotining rivojlanishi uchun yetarli shart-sharoit va undagi valuta tizimini tartibga solish, deb hisoblaydi. Ushbu holatlardan kelib chiqqan holda o‘z oldiga quyidagi maqsadlarni qo‘yadi:

- 1) Xalqaro savdoning o‘sishiga yordam ko‘rsatish;
- 2) milliy valutalar qadrini bir me’yorda ushlab turishga ko‘maklashish;
- 3) jamg‘armaga a’zo davlatlarning joriy hisob-kitoblarini amalga oshirish jarayonida ko‘p tomonlama tizimni tashkil etishga ko‘maklashish. Xalqaro savdoning rivojlanishiga to‘sinqinlik qiluvchi omillar, valutalar borasidagi to‘silalar vujudga kelmasligiga yordam berish;
- 4) savdo va to‘lovlar doirasidagi to‘silalar vujudga kelmasligi uchun a’zo davlatlarga kredit resurslarini berish;
- 5) xalqaro valuta doirasida vujudga keluvchi muammolarni yechish borasida maslahat-forumlar o‘tkazish.

Jamg‘arma a’zo davlatlarning valuta kurslari doirasida ularni tartibga solish yuzasidan, ularning faoliyati samarasi, xalqaro valuta tizimi ustidan nazorat-kuzatuv ishlarini olib boradi. Bundan kelib chiqqan holda har bir a’zo mamlakat jamg‘armaga nazorat ishlarini olib borishi

yuzasidan tegishli ma'lumotlarni berib turishi lozim.

Jamg'arma xalqaro savdo, turli xildagi to'lovlarni amalga oshirish, undagi rezervlarning holati bo'yicha mas'ul bo'lganligi sababli bu boradagi ishlarning joriy etilishiga asosiy e'tiborni qaratadi.

Jamg'armaning asosiy majburiyatlaridan yana biri bu - uning a'zo davlatlarga SDR (Special Drawing Rights — Spetsial'nme prava zaimstvovaniya)ga tayangan holda taqsimlashning joriy etilishiga manba sifatida qo'shimcha likvidlik ko'magi berishdir. SDRning kursi sifatida besh asosiy valutaning o'rtasi olinadi. MVF shu kunga kelib, 21,4 mldr SDR chiqardi. U bugun 27 mldr AQSH dollariga baholanmoqda (2000 moliyaviy yilda 1 SDR - 1,26 AQSH dollariga teng edi).

Moliyalashtirish manbai

MVF bank hisoblanmaydi va omonatchilar, mablag' oluvchilar o'rtasida dallollik vazifasini o'tamaydi. Jamg'arma 125 mldr AQSH dollari hajmida moliyaviy resurslarga ega. Mablag'lar badal, a'zo davlatlar ssudalari asosida yuzaga keladi. Ayrim holatlarda MVF qo'shimcha pul mablag'larini ba'zi davlat tashkilotlaridan ham olishi mumkin. Unga a'zolik to'lovlari miqdori iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. A'zolik to'lovlarning 25 foizi zahira aktivlari bo'yicha to'lanib, SDR yoki shunga teng keladigan valutalar shaklida, qolgan qismi davlatning milliy valutasida to'lanadi.

MVFning pul mablag'larga bo'lgan zaruriyati har 5 yilda tekshiriladi.

Kvota

Jamg'armaga a'zo davlatlarning har biri SDR bilan hisoblanadigan kvotaga ega. U Jamg'arma bilan bo'ladigan moliyaviy va tashkiliy munosabatlarda asosiy rol o'ynaydi. Birinchidan, Jamg'armadagi ovozlar sonini belgilaydi (250 nominal ovozdan ortiq), har 100 000 SDR kvotaga 1 ovoz to'g'ri keladi. Ikkinchidan, Jamg'armaning moliyaviy mablag'lariga imkoniyat ochib beradi. Uchinchidan, SDRning taqsimlanishida u a'zoning hissasini belgilab beradi.

Moddalarga binoan, kengashning boshqaruvchilari kvotalarni belgilashda uning hajmini 5 yilga mo'ljallangan holda belgilashi zarur.

Moliyaviy mablag'larni oluvchilar

Jamg'arma tomonidan beriladigan kreditlarni unga a'zo bo'lgan barcha boy yoki kambag'al davlatlar olishi mumkin, mablag' yetishmagan taqdirda vujudga kelgan muammoni yechish doirasida umumiyligi moliyaviy mablag'lardan foydalilanadi.

Jamg'armadan olingan mablag'lar 3-5 yil davomida to'lanishi, lekin uni to'lash muddati 10 yiddan oshmasligi kerak. Undagi foizlar bozordagilardan past darajada bo'lsa-da, Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasidagidek juda past qilib belgilanmaydi.

MVF tomonidan beriladigan yordam uchun unga muhtoj bo'lgan davlatning to'lov balansi asosdir. Unga binoan tegishli hisob-kitoblar olib boriladi.

MVF islohotlarni olib borish uchun kredit beradi, berilayotgan kreditlardan maqsadga muvofiq foydalanimayotganligi, uning rivojlanishi darajasiga oid nazorat ishlarini, kuzatuvlarni olib boradi, zarurat bo'lgan hollarda texnik va boshqa xildagi maslahatlar, shuning bilan birgalikda, bank, soliq tizimlari doirasida rivojlanish, islohotlarni olib borish, tegishli statistik ma'umotlarni yig'ish, hisoblash, ularni chop etish bo'yicha texnik yordam ko'rsatadi.

Har yili (MVFning moliyaviy yili 30 aprelda tugaydi) taqdim etilgan kvotalar valutada hisob-kitob qilinib, SDR hamda valutalar kurslarining o'zgarishiga asoslangan holda ularning farqlari, to'lanishi lozim bo'lgan summalarini aniqlanganadi.

Kreditlar bo'yicha to'lovlarni qoplash kredit olingandan 3-4 yildan so'ng boshlanadi.
MVF va O'zbekiston o'rtasidagi ikki tamonlama munosabatlari

O'zbekistonga berilgan kvota 275,6 mln SDRni tashkil etadi. Undan 25 foizini qaytarib olish mumkin, qolgan summa veksel to'lovlari shaklida to'lanadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, moliyaviy yilning oxirida hisob-kitoblar bo'yicha aniqlangan farq O'zbekiston tomonidan 1999 yil uchun to'landi. Kreditlarni qoplash muddati esa 2001 yildan boshlangan.

Jami MVF tomonidan berilgan kreditlar 135,625 mln SDR yoki u taxminan 198,013 mln

AQSH dollarini tashkil etadi.

O'zbekistonda MFVning doimiy vakolatxonasi mavjud. Mamlakatda olib borilayotgan islohotlar va iqtisodiyotning joriy holatini o'rganish maqsadida uning vakillari vaqtiga vaqtida tashrif buyurishadi, MFVga bo'lajak munosabatlar bo'yicha takliflar kiritishadi.

Jamg'arma tomonidan kadrlarni tayyorlash, ularni qayta tayyorlash maqsadida ham texnik yordam berilmoqda.

Har yili MFVda va uning institutlarida Markaziy bank, Moliya vazirligi, respublikaning boshqa muassasalaridan xodimlar o'qib, o'z malakalarini oshirmoqda.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YEBRR)

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki 1991 yili Fransiya sobiq prezidenti F.Mitteran tashabbusi bilan tashkil etilib, o'z oldiga (tashkil etilishi to'g'risidagi bitimga binoan) Markaziy va Sharqi Yevropada bozorni, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashishni maqsad etib qo'yan. Bank o'z a'zolariga iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda islohotlar olib borishiga, ularning jahon iqtisodiy hamkorligi qatoriga qo'shilishiga ko'mak beradi.

YEBRRning birinchi prezidenti etib Jak Attali saylangan, 1993 yilning avgustidan mazkur lavozimni Xalqaro valuta jamg'armasining direktori, so'ngra Fransiya banking prezidenti Jak de Larozyer egalladi.

O'zbekiston YEBRRga 1992 yilning boshlarida a'zo bo'ldi, shu yilning o'zida respublikada ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, uning taraqqiyot darajasini o'rganish maqsadida bank tomonidan bir qator tashkiliy ishlar olib borilib, jumladan, kengash direktorlarining a'zolari - prezident va vitse-prezident ham O'zbekistonga tashrif buyurdi. Ushbu tashriflarning natijasi sifatida YEBRR tomonidan O'zbekistonga nisbatan strategiya ishlab chiqildi. 1993 yili YEBRR O'zbekistonda bir qator loyihalarni joriy etdi.

1994 yil 10 yanvarda YEBRR direktorlari kengashining qaroriga binoan O'zbekistonga bank tomonidan loyihalarni moliyalashtirishga beriladigan mablag' olish uchun oldindan beriladigan kafolat sharti bekor etildi. YEBRR tomonidan bunday qarorning qabul qilinishi O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlarga yuqori baho berilgandan dalolatdir. Bank tomonidan belgilangan kafolatning bekor etilishi kabi qarorning qabul qilinishi sobiq 26 sotsialistik davlatlar ichida birinchi davlatga nisbatan bo'ldi.

YEBRR tomonidan quyidagi yetakchi sohalarda moliyaviy va texnik tomondan e'tiborni markazlashtirish, ularga ko'mak berish jihatlari belgilandi:

- Moliyaviy sektor;
- yangi mineral xom ashyo resurslarini topish, ularni qayta ishslash sohasi;
- energetika kompleksi;
- paxtani qayta ishslash, agrobiznes;
- turizm;
- transport va aloqa;
- atrof-muhitni muhofaza etish.

Shuni inobatga olib, Yevropa banki O'zbekistonda faoliyat ko'rsatish doirasida kuyidagi 6 tamoyilni belgiladi:

- Moliyaviy sektor (banklar);
- kichik o'rta korxonalar;
- infrastruktura, energetika kompleksi;
- tabiiy resurslar;
- paxtani qayta ishslash va yengil sanoatning boshqa sohalari;
- turizm sohasi.

YEBRR tomonidan O'zbekistonda kichik va o'rta korxonalarni moliyalashtirish uchun 120 mln AQSH dollari ajratildi.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi Iqtisodiy Faoliyat Milliy bankiga kafolatsiz 60 mln AQSH dollari; 30 mln AQSH dollari "Asaka" aksionerlik-tijorat bankiga (O'zbekiston Respublikasi davlat kafolati bilan) va 30 mln AQSH dollari boshqa tijorat banklariga (O'zbekiston Respublikasi davlat kafolati bilan) ajratildi.

Yevropa Ittifoqi

"Yevropa Hamjamiyatlari", "Yevropa Hamjamiyati", "Yevropa Ittifoqi" (YEI) — bu nomlar 50 yildan ortiq tarixga ega bo‘lgan bitta yagona uyushmaning faoliyatini aks ettiradi. Hozirgi vaqtida Yevropa Ittifoqining (1993 yil noyabrdan boshlab rasmiy shunday nom olgan) tarkibiga 15 davlat: Fransiya, Germaniya, Belgiya, Italiya, Lyuksemburg, Niderlandyya, Angliya, Shotlandiya, Shimoliy Irlandiya, Gretsya, Ispaniya. Portugaliya, Shvetsiya, Avstriya va Finlyandiya kiradi. Bugungi kunda, ya’ni 2004 yil 1 mayidan boshlab bu ittifoqqa yangi 10 davlat qo‘shilib (Polsha, Vengriya, Chexiya, Sloveniya, Litva, Latviya, Estoniya, Malta, Kipr, Slovakiya), a’zolar soni 25 taga yetdi.

Yevropa Ittifoqi o‘zining yalpi mahsuloti, tashqi savdo hajmi bo‘yicha AQSH va Yaponiyani orqada qoldirib, jahonning yetakchi uchta iqtisodiy markazlaridan biri bo‘lib sanaladi.

Yevropa Ittifoqining tashkil topishi 18 aprel 1951 yil sanalib, Parijda "Ko‘mir va po‘lat birlashmasi" tuzish shartnomasining imzolanishi bilan bog‘liqdir. Ushbu shartnomani tuzishda ilk bor quyidagi oltita davlat: Belgiya, Italiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, GFR va Fransiya qatnashgan.

Yevropa Ittifoqining rivojlanshi bosqichlari

1957 yil 17 martda 2 yil davom etgan tayyorgarlikdan so‘ng, mazkur olti davlat vakillari Rimda "Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati" (YEIH) va "Atom energetikasi bo‘yicha Yevropa Hamjamiyati" (Yevratom) nomli yana ikki shartnomani imzoladilar.

"Yevropa Iqtisodiy Xamjamiyati"ning tuzilishi Yevropa integratsiyasi bosqichlarini amalga oshirishda hal qiluvchi qadam bo‘ldi. Asosiy va birlamchi vazifalardan biri (taxminan 1970 yilda bajarilishi lozim edi) Bojaxona Ittifoqi hamda mahsulotlar bozorini tashkil etish edi. Shu bilan birgalikda shartnoma o‘z oldiga umumagrar rivojlanish, savdo siyosati, mazkur integratsiyaning kelgusi rivojlanishiga qaratilgan boshqa tadbirlar, ya’ni Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlarning iqtisodiy strategik yo‘nalishlarini belgilab oldi.

Bojaxona Ittafoqi yuqorida belgilangan muddatdan bir yarim yil oldin tashkil topdi. Yevropa integratsiyasining rivojlanishida, birinchidan, 1967 yil barcha yuqorida ta‘kidlangan hamjamiyatlar oliy organlarining umumlashishi asosida yagona kengash va yagona komissiya tuzilib, ular Yevropa parlamenti, Yevropa Ittifoqi sudi bilan birgalikda yagona institutsiyonal tuzilmani tashkil etdi. Ikkinchidan, Yevropa Ittifoqiga Buyuk Britaniya, Daniya, Irlandiya, Norvegiya davlatlari bilan Ittifoqqa a’zo bo‘lish bo‘yicha muzokaralar olib borildi. Ammo Norvegaya davlatida o‘tkazilgan milliy referendum natijalari asosida, bu davlat Ittifoqqa qo‘shilmadi, qolgan uch mamlakat 1973 yil 1 yanvardan Hamjamiyat a’zolariga aylanib, "oltilik" davlatlari "to‘qqizlik"ni tashkil etdi. Shu vaqtdan boshlab barcha rasmiy hujjatlar "Yevropa Hamjamiyati" nomi bilan atala boshlandi (1993 yil noyabrigacha).

1981 yil Gretsya hamjamiyatga o‘ninchiligi a’zo bo‘lib kirdi. 1986 yili Ispaniya va Portugaliya davlatlari ham a’zo bo‘ldilar. 1980-yillarning o‘rtalarida, uzoq muddatli sinovlardan so‘ng yangi, yakuniy, yagona ichki bozorni tashkil etish bosqichiga o‘tildi. 1986 yilda uning huquqiy asosi yuzaga kelib, 1987 yil 1 iyuldan kuchga kirdi. Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlar tomonidan imzolangan yagona Yevropa akti tuzildi. Shu vaqtdan boshlab "Yagona ichki bozor" tushunchasi 1950-60 yillarda Rim shartnomasi va boshqa hujjatlarda yuritilgan "Umumi bozor" tushunchasm o‘rnini egalladi.

Yagona ichki bozor yaratish jarayonida, birinchidan, asosiy urg‘u nafaqat boj to‘siqlari, tovar harakatining erkin amalga oshirilishi, balki barcha jismoniy, texnik, huquqiy, ma’muriy to‘siqar bartaraf etilishiga qaratildi.

Ikkinchidan, tovarlar harakati, kapitallar, ishchi kuchi harakatidagi, tadbirdorlik bilan shug‘ullanuvchi shaxslar faoliyatidagi mamlakatlararo chegara to‘siqlari yo‘qotildi, umumiyligi yagona valutaga o‘tish kelishildi. Hamjamiyatda yig‘ilgan tajribalar asosida amaliy xattiharakatlar dasturi tuzilib, 1985 yili Yevropa hamjamiyati komissiyasi tomonidan tayyorlangan "Oq kitob"da yoritildi. Ular 300 aniq tadbirni o‘z ichiga olib, iqtisodiy siyosatni amalga oshirish yo‘llarini belgilagan. Mazkur dastur 1993 yilning 1 yanvariga bajarildi, lekin tadbirlar uzoq

muddatga belgilanib, yagona ichki bozorning tashkil etilishi Ittifoq miqesida bajarilgan muhim amaldir.

1989 yili yagona ichki bozordan iqtisodiy, valuta va siyosiy Ittifoqqa o'tish bo'yicha qaror qabul qilindi. Bu masala bo'yicha 20 yil davomida xatti-harakatlar qilingandi. 1991 yilning dekabrida Gollandiyaning Maastrix shahrida bo'lib o'tgan Yevropa Kengashi sessiyasida ushu masala bo'yicha shartnomaga ma'qullandi va 1992 yil 7 fevralda a'zo davlatlar tomonidan imzolandi.

Ushbu shartnomaning bajarilishi XX asrning oxirgi o'n yilini o'z ichiga qamrab, yagona valutaga o'tish XXI asr boshlanishi, 2002 yilga to'g'ri keldi.

Yevropa Ittifoqi Kengashi

Mazkur kengash "Yevropa Ittifoqi vazirlar kengashi" nomi bnlan mashhurdir. Bu kengash a'zo mamlakatlarning tashqi ishlari vazirlari kengashi, moliya, maorif, qishloq xo'jaligi va shunga o'xshash vazirlari kengashidan iborat. Yevropa Ittifoqi Kengashining qonunlari qaror va direktiva shaklida chop etiladi. Qarorlar majburiy xarakterga ega bo'lib, Yevropa Ittifoqi davlatlari qatnashchilarining milliy qonunlari turkumiga kiritiladi.

Yevropa Kengashi

1974 yili Parijda bo'lib o'tgan Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar rahbarlari ishtirokidagi konferensiyada Yevropa Kengashini tashkil etish bo'yicha qaror qabul qilindi.

Yevropa Kengashi oliy organ mavqeiga ega bo'lib, unda a'zo davlatlar rahbarlari ishtirok etadi. 1996 yil 21 iyunda Florensiyada Yevropa Kengashining yillik yig'ilishida O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov boshchiligidagi delegatsiya qatnashib, O'zbekiston va Yevropa Ittmfoqi o'rtaida sherikchilik va hamkorlik bitimi imzolandi.

Yevropa Parlamenti

Yevropa Parlamenti Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining 370 mln fuqarolarining siyosiy erkinligini ifodalab, ovoz berish yo'li bilan saylanadi.

Yevroparlament dunyodagi eng yirik parlamentdir. Komissiya faoliyatini nazorat etish, qonun chiqarish faoliyati, ittifoq budgetaga qo'shimcha o'zgartirishlar kiritish yevroparlamentning asosiy vazifasidir.

Yevropa Komissiyasi

Yevropa Komissiyasi Yevropa Ittifoqining ijro etuvchi organidir. Uning 20 ta a'zosi milliy hukumatlar tomonidan belgilanadi, ammo o'z faoliyatida to'liq mustaqil hisoblanadi. Ittifoqqa a'zo bo'lgan yirik mamlakatlar: Fransiya, Italiya, Germaniya, Ispaniya, Buyuk Britaniya ushu komissiyaga ikkitadan, qolgan mamlakatlar bittadan vakil yuboradi. Vakillar besh yil muddatga saylanib, komissarlar nomini oladilar. Jak Santer boshchiligidagi komissiya a'zolari o'z vazifalariga 1995 yil kirishib, ularning vakolatlari 2000 yilda tugadi, hozirgi vaqtida komissiya faoliyati yangi tarkibda davom etmoqda.

Yevropa Sudi

Yevropa Ittifoqining boshqa xalqaro tashkilotlardan farqi shundaki, ular tomonidan imzolangan shartnomalar majburiy xarakterga ega bo'lib, so'zsiz bajarilishi lozim. Shartnomadagi moddalar, undan kelib chiqadigan huquqiy dalolatnomalar a'zo mamlakatlarning qonunlariga qo'shiladi. Ularning bajarilishi aniq-ravshan belgilanishi talab etilib, Yevropa Sudi shu borada nazorat ishlari olib boradi.

YEI bilan hamkorlik mohiyati

Yevropa Ittifoqiga integratsiyalashuv iqtisodiyoti o'tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlarga chuqr ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Integratsiyalashuv jarayoni sheriklik aa hamkorlik bitimlari tuzishdan boshlanib, Yevropa Ittifoqiga qabul qilishdan oldingi strategiya joriy qilinganidan so'ng yangi fazaga kirdi. Yevropa Ittifoqi bilan Markaziy -Sharqiy Yevropaning olti mamlakati (Bolgariya, Vengriya, Polsha, Ruminiya, Slovakiya, Chexiya), deyarli barcha MDH davlatlari (Turkmaniston va Tojikistondan tashqari), shuningdek, Boltiq bo'yi mamlakatlari o'rtaida imzolangan bitimlar Yevropa Ittifoqining hamkorlik to'g'risida tuzgan bitimlari ichida eng chuqr va keng bitimlar hisoblanadi. Boshqa mamlakatlar bilan hamkorlik to'g'risida tuzilgan bitimlar kabi bu hujjatlar ham Yevropa Ittifoqi bilan MDH va Boltiq mamlakatlari

o'rtasida faqat savdo munosabatlariningina belgilab qolmasdan, balki moliyaviy hamkorlik, tijorat tajribasi, qonunchilik masalalarini, turli darajadagi siyosiy muloqot masalalarini qamrab oladi. Bu hujjatlar shu mamlakatlar o'rtasida, yaqinda tashkil qilingan Markaziy Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi doirasida savdoni erkinlashtirishni ham rag'batlantiradi.

Kopengagenda 1993 yilda bo'lib o'tgan oliy darajadagi uchrashuvda Markaziy - Sharqiy Yevropadagi sobiq sotsialistik mamlakatlarni Yevropa Ittifoqi tarkibiga qabul qilish to'g'risida birinchi marta qatyiy fikr bildirilgan edi. 1995 yilning iyun oyida eglon qiling'an "oq hujjat" deb ataluvchi hujjat Yevropa Ittifoqiga kirishdan oldingi strategiyani amalga oshirish doirasida ishlab chiqilgan. Unda Yevropa Ittifoqiga nomzod mamlakatlar ichki bozori tarmoqlarining har biridagi hat qiluvchi tadbirlar belgilangan, qonunchilik bosqichlarining navbatlari aniqlangan, yalpi qonunlarni amalga oshirish, ularga rioya qilinishini ta'minlash uchun aniq tadbirlar taklif qilingan.

Biroq, Yevropa Ittifoqiga yangi mamlakatlarning qo'shilishi darhol amalga oshadi deb o'yamaslik kerak: Avstriya, Finlyandiya, Shvetsiyaning bunga qo'shilishi to'g'risidagi muzokaralar ikki yilga yaqin cho'zildi. Ispaniya deyarli 10 yillik muzokaralardan so'ng Ittifoqqa a'zo bo'ldi. A'zolik nima beradi? Yevropa Ittifoqiga kirishdan ko'rildigan manfaatlar quyidagilardan ochiq-oydin ko'rinish turibdi: siyosiy barqarorlikka erishiladi, savdo-sotiq, kapitalning aylanishi erkinlashadi, umumiy jamg'armalarga yo'l ochiladi, ancha qulay bozor sharoitlariga ega bo'lgan tuzilmaga qo'shiladi.

Yevropa Ittifoqiga tezroq a'zo bo'lish o'tish davrini boshdan kechirayotgan Yevropa mamlakatlarda islohotlarni qo'llab-quvvatlash va chuqurlashtirish uchun juda muhimdir. Bu mamlakatlarni tashkilotga qabul qilish uchun nima to'sqinlik qiladi? Muammolardan biri, Yevropa Ittifoqi qoidalarini amalga oshirish va harakatga tushirib yuborish uchun bu mamlakatlarda ma'muriy-tashkpliy tuzilmalarni barpo qilish lozim. Biroq, eng katta muammo - Yevropa Ittifoqining budgeti muammosidir. Budgetning taxminan 80%ni Yevropa Ittifoqining nochorroq mintaqalariga yordam jamg'armalar tuzilmalarini mablag' bilan ta'minlashga sarflanadi. Bundan tashqari, yagona qishloq xo'jaligi siyosati doirasida Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakat fermerlariga subsidiyalar ajratiladi. Bu tuzilmalarning ishini qayta tashkil qilmay turib, ularni Markaziy - Sharqiy Yevropa mamlakatlariiga joriy qilish qimmatga tushadi. Yagona qishloq xo'jaligi siyosatining ayrim elementlari 1992 yilda o'zgartirilgan, lekin yana qo'shimcha islohotlar o'tkazish mo'ljallangan.

Shunday qilib, integratsiya bosqichma-bosqich o'tkaziladigan jarayon bo'lib, Yevropa Ittifoqiga a'zolikning ayrim elementlari, jumladan, xususiy erkin savdo boshqa omillarga nisbatan tezroq amalga oshiriladi; shu bilan birga, ehtimol bu tadbir Yevropa Ittifoqining ichidagi foydali islohotlarni tezlashtirishga ham sabab bo'lar.

Birlashgan millatlar tashkilotining iqtisodiy va ijtimoiy kengashi(EKOSOS)

EKOSOS Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT)ning ustaviga binoan o'zining nqtisodiy-ijtimoiy faoliyatini va BMT qoshidagi maxsus institut va agentliklar hamda tashkilotlar faoliyatini tartibga soluvchi organ sifatida tashkil etilgan. Kengash tarkibiga 54 a'zo mamlakat kirib, har yili Bosh Assambleyaning sessiyalarida 18 davlat qayta saylanib, yangilanib turiladi. Kengashda qarorlar ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinib, har bir a'zo bir ovozga egadir.

EKOSOS vazifalari va mas'uliyati

- BMT tizimi hamda a'zo mamlakatlarning umumiy, sohalararo xarakterga ega bo'lgan xalqaro iqtisodiy-ijtimoiy masalalari doirasidagi muammolarni yechishda markaziy forum sifatida xizmat qiladi;
- xalqaro iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ta'lim, sog'liqni saqlash bo'yicha muammolarni o'rganish, hisobotlar tayyorlash, ular asosida tegishli tavsiyanomalar berish;
- inson huquqlarini himoya qilish borasida ularga rioya etish, ularni kuzatish va bu masalalarni yechishda ko'maklashish;
- xalqaro konferensiyalarini chaqirish, Bosh Assambleyaga uning tasarrufiga kiruvchi masalalar

bo'yicha tegishli konvensiyalar loyihalarinm tayyorlash;

- BMT bilan bo'ladigan munosabatlar bo'yicha maxsus bitimlarni ishlab chiqish;
- Bosh Assambleyaning BMT a'zolariga yo'naltirilgan tavsiyanomalari bo'yicha maxsus agentliklar o'rtasida maslahat, tavsiyanoma ishlarini umumlashtirish;
- Bosh Assambleyaning tavsiyasiga binoan BMT a'eolariga va maxsus agentliklarga tegishli xizmatlar ko'rsatish;
- Kengash yechishi lozim bo'lgan muammolar bo'yicha nodavlat tashkilotlar bilan maslahatlar olib borish.

EKOSOS sessiyasi muntazam, har yili 5 hafta davomida Jenevada yoki Nyu-Yorkda o'tkaziladi, imkoniyat bo'lmanan hollarda Nyu-Yorkda 2 ta tashkiliy sessiyalar bo'lib o'tib, ularda mamlakatlarning bosh vazirlari yoki mutasaddi shaxslar ishtirokida iqtisodiy-ijtimopy sohadagi asosiy masalalar yechiladi. Kengashning yil davomidagi faoliyati uning yordamchi komissiya qo'mitalarida olib borilib, ular o'zlarining yig'in-majlislarini o'tkazadilar, kengash oldida hisobot beradilar.

Ko'makchi tashkilotlar o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- faoliyat ko'rsatuvchi komissiyalar: statistika bo'yicha, aholi va uning rivojlanishi, ijtimomy taraqqiyot, inson huquqlari, ayollar statusi, narkotiklar, jinoyatchilikni bartaraf etish hamda odil sud doirasidagi, fan va texnologiyalar taraqqiyoti masalalari bo'yicha taraqqiyotga ko'maklashuvchi komissiyalardir;
- mintaqaviy komissiyalar: Afrika bo'yicha iqtisodiy komissiya (Aldis-Abeba, Efiopiya), Osiyo va Tinch okeani bo'yicha iqtisodiy va ijtimoiy komissiya (Bangkok, Tailand), Yevropa bo'yicha iqtisodiy komissiya (Jeneva, Shveysariya), Lotin Amerikasi va Qarib orollari bo'yicha iqtisodiy komissiya (Santyago, Chili), G'arbiy Osiyo bo'yicha ijtimoiy komissiya (Umon, Iordaniya);
- doimiy qo'mitalar: koordinatsiya vategashli dasturlarning bajarilishi masalalari bo'yicha, tartibga solish bo'yicha, nodavlat tashkilotlari bo'yicha, hukumatlararo agentliklar bilan ishslash bo'yicha qo'mitalar;
- yangi resurslar, energiya, iqtisod, sotsiologaiya, madaniy huquq bo'yicha ekspert organlar sonini aniqlash va ularni rejalashtirish;
- ijroiya qo'mitalar, BMT bolalar jamg'armasining kengashi, qochoqlar masalalari bo'yicha BMT komissarining ofisi, ayollar masalalarini tadqiqot etuvchi institut, xalqaro narkotik masalalari bo'yicha nazorat qiluvchi qo'mita, jahon savdo masalalari bo'yicha kengash.

EKOSOS o'zining nizomiga binoan nodavlat tashkilotlari bilan o'z mas'uliyatidagi masalalar bo'yicha tegishli maslahatlar olib boradi. Mazkur tashkilotlar kengash faoliyatiga ko'maklashish borasida o'z tajriba va bilimlarini bir-birlari bilan almashishlari lozimdir.

Mingdan ortiq nodavlat tashkilotlari maslahatchi tashkilotlar maqomini olgan. Ular 3 kategoriyaga bo'linib, 1-kategoriya kengashning asosiy faoliyati bilan bog'liq tashkilotlar; 2-kategoriyaga maxsus sohalar bo'yicha va 3-kategoriyaga qaysi holatdatigiga qarab yoki muayyan hollarda kengash tomonidan foydalaniladigan tashkilotlar kiradi.

Maslahatchi maqomini olgan tashkilotlar kengashning ochiq majlislariga, uning ko'maklashuvchi organlarining yig'inlariga o'zlarining vakillarini yo'llashlari mumkin. Ular kengash faoliyati yoki nodavlat tashkilotiga doir masalalar bo'yicha BMT kotibiyati bilan maslahatlashishi hamda yozma ravishda bayon etishi mumkin.

BMTning ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (YUNESKO)

YUNESKOning qarorgohi Fransiya poytaxti Parijda joylashgan. Bosh direktori Koichiro Matsuura.

1945 yil 16 noyabrda Londonda qabul qilingan YUNESKO nizomiga ko'ra, tashkilot organlarining vazifalari belgilab berilgan. Bosh konferensiya, Ijroiya kengashi va Kotibiyat uning rahbar organlari hisoblanadi.

Maqsad va vazifalari

- adolatga yalpi hurmatni, qonunchilik, inson huquqlarini ta'minlash manfaatlari yo'lida ta'lim, fan va madaniyat sohalarida xalqlar hamkorligini kengaytirish orqali tinchlik va xavfsizlmkni

mustahkamlashga ko‘maklashishni o‘zining asosiy vazifasi deb biladi;

- barcha axborot vositalaridan foydalanish orqali xalqlarning o‘zaro yaqinlashuviga. bir-birini tushunishiga imkon yaratadi, shu maqsadda g‘oyalarni so‘z orqali va tasviriy yo‘l bilan erkin tarqatish uchun o‘zi foydali deb hisoblagan xalqaro bitimlar tuzishni tavsiya etadi;

- xalq ta’limini rivojlantirish, madaniyatlarni tarqatishni rag‘batlantiradi;

- bilimlarni asrash ko‘paytirish va keng yoyishga yordam beradi;

- ushbu tashkilotga a’zo davlatlarga o‘z madaniyatlarini, ta’lim tizimining mustaqilligini, daxlsizligi, o‘ziga xosligini ta’minlaydi. Tashkilot mohiyat-e’tibori jihatidan ushbu mamlakatlarning ichki vakolatiga taalluqli masalalarga har qanday yo‘l bilan aralashuvdan voz kechadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo bo‘lgan davlatlar ushbu tashkilotga bemalol a’zo bo‘lishlari mumkin. BMTga a’zo bo‘lmagan davlatlar Ijroiya kengashining tavsiyasiga ko‘ra uning Bosh konferensiyasi tomonidan YUNESKO a’zoligiga qabul qilinishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi 1992 yildan uning to‘la huquqli a’zosi.

Bosh konferensiya

Bosh konferensiya tashkilot faoliyatining yo‘nalishi va umumiyo yo‘lini belgilab beradi. Konferensiya tashkilotga a’zo bo‘lgan davlatlarning vakillaridan iborat. A’zo bo‘lgan har bir davlatning hukumati, agar mavjud bo‘lsa, milliy komissiya yoxud ma’rifiy-ilmiy va madaniy muassasalar bilan maslahatlashib, saylanuvchi 5 nafardan ortiq bo‘lmagan vakilini tayinlaydi. Har bir davlat Bosh konferensiyada bitta ovozga ega. Qarorlar ovozlarning umumiyo ko‘pchiligi bilan qabul qilinadi. Ko‘pchilik deganda hozir bo‘lganlarning, ovoz berishda qatnashganlarning ko‘pchiligi tushuniladi. Tashkilotga a’zo bo‘lgan davlatning badallik qarzi joriy va oldingi yillardagi qarzlar miqdoridan ko‘p bo‘lsa, u konferensiyada ovoz berish huquqiga ega bo‘lmaydi. Har ikki yilda bir marta konferensiya navbatdagi sessiyalari chaqirilib turiladi, bularning har birida Rais va boshqa Hay’at a’zolarini saylanadi. Zarur bo‘lsa, sessiya ta’lim, tabiiy, gumanitar fanlar, bilim tarqatish masalalari bo‘yicha davlatlararo, xalqaro konferensiyalarni tashkil etadi. Konferensiya Ijroiya kengashi a’zolarini saylaydi, Ijroiya kengashining tavsiyasiga ko‘ra, Bosh direktorni tayinlaydi.

Ijroiya kengashi

Ijroiya kengashi 51 nafar a’zo davlatdan iborat. Ijroiya kengashi Bosh konferensianing kun tartibini tayyorlaydi. Kengash ikki yillik davr mobaynida to‘rt marta navbatdagi sessiyalarga to‘planadi. Lavozimdag shaxslar navbatdagi sessiyalarda tayinlanadi.

Kotibiyat

Kotibiyat tarkibiga Bosh direktor, lozim bo‘lgan xizmatchilar kiradi. U Kengashga taqdim etash uchun tashkilotning ish rejalarini loyihalarini kirim-chiqimlari bilan birga tayyorlab beradi. Bosh direktor Bosh konferensiya tomonidan yana saylanish sharti bilan 6 yil muddatga tayinlanadi. Uning vazifasi Konferensiya va Kengash tomonidan qabul qilingan chora-tadbirlar xususida takliflar kiritishdan iborat, shuningdek, u a’zo bo‘lgan davlatlarga, Ijroiya kengashiga Tashkilot faoliyatini haqida muntazam ravishda ma’ruzalar tarqatib turadi.

YUNESKOning sobiq Bosh direktori Federiko Mayor janoblari 1995 va 1999 yillarda O‘zbekistonda bo‘ldi.

Uning safarlari chog‘ida O‘zbekiston Respublikasi bilan YUNESKO o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik haqida Memorandum imzolandi. Ushbu Memorandum tufayli O‘zbekiston YUNESKO-dagi faoliyatini faollashtirish imkoniga ega bo‘ldi.

XXVIII - Bosh Konferensiya o‘ta muhim o‘rta muddatli strategiyani qabul qildi. Bunda 1996-2001 yillarga mo‘ljallangan YUNESKO faoliyatining asosiy vazifalari, bosh yo‘nalishlari belgilab berildi. Ikki asosiy yo‘nalish: tinchlik yo‘lida taraqqiyot va taraqqiyot yo‘lida tinchlik, ana shu o‘ta muhim o‘rta muddatli strategiya asosini tashkil etadi.

Ushbu tashkilot miqyosida O‘zbekiston tashabbusi bilan quyidagi qarorlar qabul qilindi;

- Beg‘arazlik tamoyillari haqida bayonot;

- YUNESKO homiyligi ostida Amir Temur tavalludining 660 yilligini va Xiva hamda Buxoro shaharlarining 2500 yilligini nishonlash.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaro-riga binoan 1994 yilning dekabr oyida YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi tuzildi.

Komissiyaning asosiy vazifasi respublikada YUNESKO rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirish masalalarida mahalliy vazirliklar, idoralar faoliyatini muvofiq-lashtirib turishdan iborat.

BMTning Yevropa bo'yicha iqtisodiy komissiyasi

BMTning Yevropa bo'yicha iqtisodiy komissiyasi (YEIK) BMT Iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi rezolyutsiyasiga binoan 1947 yil 28 martda urushda vayrongarchilikka uchragan mamlakatlarga samarali yordam ko'rsatish maqsadlarida Yevropani iqtisodiy jihatdan tiklash bo'yicha BMTning muvaqqat organi sifatida ta'sis etilgan. Kengashning 1951 yil 18 sentabrdagi rezolyutsiyasi asosida BMTning doimiy organi maqomini organ.

Komissiya Yevropaning iqtisodiy faoliyati darajasini ko'tarishga, Yevropa mamlakatlarining o'zaro va dunyodagi boshqa mamlakatlar bilan bo'lgan iqtisodiy munosabatlarini qo'llab-quvvatlash, mustahkamlashga qaratilgan qo'shma harakatlar doirasida tashabbus ko'rsatadi va ishtirok etadi. YEIK statistik ma'lumotlar to'plash, iqtisodiy, texnologik masalalarni o'rganish, tahlil etish, komissiya a'zolari bo'lgan mamlakatlarda bularni rivojlantirish, keng yoyish ishlarida bosh-qosh bo'ladi va rag'bat ko'rsatadi.

YEIK o'zining barcha yordamchi organlari faoliyatiga oid rahbarlik tamoyillarini ishlab chiqadi, ularning rejalarini tasdiqlaydi, ishini yo'naltirib turadi va nazorat qiladi. Qo'mitalarning takliflarini ko'rib, ana shu takliflar asosida hukumatlarga yoxud har yili o'z faoliyati haqida hisobot beruvchi Iqtisodiy va ijtimoiy komissiyaga takliflar yo'llaydi.

Yevropadagi hamma mamlakatlar, sobiq ittifoq mamlakatlari, AQSH, Kanada, Isroil (hammasi bo'lib 55 mamlakat) YEIK a'zosi hisoblanadi. Bunga a'zo bo'limgan Vatikan, Lixtenshteyn, San-Marino uning faoliyatida kuzatuvchi sifatida ishtirok etadi.

YEIKning odatda har yili bir marta o'tkazib turiladigan navbatdagi sessiyasi uning rahbar organi hisoblanadi. BMT Kotibiyatining bir bo'lagi hisoblangan, Ijrochi Kotib rahbarlik qiladigan Kotibiyat YEIKka va uning yordamchi organlariga xizmat ko'rsatadi.

YEIK tashkiliy bo'linmalari 9 bo'limdan iborat: bular iqtisodiy ta'til, loyihalashtirish va rejalashtirish, savdo, energetika, sanoat va texnologiya, transport, atrof-muhit, qishloq xo'jaligi, statistika bo'limlaridir. Bundan tashqari, YEIK tarkibida iqtisodiyotning barcha sohalarini qamrab organ ko'pdan-ko'p qo'mitalar, ishchi guruhlari bor.

YEIK Kotibiyatining qarorgohi Jeneva shahrida joylashgan.

O'zbekistonning YEIK bilan ikki tomonlama munosabatlari

O'zbekiston transport va atrof-muhit bo'limlari bidan yaqin hamkorlik aloqalarini o'rnatgan.

O'zbekiston Respublikasi vakillari "O'tish bosqichida turgan mamlakatlar taraqqiyotiga ko'maklashish ularning umumjahon iqtisodiga qo'shiluvining muhim omili sifatida" (1995 yil 30 mart, Jeneva), "Transport soxasida (huquqiy tizimlar bilan birga) YEIK tadqiqotlari" (1995 yil 26 sentabr, Jeneva) singari YEIKning qator seminarlarida, transport iqtisodiyotidagi jarayonlar bo'yicha Ishchi guruhi sessiyasida (1995 yil 27-29 sentabr, Jeneva), Bojxona masalalari bo'yicha YEIK ma'muriy komitetkning XVIII-sessiyasida va hokazolarda ishtirok etdilar.

1996 yil 15-17 oktabrda Toshkentda "Xalqaro tranzit yuk tashishni yengallashtirish" mavzuida xalqaro seminar bo'lib o'tdi. Bu seminar O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan BMTning Yevropa bo'yicha iqtisodiy komissiyasi bilan birgalikda tashkil etildi. Seminarda 11 mamlakat hamda 5 xalqaro tashkilot vakillari ishtirok etdi. Seminar natijasida Markaziy Osiyo mintaqasida va mintaqalararo transport vositasida xalqaro yuk tashishni yengillashtirishga qaratilgan bir bitimga erishildiki, u Markaziy Osiyoda, Kavkaz ortida yuk tashish va savdo samaradorligini oshirishga, mintaqalarning xalqaro bozorlarga chiqishida qulayliklar yaratishga imkon berdi.

Hozirgi paytda YEIK Markaziy Osiyo mamlakatlarini dengiz portlari bilan ulaydigan transport yo'lklari bo'yicha loyihalar ustida ish olib bormoqda.

Transport, bojxona muammolari, atrof-muhitni himoya qilish sohalaridagi turli

konvensiyalarga O'zbekistonni jalg etish yuzasidan birgalikda ish olib borilmoqda.

BMTning Osiyo va Tinch okeani bo'yicha iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi (ESKATO - YE8SAR)

BMTning Osiyo va Tinch okeani bo'yicha iqtisodiy-ijtimoiy komissiyasi EKOSOSning 1947 yil 28 martdag'i qaroriga binoan dastlab Osiyo va Uzoq Sharq bo'yicha iqtisodiy komissiya tarzida urushdan jabr ko'rgan Osiyo va Uzoq Sharq mamlakatlariga yordam berish uchun tuzilgan muvaqqat organ sifatida ta'sis etilgan. Kengashning 1951 yil 18 sentabrdagi rezolyutsiyasiga binoan BMTning doimiy organi maqomini olgan. BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi 1974 yil I avgustda qabul qilgan rezolyutsiyada uni bundan buyon "Osiyo va Tinch okeani bo'yicha iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi" deb nomlashga qaror qilgan. Komissiya dastlab tashkil topgan paytda Osiyo va Uzoq Sharq mamlakatlarining urushdan keyingi iqtisodiyotini tiklash va rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan masalalarni hal qilib bordi. Uzoq muddatli rejaga ko'ra, komissiya mazkur mintaqadagi mamlakatlarning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotida tashabbuskor bo'lishga, yordam berishga da'vat qilinadi.

Hozirgi paytda Komissiya Osiyo, Uzoq Sharq va Tinch okeani mamlakatlari iqtisodiyotining yaxlit rivojlanishiga amaliy yordam bermoqda. Sanoat, qishloq xo'jaligi, transport muammolariga, milliy dasturlar va rejalarln muvofiqlashtirish masalalariga katta e'tibor qaratmoqda; ijtimoiy taraqqiyot, savodsizlikni tugatish, uy-joy qurilishi masalalari bilan shug'ullanmokda. Uning homiyligida yer usti transporti infratizimini rivojlantirishga mo'ljallangan ALTID loyihasi ishlab chiqilmoqda.

Bir yilda bir marta chaqiriladigan yalpi sessiya komissiyaning oliy organi hisoblanadi. Iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni o'rganib, shular yuzasidan o'z tavsiyalarini beruvchi doimiy qo'mitalar: qishloq xo'jaligi, qishloq hududlarini rivojlantirish va atrof-muhit, tabiiy boyliklar va energetika, rivojlantirishni rejalashtirish va statistika, sanoat, texnologiya, aholi joylashgan yerlar, savdo, nufuz, ijtimoiy taraqqiyot, transport va aloqa bo'yicha tuzilgan qo'mitalar Komissiyaning asosiy yordamchi organlari hisoblanadi.

Quyidagilar Komissiya homiyligi ostida faoliyat ko'rsatadilar: Maslahat kengashi, Osiyo statistika instituti. Mekong daryosining quyi oqimi havzasidagi tadqiqotlarni muvofiqpashtirish qo'mitasi, Osiyodagi qirg'oqbo'yi hududlarida va Tinch okeani mintaqasining janubiy qismida tabiiy boyliklarni birgalikda aniqlashni muvofiqlashtirish qo'mitasi, Osiyo rivojlanish instituti, dengizga chiqolmaydigan mamlakatlar bo'yicha maxsus organ, tayfunlar bo'yicha qo'mita, Komissiya a'zolari tomonidan tayinlanadigan doimiy vakillarning maslahat qo'mitasi.

Komissiya BMT siyosati doirasida va Kengashining umumiy nazorati ostida faoliyat ko'rsatadi. Shart - Komissiya har qanday mamlakatga nisbatan shu mamlakat hukumatining roziligidiz hech qanday harakatda bo'la olmaydi.

Komissiya:

- Osiyo-Tinch okeani mintaqasini iqtisodiy jihatdan rivojlantirish, mintaqqa iqtisodiy faoliyat darajasini oshirish, shu mintaqaning o'zaro va dunyodagi boshqa mamlakatlar bilan bo'lган iqtisodiy munosabatlarini qo'llab-quvvatlash, mustaqkamlash yo'lidagi muvofiqlashtirilgan faoliyatga tashabbuskor bo'ladi, shunga qaratilgan chora-tadbirlarda ishtirok etadi;
- Osiyo-Tinch okeani mintaqasi hududlarida o'zi maqsadga muvofiq deb topgan iqtisodiy, texnik muammolar tadqiqotini olib boradi va tashkil etadi;
- iqtisodiy, texnik, statistik axborotlarni toplash, baholash, tarqatish ishlarini amalga oshiradi va tashkil etadi;
- mintaqqa mamlakatlarining xohish-istagiga ko'ra, kotibiyat ixtiyoridagi mablag'lar doirasida maslahat xizmatlari ko'rsatadi. Sharti - bunday xizmatlar BMTning maxsus muassasalari yoki tegishli organlari tomonidan ham ko'rsatiladigan xizmatlarning aynan o'zi bo'lmasligidir.

O'zbekiston Respublikasi 1992 yildan boshlab ushbu tashkilot a'zosi.

BMTning sanoatni rivojlantirish tashkiloti (YUNIDO)

Tashkilot 1966 yil Avstriyada joriy etilgan, qarorgohi Venada joylashgan. BMTning sanoatni rivojlantirish tashkiloti rivojlanayotgan mamlakatlarning sanoat va texnik jihatdan taraqqiyotiga ko'maklashuvchi maxsus muassasa hisoblanadi.

YUNIDO konstitutsiyasida ushbu tashkilotning quyidagi to‘rtta bosh vazifasi belgilab berilgan:

- sanoatni rivojlantirish, qaysi sohalarga ko‘proq ahamiyat berish, strategiyani ishlab chiqishda bevosita chet el investitsiyalari orqali sanoatning yuksalishiga alohida e’tibor bergan holda a’zo bulgan mamlakatlarning hukumatlariga maslahatlar berish;
- sanoat sohasida tayyorgarlik, statistika, standartlar, yangi texnologiyalarni baholash bilan shug‘ullanuvchi davlat muassasalarini tashkil etish va qaror topishida yordam ko‘rsatish;
- munosib texnologiyalarni qo‘llash orqali ishlab chiqarishda yanada yuqoriyoq samaralarga erishish, mahsulot sotishda yangi bozorlarni zabit etishda alohida korxonalarga yordam ko‘rsatish;
- xalqaro sanoat kooperatsiyasiga, sanoati rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasida texnik axborotlar bilan ayrboshlashga yordam berish.

BMT moliya qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan jadvalga binoan yalpi ichki mahsulot hajmiga ko‘ra, O‘zbekistonning ulushi YUNIDO muntazam budgeti umumiy miqdorining 0,18%ni tashkil etadi.

YUIIDO O‘zbekistonda olti loyiha ustida ish olib boradi:

- Xususiylashtirish jarayoniga, xususiy sektorning rivojlanishiga texnik yordam ko‘rsatish;
- tadbirdorlikni qo‘llab-quvvatlovchi uchta uchirma biznes inkubatorlarni tashkil etish;
- O‘zbekistonda investitsiyalashga yordam beradigan xizmat turlarini tashkil etishda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga ko‘maklashish;
- "SOMGAK" dasturidan foydalangan holda investitsiya loyihamonini taqlil qilish va baholash bo‘yicha seminar tashkil etish;
- investitsiyalarga yordam berish bo‘yicha mintaqaviy dasturi;
- sanoat sektori bo‘yicha sharhlarni tayyorlashning mintaqaviy dasturi.

Ushbu dasturlar bo‘yicha ko‘zda tugalgan yordam mikdori 2 mln AQSH dollaridan ko‘proqni tashkil etadi.

BMTning savdo va rivojlanish bo‘yicha konferensiysi (YUNKTAD)

YUNKTADning birinchi sessiyasi BMT Assambleysi 1962 yilda ma’qullagan BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi rezolyutsiyasi bo‘yicha 1964 yilda bo‘lib o‘tdi va shu yilda Bosh Assambleya o‘zining yordamchi organlaridan biri sifatida YUNKTADni ta’sis etdi.

Hozirgi paytda 188 ta davlat YUNKTAD a’zosi hisoblanadi, ko‘pgina huqumatlararo va nohukumat tashkilotlari uning ish faoliyatida kuzatuvchi maqomiga ega. O‘zbekiston Respublikasi 1992 yildan beri YUNKTAD a’zosidir.

YUNKTADning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: xalqaro savdoni, rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy yuksalishni kuchaytirish maqsadida taraqqiyoti turli darajada bo‘lgan mamlakatlar o‘rtasida savdoni rag‘batlantirish, xalqaro savdo, iqtisodiy rivojlanish tamoyillari, yo‘nalishlarini aniqlash va hayotga tadbiq etish; BMT Bosh Assambleysi, uning Iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi bilan hamkorlikda xalqaro savdo va iqtisodiy rivojlanish masalalari bilan shug‘ullanuvchi boshqa tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish; savdoda, ana shu taraqqiyot sohasida hukumatlar o‘rtasida, ayrim iqtisodiy mintaqaviy guruhlar o‘rtasida kelishuvga erishish; xalqaro savdo, shunga bog‘liq sohalar bo‘yicha muzokaralarini tashkil etish, rasmiy hujjatlarni qabul qilish.

YUNKTAD Bosh Assambleya oldida bevosita javobgar hisoblanadi. Uning bosh kotibi BMT Bosh kotibi tomonidan tasdiqlanadi va BMT Bosh Assambleysi tomonidan ma’qullanadi.

Savdo va taraqqiyot kengashi YUNKTADning oliy organi hisoblanadi.

Kengash tarkibiga quyidagi o‘nta qo‘mita kiradi:

- 1) Rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasida o‘zaro iqtisodiy yordam bo‘yicha;
- 2) Xizmatlar sektorini rivojlantirish bo‘yicha;
- 3) Investitsiyalar va moliyaviy tadqiqotlar bo‘yicha;
- 4) Savdo sohasida yuqori darajada samaradorlikka erishish bo‘yicha;
- 5) Xususiylashtirish bo‘yicha;

- 6) Rivojlanayotgan mamlakatlar bilan xalqaro savdodagi imkoniyatlarni kengaytarish bo'yicha;
- 7) Investitsiyalar va yuksak texnologiyalar sohasidagi tashqi aloqalar bo'yicha;
- 8) Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha;
- 9) Alovida iqtisodiy tuzilmalarni rivojlantirish masalalarida yirik tashkilotlarning ahamiyatiga doir masalalalar bo'yicha;
- 10) Yangi xalqaro savdo nuqtai nazaridan savdodagi imkoniyatlar bo'yicha.

YUNKTAD qarorgohi Jenevada joylashgan.

BMTning xalqaro savdoda huquqlar bo'yicha komissiyasi (YUNSITRAL)

Xalqaro savdoda huquqlar bo'yicha komissiya (YUNSITRAL) 1996 yilda YUNKTAD bilan yaqin hamkorlik o'rnatish, uni qo'llab-quvvatlash maqsadida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan ta'sis etilgan.

Komissiyadan maqsad xalqaro savdoda dolzARB qonunlarni joriy etish, ularni yaxlit holga keltirishdan iborat. YUNSITRAL xalqaro savdoda huquqlarni uyg'unlashtirish va yagonalashtirish sohasida Bosh Assambleyaning bosh mandatiga ega. Komissiya xalqaro savdo huquqi sohasida BMTning adliya organi hisoblanadi.

1973 yilda Bosh Assambleya unga a'zo bo'lgan davlatlar sonini 29 nafardan 36 nafarga ko'paytirdi. Komissiya a'zolari BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 3 yilga (2 muddatdan ko'p bo'lmasdan tarzda) saylanadi.

Komissiya a'zolari saylangan kunlaridan boshlab o'z vazifalarini ado etishga kirishadilar va tashkiliy sessiyadan bir kun avval o'z vakolatlarini topshiradilar.

YUNSITRAL har yili bir marta chaqiriladigan sessiyalarda o'z faoliyatini amalga oshiradi, bu sessiyalar BMTning Nyu-Yorkdagi qarorgohida yoki Venadagi Xalqaro markazda o'tkaziladi. BMTning adliya bo'yicha aloqalar vakolatxonasiga qarashli xalqaro savdo huquqi bo'limi YUNSITRAL kotibiysi hisoblanadi.

Jahon bojaxona tashkiloti (GBT)

Bojaxonalar bo'yicha hamkorlik Kengashi (BHK) tarixi 1950 yil 15 dekabrdan boshlanib, o'shanda Bryusselda ushbu Kengashni ta'sis etuvchi Konveniya imzolangan edi. BHKning birinchi inauguratsion sessiyasi 1953 yil 26 yanvarda bo'lib o'tdi (1983 yilda oradan o'tgiz yil o'tgach, ushbu kun - 26 yanvar "Jahon bojaxonalar kuni" deb belgilandi).

BHKga a'zo bo'lgan mamlakatlar har yili Moliya qo'mitasi belgilab bergen miqdorda tashkilot budgetiga badal to'laydi.

1994 yil iyunidan boshlab BXKning yangi nomi - Jahon Bojaxona Tashkiloti (GBT) joriy etildi.

GBT bojaxona tashkilotlarining hamkorligiga, bojaxona tizimining texnik jihatlari, iqtisodiy omillariga doir masalalar majmuini o'rganish bilan shug'ullanadi, konvensiya loyihibalarini, konveniyalarini talqin etish va tadbiq qilishda paydo bo'ladigan munozarali masalalarni hal etishga qaratilgan tavsiyalarni ishlab chiqadi, bojaxona tartiboti, muammolariga aloqador axborotlarning o'z vaqtida jo'natalishi uchun javob beradi.

O'zining deyarli 50 yillik faoliyati davomida GBT 17 ta xalqaro konvensiyani, 50 dan ortiq tavsiyanomani ishlab chiqdi va amalda joriy qildi. Bular bojaxona qoidalarini yagonalashtirish, mahsulot harakatini tezlashtirish borasida huquqiy asos vazifasini o'tamoqda.

GBT sessiyasi odadta uning qarorgohi joylashgan Bryusselda, ba'zan a'zo bo'lgan boshqa mamlakatlarda yiliga bir marta o'tkaziladi. Unda GBTga a'zo bo'lgan mamlakatlarning bojaxona ma'muriyati rahbarlari ishtiroy etadilar.

GBTning asosiy organlari - tashkilotning siyosat va strategiyasini ishlab chiquvchi Siyosiy Komissiya (23 a'zo) va Moliya Qo'mitasidan (13 a'zo) iborat.

GBT amaliy ishlar bo'yicha o'z faoliyatini quyidagi texnik qo'mitalar orqali yuritadi:

- Bojaxona qoidalarining buzilishi va kontrabanda masalalari bo'yicha qo'mita;
- Uyg'unlashtirilgan tizim bo'yicha qo'mita;
- Doimiy texnik qo'mita;
- Bojaxona qiymati bo'yicha texnik qo'mita;
- Mahsulotlarning kelib chiqishiga oid qoidalar bo'yicha texnik qo'mita.

GBT Kotibiyati Bryusselda joylashgan, uning tarkibida 100 nafardan ko‘proq xodim bor. Kotibiyatda GBTga a’zo bo‘lgan mamlakatlardagi bojxona ma’muriyatining 67 nafar doimiy vakili - attashelari faoliyat ko‘rsatadi. Bular ushbu mamlakatlarning Bryusseldagi elchixonalariga biriktirilgan. 1998 yil iyun oyida Mishel Dane (Fransiya) 5 yil muddat bilan GBT Bosh sekretari etib saylangan.

GBT yil davomida texnik majlislar o‘tkazib turadi, bular asosan Kengash qarorgohida chaqiriladi. Ingliz va fransuz tili GBTning rasmiy tili hisoblanadi.

Tashkilotning asosiy maqsadi jahon bojxona tizimini yuksak darajada uyg‘unlashtirishdan iborat. Doimiy Texnik qo‘mita (DTQ) bojxona muammolari sohasida shu vazifaning bajarilishini ta‘minlaydi. DTQ o‘z faoliyatida eng muhim hujjatlardan biri - bojxona muammolarini yengillashtirish va uyg‘unlashtirish bo‘yicha Xalqaro Konvensiya (u Kiot konvensiyasi sifatida mashhur)ga amal qiladi. Konvensiya 31 ilovani o‘z ichiga olgan bo‘lib, bularda bojxona muammolarini yengillashtirish va uyg‘unlashtirishga yo‘l ochib beruvchi asosiy tamoyillar tavsiya etilgan.

DTQ yana bir muhim hujjatni ishlab chiqdi. Bu Istanbul konvensiyasi. Unda mahsulotlarni vaqtincha o‘tkazib yuborishga oid bo‘lgan harakatdagi barcha hujjatlar jamlangan. GBT o‘z a’zolariga nazorat vositalari va usullarini takomillashtirishda yordam ko‘rsatadi, bojxona sohasiga oid ma’lumotlarni avtomatik ishlab chiqishga oid zamonaviy vositalardan kengroq foydalanishga imkon yaratadi.

GBTning asosiy vazifalaridan biri - bojxona qonunchilagini turli shakllarda buzishlarga qarshi kurashda o‘z a’zolariga ko‘maklashish maqsadida bojxona sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishdan iboratdir. Bojxona qonun-qoidalarini buzishning oldini olish, bunday holatlarni tekshirish va jazolash bo‘yicha 1977 yilda (Nayrobida) qabul qilingan Konvensiya GBTning asosiy yuridik hujjatlaridan biri hisoblanadi.

Mahsulotlarni ta’riflash va kodlashtirish bo‘yicha Uyg‘unlashgan **tyuim** (UT) ishlab chiqilganligi GBT faoliyatidagi eng muhim natijalardan biridir. Ushbu tizimda 5000 dan ko‘proq mahsulot guruhlari bo‘lib, ular olti sonli raqamdan iborat kodlar bilan belglangan, unda mahsulotlarga ta’rif berilgan va UTdan bir xilda foydalanishni ta‘minlovchi qonun-qoidalar keltirilgan.

UT bojxona haqini belgilash, xalqaro savdo statistikasini to‘plash borasidagina emas, balki mahsulotlar qayerdan kelayotganligini aniqlash, xalqaro bitimlar tuzish, yuk haqini belgilashda ham juda qo‘l keladi. UT xalqaro savdoda tub qonun tusini oldi, hozirgi paytda jahon mahsulot oborotining 91 foizi uning qonun-qoidalariga bo‘ysunadi.

GBT bojxona qiymati - bojxona to‘lovlarini to‘g‘ri belgilash uchun zarur bo‘lgan haqlar tizimining eng asosiy unsuri borasida ham ancha-muncha ishlar qildi.

Mahsulotga nisbatan yagona bojxona qiymati tizimini qo‘llashda dunyodagi barcha bojxona ma’muriyatlarida yagona muomalalardan kelib chiqish ayni muddaoga aylangan edi. Ana shu maqsadga erishish uchun qator mamlakatlar Savdo va tarif bo‘yicha Bosh Bitimni (STBB-GATT) imzolash uchun 1947 yil 30 oktabrda Jenevada to‘planishgan. Ushbu masalaning rivoji sifatida keyinchalik BHK (GBT) tashkil topdi. STBB (GATT) bilan GBT o‘rtasida hamisha yaqin hamkorlik bo‘lib kelgan. STBB Umumjahon Savdo Tashkilotiga aylanganidan (1995) keyin ham bu hamkorlik davom etib kelmoqda. Har ikki tashkilot bir-biriga kuzatuvchi yuborgan.

Jahon bojxona tashkilotining g‘oyat muhim vazifalaridan biri - bojxona xodimlarini tayyorlash, ularni o‘qitishdan iborat. GBT ekspertlar, mutaxassislarning yordamiga, a’zo bo‘lgan mamlakatlar, xalqaro tashkilotlarning ko‘ngilli badallariga tayangan holda xodimlarni o‘qitishda turli texnik yordam ko‘rsatmoqda, bojxona faoliyatining turli jihatlari bo‘yicha modullar **qozirlab** bermoqda, a’zo bo‘lgan mamlakatlardan instruktorlar tayyorlash bo‘yicha kurslar tashkil etilib, ta’lim rejalarini amalga oshirmoqda. O‘zbekiston ham a’zo davlat sifatida ushbu sohalarda hamkorlik rivojiga e’tiborni kuchaytirmoqda.

GBT tomonidan ta’lim uchun beriladigan stipendiyalar soni hamma a’zolar uchun bir yilda qariyb 20 o‘rinni tashkil etadi. Mana shu stipendiyalarni olishga nomzodlar konkurs

asosida tanlanadi, JBTning rasmiy tillaridan birini yaxshi bilish shart hisoblanadi.

GBT hozirgi paytda bojxona ishlarini uyg'unlashtirish va standartlashtirishni rivojlantirish borasida faoliyat ko'rsatmoqda, a'zo bo'lган mamlakatlarga ularning bojxona xizmatlari o'rtasida axborot ayrboshlashni rivojlantirishda, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish hamda boshqaruvi usullarini takomillashtirishda, ular bilan savdo hamjamiyati o'rtasidagi o'zaro aloqani kuchaytirishda yordam bermoqda. Butun dunyodan kelgan bojxona ekspertlari uchun fikr va tajriba almashuv imkonini beruvchi uchrashuvlar tashkil etmoqda.

Umumjahon savdo tashkiloti

1994 yil 15 aprelda Marokashda (Marokesh) Umumjahon Savdo Tashkilotini (UST) tuzish haqida Bitim imzolandi. UST o'z yangi faoliyatini 1995 yil 1 yanvardan boshladi. Shu vaqtgacha u 1947 yil oktabrida tuzilgan Savdo va tariflar bo'yicha Bosh Bitim (GATT) nomi bilan yuritilib kelardi.

UST Tariflar va savdo haqidagi Bosh bitim (GATT) merosxo'ri bo'lib, Urugvay raundi deb nomlangan savdo sohasidagi muzokaralar natijasidir. UST qarorgohi Jeneva shahrida (Shveysariya) joylashgan.

Umumjahon Savdo Tashkiloti faoliyati ko'p tomonlama savdo tizimi uchun zarur bo'lган hukuqiy, muomalaviy asosni yaratib berishga qaratilgan. U mamlakatlar savdo qonun-qoidalarini ishlab chiqish, amalga oshirish tamoyillarini belgilashda kelishilgan asosiy majburiyatlardan kelib chiqadigan hollarni aniqlab beradi. Bundan tashqari, mamlakatlar o'rtasidagi savdo munosabatlari, o'zaro munozaralar, muzokaralar, bahslar natijasida ravnaq topadigan makondir.

Savdoda eng ko'p qulaylik yaratish tartibi haqidagi moddaning kirish qismida qayd etiladiki, qatnashuvchi mamlakatlar ichki bozorlarida o'z mahsulotlari uchun qanday savdo tartiboti joriy etgan bo'lsa, bu bozorga kirayotgan boshqa mamlakatlar tovarlari uchun ham shuni qo'llashi lozim. Ya'ni, "Milliy tartibot" haqidagi qoida mamlakat ichkarisida ishlab chiqarilgan mahsulotlar uchun belgilangan savdo tartibotini chetdan keladigan shu xildagi mahsulotlar uchun ham joriy etilishini nazarda tutadi.

Ikki yilda bir marta chaqiriladigan Vazirlar Konferensiyasi USTning Oliy organi hisoblanadi. USTning kundalik faoliyati masalalari bilan uning qator yordamchi organlari shug'ullanadi, bular ichida Bosh kengash asosiy hisoblanib, u bahslarni hal etish, savdo siyosatini qayta ko'rib chiqish masalalari bilan shug'ullanadi.

UST Kotibiyati Jenevada joylashgan. Unda qariyb 450 kishi xizmat qiladi. Kotibiyatga Bosh direktor, uning to'rt nafar o'rribosari rahbarlik qiladi.

Kotibiyatning vazifalaridan biri muzokaralar o'tkazish, bitimlarga erishishda UST organlariga xizmat ko'rsatishdan iborat. Bundan tashqari, kotibiyat rivojlanayotgan mamlakatlarga, eng sust rivojlangan mamlakatlarga texnik yordam ko'rsatadi. USTDagi statistik taxlil bilan shug'ullanuvchi iqtisodchi-mutaxassislar mamlakatlar savdo siyosatini, savdoning ahvolini o'rghanishadi. Bu tashkilot yuristlari esa UST qonun-qoidalarini noto'g'ri talqin qilish natijasida savdoda ro'y bergen janjali voqealarni bartaraf etishda ko'maklashadi.

Kotibiyat yangi a'zolarni qabul qilish bo'yicha muzokaralar tashkil etadi, a'zolik masalalari bo'yicha mamlakat hukumatlariga maslahatlar beradi. UST budgeti qariyb 83 mln AQSH dollaridan iborat. Budget mablag'larining bir qismi Xalqaro savdo markazi faoliyatini moliyalashga sarflanadi.

O'zbekiston Respublikasi USTga a'zo bo'lish istagini bildirib, o'zining ichki savdo tartiboti haqida 1998 yilda unga memorandum taqdim etdi. Hozirgi vaqtida UST tomonidan bu borada komissiya tuzilib, O'zbekistonni a'zolikka qabul qilish masalasi o'rGANILYAPTI.

Erkin savdo bo'yicha Yevropa uyushmasi (ESBU)

Bu uyushma 1960 yilda tashkil etilgan mintaqaviy iqtisodiy guruh bo'lib, dastlab uning tarkibida Avstriya, Buyuk Britaniya, Daniya (1973 yil), Norvegiya, Portugaliya (1983 yil), Shveysariya, Shvetsiya kirgan. Keyinchalik Islandiya, Finlyandiya, Lixtenshteyn qo'shilgan. 1991-1993 yillarda Turkiya, Chexoslovakiya, Isroi, Polsha, Ruminiya, Vengriya, Bolgariya bilan erkin savdo to'g'risida bitim imzolangan. Yevropa Iqtisodiy Makoni haqidagi bitimga ko'ra (1994 yilda kuchga kirgan) ESEU a'zosi bo'lган mamlakatlar uning qatnashchilariga

aylangan (Shveysariya va Lixtenshteyn bundan mustasno).

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT-OESR) - dunyoda iqtisodiy jihatdan eng ustun darajada rivojlangan mamlakatlar tashkiloti; ushbu mamlakatlarning iqtisodiy, ijtimoiy siyosatlarini muvofiqlashtirish maqsadida 1960 yilda tashkil etilgan. 2000 yilga kelib uning a'zolari soni 31 taga yetdi (uning oxirgi a'zosi Chexiya, u sobiq sotsialistik davlatlar ichida ushbu tashkilotga hozircha qabul qilingan yagona mamlakatdir).

IHTT Yevropa Ittifoqiga o'xshagan integratsion birlashuv hisoblanmaydi. Ushbu tashkilot a'zo bo'lgan mamlakatlarning ichki ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga oid masalalarni shunchaki chetlab o'tgan holda o'z faoliyatini ularning tashqi iqtisodiy muammolari bo'yicha tavsiyalar berishga qaratadi.

"Parij klubi"

"Parij klubi" - Xalqaro Valuta Jamg'armasi a'zolarining qarz beruvchi mamlakatlar hukumatlararo tashkilotidir. Sanoati rivojlangan yetakchi davlatlarning bir guruhi ushbu "klub"ni 1961 yilda tashkil etgan, maqsad - tang vaziyatlarda jamg'arma yetishmay qolganda XVJga a'zo bo'lgan mamlakatlar undan qarzga moliyaviy mablag' olishi uchun shart-sharoit yaratish.

"Parij klubi" XVJ zayomlari haqidagi Bosh bitimlar doirasida 1962 yilda o'z faoliyatini boshlagan.

"Rim klubi"

"Rim klubi"— fan-texnika taraqqiyoti, davrida insoniyat rivojining asosiy jihatlarini o'rganish maqsadida 1968 yilda tuzilgan Xalqaro jamoat tashkiloti.

"Klub" ijtimoiy taraqqiyotdagi ziddiyatlar, insonning atrof-muhitga yetkazayotgan zararlaridan kelib chiquvchi muammolarga - hozirgi zamon sivilizatsiyasi muammolariga jahon hamjamiyati e'tiborini tortish borasida bir talay xayrli ishlarni amalga oshirdi.

Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti

Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (EKO) mamlakatlararo va uning a'zolari o'rtasidagi iqtisodiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy aloqalarni ta'minlovchi mintaqaviy tashkilotdir (qarorgohi Tehronda).

Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti 1964 yilda Eron, Pokiston va Turkiya Respublikasi tomonidan "Mintaqaviy hamkorlik taraqqiyoti" nomi bilan tashkil etilgan edi. Ammo, 70-yillarga kelib, mazkur mamlakatlarning mintaqaro savdo manfaatlarining pasayishi tufayli o'z faoliyatini tugatdi.

Ushbu mamlakatlar o'zaro munosabatlarining yaxshilanishi 1985 yilda mintaqaviy tashkilotning "Iqtisodiy hamkorlik tashkilot" nomi bilan faoliyashni rivojlantirishiga olib keldi.

1992 yilga kelib Iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga Markaziy Osiyo (O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Tojikiston), Ozarboyjon va Afg'oniston davlatlari qo'shib, buning natijasida mazkur Tashkilotga a'zo bo'lgan mamlakatlar soni 10 tani tashkil etdi.

O'zbekiston Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti a'zoligiga 1992 yil 28 noyabrda qabul qilindi. Itstisodiy hamkorlik tashkilotining asosiy maqsadi

A'zo mamlakatlarda:

- savdo munosabatlarini kengaytirish;
- aholining turmush darajasi va iqtisodiy o'sishini ta'minlashga ko'maklashish;
- o'zaro bog'lovchi ma'naviy-madaniy aloqalar rivojini ta'minlash.

Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti faoliyatini boshqaruvchi tizim Tashqi Ishlar Vazirlari kengashi hisoblanib, uning birlamchi vazifalaridan biri tashkilotning asosiy strategik yo'nalishlarini ishlab chiqish, tegishli qarorlar qabul qilishdan iboratdir. Vazirlar kengashi Iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a'zo bo'lgan davlatlar Tashqi ishlar vazirlaridan tashkil topgan bo'lib, bir yilda bir marta kengash tomonidan uyushtirilgan yig'ilishda qatnashadilar.

Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining ikkinchi asosiy boshqaruv tashkilotidan biri - bu Vazirlar kengashi yig'ilishlarining o'rtasida yig'iluvchi, Tashqi ishlar vazirlari tomonidan qabul qshshngan asosiy yo'nalish va siyosatni hayotga tadbiq etuvchi "Vakillar kengashi"dir.

1996 yilga kelib, Hamkorlik tashkilotining tashkiliy masalalari qayta ko'rib chiqilishi munosabati bilan u "Doimiy vakillar kengashi" deb yuritila boshladi. Kengash doimiy faoliyat yuritadi. Unga Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti tomonidan belgilangan asosiy yo'naliishlarni ishlab chiqish va nazorat etish, uning budgetini, mintaqalararo rejalashtarish kengashiga maslahatlar berish, turli xildagi hisobotlarni qabul qilish mas'uliyati yuklatilgandir.

Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining yana bir asosiy tizimlaridan biri - Mintaqaviy rivojlantirish kengashidir. Mazkur kengashga Hamkorlik tashkilotiga a'zo bo'lgan davlatlar rejalashtirish tashkilotlarining rahbarlari kirib, ular tashkilotning Tehronda joylashgan qarorgohida yiliga bir marta yig'iladilar.

Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining doimiy harakatdagi tashkiloti uning Kotibiyati bo'lib, butun joriy davrdagi tashkilotning masalalarini yechish bilan shug'ullanadi. Tehronda o'zining qarorgohiga ega.

Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining kotibiyatini boshqarish uchun vazirlar kengashi tomonidan 5 yil muddatga Bosh kotib tayinlanadi.

Tashkilotning Kotibiyatida iqtisodiyot, transport, savdo, fan va madaniyat sohalarida iqtisodiy hamkorlik borasidagi loyihalarni ishlab chiquvchi 8 ta texnik qo'mita faoliyat ko'rsatadi.

Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti faoliyatiga asos bo'ladigan hujjatlarga quyidagilar kiradi:

- Izmir shartnomasi. Mazkur shartnomada Iqtisodiy hamkorlik Ustavi sifatida yuritiladi. Shartnomada hamkorlikning asosiy yo'naliishlari, maqsad-vazifalari, Tashkilotning boshqa turli tomonlari o'zida mujassamlashtirilgan. Birinchi bor shartnomada barcha Tashkilotga a'zo mamlakatlar tomonidan 1992 yil 28 noyabrda Islomobodda imzolangan. So'ngra 1996 yili Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti faoliyatidagi izlanishlar natijasida Izmir shartnomasi yana bir bor ko'rib chiqildi, navbatdan tashqari 1996 yil 14 sentabrda Izmirda chaqirilgan Vazirlar kengashining yig'ilishida a'zo bo'lgan mamlakatlar tomonidan qayta imzolandi.
- Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti faoliyatining Kvettin rejasi. Mazkur hujjat Tashkilotning transport, savdo, energetika, sanoat, qishloq xo'jaligi, turizm sohalaridagi rejalarini o'z ichiga oladi. Reja 1993 yil 7 fevralda Kvetga (Pokiston) shahrida Tashkilotning vazirlar kengashida qabul qilingan, keyinchalik Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining oliy darajada Istanbulda bo'lib o'tgan ikkinchi uchrashuvida ma'qullangan.
- Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti taraqqiyotining uzoq muddatga - 2000 yil va undan keyinga yillarga mo'ljallangan.

Istanbul deklaratsiyasi. Ushbu hujjatda Iqtisodiy hamkorlik Tashkiloti faoliyatining iqtisodiyot, fan va madaniyat kabi sohalardagi asosiy vazifalari belgilab berilgan. Deklaratsiya 1993 yil 7 iyulda Istanbulda bo'lib o'tgan tashkilotga a'zo davlat rahbarlarining ikkinchi uchrashuvida qabul qilingan.

- Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining bajariladigan joriy ish tartiblari. Ushbu Tashkilot tomonidan o'tkaziladigan marosim va anjumanlarni tashkil etish tartibi va hisobotlarni tayyorlash bo'yicha tartiblar belgilangan.

Islom tashkiloti konferensiyasi

Tashkilot 1969 yil 25 sentabrda musulmon mamlakatlari, davlat va hukumat rahbarlarining Rabot (Marokko) shahrida bo'lgan konferensiyasida tashkil etilgan.

Islom Tashkiloti Konferensiyasining (ITK) muhim organlari quyidagilardir:

- 1) Davlat va hukumat boshliqlari konferensiyasi;
- 2) Tashqi ishlar vazirlari konferensiyasi;
- 3) Bosh sekretariat;
- 4) Xalqaro Islom adolat sudi.

Davlat va xukumat boshliqlari konferensiyasi Tashkilotning oliy organi bo'lib, islom manfaatlari talab etgan vaqtda, a'zo mamlakatlarning asosiy muammolarini ko'rib chiqish, tashkilotning siyosiy koordinatsiyasi (muvofiqlashtirish)ni qayta qurish lozim bo'lib qolganda yig'iladi (1981 yildan boshlab har 3 yilda 1 marta).

Tashqi ishlar vazirlari konferensiyasi davlatlarning Tashqi ishlar vazirlari yoki akkredit

vakillari darajasida a'zo mamlakatlarning birida yiliga bir marta yig'iladi.

Tashqi ishlar vazirlari konferekshiyasida Bosh sekretar saylanadi (to'rt yil muddatga va faqat bir marotaba saylanadi). Bosh sekretariat 200 ga yaqin shtatga ega.

Xalqaro islam adolat sudi tashkilotning asosiy huquqiy organi hisoblanadi.

ITKnинг мақсади

1. Musulmonlar birdamligani mustahkamlashga ko'maklashish.
2. Siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ilmiy sohada hamkorlik qilish.
3. Barcha musulmonlarning milliy g'ururi, huquq va mustaqilligini ta'minlash borasidagi harakatlarini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish.

A'zo mamlakatlarning:

- Ziyoratgoxlarini qo'riqlash;
- Falastin xalqi kurashini qo'llab-quvvatlash borasida ish faoliyatini muvofiqlashtirish (koordinatsiyalash).

Quyidagi yo'nalishlarda ish olib borish:

- Irqiy kamsitishlarga, kolonializmning barcha shakllariga chek qo'yish;
- Xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga oqilona yondashish;
- Tashkilotga a'zo mamlakatlar orasida va boshqa mamlakatlar bilan o'zaro kelishuv, hamkorlikni rag'batlantirish.

A'zo mamlakatlar Ustav maqsadlarini amalga oshirish borasida qarorlar chiqaradilar, majburiyatlar qabul qiladilar. Bu borada ular quyidagi prinsiplarga rioya qiladilar:

1. A'zo mamlakatlar orasida to'la tenglik.
2. O'z-o'zini anglash, bir-birining ichki ishlariga aralashmaslik huquqini hurmat qilish.
3. Har bir a'zo mamlakatning suvereniteti, mustaqilligi va hududiy butunligini hurmat qilish.
4. A'zo mamlakatlar orasida bo'ladigan turli kelishmovchiliklarni tinch yo'l bilan, muzokaralar, arbitraj orqali hal etish.
5. A'zo mamlakatlarning hududiy butunligi, siyosiy mustaqilligini buzishga bo'lgan barcha urinish va har qanday kuch ishlatish borasidagi harakatlarni to'xtatish.

Ushbu tashkilot a'zolari 54 ta mamlakatdan iborat bo'lib, hozirgi kunda Markaziy Osiyo mamlakatlari, jumladan, O'zbekiston ham bu tashkilotga a'zodir (1994 yildan boshlab).

Konferensiya asosan arab, ingliz va fransuz tillarida ish olib boradi.

Qora dengiz iqtisodiy hamkorlik tashkiloti

Qora dengiz iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (CHES) 1993 yilning fevralida Istanbulda bo'lib o'tgan Albaniya, Ozarboyjon, Armaniston, Gruziya, Moldaviya, Ruminiya, Bolgariya, Rossiya, Turkiya va Ukraina davlatlari parlamentlari rahbarlari o'rtasidagi uchrashuvda tashkil topdi. 1995 yilga kelib, bu tashkilotga Gretsiya ham a'zo etib saylandi. Tashkilotga rahbarlik navbatli bilan amalga oshiriladi.

Bu tashkilotning tarkibiga kirgan a'zo mamlakatlar asosan parlament davlatlaridir. Ularda o'zlarining prezidentlari, boshqaruvchi hukumat va parlamentlari mavjud, bu esa qisman siyosiy o'xhashlik tomonlari qam mavjudligidan dalolat beradi.

CHESning tashkil topishiga bir qator omillar ta'sir etdiki, ular qatorida quyidagilarni keltirishimiz mumkin: sobiq ittifoqning parchalanishi, qator iqtisodiy inqiroz holatiga kelib qolgan davlatlar iqtisodiy ahvolining taranglashuvi, sobiq ittifoq davrida tuzilgan iqtisodiy, siyosiy aloqalarning buzilishi, ularning G'arb mamlakatlari bilan raqobatlasha olmaydigan holatga tushishi va h.k.

Shuning bilan birga mazkur tashkilotning faoliyatiga salbiy ta'sir etuvchi omillar ham mavjud, ularni chetlab o'tish mumkin emas:

- Hozirgi vaqtida ham CHESga a'zo davlatlar o'rtasida o'zaro kelishmovchiliklar mavjud;
- ayrim davlatlar o'zlarining ichki qarama-qarshiliklari bilan olishmoqdalar;
- yer maydoni va mulklar bo'yicha davlatlararo kelishmovchiliklar davom etmoqda;
- tarixan davom etayotgan Gretsiya va Turkiya o'rtasidagi tafovutlar;
- mamlakatlarning CHESdagi faoliyatlarida ularning ichki tafovutlari natijasida bir yo'nalishda, maqsadli ishlarni olib borishga qarshiliklar mavjud;

- qator a'zo davlatlar CHES assambleyasiga kirish xohishini bildirmadilar, bu holat ularning hamkorlik bo'yicha sustkashlik bilan faoliyat ko'rsatishi hamda shu o'rinda bir-birlariga bo'lgan munosabatlaridan dalolatdir.

Lekin ayrim davlatlarning o'zaro qarama-qarshiliklari mavjudligiga qaramasdan, ularning ittifoqqa kirish istagi iqtisodiy masalalarning siyosiy masalalardan ustuvorligidan dalolat beradi. Hamkorlikdagi muhim yo'nalishlar transport infrastrukturasi, moliya, savdo rivojiga qaratilib, bu borada amaliy ishlar ham qilindi. Bunga misol tariqasida CHES tomonidan Salonika shahrida tashkil etilgan bank deklaraiiyasi Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari tomonidan do'stlik va hamkorlikni o'zaro aloqalar dasturi asosida olib borish to'g'risidagi shartnoma bilan to'ldirildi. Janubi-Sharqiy Osiyo daalatlari assotsiatsiyasining maqsadi

- Mintaqada tinchlikni o'rnatish maqsadida iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda mintaqaviy hamkorlikni olib borish;
- hamkorlik, tenglik ruhida iqtisodiy o'sish, ijtimoiy taraqqiyog, madaniy rivojlanish asosida mintaqada o'zaro xatti-harakatlar oshib borish;
- iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, texnik, ilmiy va ma'muriy sohalarda faol hamkorlik harakatlarini rag'batlantirish;
- fan va maorif sohalarida o'zaro aloqalarni rivojlantirish;
- aholi turmush darajasini oshirish, qishloq xo'jaligi, sanoat, savdo, transport, aloqa sohalarida hamkorlik.

ASEAN ga a'zo davlatlar

1. Bruney.
2. Vyetnam.
3. Indoneziya.
4. Malayziya.
5. Filippin.
6. Singapur.
7. Tailand.
8. Laos.
9. Kombodja

Assotsiatsiya tarkibi

- 1) A'zo davlatlar va hukumat boshliqlari ishtirokida 3 yilda bir marta yig'iluvchi konferensiya assotsiatsiyaning oliy organi bo'lib hisoblanadi;
- 2) markaziy boshqaruvi organi - o'tadigan Tashqi ishlar vazirlari uchrashuvi bo'lib, navbat bilan a'zo bo'lgan davlatlardan birida bo'lib o'tadi;
- 3) doimiy qo'mita tarkibi - assotsiatsiyaga raislik qiluvchi davlatning Tashqi ishlar vaziri, qolgan 6 davlat elchilari har 2 oyda yig'iladi;
- 4) ASEAN davlatlari Moliya vazirlari uchrashuvlarida iqtisodiy hamkorlik borasidagi masalalar ko'rildi;
- 5) Davlatlarning boshqa vazirlari (maorif, energetika, sog'liqni saqlash, fan-texnika, tabiatni muhofaza etish) uchrashuvlari fan-texnika, ijtimoiy rivojlantirish, madaniyat va axborot qo'mitalari, narkotik va tabiatni muhofaza qilish masalalari borasidagi mas'ul mansabdor shaxslar yig'ilishi asosida tayyorlanadi;
- 6) Davlatlarning Tashqi ishlar, Moliya vazirlari o'zaro uchrashuvlari ikki sohadagi faoliyatning muvofiqlashishiga qaratilgan;
- 7) Davlat rahbarlari uchrashuvlarida siyosiy masalalar ko'rib chiqiladi. Assotsiatsiya iqtisodiy hamkorlikni beshta qo'mita - qishloq xo'jaligi va o'rmonchilik, moliya va bank, sanoat, energetika, transport, savdo va turizm qo'mitalari faoliyati asosida olib boriladi;
- 8) Har bir davlatda ASEAN tomonidan belgilangan faoliyatni olib borishi uchun milliy kotibiyat tuzilib, bosh direktor boshchiligidagi yuritiladi;
- 9) Konsultativ ahamiyatga ega uchrashuvlar ASEAN faoliyatini osonlashtiradi;
- 10) ASEANning Bonn, Bryussel, Vashington, Vellington, Jeneva, Kanberra, Loidon, Oggava,

Parij, Seul va Tokiodagi 11 ta qo'mitalari tashqi aloqalarni ta'minlaydilar;

11) ASEAN sekretariati - Bosh sekretar tomonidan boshqarilib, har 3 yilda o'zgaradi va o'zining o'rinnbosari, 3 direktori, 9 ta direktor o'rinnbosarlariga ega.

ASEAN faoliyati

Singapur deklaratsiyasi o'z oldiga siyosiy va xavfsizlik doirasida iqtisodiy-siyosiy hamkorlikni rivojlantirish uchun qator masalalarni qo'yadi.

Iqtisodiy sohada:

- 2003 yilga ASEAN doirasida erkin savdoni tashkil etish;
- Ma'lum mahsulotlar bo'yicha umumiy imtiyozli bojxona tariflarini bosqichma-bosqich joriy etish.

2. Siyosiy sohada:

- Tinchlik, ozodlik va neytralitet mintaqasi tashkil etish hamda yadro qurolidan ozod zonani tashkil etish;
- Laos, Kombodja va Myanmo o'rtasidagi izchil aloqalarni rivojlantirish;
- Yaponiya, Avstraliya, Kanada, Yevropa Ittifoqi, Koreya Respublikasi, Yangi Zelandiya va AQSH o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish.

3. ASEAN doirasida;

- Institutlarni mustahkamlash;
- xavfsizlik, moliya, telekommunikatsiya, turizm, tabiatni muhofaza qilish, qishloq xo'jaligi, transport va sog'liqni saqlash borasida hamkorlikni rivojlantirish.

Neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti

Neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti (OPEK) 1960 yilda unga a'zo bo'lgan davlatlarning neft sohasidagi siyosatini muvofiqpashtirish va yagonalashtirish maqsadida o'tkazilgan Bog'dod (Iraq) konferensiyasida tashkil etilgan. Uning nizomi esa 1965 yilda Karakasda (Venesuela) bo'lib o'tgan konferensiyada qabul qilingan.

A'zo bo'lgan davlatlarning vakillaridan (odatda delegatsiyaga neft yoki energetika vaziri boshchilik qiladi) iborat konferensiya OGTEKning oliy organi hisoblanadi. Konferensiya bir yilda ikki marta Venada o'tkaziladi. OPEK Bosh kotibi ayni paytda konferensiya kotibi hisoblanadi. Konferensiya umumiy siyosiy yo'lni belgilab boradi va bu siyosatni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'radi, budgetni va nizomdagi o'zgarishlarni tasdiqlaydi, yangi a'zolarni qabul qilish haqida qaror chiqaradi. U Nizomda aynan ko'zda tutilmagan barcha masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilish huquqiga ham ega hisoblanadi. Hamma qarorlar bir ovozdan qabul qilinishi lozim (yangi a'zolarni qabul qilish va rasmiy masalalar bundan mustasno).

Bosh kotib rahbarlik qiluvchi kotibiyat boshqaruvchilar kengashining rahbarligida joriy ishlarni olib boradi. Bosh kotib OPEKning qonuniy vakili hisoblanadi.

1991 yildan boshlab OPEK, unga a'zo bo'lmagan neft eksport qiluvchi mamlakatlar va Yevropa Ittifoqi xalqaro energetika agentligi bilan energetika masalalari bo'yicha axborotlarni ayriboshlash, sanoat sohasida, atrof-muhitni saqlash, neft bozorini avaylash bilan bog'liq bo'lgan masalalarni muhokama qilish uchun uchrashuvlar o'tkazib kelmoqda.

OPEKka 11 mamlakat a'zo bo'lib kirgan: Eron (1960 yil), Iraq(1960), Quvayt (1960), Saudiya Arabiston (1960), Venesuela (1960), Qatar (1961), Indoneziya (1962), Liviya (1962), Birlashgan Arab Amirliklari (1962), Jazoir (1969), Nigeriya (1971), Ekvador (1973) va Gabon (1975).

Avtotransport ishlab chiqaruvchi mamlakatlar xalqaro tashkiloti

Shunga ko'ra, u amalda butun jahon avtomobil sanoatini qamrab olgan.

AIXTning asosiy vazifasi avtomobil sanoatiga taalluqli milliy uyushmalar o'rtasida doimiy aloqalarni ta'minlash, avtomobillar ishlab chiqarish sanoatida tadqiqot ishlari olib borish, shu sohaga oid axborotlarni to'plab uyushmalarga, tegishli a'zolariga tarqatish, vakolatli hukumatlararo va xalqaro organlar hamda xalqaro tashkilotlar oldida avtomobil sanoatini tashkil

etish bilan birga rag‘batlantirishdan iborat.

AIXT faoliyatini uchta qo‘mita orqali amalgalashadi.

Texnik qo‘mita (1956 yilda tuzilgan). Belgiya, Chexiya, Franiya, Germaniya, Italiya, Yaponiya, Niderlandiya, Ispaniya, Shvetsiya, Buyuk Britaniya, AQSH avtomobil ishlab chiqaruvchilar uyushmalari texnik qo‘mita ishida muntazam qatnashib keladilar.

Qo‘mitaga kirmagan AIXT a’zolari qo‘mita nashr etgan barcha ish hujjatlarini, hisobotlarini, texnik axborotlarini muntazam ravishda olib turadilar. Shuningdek, ular qo‘mitaga taklif va texnik ma’lumotlar berib turishlari mumkin.

Texnik qo‘mita oldida hisobot berib turuvchi 6 ta ekspertlar guruhi, qator maxsus guruuhlar mufassal tadqiqotlar uchun mas’uldir. Bu tadqiqotlar ko‘p jihatdan shovqinga, havoni ifloslantirishga, bevosita (tormoz, chiroq, ko‘ra bilish omillari) va bilvosita (baxtsiz hodisalarini kamaytirish) xavfsizlik masalalariga taalluqlidir.

Texnik qo‘mita majlisi bir yilda uch marta, har bir ekspertlar guruhi esa bir yilda kamida ikki marta o‘tkaziladi.

Masalaning mohiyatiga qarab, AIXTning sanoat va iqtisodiy siyosati bo‘yicha qo‘mitasi (SISQ) nohukumat sanoat tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi.

Dastlab milliy ishlar bo‘yicha qo‘mita deb atalgan ushbu qo‘mitaga ilk bor 9 ta mamlakat birlashgan (Belgiya, Fransiya, Germaniya, Italiya, Ispaniya, Yaponiya, Shveysariya, Buyuk Britaniya, AQSH). Bo‘lak uyushmalar hisobiga asta-sekin ko‘payib borgan a’zolar qo‘mita faoliyatini rivoj ettirishni ma’qul ko‘rib, bugungi kunda barcha a’zolari u yoki bu darajada SISQ faoliyatida hamkorlik qiladi.

Sanoat va iqtisodiy siyosat bo‘yicha qo‘mitaning asosiy faoliyati avtomobilning hozirgi jamiyat hayotiga kirib kelishi, avtomobil sanoatining kelajagi bilan bog‘liq asosiy iqtisodiy omillar, yangi sotsiologik yo‘nalishlarni taxlil etishga qaratilgan.

SISQ a’zolari uyushmalar tomonidan berilgan axborot’ to‘plangan tajribalarga suyanib, avtomobil sanoati va yo‘l transportining iqtisodiy aqamiyati, avtovositalarni tashish, soliq to‘plash siyosati, og‘ir tijorat avtotransportining vazni, o‘lchovi, yoqilg‘ini tejash, iqtisodiy sharoitda atrof-muhitni saqlash kabi masalalarga ko‘proq urg‘u beradi. Ko‘rgazmalar qo‘mitasi 1976 yilda tashkil etilgan.

Hozirgi kunda qo‘mitada Avstriya, Belgiya, Bolgariya, Xitoy, Xorvatiya, Chexiya, Misr, Estoniya, Fransiya, Germaniya, Gretsya, Venfiya, Italiya, Yaponiya, Koreya, Rossiya, Serbiya, Slovakiya, Ispaniya, Shveihiya, Shveysariya, Ukraina, Buyuk Britaniya avtomobil ishlab chiqaruvchilar uyushmalari ishtirot etadi.

Qo‘mitaning asosiy maqsadi avtotransport ishlab chiqaruvchilar siyosatini Yevropadagi xalqaro ko‘rgazmalarda qay darajada qatnashganiga qarab muvofiqlashtirib borishdan iborat.

Qo‘mita AIXT assambleyasiga havola etish uchun har yili xalqaro ko‘rgazmalar taqdimini tayyorlaydi. Bunga ko‘ra, ishlab chiqaruvchilar o‘z avtotransportlarini kelasi yil ko‘rgazmaga qo‘yishlari mumkin. Qo‘mita jadval tasdiqlanganidan, tegishli tomonlarga yetkazilganidan so‘ng qabul qilingan qarorlar to‘g‘ri ijro etilayotganini ta‘minlaydi.

Bundan tashqari, qo‘mita keyingi yillarga mo‘ljallangan jadvalni yanada yaxshilash maqsadida o‘rta muddatli avtoko‘rgazmalar ro‘yxatini yangilab turadi, avtoko‘rgazma tashkilotchilari tomonidan tuzilgan guruh bilan hamkorlikda ko‘rgazmalarning ichki ko‘rinishini uyg‘unlashtirish ustida ish olib boradi. Qo‘mita yig‘ilishi bir yilda kamida bir marta o‘tkaziladi.

O‘zbekiston avtomobilsozlik korxonalari uyushmasi hisoblanuvchi "O‘zavtosanoat" 1998 yil 6 mayda AIXT Bosh Assambleyasigi sessiyasida a’zo etib qabul qilingan va 1998 yil 1 iyuldan boshlab rasman AIXT a’zosi hisoblanadi.

TASIS (MDH mamlakatlariga texnik yordam)

TASISni ishlab chiqish g‘oyasi 1990 yil dekabr oyida Yevropa Ittifoqining Rimda bo‘lib o‘tgan majlisida yuzaga keldi.

Yevropa Ittifoqi Vazirlar Kengashining 1991 yil iyul oyidagi qarori asosida TASIS dasturi rasman ta’sis etildi. Qayta ko‘rib chiqilgan yangi qaror 1993 yilda qabul qilindi. Dastur Yevropa Ittifoqi budgeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilib, shu Ittifoq qonunlariga muvofiq

tarzda faoliyat ko'rsata boshladi.

Siyosiy o'zgarishlarni, tez o'zgarib borayotgan vaziyatni hisobga olgan holda TASIS dasturiga zudlik bilan tuzatishlar kiritildi. Dastlab dastur faqat bitta mamlakat - sobiq ittifoqga mo'ljallangan edi. U kuchga kirgan yildan ko'p vaqt o'tmay ittifoq parchalanib, noaniklik davri boshlandi. Ana shu voqealar natijasida avvaliga Boltiqbo'yи davlatlari, so'ng 12 ta yangi mustaqil davlat paydo bo'ldiki, bularning har biri o'zining islohotlar siyosatini belgilab, o'z yo'lini tanladi. Bu yangi davlatlar ichida O'zbekiston birinchi bo'lib mustaqil Prezidentlik boshqaruviga o'tdi.

Yevropa Ittifoqi yangi mustaqil davlatlar paydo bo'lganidan keyin islohotlar jarayoni sur'atlarini saqlab qolish nechog'li ahamiyatga ega ekanligini tushunib yetdi. Shu tariqa mustaqil davlatlarning har qaysisi bilan dastlab munosabat o'rnatgan siyosiy tashkilotlardan biriga aylandiki, bu TASIS dasturining bundan keyingi faoliyatining emas, balki yanada rivoj topishini ta'minlab berdi.

TASIS umumiy ehtiyojlarni aniqlaganidan so'ng sherik mamlakatlar bilan birligiда qaysi sektorlarga birlamchi yordam berish kerakligini aniqlashga kirishdi. Uning qo'llab-quvvatlayotgan eng yirik birlamchi sektorlari quyidagilardir:

- Davlat korxonalarini qayta qurish, xususiy sektorni rivojlantirish;
- qishloq xo'jaligi;
- infrastruktura - energetika, aloqa va transport;
- yadro xavfsizligi va atrof-muhitni himoyalash;
- davlat boshqaruv tizimini isloh qilish;
- ijtimoiy ta'minot;
- ta'lim.

TASISning maqsadi - sherik mamlakatlarga ularning jamiyatlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmani tubdan qayta qurishda yordam berishdan iborat bo'lib, masalalarni amaliy hal etish yo'lida yangi fikrlar, muqobil usullarni taklif qilgan holda jamiyatning hamma darajalarida faoliyat ko'rsatadi.

Turli-tuman davlat, xususiy tashkilotlar nou-xau hamda asbob-uskunalar yetkazib berishda TASIS mablag'laridan foydalanishadi. Bu yerda g'arb tajribasi joylardagi bilimlar, ko'nikmalarni hisobga olgan holda qo'llanadi. Ana shu maxsus bilimlarning ko'pchilik qismi Yevropa Ittifoqi tashkilotlaridan kelib tushadi, ammo joylarda shunga munosib mutaxassislardan foydalanishga ko'proq e'tibor beriladi.

Hozirgi paytda O'zbekistonda TASIS loyihalari respublika hukumat muassasalari bilan yaqin hamkorlik qilingan holda amalga oshirilmoqda.

Ilova

IQTISOD SOHASI BO'YICHA NOBEL MUKOFOTI LAUREATLARI

1969 y. Tinbergen YA. (Niderland). Frish R. (Norvegiya): iqtisodii jarayonlar tahlilining dinamik modelini yaratgani va amalda qo'llagani uchun.

1970 y. Samuelson P. (AQSH): iqtisod fanlari sohasida tahlilning umumiy darajasini yuksaltirish borasidagi ishlab chiqilmalari uchun.

1971 y. Kuznes S. (AQSH): iqtisodiy o'sish muammolari borasidagi ilmiy tadqiqoti uchun.

1972 y. Errou K. (AQSH), Xiks Dj (Buyuk Britaniya): muvozanat umumiy nazariyasini va farovonlik nazariyasiga qo'shgan hissasi uchun.

1973 y. Leontyev V. (AQSH): "xarajatlar - chiqarish" uslubini rivojlantirish va uni iqtisodiy masalalar tahlili amaliyotida qo'llagani uchun.

1974 y. Xayek F. (Buyuk Britaniya), Myurdal G. (Shvetsiya): pullar va konyukturaviy o'zgarishlar nazariyasini hamda iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional jarayonlar o'zaro ta'sirining tahlili borasidagi ilmiy ishlari uchun.

- 1975 y. Kantorovich L. (Sobiq Ittifoq), Kupmans T. (AQSH); resurslarni optimal taqsimlash nazariyasiga qo'shgan hissasi uchun.
- 1976 y. Frndmen M. (AQSH): iste'mol tahlili, pul almashuvi tarixi va monetar nazariyasini ishlab chiqqani uchun.
- 1977 y. Mqd Dj. (Buyuk Britaniya), Olin B. (Shvetsiya): xalqaro savdo va kapital xalqaro harakati nazariyasiga qo'shgan hissasi uchun.
- 1978 y. Saymon G. (AQSH): xalqaro iqtisodiy tashkilotlar doirasida qaror (yechimlar) qabul qilish jarayoni borasidagi tadqiqotlari uchun.
- 1979 y. Lyuis A. (Buyuk Britaniya), Shuls T. (AQSH): rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy muammolari borasidagi tadqiqotlari uchun.
- 1980 y. Kleyn L. (AQSH): iqtisodiy modellarni yaratgani va ular asosida iqtisodiy sikl (davr) va iqtisodiy siyosatning tahlili uchun.
- 1981 y. Tobin Dj. (AQSH): moliya bozorlari va ularning xarajatlar, ishsizlik, ishlab chiqarish, baho borasidagi yechimlarga ta'sirining tahlili uchun.
- 1982 y. Stigler Dj. (AQSH): sanoatlashgan strukturalar va davlat boshqaruvi muammolarining tadqiqoti va bozorlarning tahlili uchun.
- 1983 y. Debre J. (AQSH): umumiy iqtisodiy muvozanat nazariyasi muammolarini ishlab chiqqani uchun.
- 1984 y. Stoun R. (Buyuk Britaniya): milliy hisoblar tizimini ishlab chiqishga qo'shgan hissalarini uchun.
- 1985 y. Modilyani F. (AQSH): moliyaviy siyosat muammolari borasidagi tadqiqotlari, investorlar xatti-harakati va ularning qimmatbahो qog'ozlarga bo'lган munosabatlarining tahlili uchun.
- 1986 y. Byukenen Dj. (AQSH): siyosiy qarorlar (yechimlar) qabul qilish nazariyasining shartnomaviy va konstitutsion asoslarini o'rganib chiqqani uchun.
- 1987 y. Solou R. (AQSH): iqtisodiy o'sish muammolarini nazariy ishlab chiqqani uchun.
- 1988 y. Alle M. (Fransiya): iqtisodiy muvozanat nazariyasini chuqurroq ishlab chiqqani, iqtisodiy o'sish, investitsiyalar va foiz normalarining o'zaro ta'sirining tahlili uchun.
- 1989 y. Xaavelmo T. (Norvegiya): ekonometrik taxlil nazariyasining rivojiga qo'shgan hissasi uchun.
- 1990 y. Markovis G., Miller M., Sharp U. (AQSH): hozirgi zamon moliya bozorlariga qo'shgan hissasi va uni iqtisodda qo'llagani uchun.
- 1991 y. Kouz R. (AQSH): ijtimoiy xarajatlar va mulk xuquqi muammolari borasidagi ilmiy tadqiqotlari uchun.
- 1992 n. Bekker G. (AQSH): iqtisodiyot nuqtai nazaridan inson xatti-harakati va ijtimoiy munosabatlar muammolarining tahlili uchun.
- 1993 y. Nort D. Fogel R. (AQSH): iqtisodiyot tarixi sohasida yangi yo'nalish yaratgani (ushbu masalalar tahlilida iqtisodiy statistikadan foydalangani) uchun.
- 1994 y. Xarshani Dj., Nesh Dj. (AQSH), Zelten R. (Germaniya): o'yinlar nazariyasini ishlab chiqishga qo'shgan hissasi va uni iqtisodda qo'llagani uchun.
- 1995 y. Lukas R. (AQSH): iqtisodiy siyosatni chuqurroq tushunishga sabab bo'lган ratsional taxdid gipotezasini ishlab chiqqani va amaliyotda qo'llagani uchun.
- 1996 y. Vikri U. (AQSH), Mnrrlis Dj. (Buyuk Britaniya)-bir-biriga qarama-qarshi va to'liq bo'lмаган мамумотлар mavjudligi holatida stimul (rag'batlantirish) nazariyasi borasidagi tadqiqotlari uchun.
- 1997 y. Merton R., Sholz M. (AQSH): chiqarilayotgan qimmatbahо qog'ozlar bahosini belgilashning yangi uslubini ishlab chiqqani uchun.
- 1998 y. Amartia Sen (Hindiston): rivojlanayotgan va eng kambag'al mamlakatlardagi iqtisodiy falokatlarning, xususan, ochlikning sabablarini o'rganishdagi tadqiqotlari ucho'n.
- 1999 y. Mandell R. (AQSH): hozirgi davr xalqaro makroekonomika rivojiga qo'shgan hissasi, pul va fiskal siyesatini, almashuv kursi siyosati, xalqaro savdo va kapital oqimlari masalalari bilan o'zaro bog'liq butun bir tizim sifatida qilgan taxlili uchun.

2000 y. Xekmen Dj., Makfedden D. (AQSH): shaxsiy va oilaviy xulq-atvorning statistik tahlili nazariyasi va uslubiyatini ishlab chiqqani, mikroekonometrika rivojiga qo'shgan ulkan hissasi uchun.

2002 y. Daniyel Kaneman (AQSH va Isroil): psixologik tadqiqotlar natijasini iqtisodiyotga tatbiq qilgani uchun, Vermon Smit (AKDI) alternativ bozor mexanizmiga taalluqii empirik tadqiqotlari uchun

2003 y. Robert F Engl (AQSH): Nyu-York Universiteti; Klayv U Dj. Grendjer (AQSH) Koliforniya Universiteti: Iqtisodiy vaqt qatorlari tahlishsh usullarini ishlab chiqqani uchun.

MUNDARIJA

So‘z boshi. R.S.Qosimov.....	3
I BO‘LIM. BOZOR IQTISODI RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR	
1-6ob. Jahon iqtisodi rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari, asosiy bosqichlari va tamoyillari.....	10
2-6ob. Jahon iqtisodinint internatsionallashuvi.....	46
Z-bob. Xalqaro korporatsiyalar.....	55
4-bob. Kapitalning xalqaro harakati.....	66
5-bob. Ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi.....	76
6-vob. Hozirgi zamon iqtisodida xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlari.....	91
7-bo6. Bozor iqtisodi rivojida davlatning roli.....	109
II BO‘LIM. RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR	
1-606. Rivojlanayotgan mamlakatlar umumiy tavsifi.....	127
2-bob. Rivojlanayotgan mamlakatlar va jahon xo‘jaligi: integratsiyaning o‘ziga xos xususiyatlari.....	145
Z-bob. Rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy islohotlar, xususiylashtirish muammolari.....	161
4-bob. Rivojlanayotgan mamlakatlar va kapitalning xalqaro harakati.....	168
5-bob. Zamonaviy jahon iqtisodida yangi industrial mamlakatlar.....	183
b-bob. Osiyo-Tinch okeani mintaqasi davlatlari (Asosiy tamoyillar va integratsiyalashuvning o‘ziga xos xususiyatlari).....	194
III BO‘LIM. IQTISODI O‘TISH DAVRIGA XOS MAMLAKATLAR	
1-bob. Rejali tizimdan bozor munosabatlariga o‘tish: vazifalari, shakllari, muammolari.....	209
2-bob. Erkinlashtirish vaiqtsodiy o‘sish.....	215
Z-bob. Mulkchilik: xususiylashtirish jarayoni va usullari....	221
4-bob. O‘tish davrida ijtimoiy himoya.....	226
5-bob. Mehnat bozori va uni shakllantirish masalalari....	229
b-bob. O‘zbekiston jahon xo‘jaligi tizimida va uning xalqaro mehnat taqsimotida tutgan o‘rni.....	245
IV BO‘LIM. XALQARO IQTISODIY TASHKILOTLAR VA ULARNING JAHON IQTISODIDAGI MOHIYATI.....	260

Rustam Hamidovich Shodiyev, Erkin Rahimovich Mahmudov

JAHON IQTISODIYOTI

Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik

Muharrirlar I.Zoyirov, X.Xrjayev

Badiiy muharrir A. Bobrov Texnik muharrir T.Smirnova

Musahhix F. Ortitsova Kompyuterda sahifalovchi Z.Ahmedova

IB№4261

Bosishga 15.03.2005 y. da ruxsat etiddi. Bichimi 84x108 . Tip Tayms garniturasi. Ofsetbosma. 16,38 shartli bosma toboq. 20,5 nashr tobog‘i. Jami 1000 nusxa. 84 raqamli buyurtma. 105-2004 raqamli shartnomaga. Bahosi shartnomaga asosida.

O‘zbekiston Matbuot va axborot agengligining G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 700129. Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30// 700128. Toshkent, Usmon Yusupov ko‘chasi, 86.